



Umida Rasulova

HOZIRGI ADABIY JARAYON

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA
O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

Umida RASULSOVA

HOZIRGI ADABIY JARAYON

60230100 – Filologiya va tillarni o'qitish (o'zbek tili) ta'lif
yo'nalishi talabalari uchun darslik

Toshkent
«Akademnashr»
2023

UO'K: 821.512.133.09-3

KBK: 83.3(50')

R 25

R 25

Rasulova, Umida

Hozirgi adabiy jarayon [Matn] / U.Rasulova. – Toshkent:
«Akademnashr», 2023. – 192 b.

ISBN 978-9943-8960-5-5

UO'K: 821.512.133.09-3

KBK: 83.3(50')

Darslik oliy o'quv yurtlari filologiya fakultetlari bakalavriat bosqichi tala-
balariga mo'ljallangan.

Mas'ul muharrir: f.f.d., prof. Bahodir Karimov

Taqrizchilar: f.f.d., prof. Qurdosh Qahramonov

PhD., dots. Dilmurod Xoldorov

Mazkur darslik O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirli-
gining 2022-yil 30-dekabrdagi 429-sonli buyrug'iiga asosan nashrga tavsiya etil-
gan.

ISBN 978-9943-8960-5-5

© Umida Rasulova
«Hozirgi adabiy jarayon»
© «Akademnashr», 2023

Hozirgi adabiy jarayon fani yaratilayotgan badiiy asarlarga xos yetakchi tamaoyillar yuzasidan bilim berib, lirk, epik, dramatik asarlarning estetik qimmatini belgilab, ularning milliy istiqlol g'oyalariga hamohang jihatini yoritib boradi. Adabiy jarayonda ijodkor shaxsiyati va iste'dod tabiat, so'z san'atining mohiyati bashariy qadriyat maqomida o'rganiladi. Ijodkor shaxsiga, badiiy adabiyotga estetik tuyg'u nuqtayi nazaridan yondashish kuzatiladi. Badiiy, estetik tafakkur masalalarini go'zallik, ezzulik singari qadriyatlar, shakl va mazmun birligi, adabiy janrlar xilma-xilligi hamda uslubiy yo'nalish, badiiy til, ifoda vositalari nuqtayi nazaridan o'zlashtirish, xulosalar chiqarish adabiy jarayonning manzarasini yorqin natoyon etadi.

Наука о текущем литературном процессе дает знания о ведущих принципах, присущих создаваемым художественным произведениям, определяет эстетическую ценность лирических, эпических, драматических произведений, освещает их гармонию с идеями национальной независимости. В литературном процессе изучается личность творца и природа таланта, сущность искусства слова как человеческой ценности. Есть подход к личности творца, к вымыслу с точки зрения эстетического чувства. Овладение вопросами художественно-эстетического мышления с точки зрения красоты, доброты, единства формы и содержания, многообразия литературных жанров, стилистической направленности, художественного языка, выразительных средств и выводов наглядно показывает картину литературного процесса.

The science of the current literary process provides knowledge about the leading principles inherent in the created works of art, determines the aesthetic value of lyrical, epic, dramatic works, illuminates their harmony with the ideas of national independence. In the literary process, the personality of the creator and the nature of talent, the essence of the art of the word as a human value are studied. There is an approach to the personality of the creator, to fiction from the point of view of an aesthetic sense. Mastering the issues of artistic and aesthetic thinking in terms of beauty, kindness, unity of form and content, the diversity of literary genres, stylistic orientation, artistic language, expressive means and conclusions clearly shows the picture of the literary process.

KIRISH

Ijodkor estetik qarashlari, borliq voqeа-hodisalariga munosabati asarlarida yaqqol namoyon bo'ladi. Ular yaratgan badiiy durdonalar kitobxon-u adabiyotshunoslar tomonidan baholab boriladi. «Hozirgi adabiy jarayon» fani talabalarni ayni jarayondagi yangilanishlardan boxabar qilib, ularni xolis kuzatuvchi, kashf qiluvchi, baholovchi darajasiga ko'taradi. Amaliy jihatdan esa talaba adabiy jarayonning faol ishtirokchisiga aylanadi. «Hozirgi adabiy jarayon» fani zamонавиy o'zbek adabiyotida kechayotgan yangilanishlardan talabani xabardor qiladi. Fan ana shunday masalalari bilan dolzarb ahamiyatga ega.

«Hozirgi adabiy jarayon» fani talabani faol kitobxonlikka chorlab, badiiy asarni tahlil qila olish malakasiga ega bo'lishga, turli uslubga mansub ijodkorlar to'g'risida yaxlit tasavvur berishga imkon yaratishi jihatidan ahamiyatli.

Mazkur fanni o'qitishning maqsadi adabiy jarayondagi asosiy tamoyillar yuzasidan chuqur bilim berish, epiк, lirk, dramatik asarlarning hozirgi davr bilan bog'liq qirralarini, xususan, milliy istiqlol g'oyalariga daxldor jihatlarini talabalarga uqtirish hisoblanadi. Badiiy ijod falsafasini, psixologiyasini adabiy siymolarning laboratoriysi misolida tushuntirish, uslubiy xosligini aniqlash kabi masalalar ushbu fanning vazifalariga kiradi. O'zbek adabiyotining bugungi holatini dunyo adabiyotida kechayotgan jarayonlarga qiyoslash hozirgi kunda badiiy asarlarning taqdimoti, muhokamasi bilan bog'liq jonli jarayonga tayyorlanish imkonini beradi.

Har qanday fanga xos asosiy xususiyat, ya'ni «o'ziga tegishli» bo'lgan hayot voqeа-hodisalarini tadqiq qilish asnosida unga

baho bermoq, yetarlicha asoslamoq va isbotlamoq adabiy tanqid hamda adabiy jarayon aloqasini mustahkamlaydi. Shunga ko'ra adabiy tanqid muayyan adabiy hodisani tahlil qilar ekan, uning tahlilida izchil mantiq, asos va isbot birinchi darajali ahamiyat kasb etadi. Yangi asar e'lom qilinishidan avval ijodkor uni mutaxassisning ziyrak nigohidan o'tkazishni maqsad qiladi. Bu jaryonda asar poetikasidagi muayyan kamchilikni to'ldirish, qalamkash ilg'amagan nuqsonni tuzatish o'z samarasini beradi. Ijodkor va munaqqid hamkorligi odamlarga teran, salmoqli, badiiy yetuk asarlarning yetkazilishiga zamin yaratadi.

Istiqlol, ozodlik, milliy mafkura ta'sirida ilm, fan, ta'lim sohalari isloh etildi. San'at, badiiy adabiyot sohasiga e'tibor qaratilib, uning dolzarb masalalarini o'rganish, kitobxon dunyo-qarashini o'zgartirishga e'tibor ortdi. Badiiy ijod falsafasini teran anglatishga ahamiyat berildi. Bugungi iste'dod dunyoqarashi, tafakkur tarzi, tushunchalari dunyo estetikasi, san'atiga hamohang tarzda boyimoqda. Hozirgi adabiy jarayon insonning mohiyati, ruhiyati qanday yoritilayotganini muntazam kuzatib boradi. So'z san'atkori adabiyotdagi go'zallikni, g'oyaviy, badiiy boylikni his etib, uni kitobxonga yetkazish qobiliyatiga ega bo'lmog'i darkor. Prezidentimiz aytganidek, «farzandlarimizni mustaqil fikrli, zamonaviy bilim va kasb-hunarlarni egallagan, mustahkam hayotiy pozitsiyaga ega, chinakam vatanparvar insonlar sifatida tarbiyalash» muhim ahamiyat kasb etadi.¹

Mustaqillik yillarda madaniy merosni o'rganish, milliy iftixor tuyg'usini tuyish hamda qadriyatlarni anglash, adabiy jarayon mohiyatiga yanada chuqur kirib borish, badiiy asarlarning adabiyot rivojidagi munosib o'rnnini asoslash, hozirgi davr adabiyotiga kuchli ta'sir o'tkazgan ijodkorlar faoliyatini kuza-

¹ Мирзиёев Ш. Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. – 6.158.

tish jadallahdi. Badiiy adabiyotda umuminsoniy g'oyalarning talqin etilishi barkamol avlod kelajagiga ijobiylar ta'sir ko'rsatadi. Asarning poetik o'ziga xosligi, tasvir ko'lami, kompozitsion yaxlitligidagi o'zgarishlar ijodkor tafakkuridagi evrilishlar mahsuli sanaladi. Adabiy siymolar yaratgan ijod namunalarini o'rganish badiiy tafakkurni boyitishda muhim ahamiyatga ega. Munaqqid adabiy jarayonni, muallifning individual uslubi va mahoratini izchil o'rganib, falsafiy, axloqiy qarashlarini ilgari suradi.

Hozirgi adabiy jarayonni o'qitish tizimida o'zbek adabiyotida yangilanishni yoshlar ongiga yetkazish muhim. Talaba realizm hamda modernizm to'g'risidagi bahslar, modernizmning o'zbek adabiyotiga kirib kelishi, mazkur oqimning xususiyatlarni tahlil qila olishi, hozirgi nasriy asar poetikasida davr, muhit, e'tiqod masalalari, moziy va tarixiy shaxslarga nisbatan yangicha qarashlarning shakllanganligini keng kitobxonlar ommasiaga tushuntirish salohiyatiga ega bo'lishi lozim. Yosh mutaxassis dramalarda tarixiy va to'qima voqealarni falsafiy baholash, nazmiy, nasriy asarlarda insonlar obrazini va ularning ruhiyatini tasvirini tahlil qilish, hozirgi adabiy jarayonga xos qonuniyatlar, milliy istiqlol davrida yaratilgan badiiy-estetik kashfiyotlar bo'yicha adabiy suhbatlar o'tkazish, hozirgi adabiy jarayondagi badiiyat namunalarini talqin, tahlil qilish va ulardan xulosalar chiqara olish ko'nikmalarini hosil qilishi darkor.

Fanni o'qish, o'zlashtirish asnosida talaba zamonaviy she'riyat, nasr, dramada komil insonni shakllantirishda milliy g'oya va milliy mafkuraning rolini, adabiy qahramon ruhiyatidagi evrilishlarni nozik his etishi, zamonaviy asarda dunyoviylik va ilohiylikning uyg'unligi, matndagi axloqiy-ma'naviy muammojar va shaxs tiynatining badiiy talqinini, teran qarashlarini erkin, tizimli ifodalashi zarur.

Milliy istiqlol g'oyalariha hamohang asar yaratish, tarix-u madaniyatimizga ehtirom tuyg'usini oshirishga e'tibor kuchay-

gani hammaga ma'lum. Shu xildagi xolis talabchanlikka asoslangan mulohazalar mustaqillik g'oyalarini mustahkamlash ma'naviy-estetik ehtiyojga aylangan bir sharoitda muhim sana-ladi. Badiiy yaratiqning xalq hayotidagi ma'rifiy, axloqiy ahamiyati, o'rni, salmog'i katta. Xalqning ong-u tafakkurini o'zgartirish, uni ma'naviy boylik bilan tanishtirishda adabiy jarayon fanining vazifasi ortib boradi. Adabiyotshunos umumadabiyotdagi nafosatni his etib, iste'dodni qadrlab, so'z zalvorini teran anglab, shu zavq, taassurotni kitobxonga yuqtira olsa, natijaga erishiladi. Shundagina adabiy jarayon ilmiy-estetik hodisa sifa-tida istiqlol davrida yaratilayotgan adabiyotning taraqqiyotiga yanada samaraliroq ta'sir ko'rsatadi.

«Hozirgi adabiy jarayon» fani darsligi Davlat ta'lim standartlari, o'quv dasturiga qo'yiladigan ilmiy-metodik talablar asosida shakllantirilgan. «Hozirgi adabiy jarayon» fani bo'yicha tala-ba asosiy tamoyillar, bugungi she'riyat o'zgarishidagi yetakchi omillar, janr va shakl izlanishlari, nasriy asarlardagi yangilanish tamoyillari, imon va e'tiqod masalasining badiiy ifodasi, drama-larda ijtimoiy masalalar va milliy qadriyatlar talqini, ijodkor uslubi xususida mustaqil qarashga ega bo'lishi darkor.


Mavzu:

ADABIYOTGA E'TIBOR – MA'NAVIYATGA E'TIBOR

Reja

1. Mustaqillik va adabiy jarayon
2. Adabiyot – umumbashariy qadriyat
3. Matbuotda yangi badiiy asarlar targ‘ibi

Tayanch so‘zlar: adabiyot, san’at, madaniyat, ma’naviyat, is-tiqlol, tarix, millat, badiiyat

Mamlakatimizda istiqlolning birinchi kunidan ma’naviyatga e’tibor kuchaydi. Ma’naviyat insonning o‘y-xayoli, tuyg‘u-ke-chinmasi, e’tiqodi, samimiyati, ongidagi o‘zgarishlarni aks etti-radi. Badiiy adabiyot, san’at turlari ma’naviyat, milliy mafkurani qanchalik teran tasvirlasa, uning jahon minbaridagi mavqeyi or-tib boradi. Adabiyot ahliga bo‘lgan katta e’tibor mamlakatimiz miqyosida kitobxonlik madaniyatining yanada oshishiga rag‘bat berdi. Zero, «adabiyot va san’atga, madaniyatga e’tibor bu, av-valo, xalqimizga e’tibor, kelajagimizga e’tibor ekanini, buyuk shoirimiz Cho‘lpon aytganidek, adabiyot yashasa, millat yasha-shi mumkinligini unutishga bizning aslo haqqimiz yo‘q».²

O‘zbek adabiyotining jahon hamjamiyatidagi o‘rni va milliy, madaniy merosni o‘rganish, milliy iftixor tuyg‘usini tuyish hamda qadriyatlarni e’zozlash bugungi globallashuv jarayonida adabiy meros mohiyatiga yanada teran nigoh tashlashga un-

² Мирзиёев Ш. Адабиёт ва санъатни ривожлантириш халқимиз маънавий оламини юк-салтиришнинг мустаҳкам пойдеворидир // Халқ сўзи. 2017 йил 3 август.

daydi. Badiiy adabiyotda umuminsoniy g'oyalarning talqin etilishi kelajak avlod axloqiga katta ta'sir ko'rsatadi. Ijodkor shaxsi, uning millat oldidagi burchi o'zlik, g'ururni asrash, ajdodlar ma'naviy merosiga sadoqatni taqozo etadi.

Kitobxonning badiiy va estetik didini yuksaltiradigan asarlar ularga ma'naviy ozuqa beradi. Zukko o'quvchi badiiy asarda ilgari surilgan g'oyalar mohiyatiga sinchkovlik bilan yondashadi. Istiqlol davrida ulug'langan, asarlari qayta-qayta nashr etilgan allomalar hayot maslagi yosh avlodga mayoq bo'lib, ularni vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalaydi. Hozirgi adabiy jarayonagi yangiliklar, amalga oshirilayotgan ishlar bilan tabalarni tanishtirish bilimni chuqurlashtirish va kengaytirishda muhim o'rinni tutadi.

Xalqimiz tarixi – buyuk ma'naviyat ummoni. Bugungi kunda ijodkorlarimiz milliy istiqlol mafkurasining ma'naviy poydevorini mustahkamlashga munosib hissa qo'shishmoqda. Avvalo madaniy merosni tiklash, asrashga e'tibor berilishi olimlarni ruhlanТИRIB, qisqa vaqt mobaynida salmoqli ishlar amalga oshirildi. Tarixiy obidalarni ta'mirlash, qayta qurish ishlari amalga oshirildi. Buyuk allomalar tavallud sanasini nishonlashda xalqaro anjumanlar tashkil etish (Alisher Navoiy, Mirzo Bobur), mutafakkirlar ilmiy hamda badiiy merosidan xalqni bahramand etishga muvaffaq bo'lindi.

Shahidlar nomini oqlash, ular ijodini qaytadan xolis baholash, qodiriyshunoslik, cho'lponshunoslik, fitratshunoslik kabi ilmiy maktablar faoliyatini yuksaltirishga e'tibor berildi. Yozuvchilar uyushmasi tomonidan olib borilayotgan xayrli ishlar, «Ozod Vatan saodati» rukni ostida salmoqli manba nashr etilishi ist'e'dod egalari tafakkur olami borasida yaxlit tasavvur paydo bo'lishiga imkon beradi. «Jadidlar» turkum kitobi Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Qodiri, Abdurauf Fitrat, Abulhamid Cho'lpon, Vadud Mahmud kabi millat fidoyilari ma'naviy dunyosidan bahramand

aylaydi. Adabiy nashrlar mundarijasi, istiqlol davrida yangi ta'sis etilgan gazeta-jurnallar ham sohadagi yutuqlardan voqif etadi.

O'zbek adabiyoti asrlar davomida rivojlanib kelgan. Xalq og'zaki ijodi, mumtoz asarlardagi an'analar keyingi avlod ijodkorlari tomonidan davom ettirilgan. XX asr boshida millatimiz tarixida yangi jarayon – milliy uyg'onish, o'zlikni anglash harakati boshlandi. Bu harakat sardorlari jadidlar bo'lib, ma'rifat, madaniyat targ'ibotini dadil targ'ib etdilar. Ular jamiyatdagи oddiy insonning ilm-u ma'rifatli, erkin mushohadali shaxs bo'lib voyaga yetishini maqsad ayladilar. Iстиqlol yillarda yana milliy, adabiy qadriyatlarni asrash, o'zbek tili, adabiyoti mavqeyini ko'tarish, ta'limni isloh etish masalalari asosiy maqsadga aylandi.

Adabiy jarayon ayni vaqt dagi adabiyot sohasida kechayotgan holatlar mohiyatini teran anglashdan iborat. Adabiy jarayon qimmati yangi, kashfiyat asarlar yaratilgani bilan belgilanadi. Globalizm va adabiyot, baynalmilallik va milliylik fanda aks etapti. Mazkur masalalar adabiy jarayonda atroficha o'rganiladi. O'zbekiston mustaqilligi tufayli qo'lga kiritilgan haq-huquqlar, imkoniyatlar haqida ko'plab asarlar yozilyapti, bebaho fikrlar bildirilyapti. Mustaqillik yillarda erishilgan yutuqlar sarhisob qilinyapti. Ijtimoiy fanlar, xususan, adabiyotshunoslik va tanqidchilik sohasida qadriyatlarni, ma'naviy-adabiy boyliklarni, falsafiy, tarixiy, nafosatshunoslik asarlarini o'rganish, izchil tahlil, talqin qilish, baholash imkoniyati paydo bo'ldi. Hech qanday tuzum talqin, tahlilni inkor etmaydi. Lekin aksariyat ijtimoiy-siyosiy, mafkuraviy munosabatlar xolis, teran talqining imkon bermaydi.

Mustaqil O'zbekistondagi ijtimoiy-siyosiy, adabiy-ma'naviy vaziyat o'tmishni haqqoniy o'rganish; muqaddas, nodir asarlarni xolis, ishonarli, ilmiy talqin etish imkonini berdi. Qur'oni karimning tafsiri, Qur'oni karim ma'nolarining izohi, Imom

Qadriyatlarni e'zozlab, mangu barhayot asarlarni tushunib, his qilib talqin qilish, yaratilayotgan ko'plab asarlarning sarasini bexato ajrata bilish fikrlovchi, sinchkov insonlarning murakkab yumushidir. Mustaqillik yillarda kishilarimizdagi mushohada-korlik, talqin qila bilish uquvi o'sdi. Istiqlolning ilk kunlaridan oq xalqni ma'naviy yuksaltirish, ruhan boyitish masalasi asos qilib qo'yilgan edi. Milliy istiqlol g'oyasi tushunchalarini asosida keng jamoatchilik, ziyolilarimiz, ilm-fan va madaniyat namoyandalari, avvalo, ma'naviy-ma'rifiy soha xodimlari milliy mafkura-ni takomillashtirish hamda uning asosiy tamoyillarini odamlar ongiga va qalbiga singdirishga qaratilgan ishlarni yangi bosqichga ko'tarishlari zarur.

Milliy mafkura, istiqlol g'oyasining ilm-fan, xususan, o'zbek adabiyotshunosligi va tanqidchiligiga singib borishi badiiy asarlar – adabiy matnning mukammal, ilmiy tahlil va talqinida namoyon bo'ladi. Tahlil va talqin nafaqat hozirgi o'zbek adabiyoti, balki mumtoz adabiyotimiz, jahon adabiyoti noyob namuna-larining asosli tahlili, teran talqini orqali milliy mafkura, istiqlol g'oyasini yoritib berishi mumkin. Adabiy jarayon – keng qamrovli soha. Sharoit, vaziyat yaratilayotgan asarning mavzu-mundarijasini kengaytirib borishni taqozo etadi. Adabiy jarayonda doim yangiliklar kuzatilgani bois uni vaqtida kuzatish, munosabat bildirish maqsadga muvofiq.

Adabiy jarayonda ijodkor shaxsiyati va iste'dod tabiatni, so'z san'atining mohiyati bashariy qadriyat maqomida o'rganiladi. Ijodkor shaxsiga, badiiy adabiyotga estetik tuyg'u nuqtayi nazaridan yondashish kuzatiladi. Badiiy, estetik tafakkur masalalarini go'zallik, ezgulik singari qadriyatlar, shakl va mazmun birligi, adabiy janrlar xilma-xilligi hamda uslubiy yo'nalish, badiiy til, ifoda vositalari nuqtayi nazaridan o'zlashtirish, xulosalar chiqarish adabiy jarayonning tabiiy ehtiyojiga aylandi.

Badiiy adabiyot ijtimoiy, falsafiy, ma'rifiy, axloqiy mohiyati bilan go'zallik hodisasiga mansubligi ayon bo'ladi. Lirik, epik, dramatik asarlarning hozirgi davr bilan bog'liq qirralarini, xususan, milliy istiqlol g'oyalariga daxldor jihatini uqtirish bosh mud-daodir. Hozirgi adabiy jarayonni adabiy tanqid bilan bog'lab tushuntirish, o'zbek adabiyotidagi yangilanishlarni jahon adabiyotida kechayotgan o'zgarishlarga muqoyosa etish, badiiy ijod mohiyatini buyuk allomalarining ijod maktabi misolida uqtirish, badiiy matn tarkibini teran tahlil qilishni o'rgatish o'z samarasini beradi.

Hozirgi adabiy jarayondagi yangiliklar televide niye va radio orqali ham targ'ib etilishi kishilarning ma'naviy, axloqiy qarashlariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Xususan, «Madaniyat va ma'rifat» kanalidagi «Birgalikda o'qiyimiz» ko'rsatuvi ham o'zbek va jahon adabiyotidagi sara asarlar poetikasini teran anglatish maqsadida adabiyotshunoslarni munozaraga choralaydi. Muhimi, bu turkumdag'i ko'rsatuvlar faqat mutaxassis uchun emas, balki turli soha egalarini badiiy asar mohiyatini uqishga, mutolaa madaniyatini yanada oshirishga xizmat qildi. «Mahorat saboqlari» ko'rsatuvida ham san'atkori-*u iste'doddar* o'z ijod laboratoriyasi bilan yaqindan tanishtirish, mas'uliyat va fidoyilik, milliy manfaatni himoya qilish borasida zarur maslahatlarini beradilar.

Televide niye orqali berilayotgan ma'rifiy, madaniy ko'rsatuvlar san'at asarlari asrorini anglatish, ijod ahli intellekti, iqtidorini erkin baholashga turtki beradi. Radioeshittirishlarning qisqa savol-javoblar tinglovchilar bilimini yanada mustah-kam�ash, xotirani quvvatlantirishda katta ahamiyatga ega. Asosan ijodkor asari nomi yoxud biror parchani aniq topishga qaratilgan mubohasalar keng kitobxonlarni jalb etmoqda. Bunday eshittirishlar kishilarni bekorchi, bachkana narsalarni

tinglashdan yiroqlashtirib, ularning ma'naviyatini yuksaltishga zamin hozirlaydi.

Ma'lumki, vaqtli matbuot adabiy, badiiy, ma'naviy, ma'rifiy, ijtimoiy yo'nalishdagi xabarlardan tezkorlik bilan voqif aplaydi. Milliy qadriyatlarni asrab-avaylash, o'zbek tili va adabiyotining nufuzini yanada oshirish, madaniyat va san'atni targ'ib qilishda gazeta-jurnallarning o'rni katta. Hozirgi adabiy jarayondagi yangiliklar «O'zbekiston adabiyoti va san'ati», «Kitob dunyosi» gazetalarida bataysil yoritib boriladi. «O'zbekiston adabiyoti va san'ati» gazetasining ijtimoiy hayot, nazm, adabiy tanqid, adabiyotshunoslik, yoshlar ijodi, san'at bo'limlari haftalik yangiliklarni qamrab olishga muvaffaq bo'ladi. Unda navoixonlik, boburxonlik tadbirlari munosabati bilan sara ilmiy tadqiqotlardan namunalar beriladi. Ijodkor-u munaqqidlar tavallud sanoi munosabati bilan xotira, yodnomalar taqdim etiladi. Zamondosh so'z sohirlarining yangi asarlaridan parchalar taqdimot tarzida tanishtirib boriladi. Ba'zan adabiy suhbat, muammoli munozaralar jarayondagi dolzarb masalalarni hal etishga qaratiladi.

Ma'naviy, ma'rifiy, ijtimoiy, siyosiy yo'nalishdagi «Kitob dunyosi» gazetasida o'zbek nazmi, nasri, publisistikasi bilan birga dunyo adiblari bilan qiziqarli muloqot, she'r, hikoya, ma'ruza, esselarning muntazam yoritib borilishi kitobxonlar ommasini jahon va o'zbek adabiyotidagi ayni jarayondan boxabar etishga sazovor bo'lmoqda. Badiiy tarjima, sakkizinchibekat ruknlaridagi ma'lumotlar ham adabiy aloqalar, hamkorlik munosabatini mustahkamlab qolmay, yangi iste'dod sohibini kashf etishga imkon yaratadi. Talabalar mutolaa jarayonda tengdoshlari tomonidan tarjima qilingan nazmiy va nasriy asarlar bilan yaqindan tanishish, ularni o'zbek adabiyotidagi muayyan asarlar bilan tipologik jihatdan o'rganishga mayl bildirishi tabiiy. Mazkur gazeta sahifalarida Nobel mukofotini

sovrindorlarining badiiy ijod saboqlari bilan tanishish, ularning iztirob-u sevinchi, global masalalarni yoritish iqtidori xususida bilib olish imkonini yaratiladi. Ayni ijod falsafasini anglatish zarurati bunday muloqotni ko'proq tashkil etish dar-korligini asoslaydi.

«Sharq yulduzi» jurnali to'qson yildan beri ma'naviyat ko'zgusi bo'lib, ijtimoiy, madaniy hayotdagi yangiliklardan voqif aylab keladi. Istiqlol yillarida ilk bor mazkur jurnal sahifalarida muqaddas Qur'oni karimning tafsiri berilishi o'zbek xalqiga beباho tuhfa bo'ldi. Yillar davomida milliy istiqlol g'oyasiga hamohang badiiy, publitsistik asarlarning nashr etilishi kitobxonlar sonini oshirib bormoqda. Nazm, nasr, dramaturgiya, yoshlar daftari, jahon adabiyoti, estetika, san'at falsafasi, adabiyotshunoslik kabi ruknlarda turli mavzulardagi ilmiy, badiiy ijod namunalari muxlislar hukmiga havola etiladi. Jurnal sahifalarida adabiy hayotimizdagi muhim voqealar, ijodiy uchrashuvlar solnomasi kitob muhiblarini xushnud etadi. Yozuvchilar uyushmasidagi kengash faoliyati sarhisobi ham adabiyotning bugungi manzarasini aniq-tiniq yoritishi bilan e'tiborni tortadi.

Mazkur jurnal sahifalarida yangi she'r, hikoya, qissa, roman, dramalardan namunalar berilishi adabiyotshunos hamda kitobxonning turli asarlar borasida tasavvur hosil qilishi, mustaqil mushohada yuritishiga sabab bo'ladi. Xurshid Do'stmuhammad, Nazar Eshonqul, Isajon Sulton, Ikrom Otamurod, Aziz Said, Iqbol Mirzo kabi ijodkorlarning yangi asarlari nashri muxlislar e'tiboriga havola etib kelinadi. Estetika va san'at sohalariga doir izlanishlar turli fanlar integratsiyasining nufuzini oshiradi. Tadqiqotchilarning badiiy matn milliy g'oya va adabiy qonuniyatlar doirasida tahlil etilgan ilmiy izlanishlari bo'lajak mutaxassisiga zarur yo'nalish beradi.

Istiqlol yillarida zahmatkash munaqqid Ozod Sharafiddinov tashabbusi bilan ta'sis etilgan «Jahon adabiyoti» jurnali ham

adabiy, badiiy, ijtimoiy, publitsistik yo'nalishdagi asarlarni nashr etib kelmoqda. She'riyat mintaqalari, nasr, adabiyotshunoslik, falsafa kabi ruknlarda jahon adabiyoti va san'atining noyob solnomasi bilan tanishish, so'z sohirlari falsafiy, estetik yondashuvini his etish imkonni mavjud. Yillar davomida Aleksandr Pushkin, Sergey Yesenin, Lev Tolstoy, Fyodor Dostoyevskiydan tortib Xose Ortega-i-Gasset, Gabriyel Garsiya Markes, Paulo Koelyo, Kobo Abe, Yasunari Kavabata kabi ijodkorlar ijodini o'zbek tilida mutolaa qilishga muvaffaq bo'lindi. Shuningdek, Ozod Sharafiddinov tomonidan Herman Hesse, Andre Morua, Yan Parandovskiy, Jon Golsuorsi, Irving Stoun kabi nafosatshunoslarning adabiy oqim-u tamoyillar xususidagi nodir asarlari tarjimasi taqdim qilindi. Bu talabalarning estetik didi, so'zni his etish uquvini mustahkamlab boradi.

Yoshlarning adabiy, ijtimoiy jurnali bo'lgan «Yoshlik» jarayon, nazm, nasr, munosabat, tadqiqot kabi ruknlari bilan zamonaviy adabiy jarayon hodisalarini kuzatib, baholab borishga imkon yaratgan. Bunda yosh iste'dodlar minbari tashkil etilib, ularning dunyoqarashi, intilishlari, qiziqishlari kuzatib borildi. Yangi asar taqdimi muallif, kitobxon, adabiyotshunosning samimiyligi, xolis muloqoti asnosida tashkil etiladi. Kitobxonlik madaniyatini oshirish, mushoiralar tashkil etish bo'yicha tanlovlardan e'lon qilinishi ham ziyrak o'quvchini faoliyitka chorlaydi, ular o'rtasida ijtimoiy, ma'naviy muhitni sog'lomlashtiradi. Bu jurnal orqali adabiy jarayonga Nurilla Chori, Sanjar Tursun, Xoliyor Safarov, Bobo Ravshan, Bahodir Bahrom kabi yoshlar nomi, asarlari ma'lum bo'lib bordi. Marhum shoir-u nosirlarning e'lon qilinmagan qo'lyozmalari bilan tanishtirish, ular xotirasini abadiylashtirish yo'lidagi xayrli ishlar ham jurnal o'quvchisini mammun qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Yozuvchilar uyushmasi iste'doddarlarini kashf etish, ijodkorlarni e'zozlash, milliy madaniyatimizni

qadrlashda muhim ma'naviyat markazi sanaladi. Har yili o'tkaziladigan Zomin seminari, mahorat saboqlari ustoz-shogirdlik munosabatlarini mustahkamlashga yo'naltiriladi. «Asrimiz umidlari», «Birinchi kitobim» ruknidagi yoshlar ijodi pano ramasi ham yangi asarlar mavzu ko'lami, obrazlar tizimidan kitobxonni voqif etadi. Respublikaning turli hududlarida muntazam ijodiy uchrashuvlar, yangi asarlar taqdimotlari, atoqli adiblar tavallud ayyomlari o'tkazib boriladi. Yozuvchilar uyushmasida nazm, nasr, dramaturgiya, tanqid, publitsistika kengashlarining yillik hisoboti mutaxassis, ijodkor va kitobxonlarning qizg'in, jonli muloqotiga aylanib bormoqda. Mumtoz allomalar tavalludi munosabati bilan xalqaro miqyosda anjumanlar uyushtirilishi adabiy aloqalar mustahkamlanishiga zamin hozirlaydi.

Hozirgi globallashuv davrida internetdan to'g'ri va oqilona foydalanish kitobxonga ham yengillik beradi. Turli ilmiy va badiiy asarlarning elektron nussxasi yaratilishi, audioyozuv asosida badiiy mutolaa qilinishi vaqtini tejash imkonini beradi. Kutubxona katalogida kitob izlagan kitobxon uchun internet adabiy-ma'rifiy saytidan foydalanish qulay bo'lib qoldi. «Ziyo.net», «Adiblar», «Oina», «Audio kitob» kabi saytlar ijodkor tarjimayi holi, badiiy asarlardan tortib jahon durdonalari, Nobel muhofoti sovrindorlari faoliyatiga doir qiziqarli ma'lumotlar berib borilishi bilan e'tiborni tortadi. Xususan, «Adiblar» sayti xalqimiz orasidagi turli yosh toifasidagi kitobxonlarning respublika tanlovida qatnashishiga ko'maklashib, zarur manbalarni taqdim qilish, kerakli badiiy asarlarni oson topib berishga intilmoqda. Internet sahifalarida taniqli adabiyotshunoslarning adabiy jayron, adabiy-badiiy tanqid sohasiga oid fikr-mulohazalari ham yosh kitobxonlarning mustaqil tafakkur qilish imkoniyatini ken-gaytirib boradi.

Mustahkamlash uchun savollar:

1. Istiqlol davrida madaniy merosni mustahkamlash borasi-da qanday ishlar amalga oshirildi?
2. Mustaqillik yillarda qaysi ajdodlarimiz haqida badiiy asarlar yaratildi?
3. Alisher Navoiy nomini abadiylashtirish maqsadida qanday ishlar olib borilmoqda?
4. Televideniyeda san'at, adabiyot sohasiga oid beriladigan ko'rsatuvlarning madaniy hayotimizga ta'siri bormi?
5. Internet saytlaridagi badiiy asarlar nashri, targ'iboti kitob-xonga yo'nalish beradimi?

«O'YLA, IZLA, TOP» texnologiyasi

Bu tashkilotda ijod ahli uchun barcha sharoitlar yaratilgan. Adabiy to'garaklar faoliyatida yoshlar bilan suhbatlar, mu-shoiralar yo'lga qo'yilgan. Yil davomida qalamkahlar uchun respublika miqyosida tanlovlар o'tkaziladi. Undagi kengashlar-da yilning sara nazmiy, nasriy, dramatik, publitsistik asarlari mutaxassislar tomonidan baholanadi. Tashkilot homiyligida «Birinchi kitobim» ruknida ko'plab yosh ijodkorlar asarlari nashr etiladi.

(Javob: Yozuvchilar uyushmasi)

Bu adabiy nashr to'qson yillik tarixga ega. Uning sahifalari-da ko'plab shoir-u yozuvchilarning asarlari taqdimoti bo'lgan. Istiqlolning ilk davrida bu jurnal sahifalarida Qur'oni karim tafsirining berilishi minglab muxislarni xushnud aylagan. Unda «Yangi avlod ovozi» ruknida adabiyotshunos-u ijodkorlar orasi-da adabiy jarayon, tanqidga doir qizg'in suhbatlar uyushtirilgan.

(Javob: «Sharq yulduzi» jurnali)

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

- Мирзиёев Ш. Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017.
- Каримов И. Адабиётга эътибор – маънавиятга, келажакка эътибор. – Тошкент: Ўзбекистон, 2009.
- Каримов Б. Руҳият алифбоси. – Тошкент: F.Гулом, 2016.
- Каримов Н. ва б. XX аср ўзбек адабиёти тарихидан. – Тошкент: Ўқитувчи, 1999.
- Раҳимжонов Н. Истиқлол ва бугунги адабиёт. – Тошкент: Ўқитувчи, 2012.
- Расулов А. Бадиийлик безавол янгилик. – Тошкент: Шарқ, 2009.

TESTLAR

- Badiiy adabiyotning turlarini aniqlang.**
 - Lirik, epik, dramatik
 - Liro-epik, biografik
 - G’azal, qasida, drama
 - Tragediya, komediya, hikoya
- Istiqlol davrida faol ijod qilayotgan shoirlarni aniqlang.**
 - Mirtemir, Maqsud Shayxzoda
 - Bahrom Ro’zimuhammad, Faxriyor
 - Saida Zunnunova, Zulfiya
 - Cho’lpon, Usmon Nosir
- O’tmish adabiyoti ijodiy tajribalari hosilasi, davrlar o’tishi bilan ahamiyati va dolzarbligi pasaymasdan keyingi zamonalarga o’tib kelayotgan qadriyat nima?**

- A. Adabiy uslub
- B. Adabiy janr
- C. Adabiy an'ana
- D. Adabiy yo'nalish

4. Fitratning «Adabiyot qoidalari» risolasida qaysi muam-moga katta ahamiyat berilgan?

- A. She'riyat
- B. Tarix
- C. Mafkura
- D. O'zlik

5. «Jahon adabiyoti» jurnalining asoschisi kim?

- A. Matyoqub Qo'shjonov
- B. Ozod Sharafiddinov
- C. Umarali Normatov
- D. Ahmadjon Meliboyev


Mavzu:

MODERN ADABIYOT MOHIYATI

Reja

1. Zamonaviy va modern asarlar
2. Modern asarda inson obrazi
3. Badiiy tafakkurdagi o'zgarishlar

Kalit so'zlar: badiiy matn, modern, tafakkur, poetika, ifoda, absurd, tiynat, xarakter

Istiqlol tufayli san'at va adabiyot sohasida katta o'zgarishlar sodir bo'ldi. Tarixiy va milliy qadriyatlarga munosabat tubdan o'zgardi, madaniyat, ma'naviyat, mafkura yo'nalishlarida ham sezilarli o'zgarishlar yuz bermoqda. Bu hol respublikamizning madaniy, ma'naviy hayotida hamda taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etyapti.

Ma'lumki, hayotda, jamiyatda ro'y bergan o'zgarishlar adabiyotda ham o'z aksini topadi. Hozirgi adabiy jarayon milliy va madaniy merosning ajralmas qismidir. Adabiy jarayon va adabiy tanqid, adabiy-nazariy qonuniyatlar va yo'nalishlar mutaxassisni o'z ustida tinmay ishlashga undaydi. Adabiy jarayon va tarjima adabiyoti, badiiy adabiyot va nazariy adabiyotning o'zaro aloqasi bir-birini boyitishdan iborat. Hozirgi adabiy jarayon kitobxonga taqdim etilayotgan badiiy adabiyot janrlarini, bugungi kun romanchiligi, qissachiligi, hikoyalari, she'riyati, dramaturgiyasining o'ziga xos xususiyatlarini badiiylik va zamonaviylik prinsiplari asosida ko'rib chiqadi. Shu ma'noda an'anaviy asarlar bilan bir qatorda yaratilayotgan modern adabiyot namuna-

larini baholab borish mutaxassis filologning mustaqil fikrlash ko'nikmasini mustahkamlaydi.

An'anaviy asarlarda badiiy obraz faoliyati, xatti-harakati, jamiyat bilan munosabati yoritilib, kitobxon ma'naviy qarashlariiga monand motivlar tasvirlab borilgan. Jahon adabiyotidainsonning o'z turmush tarzidan begonalashuvi, o'rnatilgan qat'iy nizomga e'tirozi, hayotidagi xaosga muvofiqlashuvi ma'lum ko'nikma, aqidalarni parchalay boshladи. Odam xayolot olamidan taskin, panoh izlab o'zini biqqlik, tanholikka hukm aylayotganini sezmadи. U har narsadan norizolik kayfiyatiga taslim bo'lib, tushkunlikka ro'baro' keldi. Kishi ongidagi evrilishni, botindagi isyonni ta'sirli ifodalash bobida yangi obrazlar paydo bo'ldi. Asarlar poetikasida simvolik motivlar, absurd qahramonlar, noaniq makonlar bo'y ko'rsatdi.

Adabiy jarayondagi har qanday yangilanish, badiiy izlanish, badiiy-estetik voqeа-hodisa ilmiy tafakkurda u yoki bu tarzda o'z ifodasini topadi. Badiiy tafakkurdagi evrilishlar adabiyot ilmi oldiga yangi ilmiy g'oyalarning qo'yilishiga, yangi istiloh va tushunchalarning iste'molga kiritilishiga, mutaxassislar orasida ommalashuviga sabab bo'ladi. Istiqlol davri adabiyotshunosligida modernizm, postmodernizm, absurdizm, strukturalizm kabi istilohlarning faol qo'llanishi tanqid ilmi metodologik tamoyili ning muhim jihatlaridan biri sanaladi.

Modernizm adabiyotining oqimlari, adabiy-badiiy usullari, vosita va uslublari bilan bog'liq tushunchalar borasida Umarali Normatov, Bahodir Sarimsoqov, Abdug'afur Rasulov, Dilmurod Quronov, Bahrom Ro'zimuhhammad, Tilovoldi Jo'rayev, Ahmad Otaboy, Qozoqboy Yo'ldoshev, Bahodir Karimov, Ulug'bek Hamdam kabi ijodkorlar munosabat bildirdilar. Modernizmga oid qarashlar o'z vaqtida modernizm adabiyoti va san'atini tushunishga, uning zamona viy, yangi adabiyotdan farqli jihatlarini anglab yetishga imkoniyat yaratgan edi.

Istiqlol tufayli ma'naviy qadriyatlarga, madaniyatga, jumladan, so'z san'atiga munosabat tubdan o'zgardi. Yangi davr nafaqat adabiyotimiz tarixiga, balki zamonaviy adabiy-badiiy jarayonga ham yangicha g'oyaviy-estetik mezon bilan yonda-shishni taqozo qiladi.

Badiiy asar mutolaasi asnosida madaniyat va ma'rifat, ta'lim va tarbiya, qadriyat va an'analarni asrab-avaylashga qaratilgan g'oyat muhim ish amalga oshadi. Realistik asarlarda davr, qahramon munosabatiga e'tibor beriladi. Abduvali Qutbiddin, Faxriyor, Bahrom Ro'zimuhammad kabi modernistik she'riyat vakillarining inson ruhiyatini tasvirlash mahorati, ongosti kechinmalarini nozik ifodalash usuli asar qimmatini oshiradi. Modernistik yo'nalishga mansub she'rlarda shakliy izlanish, metaforik ifodani kuchaytirish, so'z zamiridagi ma'nolar silsilasini ishoralar tilida anglatishga erishish kuzatiladi. Kitobxon qisqa, biroq teran she'rni zukkolik ila saralash, baholashga harakat qiladi.

Faxriyorning «Tarix xatolarning, gunohlarning solnomasidir» degan misrasida qisqalik, ayni damda, teranlik uyg'unlashib boradi. Butun davr manzarasini bunday siqiq satrlar qatiga singdirish shoir poetik tafakkuri mahsulidir. Shoир inson-u borliq hodisalarini turli qochirim, o'xshatish, sifatlashlar orqali obrazli ifodalashga ahamiyat beradi. Faxriyorning «Kuz yomg'iri – hijron yomg'iri» degan misrasi ayriliq, visol yanglig' hazin kayfiyatni tiniqlashdirib, lirk qahramon ruhiyatidagi bezovtalik, armon nolasini sozga soladi. Har bir fasl umr manzaralarining ko'zgusi misol insonni foniyl dunoя sinoatida toblab boradi. Ko'ngil mayllarini nozik his qilgan san'atkori bu dardni o'quvchisiga ham yuqtira oladi.

Faxriyor xalq donishmandligida sayqal topgan hikmatga ham yangi mazmun bag'ishlashga intiladi:

*Menga do'st kerakmas dushmandan boshqa,
muhabbat kerakmas nafratdan boshqa.*

Kontrast tasvir zimnida achchiq haqiqat mujassam, kishi ning hayotni uqish, insonni, tuyg'ularni ko'ngil ko'zi bilan baholash hosilasi bu. Muhabbat – oliv tuyg'u, unga erishish dushvor, alamzadalik, iztirob nafrat keltirishi mumkin, ruhiyatdagi bu tebranish kishini ne ko'yga solmaydi deysiz. Aslida, bir vujudni ikki aks his makon etmaydi.

Ijod onlarining lazzat-u og'rig'ini obrazli tasvirlash kitobxonni bu sururga oshno aylaydi:

*Ko'ksingni yoradi g'am kurtaklari
yonib yozging kelar jigarxun baytlar
yurakni aldaydi ishq ertaklari*

Bedor qalb shoirga hayot impulsini sezdirib boradi, u vaqt-u makon tanlamaydi. Ko'ngilni bezovta qilayotgan kurtak so'z dengizida oziqlanib, sirtga talpinadi. Fikr ohori, jozibasi vositasida asl javharni tinglovchiga yetkazishga jazm etiladi. Yoniq qalb haroratida yangi so'z, yangi timsol dunyoga keladi, minglab kitobxonlarga hayot-u xayol kengligini zabt etish imkonini bera di. Ijod ahli odamga olam tilsimini uqish, o'z iste'dodini namoyon qilish, fikrini erkin ifodalash zavqini taqdim etadi.

Abduvali Qutbiddinning «Bulut kampir elagini ko'tarib Suprasini yoymoq uchun boradi» misralarida kundalik, tabiiy tasvirdan quyma tashbeh hosil qilinadi. Noan'anaviy she'rlarda ham ohang, ranglar jilosi tasvir jozibadorligini oshirib boradi. Elak detali ayni yomg'ir yog'ayotgandagi maromni obrazli qilib yetkazadi, supra vositasida ro'yi zaminning rizqlanishi, yomg'ir suvidan tozarishi ta'sirli lahzalarni o'quvchi ongiga muhrlaydi.

Bahrom Ro'zimuhammadning «bir o'zim yashagim keladi qishda mittigina qor yog'sa manga atalgan» misralarida qish fasli tarovati, oppoq qor nafasi ko'ngilga sokinlik baxsh etadi. Kichraytirish oti ham fasl ziynati borasidagi tasavvurni to'ldirib boradi. Shoirlar dunyoning sas-u shivirini tuyg'u quvvatlari ila idrok aylab, kitobxon sezimiga ham ijobiya ta'sir etishga sa-zovor bo'ladilar. Ulardagi original fikr, tasvirlar olam nafosatini o'zgacha idrok etish mahsulidir. Badiiy adabiyot sarhadlarini iste'dodlar yangi fikr, yangi timsol bilan zabit etishga harakat qiladilar. Modernistik she'riyat vakillari an'anaviy she'riyatdan yangi kashfiyotga intilib kutilmagan tashbeh, g'ayrioddiy obraz-larni dadil iste'molga kiritishi, dunyo tajribasini o'zlashtirib, milliy madaniyatimizga monand yangi poetik ifodalar yuzaga kelishiga turtki berishini unutmaslik lozim.

Inson ilohiy hikmatdan yiroqlashib, oliy maslakdan voz ke-chib, taqiqlangan, la'natlangan yaratiqqa intilar ekan, yo'l sizlikka mutbalo bo'lganini kech anglaydi. Bu halqa yanglig' uning naslini ham domiga tortadi. Ijodkor odamzodning koinotdag'i oliy nasabidan mahrumiyatini ifodalashda makoni yududi cheklamaydi. Voqeа rivojida rahmoniy hamda shaytoniy kuchlar o'rtaсидаги azaliy-abadiy ziddiyatni taranglashtirib boradi.

Nasriy asarlar poetikasida ham o'zgacha tasvir, ifodani taqdim etishga erishilmoqda. Xurshid Do'stmuhammadning «Jajman» hikoyasida ham ramziylik, teranlik e'tiborni jalb qiladi. Voqelikni o'zgacha usulda yoritgan nosir kitobxoni foniylig hamda boqiylig maxzanini uqishga yo'naltiradi. Muallif tasavvuridagi badiiy voqelikni anglash uchun kitobxon insonning yaralishdagi asosiy muddaosi xususida tafakkur yuritishi darkor. Rahmoniy va shaytoniy kuch mohiyatini anglash, tiriklik makoni (bozor) ga chalg'imay, nafsni jilovlashga erishish hikoyaning mag'zini tashkil etadi.

Hikoyadagi «.... odamlar uyg'onadi, bozor uyg'onadi... tim darvozasi lang ochiladi... tumonat toshib-shoshib oqib kiradi, oqib chiqadi» manzarasi kitobxonga hayot va o'lim falsafasini yetkazishga qaratiladi. Olomon jondor Jajmanga bas kela olmaydi. Asar oxirida: «Ana shunda qora tuynukdan bir juft bahaybat hovuch ko'rindi... hovuchlar ichkariga suqilib kirdi-yu ulardan hozirgina bazo'r, ming bir azobda o'ldirilgan Jajmanga ikki tomchi suvdek o'xhash boshqa bir Jajman sakrab yerga tushdi, faqat u oldingisidan xiyla durkunroq, bo'yи ikki qarich edi...» – deyiladi. Inson nafsning xurujidan tun-u kun saqlanishi uni turli azob-u uqubatlardan yiroqlashtiradi. Xurshid Do'stmuhammad noan'anaviy usuldag'i hikoyada jami insoniyatni hidoyatga eltishni istab uni shaytoniy nayrangdan tiyilish, nafs qutqusidan ogoh bo'lishga da'vat etadi.

Bugungi globallashuv jarayonida inson e'tiqodi masalasi dolzarblik kasb etmoqda. Yaratguvchiga itoat, e'tiqod ojiz odamni turli vasvasalardan asraydi. Uning azaliy raqib – shaytonga bo'ysunmay, Allohga tavakkal qilib halol, to'g'ri yashashi oxirat saodatiga erishtiradi. Xurshid Do'stmuhammadning «Jimjixxonaga yo'l» hikoyasi mashhur italyan adibi Dino Busattining «Yetti qavat» hikoyasiga nazira tarzida yozilgan. Hikoya qahramonlari Dino Korte va Zohid Yaqin obrazi orqali G'arb hamda Sharq kishisi dunyoqarashi, e'tiqodi muqoyasa qilinadi. Shifoxonadagi yettinchi qavatdan pastga tushayotgan bemor Korte har qavatda tushkunlikka, mahzunlikka yo'liqadi. Qo'rquv, hadik, g'azab iskanjasidagi bemor umrining so'nggi kunlarini shunday o'tkazadi. Birinchi qavatdan yettinchi qavatga ko'tarilayotgan Zohid Yaqin esa sokinlik, xotirjamlik ila o'z holatini namoyon etadi: «O'zingga shukr, – dedi Zohid Yaqin. – Yetkazganingga shukr». Nur og'ushidagi yam-yashil sayhonlikka talpingan ruh sakinatda vujudni tark etadi. Yozuvchi inson tiynatidagi imon halovati sinov onlarida ham kishiga quvvat berishi, uni

mangulik diyoriga, saodat manziliga yetkazishini shu tarzda anglatishga muvaffaq bo'ladi.

Jahon adabiyoti durdonalarini sinchkovlik bilan o'qib-o'rgan-gan Nazar Eshonqul o'zbek kitobxonini ham yangi tasvir, ifoda yo'siniga ega asarlari bilan rom aylamoqda. Uning «Tobut», «Og'riq lazzati» asarlaridagi hayot sinoatlarini badiiy idrok etish jarayoni ahamiyatga molik. Hikoyada ayni tobut detali bevafo umr, o'tkinchi hayot borasidagi falsafani qamrab oladi. Absurd – ma'nisiz hayot insonni loqaydlik, beparvolik iskanjasiga tashlaydi. Muallif ayni umid-u tushkunlik, baxt-u baxtsizlik tushunchalarini muqoyasa etish maqsadida ishoralar orqali kitobxonga saboq berishga chog'lanadi.

Har bir inson, joni og'risha, uning davosini topishga oshiqa-di. Davo kaltaklash, tanaga azob berish usulida olib borilishi, ochig'i, kitobxонни taajjubga soladi. Ayni og'riq va lazzat kon-trast vaziyatni yuzaga keltiradi. Nosir bunday motiv bilan kishini kutilmagan xulosalar tomon yetaklaydi. Xasta-bemorlarni tah-qirlash, misli ko'rilmagan usulda azoblash, tubanlik, shafqatsizlik bilan munosabatda bo'lish lavhalari zulmat sultanati nay-ranglaridan voqif etadi. Hikoyada tutqunlik, mutelik qobig'iga chulg'angan xasta ruhli kimsalar qismati voqeani taranglashti-radi. Ofiyat, sakinatni his qilishdan mosuvo basirlar adashganlar manzilida azoblanadi. Biroq buni tan olish, abgor ahvolini idrok etishga noloyiq kimsa biqiq muhitga moslashib yashayveradi. Adib kishidagi o'zlik, g'ururning mahv etilishi uni tubanlik ola-miga yetaklashini obrazli ifodalaydi.

Kitobxonning fantastik asarlarda qiziqarli, g'ayrioddiy syu-jet, insonning murakkab fitratini texnik vositalar orqali uqishga intilishi kuzatilgan. Tohir Malik, Hojiakbar Shayxov ijodida ij-timoiy dunyoqarash bilan bog'liq tasvir, fan-texnika taraqqiyoti masalasi yoritilishi aytildi. Ijodkorlar olam va odam sir-sinoatini anglatuvchi belgi, ramz, ishoralar tizimi izlanishlar sama-

rasi ekanini his etib, kitobxonga qiziq tasvirlarni taqdim etishga diqqat qilganlar. Muhim, yaratilgan asarlarda umuminsoniy qadriyatlarning namoyon bo'lishiga erishganlar. Ularda qalbni g'ubordan poklaydigan quvvat mavjud bo'lib, kishilarni yovuzlik, jaholatdan asrashga xizmat qilgan. Modernistik asarlarda esa g'ayritabiiy holatlar, qabohatlar, ma'nisiz ifodalar o'quvchi e'tiroziga sabab bo'lishi mumkin.

Asar tarkibiy qismlari so'z quvvatini his etishga undaydi. Adiblar sarlavha vositasida g'oyani yetkazishga, mohiyatga ishora berishga intilishadi. «Qora kitob», «Qora kun» yanglig' sarlavhalarda qora so'zi zamirida noxushlik, xavotir hissi paydo bo'ladi. Odamlar oq rangda ezgulikni, qorada esa zulmatni tasavvur etgani bois taassurot shu taxlit davom etadi. Asar strukturasidagi ma'noviy qatlam siri, jozibi uqish asnosida mutlaqlashadi. «Qora kun» asarida oqsoqol, sartarosh, juvozkash, somsapaz, tog'a, folbin, jinni qiz obrazlari bilan bog'liq lavhalar bosqichma-bosqich mantiqni asoslab boradi. Adib qahramonlarga ism bermaydi, kasbi yo nasabiga ko'ra nomlash amalga oshirildi. Xronotop aniq belgilanmay, maskan borasidagi ma'lumotlar personajlar nutqida to'ldiriladi.

Struktura badiiy komponentlarning organik birikishini ta'minlaydi. Struktura asar ma'no-mazmunining matnda joylashtihi, estetik quvvatning namoyon bo'lishini aniqlaydi. Asar kompozitsiyasi tugundan boshlanadi. Masjid hovlisida tobut yo'qolishi voqeani taranglashtirib, unga turli lavhalar birikib qismdan butun yaralganda badiiy niyat teranlashadi. Qissada umr yo'lida adashganlar qismati turli rakursdan baholanadi. Juvozkashning zig'irga paxta yog'i aralashtirib, nohaqlikka ko'nikishi, somsapazning harom go'shtdan taom tayyorlab zavqlanishi, tog'aning jiyani tentak qizga zo'ravonlikdan orlanmasligi, bolalarning marhumlar tanasini o'ynab shumlanishi holatlari illat, qabohatni ochiq namoyon etadi. Muazzin, sartarosh, usta, ikki

musofir vijdonidan ayrilmagani sabab biqiq muhitga shaffof iqlim berishga intiluvchilar toifasi sanaladi.

Muallif poetik markazni ravshan ifodalaydi. «O'latdan, tosh-qindan, ochlikdan va yana allambalolardan butun-butun qishloqlar tamoman qirilib ketganini eshitganman, ammo tobutini yo'qotib qo'ygan elni eshitmaganman. Xudo faqat o'z nazaridan qolgan bandalarining boshiga shunday dard-u baloni soladi. Hammamiz bo'g'zimizgacha gunohi azimga botib ketganmiz, shuning kasri urib, bu ko'rgilikka yo'liqib o'tribmiz» degan fikr bosh ma'noga ishora beradi. Insoniyat tarixidan ma'lumki, gunohi azim badali og'ir bo'lgan. Muqaddas Kalom, diniy manbalarda odamzodning imon-uadolatdan mosuvo bo'lishi oqibatlari aniq yoritilgan. Rahmoniy adolatdan mahrum kishilar endi shaytoniy razolatga ro'baro' keladi. Ongli yaratiq tafakkur qobiliyatidan xoli bo'lib, so'qir qalbi ila oydin yo'lni ajratolmaydi.

Muallif yosh-u keksa tabiatidagi qusurlarni faktlar bilan asoslaydi. Tiriklikni abadiy tasavvur etgan g'ofillar oxirat tadorigini unutadi. Har birining kichik (mikro) nuqsoni kattarib makroni hosil qilishi ayonlashadi. Tobut ulov misol marhumlar diyoriga eltishga vositadir. Bir detal orqali ma'noviy sath takomillashadi, kishi gunohi serobligidan Yaratgan rahmatidan uzoqlashadi. Har ishning hisobini unutgan ahli qishloq o'zga makonga ko'chishga chog'lanadi, biroq odam qismatidan qutula olmaydi. Qahramonlar manzilini emas, aksincha, botinini taftish aylab, xatosini tushunishi darkor. Qissada olomonlik holati fojialar silsilasida bo'rtib ko'rindi.

Struktura – estetik yaxlitlikning ruhiy ifodasi. So'z ostidagi ma'no qatlamini o'zlashtirib borish asl mohiyatni tushnishga imkon beradi. Jahon adabiyoti namunalarida ham oliy xilqat tanazzuli izchil asoslangan. Gabriyel Garsia Markesning «To'kilayotgan yaproqlar» qissasida besamar o'tgan umr yaproqqa mengzaladi. Hissiz, mas'uliyatsiz shifokor Makondo xal-

qi nazaridan qolib, yolg'izlikka mubtalo bo'ladi. Adib shifokor xarakteriga xos chizgilarni polkovnik, Adelaida, qizi, Meme, bola obrazlari nutqi vositasida teranlashtiradi. Dardmand, kasal holiga loqayd kimsa tasvirida bo'yoq quyuqlashib, sovuq nigohi, zaharxanda fikrlari syujetni taranglashtiradi. Ahli inson dardiga malham bo'lguvchi hakim-u tabiblar doim el e'zozida bo'lgan.

Qissada xalq qahriga uchragan nokas shifokor jasadi xor bo'ladi. Hech kim uni so'nggi manzilga kuzatishni xohlamaydi. Asosiy ma'no mehvari aholining dafn marosimidan bosh tortishi lavhasida jamlanadi. Chirigan jism, vujudning parchalanishi majoziy qatlamni qabartiradi, kishi tanasi, qalbi yovuzlik iskanjasiga o'raladi. O'zini osgan shifokorni tobutga solish, marhumlar diyoriga eltish keksa polkovnik zimmasiga tushadi. Insonning manqurtlik darajasi la'nat-u qarg'ishdan bino bo'ladi. Dunyoda tubanlik, jaholat jazosiz qolmagay. Muallif odamiylik sharifiga nomunosib kimsalar hatto ona zaminga begonaligini shunday dalillaydi. Asar kompozitsiyasida bemorlar ruhiyat, onalar-u bolalar iztirobi holat-u vaziyatni boyitib boradi.

Bu asarlar ma'naviy tanazzul, qalbdagi bo'shliqni sharhlab, jaholat-u zalolatdan ogohlilikka chorlaydi. Vaqt kishilarni turli sinoatlardan saralab o'tkazadi, bunda faqat haq yo'lni tanlanganlar boqiy hamda foniylar olam saodatiga noil bo'ladi. O'zbek qissasi «Qora kun» jahon namunasi «To'kilayotgan yaproqlar» asaridagi assotsiativ obraslilik mohiyatni teranlashtiradi. Ikki qissa orasidagi mushtaraklik tobut detalida uyg'unlashadi. Birida gunohkor qavm so'nggi ulovdan mahrum bo'lsa, ikkinchisida osiy shifokorni tobutga solib kuzatishdan aholi hazar qiladi. Assotsiativ tafakkur negizida shakllangan tasvirlar kishi halokatini yangi qiyofada taqdim etadi. Ramziy, majoziy timsollar razolat, manfurlik borasidagi falsafiy umumlashmani mukammallashtiradi.

Nazar Eshonqulning «Tun panjaralari» asarida qahramonning yolg'izligi tussiz ranglar, hazin ohang mushtarakligida yoritib beriladi. Kishi tabiatning ichki tartibotidan hayratlanadi. Tun qo'ynidagi odam xayollariga erk berishga intilsa ham, zohirdagi zulmatga bo'yin egadi. Hayotda ma'no axtarayotgan kimsa savollari iskanjasida aylanib, yo'lсizlikdan aziyat chekadi. U qalbidagi isyon alangasini shayton homiyligida kuchaytirib boradi.

Tush, xotira, tun, xayol qorishiqligida yolg'iz kimsa fojeasi qat'iylashib boradi. Asar kompozitsiyasidagi dialog nafaqat kishilar munosabati, balki jin, iblislar muloqotini ham tashkilashtiradi. Inson yorug' kun, olamdan ko'ra zulmat, qorong'ilikka intilar ekan, shaytanat dunyosidagi fitnalarga ro'baro' keladi. Bu olamdagи qonuniyatlar faqat ojiz insonni zalolatga yetaklashga qaratilgan edi. Umidsizlik, tushkunlik kishini isyonga yetaklaydi, shu holatda u inon-ixtiyorini o'zga hiylakor, riyokor kucha topshirganini sezmay qoladi.

Asar poetikasida monologik hamda dialogik nutq shakli ko'zga tashlanadi. Qahramon ko'nglidagi imonning susayishi iblisga imkon beradi. Ayni shu his qilinayotgan holatlar monolog vositasida istifoda etiladi. U yolg'izligini nihon aylashga urinsa ham, monologi zamiridan bu haqiqat oydinlashib boradi. Do'st, hamrohi bilan dialogda muloqot qatnashchilarining tushkun kayfiyati muqoyasa etiladi.

Qissa kompozitsiyasida «Tun ertaklari» nomli tush haqidagi hikoyalar e'tiborni tortadi. Tush qahramon xayolotining hudud-siz manziliga sayr qildirib, vaqt tushunchasini zabit etadi. Ayni erkinlik holatni ochiq, ravshan ifodalash, ichki talato'mni ta'sirli yetkazishga yo'naltiriladi. Bunda ahamiyatsiz, ma'nosiz vaziyatlar ham almashib kelaveradi, biroq zamirida yana yovuzlik nafasi seziladi. Kishi fe'lidagi ishonuvchanlik bobidagi hikoyada haqiqatga zid holatga olomonning bo'y sunishi mustaqil fikrlash ko'nikmasining shakllanmaganini dalillaydi. Tush va hush tafo-

vuti orqali ro'yo va haqiqat, nafosat va jaholat qarama-qarshi qo'yiladi. Gul go'zallik, nafosat ulashadi, uni uzgan tutqunlikka mahkum bo'ladi. Bunda mahbusning bir dona gul sabab o'limga ro'baro' kelishi g'ayritabiyy vaziyatni yuzaga keltiradi. Adib qahramoni erkinlikdan tutqunlikka yuz burib, so'ngsiz og'riqni his qiladi. Inson xudbinlashib, loqaydlik illatiga yo'liqadi. Xarobadagi qahramonning umidsizlik, tushkunlik kayfiyati faoliyat-sizligini ifodalab boradi.

Asarda tun og'ushida qahramon botinidagi jarayonlar asta yoritib boriladi. Bular yolg'izlikdagi kishi izardobi, isyonini, vujudidagi parokandalikni oshkor etadi. Adib qahramonning tundagi dialogi vositasida asosiy muammoga diqqatni tortadi. Shayton azaldan kishini vasvasaga solishi, uni nafsi quliga aylantirishga intilishi bilan ma'lum. Qahramonning shayton sardori bilan muloqotida asl niyat oydinlashadi.

«Men ko'pdan beri siz bilan tanishish istagida yurardim. Axir bilishim kerak-da, kim ekan tuni bilan biz shaytonlarni bezotta qiladigan, ha, darvoqe, tun – bizga qarashli saltanat, bizning tasarrufimizda, daxlsiz», – dedi u sirli qilib».

Iblis niyatidan uning tundagi erkin faoliyati, g'aflatdagi hukmronligi, takabburligi ma'lum bo'ladi. Uning osoyish-u halovatiga xalal berayotgan kimsani vasvasaga yo'naltirishdan avval kuzatib, tahlil qilib, tazyiq o'tkaza boshlaydi. Tundagi tanho kimsaning so'lg'in, tushkun kayfiyati iblisga ma'qul keladi hamda unga tajovuz boshlanadi.

Xayol obrazi inson istagini poyonsiz ma'volarini obrazli ifodalaydi. «Sen men izlab ketayotgan shaffof manzilsan. Sen yashash va kurashish uchun boqiy da'vatsan. Sen esa mening ohim yetmas yuksak-yuksaklarda uchib borasan».

Xayol kengliklarida har qanday inson o'zini ozod his etadi. Asrlar davomida odamzod taxayyulidagi evrilish-u o'zgarishlar nihonligicha qolmoqda. Hayotdagi omad-u baxtdan mosuvo-

lar xayolida yuksak marralarni zabit etishga qodir bo'ladi. Qahramon tussiz, ma'nisiz, biqiq zulmat, iskanjadan xalos bo'lish ilinjida xayoliga erk beradi. U kishi havaslariga rag'bat berib, yashash, rohatlanish zavqini oshiradi.

Tunda hasrat sahifalarini varaqlayotgan qahramon bolalik pallasini Robiyadek beg'ubor qiz, o'smirlik halovatini Hosiladay yor bilan xotirlaydi. Insonga samimiy muhabbat kuch-quvvat ato etib, uni ruhlantirib boradi. Ayriliq tanholikka mutbalo etib, kishining oila, so'ng jamiyatdan begonalashuviga sabab bo'la-di. Shu holatda muqimlashib qolgan kimsa yashash formulasini tushkunlik, beparvolik hukmiga havola etadi.

Qahramonning ismsizligi ham modern asarga xos xususiyat bo'lib, uning umidsiz, loqayd holatini asoslaydi. Bu inson jamiyatdagi turli kasb, jinsdan nafratlanib, borliqqa adovat nigohi bilan boqadi. Hayotidagi fojianing ildizini o'zidan emas, atrof-dagilardan izlaydi. Botindagi qo'r quoqlik, hafsalasizlik uni absurd, ma'nisiz alfozda ko'rsatadi. G'aflat uyqusidagi kimsa faqat g'imirlab yuradi, hech narsaga talpinmaydi, kelajak borasida reja tuzmaydi. U ba'zan bolalikdagi baxtiyor damlarni sog'inganday tuyuladi, biroq muvaqqat istak tez unut bo'ladi.

Tundagi sukunat asli kishi vujudidagi hayotga ishtiyoqning mahv bo'lishidir. Xalqning «Noumid – shayton» degan naqli asardagi voqealarni sharhlashda muhim funksiyani bajaradi. Inson yaralishidan unga raqib iblis yerda, samoda, tog'-u ummonda hozir bo'ladi. Xususan, tunda jin, shaytonlar nayrang-u hiylasiga sharoit ko'payadi. Ularning qutqusi, vasvasasi bois kishi muqaddas ne'mat – imondan ayrliganini idrok etmaydi, shu sabab Yaratgandan doim panoh tilanadi.

Adib asarda shayton sultanatidagi nizomni eslatar ekan, isyon, kufr bois bu yo'lga kirganlarni fosh etadi. Adib qissada ikki olam manzarasini parallel tasvirlashga muvaffaq bo'ladi. Kishilar kundalik maishiy turmushi, axloqiy qarashlari qamrab

olingen jamiyatda hayot oqimi davom etaveradi. Ikkinci sirli olam tun shaklida namoyon bo'lib, uning yolg'iz, noumid toifasi shayton hukmronligiga mahkumligini tan olmaydi. Ayni shu olam vakillari faoliyati modern asar kompozitsiyasini tashkil lashtiradi.

Mualif asarda tiriklar va marhumlarni muqoyasa etib, umr vodiysidagi baxt va baxtsizlik, saodat va halokat tushunchasini qahramon hasrat-u nadomati doirasida baholab boradi. Hayotni tun sultanatidan iborat deb bilgan kimsa imon-u shafqatdan madad olishni o'ylasa ham, unga jazm etolmaydi. Unda o'z dunyosidan nurli manzilga ko'chishga iroda, jasorat yetishmaydi.

Nazar Eshonqul qisqa davr – bir tun voqeligini tarix ko'zgusida taqdim etishga harakat qiladi. Qorong'i bo'shliqdagi qahramon tiriklik dunyosiga qo'l siltab, xayol hududiga intilar ekan, bu ro'yo, saroblar girdobiga g'arq bo'laveradi. Tun bari fojeaning guvohi, kufr-u isyonning mahzun kimsani zabit etishini sokin kuzatadi. Panjara kufrdan imonga qaytishga imkon bermayotgan to'siq bo'lib, istag-u shijoat bunga barham berishi mumkin.

Modern asar qahramonidagi tushkunlik, noshukurlik isyonkorlikka rag'bat beradi. Imonsiz kishi ko'nglini iblis zabit etishga, u yerga fisq-u fujur urug'ini sepishga shaylanadi. Shunda ruh kasallikka chalinib, tutqunlikka mahkum etiladi. Modernistik adabiyot namunalarida ayni shu hurlik, ishqdan mosuvo ruh iztirobi mungi sadolanadi. Kishi vujudi ham bo'shliqqa aylanib, ma'nisiz, maslaksiz kun kechiradi, atrofdagi hodisalarga loqaydlik, bee'tiborlik ortib boradi.

Nazar Eshonqulning «Go'ro'g'li yoxud hayot suvi» romani ramziy usulda yaratilgan. Mualif N. obraziga ism ham bermaydi. Ismsiz qahramon o'z muhiti, jamiyatida tirikligini isbotlay olmay xarob bo'ladi. Mustabid tuzum kishi qadrini toptab, uni o'zligi, g'ururidan mahrum etadi. Buning natijasida ma'nisiz hayotdan mantiq izlashga imkon topmagan olomon yuzaga kelgan. Adib

shu jarayonni, o'z tirikligi, mavjudligini anglatishga intilgan kimsa fojiasini talqin etadi. Xo'rlik hamda haqoratga mubtalo N. ijara (uyi ham yo'q) omonat, xavotir ichra yashashga mahkum. Kasbdoshlar bilan bog'liq motivda kimsaning hujjatsiz hech narsa ekani yanada oydinlashadi. Ishonchsizlik, shubha, guman ni dastur aylagan kattalar maydalarni toptashdan hayiqishmaydi. Mayda kimsa qo'shni, qarindosh, kasbdosh, mahramlar mehr-u oqibatidan mosovo, shu bois uning tirikligiga guvoh topilmaydi. Turli idoralardagi chigal vaziyatlar turmushning murakkab jumbog'ini hal etish dushvorligini asoslaydi.

Asardagi badbo'y hid, mute kimsalar, turli shovqin-suronlar jamiyatdagi nosozlik, parokandalik holatiga chizgi tortadi. Asar strukturasidagi rivoyatlar ham shaytanat olamidagi zulmatga ishora qiladi. Avlodlar jasorati, mardligi, shijoati bolalarga doim o'rnak bo'lgan, ularning o'z oilasi, vataniga sadoqat ruhida voyaga yetishiga zamin hozirlagan. Bolalar ko'z o'ngida ota-bobolarning miyasini ilon parmalashi g'ayriinsoniy vaziyat, bu yoshlarda qo'rquv, mutelikni paydo qilib, ularni g'urur ne'matidan mosovo etadi. Bu jazo usulidan iblis qiyofasidagi johillar zavqlanishadi.

Rivoyat ham asar poetikasining mazmun qatlamini teran-lashtirib, tubanlik, yovuzlik, razolatning odamzodga bermis xataridan ogoh aylaydi. Davr va qahramon kontrasti turli soha vakillarining umr sahifalaridagi befarqlik, loqaydlik kayfiyati ustun ekanligidan dalolat beradi. N. bu tiriklik olamida sarson-u sargardon bo'lib, nihoyat o'ziga choh qazib, go'rga tushishni lozim topadi. Muallif jamiyatdagi insonning qadrsizlanishini bosqichma-bosqich yoritib, bu halokat, fojiadan inson atalmish yaratiqqa saboq beradi.

Qahramonning ismsizligi ham modern asarga xos xususiyat bo'lib, uning umidsiz, loqayd holatini asoslaydi. Bu inson jamiyatdagi turli kasb, jinsdan nafratlanib, borliqqa adovat nigohi bilan boqadi. Hayotidagi fojianing ildizini o'zidan emas, atrof-

dagilardan izlaydi. Botindagi qo'rqoqlik, hafsalasizlik uni absurd, ma'nisiz alfozda ko'rsatadi. G'aflat uyqusidagi kimsa faqat g'imirlab yuradi, hech narsaga talpinmaydi, keljak borasida reja tuzmaydi. Ba'zan bolalikdagi baxtiyor damlarni sog'inganday tuyuladi, biroq muvaqqat istak tez unut bo'ladi.

Vahshiylikning ibtidosi iblis nayrangi, makridan bino bo'la-di. Yaralish onidagi intiqom oxiratga qadar davom etadi. Inson ruhan pokligi, sabrli, shukrli, itoatlilagini unutgan chog'da shay-ton vasvasasiga imkon tug'iladi. Modernistik obraz o'zligidan mahrum bo'lib, manfiy qutb – iblis izmidagi g'ofil, loqayd kimsalar fojeasini umumlashtiradi.

Insoniyat yaralganidan hozirga qadar uni muammolar tark etgani yo'q. Bosh masala yaralish muddaosi, maqsadini unutmaslik hamda sinov dunyoning intihosidagi hisob onlaridan ogoh bo'lishga chorlaydi. Asrlar davomida odam ijtimoiy tur-mushdagi tilsim yechimini topishga intiladi. Har qanday vaziyatda ham masalani aql-u idrok bilan hal etish, vijdon hukmiga bo'yusunish maqsadga muvofiq. Modern hikoya, qissa, roman-larda kichik muammoga bee'tiborlik katta xatolarga poydevor bo'layotgani kompozitsion sathdan anglashilaveradi. Inson qiyofasining nursizlanib, xiralashishi uni sarobga yetaklaydi. Bu holat ongli mavjudotni qadr, e'tibordan mosuvo aylab, jirkanch maxluqlar doirasiga kiritib qo'yadi.

Modern asarda xronotopni aniq ko'rsatmaslik, makoniy, zamoniy o'lchovda sirlilik, mavhumlikka rioya etish kuzatiladi. Nodatiy holatlar, tasodifiy xulosalar, magik kuchlar kompozitsion qatlamni mustahkamlaydi. Badiiy obraz darajasida yovuz kuchlar faollashuvi, inson ruhiy dunyosidagi tizginsiz holatning ifodalaniши, tabiatga zug'umning ortishi tamoyili namoyon bo'ladi.

Modernistik asarda qiyofadan mahrumlik, ismsizlik, tush-kunlik holati insondagi tilsimni kashf etishga qiziqishni oshiradi. U yashayotgan maskan, muayyan an'analar haqida deyarli

mulohaza yuritilmaydi. Yo'lsizlik hamda vaqtsizlik qahramoni arosatda qoldirib, ma'nisizlikka undaydi. Hayotga sovuqqon munosabatni shakllantirgan kimsa tanholikda o'z qobig'iga burkanib o'lim onlarini kutadi. Asosan tun, zulmat, xaroba tasviri, qora bo'yoqlar, qon isi inson mavjudligi, azizligini inkor etishga qaratiladi. Omonat umrdagi sarob g'oyalar, xaos, tanazzul qahramonning hayot borasidagi orzularini puchga chiqaradi. Asardagi noreal lavhalar ma'naviyatdan mahrum kimsalarni xayolot kashfiyotlari tegrasida harakatlantiradi.

Modern asar «men»ning mahv etilishi, isyonning kurtak otishidan tanazzulga qadar bo'lgan halqani asta mustahkamlab boradi. Ayni halokatning ibtidosi insonning shayton nazoratiga o'tishi, loqayd-u tushkun kayfiyatga moslashishini tezlatadi. Hayotiy muammoning ichiga kirish, tilsimni uqishga intilish hududsiz olam tarovatini his qilishdan boshlanadi. Qahramoning tartibsiz hayoti, tushuniksiz kechinmalari g'ayritabiyy lavhalarni yuzaga keltiradi. Ijodkor bizga ma'lum olam ajoyibotlaridan o'zga diyorlarga ham nigoh tashlashga imkon yaratadi. Kurreyi zamindagi tilsimotni ramzlar orqali anglatishda vaqt, makon tushunchalarida aniqlikka rioya etilmaydi, umumiyl maqsadni yoritishda xayol mahsulidan ham o'rinli foydalilanildi.

Globallashuv davrida o'zlikni asrash, milliy an'analarni qadrlash muhim. Axborot xurujiga barham berishda, omaviy madaniyat ta'siridan saqlanishda mustaqil fikr, pok ko'ngil darkor. Bu davrda badiiy adabiyotni beqadr qilishga urinilmoqda. Ezgulikka intilish, mehr-u muruvvatni targ'ib qilish an'anasi mumtoz asarlarimizda boshlanib, asrlar davomida davom etgan. Hayotbaxsh an'anaga to'siq bo'layotgan illatga qarshi kurashishda asl asarlar mag'zini chaqish lozim. Realistik, modernistik kabi metodlarga mansub asarlarda insonparvarlik g'oyasining taranumi kitobxon ma'naviyatini yuksaltiradi. Yoshlar ongi va qalbini zararli ta'sirlardan asrashda badiiy adabiyotning ahamiyati katta.

Mustahkamlash uchun savollar:

1. Globallashuv jarayonida insoniyatga qanday xavf tug'ilapti?
2. Modernistik asarda badiiy obraz borasida mulohaza yuriting.
3. Modern asarda makon va vaqt masalasiga to'xtaling.
4. She'riyatdagi o'zgarishlar xususida fikr bildirинг.
5. Nazar Eshonqul nasrida modernistik asarlarning o'rni...
6. «Qora kun» asarida obrazlar mohiyat...

«BBB» texnologiyasi

Bilar edim	Bilmoqchi edim	Bildim
Modern adabiyot haqida umumiy taassurotim mavjud. Unda insonning absurd hayotga moslashuvi, makon mavhumligi, shaytanat olami asrori ramzlar orqali yoritiladi	O'zbek modern adabiyoti vakillari	Bahrom Ro'zimuhammad, Faxriyor, Nazar Eshonqul, Shodiqul Hamro. Shoirlar shakliy o'zgarish qilgan. Ijodkorlar ishoraviylik, ramziylik vositasida voqelikni yangi yo'sinda yoritgan
«Qora kitob» qissasi haqida eshitgan edim. Nazar Eshonqul qalamiga mansub. Tasvir, ifoda o'zgacha deyilgan	Asar qahramonlari	Cho'qqisoqol, ota, ona, ikki o'g'il, qiz. Iblis fitnasi, nayrangiga sirida oila, so'ng jamiyat tanazzulga yuz buradi. O'g'rilik va yolg'on insonni zulmatga mubtalo etadi

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- Дўстмуҳаммад Х. Беозор қушнинг қарғиши. – Тошкент: Шарқ, 2006.
- Шарафиддинов О. Жаҳон адиблари адабиёт ҳақида. – Тошкент: Маънавият, 2010.
- Эшонқул Н. Ялпиз ҳиди. – Тошкент: Шарқ, 2008.
- Эшонқул Н. Гўрўғли ёхуд ҳаёт суви. – Тошкент: Шарқ, 2019.
- Фахриёр. Аёлғу. – Тошкент: Шарқ, 2010.
- Куронов ва б. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент, 2011.

TESTLAR

1. «Qora kun» qissasida qishloqda qolgan yolg'iz qahramon kim?

- | | |
|------------|---------------|
| A. Oqsoqol | B. Somsapaz |
| D. Folbin | E. Tentak qiz |

2. «Tun panjaralari» qissasida qahramonning tundagi suhbатdoshini aniqlang.

- | | |
|------------|-----------|
| A. Shayton | B. Malak |
| D. Ayol | E. Maddoh |

3. «Ayolg'u» asarining muallifini belgilang.

- | | |
|---------------|----------------|
| A. Usmon Azim | B. Salim Ashur |
| D. Faxriyor | E. Suhrob Ziyo |

4. «Go'ro'g'li» romanidagi qahramon nima uchun kurashti?

- | | |
|---------------|--------------------------------|
| A. Pul uchun | B. Mansab uchun |
| D. Oila uchun | E. Tirikligini isbotlash uchun |

5. Modern asarda qanday hayot tasvirlanadi?

- | | |
|------------|-------------|
| A. Farovon | B. Ma'nisiz |
| D. Tinch | E. Sokin |

Mavzu:**HOZIRGI O'ZBEK SHE'RIYATI*****Reja:***

1. Hozirgi she'riyatda go'zallik konsepsiysi
2. Hozirgi nazmda vatan, muhabbat mavzusi
3. She'riyatda ruhiyat tasviri

Tayanch so'zlar: shoir, lirika, tuyg'u, ko'ngil, poetika, ohang, tashbeh, estetika

Har bir turga xos xususiyatlar adabiyot nazariyasida teranlik bilan yoritib berilgan. Lirik turga mansub asarlarda qahramonning o'y-kechinmalari, qalb ichtiroblari uning hissiyotlari orqali ta'sirli ifodalanadi. She'rdagi badiiy san'atlar, tashbeh-u sifatlashlar asar tili, ohangi, uslubini yorqin tasvirlashga xizmat qiladi. Shoir go'zallik, nafosat olamini yaratishda boy tasavvur hamda taxayyul dunyoqarashini namoyon etadi. U so'z qudratini siyrat manzaralari chizgisida to'la his qildirishga intiladi. Inson ko'ngli go'zallikka oshno bo'lgani bois shoir uning sezimlari, ruhiyat tebranishlarini injas tasvirlar bilan pardalab boradi.

She'riyatda hayot, voqelik zarbi bilan tebrangan shoir qalbining ohangi ifodalanadi. Poeziyada sehrli so'z, kuy, ohang va yorqin manzaralilikning hosilasi paydo bo'ladi. She'riyatdagি ranglar jilvasini, obrazlar boyligini vujudga keltiradigan kuch, avvalo, oshiq qalbidagi, ongidagi o'zgarishlardir. Bugungi lirikada izlanish, yangilanish jarayoni kechmoqda. Voqelik va inson tabiatining o'zgarib turishi, yangi g'oyanining tug'ilishi, makon va zamon xossalalarini idrok etish – bularning bari hayot qatlamini tadqiq qilishni teranlashtirish bilan barobar yangi shaklni yuzaga

ga chiqarib, voqeа bo'lgan har bir asarning janr qirralarini boyitmoqda. Hozirgi she'riyatdagi janrlar bilan tanishish kitobxon bilimini boyitib boradi.

She'riyat – ko'ngil ko'zgusi. U insonning siyratidagi armon-u nolalarni turli rang, ohanglarda ta'sirliri ifodalaydi. Shoир olam-u odam borasidagi falsafiy, estetik qarashlarini she'rlari silsilasiga singdirib boradi. O'zbek she'riyatiga yangi obraz, mazmun baxsh etgan Abdulla Oripov so'z shukuhi, nafosatini his ettirishga muvaffaq bo'ldi. Bepoyon samoning «mitti yulduz»i loqayd «olomon»ni ma'rifatga chorlab, chin oshiqlik saodatini «birinchi muhabbat»ga abadiy muhrladi. Shoир olamlarning Rabbisiga «munojot» aylab, islom falsafasini «haj daftari» bitiklari bilan boyitdi.

Abdulla Oripov umumadabiyotga vatan, oila, muhabbat mavzularidagi qalb asrorlarini taqdim etish uchun zargar misol so'zlarni saralab, ularni inja tuyg'ular bilan ziynatladi. «Ojiz qalam»i ila yurtini, diyorini poetik ifodalagan shoир ohorli, salmoqli tashbehchlarni erkin qo'lladi. «Yurtini boyligi-chun» sevgan nokaslarni kechirmagan shoирning qalbi ozorlanadi. Uning she'rlaridagi badiiy obrazlar milliy ruh bilan to'yintirilib, tuyg'u hamda ehtiroslarni tiniq ifodalashga yo'naltiriladi.

Badiiy ijodda shoир-u yozuvchilar muhabbat talqiniga alohida e'tibor bergenlar. Xususan, ishqilohiy dardmandlari Allahga nola, iltijo, munojot aylab oshiqlik ne'matiga shukrona keltirganlar. Munojotda dil izhori, ko'ngil nolasi imon halovati uyg'unligida sayqal topgan. Donishmand Alisher Navoiy «Munojot» asarida asmoyi husna latofati, mohiyatini nozik anglatadi. Oshiq inson Yaratganning buyuk qudrati oldida ojizligini, jamodot-u nabotot misol kichik zarraligini yodda saqlaydi. Asrlar osha munojot ahli ijodga ilhom baxsh etavergan. Abdulla Oripovning «Munojot»ni tinglab» she'rida ham odam-u olamga murojaat zamirida foniylilik hamda boqiylik tushunchalariga

ishora beriladi. Kuy, ohanglar moziy haqiqatidan nola aylarkan, g'am, ko'zyosh, faryodlar osha yangi manzaralar jonlanib boradi.

Shoir mahzun kuy vositasida azaliy dardni his ettiradi, ruhiyatda sokinlikni orttiradi. Musiqa islom falsafasidagi tanho, fard oshiq holatini tinglashga, unga hammaslak bo'lishga chorlaydi. Ingranayotgan tashbehi zamirida dard darajasi, salmog'i borasida muayyan tasavvur paydo bo'ladi. G'am, tashvish zamon osha insonga hamrohligi xotirimizda olam yaralgandan buyon sodir bo'layoutgan razolat-u jaholatni suratlantiradi. Nolavor kuy ta'siri ziyyodligidan g'am tasavvuriga tafakkur ojizlik qiladi. Olam tilsimotidan bexabar odam hanuz hidoyat yo'lini anglashga ojiz. Na falak qismati, na zamin tartibotini uqmagan basir darbadar kezishga mahkum. Inson murakkab qismati, tiriklik sinoatida toblanishi, dardga bardoshliligi ruhiy kechinma zalvorini oshiradi. Munojot mahzun, sokin ohang bilan to'yintirilgan. Unda insonning o'z sifatini poklashi, dunyo fitnasidan xoli bo'lishi ramziy shaklda umumlashtiriladi. Lirk qahramon ruhiyatidagi bezovtalik ohang vositasida teran anglashiladi.

Rauf Parfining «Munojot» she'rida lirk qahramon imon halovati, islomning poydevorini his etishlik, bahramand bo'lishlik bilan hidoyatga erishadi. Olamning Yaratuvchisi loy, suv va tuproq qorishig'idan odamning shakl-u shamoyilini bunyod etgan. Asliga siddiq inson qismat bitigi xayrli bo'lishini, ikki dunyo ofiyati, saodatiga musharraflikni umid qiladi. Kishi vujudi tomirda timay harakatlanadigan qon bilan tirikdir. Pokiza qon shaytoniy xurujdan, nafs qutqusidan xoli bo'lib, jism-u jonni dunyoviy hirsdan asraydi. Dil ravshanligi qora dog', rutubat, jaholatga kuchli zarba beradi. Yuzi yorug', nurli siyomoning qalbi ham ezzulik, saxiylikdan orom oladi.

Lirk qahramon o'zining foniyligi (o'tkinchi) ekanini idrok etadi. Ma'lum vaqt yashashga mahkum inson har soniyada yolg'iz

Allohga muhtojlikni anglasa, butun vujudi ila unga suyansa, hidoyat qilingan bandalar safidan joy olishga noil bo'ladi. Shoir munojotida mangulik, buyuklik faqat Allohga xosligi ta'kidlanib, ungagina ixlos qo'yish, suyanish, tavakkal qilish falsafasi singdiriladi. Yaratganning shafqati, marhamati bois inson mag'firatga sazovor bo'ladi. Shoirning fanolik va baqolik xususidagi mushohadasi zimnida omonat umr manzaralari poetik ifodalanadi.

Shavkat Rahmon «Munojot» she'rida tiriklik manzili mohiyatini shunday ifodalaydi:

*Bu dunyo nimadir, barini ko'rdim,
Sulton-u gadoning qa'rini ko'rdim.
G'azzoliy sig'magan tuban olama
Shaytondan to'rangan g'ayirni ko'rdim.*

Lirik qahramon – dunyo lazzat-u g'amini idrok etgan, kibr-u qabohatdan voz kechgan mushohada sohibi. Sultan fitratida mehr-u qahr almashib tursa ham, oqil, donish shaxsadolat tutumida sobit qoladi. Fanolik diyorida sulton-u gado teng maqomda bo'lishi Navoiy dostonidagi ibratli lavhaga ishora qiladi. Iskandarday fotihdan o'limi yo'q hayot, keksaligi yo'q yoshlik, tunganmas boylik, betashvish umr tilagan darvesh maslagi tirilik omonatligidan voqif aylaydi. Dil ajoyibotidan saboq bergan Imom G'azzoliy yashash ma'nisini imon halovatida tuygani bois olam nayrangiga qiyo boqmaydi. Shaytanat izmidagi nafs bandilari esa abgor ahvolda jaholatga botaveradi. Shoir ikki yo'l – hidoyat va razolatni obrazli tarzda muqoyosa aylabdi.

Ulug'bek Hamdamning «Munojot» she'rida asosiy ma'no umid so'zida zuhurlanadi. Orzu, umid har bir insonga tasallli, malham bo'lib, uning baqolik hamda fanolik farog'atiga istagini orttirib boradi.

*Yuragimga kirgil, umidim,
Ko'zlarimda turgil, umidim.
Yana meni tark etma zinhor,
Yo'qlik ichra tark etma zinhor.*

Islomda noumid – shayton deyiladi. Inson tiynatining ziynati umid, ko'zimizda ham uchqunlanishi, shoyonlik sururini namoyon etishi tabiiy. Har banda yolg'iz Allohdan umid aylab, imon halovati, vujud salomati, ikki dunyo farog'ati ilinjida mujda kutadi. Ko'rinadiki, borlikdan yo'qlik olamiga sayr aylaydigan ruhga umid hamrohligi saodat ekan. Munojotdagi soddalikdan murakkablikka intilish usuli inson fitratidagi itoat ne'matini lirik polotnoda tinglovchisi hukmiga havola etadi.

Munojot turkumidagi she'rlar dardmand oshiqlar yo'lini davom ettirayotgan muhib iltijolarini anglatib boradi. Lirik qahramon olamning zarrasi bo'lib, ishq tug'yonini idrok etgandi. Ruhiy parvoz zavqi oshiqqa tez yuqadi, u ilohiy dardni tuyib, yolg'izlikni ixtiyor aylaydi. Qahramonning manglayga bitilgan qismatida yer-u ummondagi sarsonlig-u sinoatga bardoshliligi, dildosh, maslakdoshga zorligi hayot sahifalarini to'ldirib boradi. U yo'l axtarayotgan, olam qalbini tinglashga intilayotgan, inson faryodiga to'la koinotdan o'zga manzilni istayotgan, faqat haqiqiy ishq abadiyligini anglagan darveshdir. Bevafo dunyoga etak siltagan, nafsga bandi bo'lмаган, oshiq qalb sukuti tafakkur, со'zlari zikr bo'ladi. Alloh huzurida halovatni xohlagan inson har lahma ogoh yashashga intiladi.

Munojot yanglig' she'r poetikasida qahramonni har tomonlama inkishof etish, tafakkur harakati jarayonini badiiy gavdalantirishga e'tibor beriladi. Ichki monolog asosida oshiq tafakkuring yangi qirralari yoritib boriladi. Bir holatdan ikkinchi holatga o'tilishi, qalb tebranishi tasvirni jonlantiradi. Asarda munojot kuyi sokin taralib turadi. Buni anglagan, vujudi bilan tinglagan

inson haq va botilni ajratishga ahamiyat beradi. Asarda ruhiy halovat sohiblarining tug'ma xislati ifodalanib, turli sinoatni zabit etib, Haq visoliga oshiqishi talqin qilinadi.

Asl she'r o'zga ijodkorlarga ham manzur bo'libgina qolmay, ularning asarlari kompozitsiyasini boyitishi mumkin. Abdulla Oripovning «Munojot»ni tinglab» she'ridan ilhomlangan Abdulla Qahhor o'zining «O'tmishdan ertaklar» qissasiga bir bandini epigraf qilib belgilagan. Adib u orqali ma'noviy, ramziy qatlarga ishora aylagan. Asar matnini uqish jarayonida go'dagidan ayrilgan onaizor, o'lim to'shadagi dardmand ayol, norasida marhuma Savriniso, jonzotdan ozorlangan kelin, sodda, mute Babarlar qismati umumlashmasida tiriklik, judolik motivlari no-lavor kuy ta'sirida jonli yoritilganining guvohi bo'lasiz. Yozuvchi O'tkir Hoshimovning «Bahor qaytmaydi» qissasi tarkibida Alimardon obrazi qirralarini ta'sirli yoritishda Abdulla Oripovning «Ketmoqdamon» she'ridan o'rini foydalaniłgan. Qahramon fitratidagi yo'lсizlik, tushkunlik tuyg'ulariga hamohang ushbu she'riy lavha muallif badiiy niyatini tiniq yetkazishga xizmat qilgan. Shoир she'rlaridagi mantiqiylik, falsafiylik xarakter mohiyatini teran ifodalashga sabab bo'lgani ayonlashadi.

Zamonaviy she'riyat namunalarida lirk kechinmani ta'sirli, obrazli his qildiradigan voqeaband she'rlar ham diqqatni tortadi. Bu she'rda asosan voqeanning asosiy ma'no nuqtalari maxzannini kitobxon shuuriga yetkazish, ayrim detallarga urg'u berish, kontrast lavhani bo'rttirish, kulminatsion vaziyatni o'zgacha ohangda sozlash kuzatiladi. Kitobxon tasavvur dunyosida lirk qahramon toleyidagi sinoat-u nihon asrorlar asta tiniqlashib borar ekan, bunda muayyan axloqiy ahkomlar bo'y ko'rsatadi. Abdulla Oripov, Erkin Vohidov, Matnazar Abdulhakim, Iqbol Mirzo kabi adiblar ijodida voqeaband she'rlar ko'zga tashlanadi.

Insoniyat yaralganidan buyon jaholat, qabohatdan ogoh etiladi. Afsuski, nafs iskanjasidagi qalb tinchlik ne'matini asrashni

xohlamaydi. Odamzod yaralganidan buyon urush, nizolar bois millat-u elatlar yo'qolib borayotir. Urush oila, jamiyatdagi taribotni izdan chiqarib, yosh-u naslga qaramay barini vayron aylaydi. Shoирning «Ayol» nomli voqeaband she'rida ayriliq, firoq, bardosh, sabr kabi tushunchalar urush talafoti, oqibati, cheksiz ziyoni borasidagi tasavvurni birlashtiribgina qolmay, inson sadoqatini yuksak maqomga ko'taradi. Abdulla Oripov mavzuning yangi qirrasini ayni «sodiq beva» obrazida kashf etadi. O'n to'qqiz yoshli beva ayolning ma'naviy jasorati marhum jufti haloliga vafosida tajassumini topadi, oila arkonini, jamiyat nizomini shu nuqtada mustahkamlaydi. Bu poetik obraz shoир ide-alidagi o'zbekning vafoli ayoli, u orqali insoniy iroda, bardosh tuyg'ularini tiniqlashtiradi.

Iqbol Mirzoning «Sodiq chegachining xotini» voqeaband she'rida esa tinch sharoitda oilaviy baxt qadrini his etmagan ayol fojiasi qalamga olinadi. She'rda chegachi so'zida majoziylik bo'y ko'rsatadi. Befarzand erkak chegachi kasbi ila siniq idish, narsani chegalaydi, ammo xiyonat bois ko'ngil darzini ketkiza olmaydi. Qizig'i, ayol botin-u zohirini go'zal, nafis jilolar bilan pardalamaydi. Ayol xunuk, qo'pol, vafosiz bo'lgani bois halol, mehnatkash eri ma'naviy olamiga begonaligicha qoladi. Ayriliq motivi ayolni iztirobga solgani bilan so'nggi pushaymonning nafi yo'qligi asoslanadi. Bu she'rlar turli vaqtda bitilgan, ammo fazilat-u illat, sabr-u qanoatsizlik muqoyasasi kitobxonga hayotiy saboq bo'lib, dolzarbligini yo'qotmaydi.

Erkin Vohidovning «Tushki tanaffus» voqeaband she'rida ham oila ma'naviyati masalasi o'zgacha rakursda taqdim etiladi. Rashkning ortig'i illatga yo'l ochadi, ayolning erini qattiq nazoratga olishi ishonchga barham beradi. O'lim ayolni bevaga aylantiradi, qabristonda begona ayolning eri tepasidagi nolasi nihon sirni kitobxonga ayon etishga turtki bo'ladi. Ikki ayol suhabatidan chigal vaziyatga oydinlik kiritiladi. Dialog vositasida

kishilar tiynatiga nigoh tashlanadi. Erkakning tushki tanaffus chog'ida begona (aslida, qalban yaqin) ayol bilan dildor suhbat shubhalarga barham beradi. Ma'nан bir-birini tushungan erkak va ayol xiyonatga qo'l urishmaydi, faqat hayot, umr bobidagi qarashlaridagi mushtaraklikni tushunib borishadi. Rashkchi ayol erining ko'nglini his etmagani, tazyiq qilgani motivida kishidagi kibr, zug'um; begona ayolning samimiymunosabatidagi ehtirom ko'rsatilar ekan, bir jins vakilining ikki toifasi muqoyasa etiladi. Oilada baxt poydevorini ishonch, muloyimlik, ehtirom mustah-kamlashi lirk qahramonlar umri manzarasida tajassumini topadi. She'rarda voqeа to'laqonli tasvirlanmay, undagi tayanch nuqta, e'tiborli vaziyat, ruhiy kechinma ifodasi kitobxonga asl maxzanni tushunishga yordam beradi.

Dunyoda turli kasb egalari ijtimoiy hayotda faoliyat olib boradilar. Muallimlik yo'lining mashaqqatli onlarini qog'ozga muhrlagan Matnazar Abduhakimning voqeaband she'ridan ta'sirlangan kitob muhiblari Xorazm viloyatida ramziy haykal o'rnatganlar. «Darsdan so'ng» she'rida burchini mas'uliyat bilan uddalagan muallimaning foje qismati satrlar sasini, mungini o'quvchilar qalbiga yetkazib, ularni larzaga soladi. Tun, yolg'iz ayol, daftar, qashqir, olov poetik tasviri halokatga ishora beradi. Uyi, oilasi davrasiga yetolmay, sovuq qish tunida qashqirlar hamlasiga yo'liqqa muallima siymosi kishi sezimlarini achnish, chuqur iztirob bilan chulg'ab oladi. O'z vaqtida yetti o'quvching daftar topshirmagani falokatli vaziyatga sabab bo'lgani, shular bois qog'oz tugab, qashqirlarni olov bilan qo'rqtib uyga yetib olish imkonи qolmagani tragik pafosni kuchaytiradi.

*Uvvos, fig'on tutdi qishloqni tongda,
Zamin aza ochdi, zamon yig'ladi.
Daftar topshirmagan yetti o'quvchi
Hammadan ham yomon yig'ladi.*

She'rdagi bu motiv zimnidagi qayg'u zaifa, ammo qat'iyatlili muallima, loqayd o'quvchilar, vahshiy qashqir uchligi mohiyatiga teran razm solishni taqozo etadi. Shoir ziyoni tussiz, nursiz zulmatga aylantirgan jonzot yovuzligida yetti bolaning hissasi borligini asta anglatadi. Hayotda ustoz va tolib orasida burch, mas'uliyat bo'lsa, ma'rifat manzili obod bo'ladi, aks holda, qashqirlar bo'stonni vayron etishdan hayiqmaydi. She'rning ahamiyati ommaviy madaniyat urchiyotgan bugungi vaqtida yanadi ortadi. Qashqir majoziy mohiyat kasb etgani bois uning timsolida ilm-u ma'rifat kushandalari girdobiga tushib, tutqun bo'lmaslik, o'z mustaqil qarashi, ziyosi bilan zarba berishlik ko'zda tutiladi. Afsus-u nadomatga mubtalo yetti o'quvchi ham bundan saboq olib, umrini ezungulikka, xayrlı ishga safarbar etishi lozim. Zero, ilm-u ma'rifatni qadrlagan millat hech qachon zavol topmaydi.

*Tap tortmay qismatning dasht, qirlaridan
O'zimcha asragim keladi seni
Yovuzlik, xiyonat qashqirlaridan,
Men mashq bajaraman, yozaman har kun
Daraklar, so'roqlar, xitoblarimni.
Sen yo'l bo'yи yoqib tashlab ketaver
Qashqirlar qo'rqquvchi kitoblarimni.*

Abdulla Oripovning «Onajon» she'rida inson qalbidagi firoqning mahzun nolasi sadolanadi. Shoir o'z iztirob-u sog'inchini o'quvchisiga ham yuqtiradi. U ona hamda farzand orasidagi abadiy rishtani mehr, muruvvat, ishonch ne'matlari bilan suratlantiradi. Muhimi, ona timsolida eng mehrli, samimiy inson qiyofasini bus-butun tasvirlaydi. Shoir tushlarida «boshini silab turgan onajon»ini doim sog'inib yashaydi. Ijodkor ona fitratidagi bag'rikenglik, muruvvatni shunday poetik ifodalar bilan quvvat-

laydi. Shoир turfa obrazlar orqali kishi tuyg'ularining rangin manzaralarini jonlantiribgina qolmay, she'riyat xazinasiga ohorli fikrlari ila munosib hissa qo'shgan haqiqat sohibi bo'lib qolaveradi.

Erkin Vohidovning «O'zbegim» qasidasi bugungi kunda ham turli soha vakillari tomonidan mutolaa qilinadi. Muhammad Yusufning «Ulug'imsan, Vatanim» she'rida ham milliy g'urur, iftixor tuyg'ularining nozik ifodasi kitobxon ruhiyatiga epkinlik baxsh etadi. Har ikki she'r ham ohangga solinib, maromida qo'shiq qilib ijro etilgan. Betakror she'rlar matnidagi ohorli fikrlar, fayziyob tasvirlar shoир ko'ngli tubidagi tiniq tuyg'ulardan voqif etadi. Xoqon-u sulton o'zbekning qadim, buyukligi oqsoch Tiyonshon-u Pomirga mengzalishi, moziy haqiqatini doston aylashga mingta Firdavsiy jazm etishi o'ziga xos poetik manzarani jonlantiradi.

Alisher Navoiyning sohir ovozi jahonga sadolanishi, dard-sitamga hurlik ma'vosi malham bo'lishi shoир ko'nglidagi shaffof niyatning zuhurlanishiga turtki beradi. Ulug' o'zbekning oqil Yassaviysi, tumor Mashrabi, tanti Navoiysi oldidagi burchdorlik shoirni bedor aylaydi. Qodiriy dilini dog'lagan, Usmon Nosir xokini xorlagan nokaslardan yuz burish, Qurdistonda Jaloliddin Manguberdi, Hindistonda Mirzo Bobur nolasiga hamdard bo'lish motivlaridagi reallik, joziblik kitobxon sezimlarini bezovta qiladi.

Millat tarixi, an'analarini va qadriyatlarini jonli, tabiiy ifodalash, allomalar, sarkardalarning shonli hayot yo'lini turli bo'yoqlarda tasvirlash, bobolar qat'iysi, jasoratini mayoq qilib ko'rsatish avlodlarga kuch-quvvat bag'ishlaydi. O'zbek fe'lida-gi tantilik, bag'rikenglik fazilatini axloqiy, falsafiy qarashlar silsilasida yuzaga chiqarish e'tiborga molik. Shoirlar ma'noviy, ramziy qatlama zimnida millat erki, hurligi saodatini kuylagani oydinlashadi.

Muhammad Yusuf oqko'ngil, sodda, bag'rikeng inson bo'lib, o'zbek millatiga xos mehr-u muruvvat, oqibat-u sadoqatni asar-

lari silsilasiga singdirib bordi. U birlik, yaxlitlik yurtining barcha vohasidagi kishilar totuv turmushida aks etishini qadrlaydi, «Toshkent», «Mingtepa», «Andijon», «Marg‘ilon» yanglig‘ bitiklarida tong-u oqshomni, bog‘-u yaylovnii, tandir-u shirmoyni jo’shib madh etadi. Uning sardaftarini Mirzo Bobur, Abdulhamid Cho’lpon, Abdulla Qodiriy suluki, Mohlaroyim, Qurbonjon dodxo matonati, Oybek, G’afur G’ulom sog‘inchi ziynatlab tura-di. She’rlar kompozitsiyasidagi inja tasvir, teran ifoda, ko’ngil izhori ijodkorning so‘z xazinasi mahsulidir.

Rauf Parfining zamonaviy she’riyat vakillari, ularning axloqiy, falsafiy qarashlarini qamragan bag‘ishlov yo‘sindagi she’rlarida bu siymolar fitratiga nigoh tashlanadi. Shoир nazariга, e’tirofiga munosib bo‘lgan so‘z shaydolari xususidagi tugal fikrga ahamiyat bering:

*Bu kun sen boshqasan, dunyo boshqadir...
Sen-da hur tug‘ilding. Bir so‘zla. Bir o‘l.*

Ayni hur, ozod shaxs ko‘ngil, yurak amriga itoat etib, adabi-yotga chin dildan xizmat qiladi, kitob muhibini so‘z sehriga oshno aylashga muvaffaq bo‘ladi. Inson yorug‘ dunyoga ozod holda keladi, ijtimoiy munosabat, nohaqliк, zulm bois tutqunlikka muftalo bo‘ladi. Bu qismatga norozi bo‘lgan kishi haq yo‘ldan og‘ishmaydi, foniy dunyo nayrangiga parvo qilmay, o‘limni sharaf bilan qarshilaydi.

Rauf Parfi Oybek faoliyatini xolis kuzatib, uning shaxsiyatidagi salohiyat, qanoatga alohida hurmat bilan munosabatda bo‘ladi. Shoирning satrlari silsilasida peyzaj nafosati inson qismatiga ishora qiladi:

*Tog‘lar aro bir oydin buloq,
Atrofida shivirlar o‘tloq.*

*Buloqda sha'n va sobit chiroy,
Nur yo'lidek o'ylari yiroq,
Suvda mangulikdek suzar oy*

(«Oybek xotirasiga»).

Oy – yorug'lik, nurafshonlik timsoli, viqorli tog', oydin buloq ayni shoirning badiiy olami, undagi tiniqlik, to'g'rilik xislatiga mengzaladi. Tog', suv, borliqning noyob tasviri, undagi joziba kishi sezimlariga halovat baxsh etadi. Oybek tafakkur dunyosi bu shaffoflikka uyg'un bo'lib, ko'ngilga munavvarlik, soflik yog'dusini taratib turadi.

Rauf Parfi she'rlarining aksariyatida Turkiston obrazini kuza-tish mumkin. U farovon, obod manzil tarovatini peyzaj lirikasida kuylab, donishmand qahramon ruhiyatidagi epkinlik, ko'tarinkilikni tasvirlashga harakat qiladi. Ba'zan moziyga qaytib, millat o'g'lonlari qismatiga nigoh tashlanganda yana Turkiston ko'z oldimizda bor salobati ila bo'y ko'rsatadi. Xususan, yigirmanchi asr boshida ilm-u ma'rifat fidoyilar bo'lmish Abdulla Qodiriy, Abdulhamid Cho'lpon, Usmon Nosirlar murakkab taqdiri bitiklarida sinoatli damlar manzarasi qayta varaqlanadi.

Shoir Abdulla Qodiriy ijodining mohiyatini teran anglagan, adib armonlarini his qilibgina qolmay, unga hamdard bo'lgan. Abdulla Qodiriy jismoniy o'limdan hayiqmagan, imoni butun, maslagiga vafoli shaxs sifatida millat manfaatini himoya qilgan. Rauf Parfi uning tiynatidagi shijoatni o'z qalbi prizmasidan o'tkazib taqdim etadi:

*Oh, ona Turkiston, kuylayin yonib,
Dunyo jur'atini berding qo'limga.
Men endi angladim turkiy dunyoni,
Mana, men tayyorman endi o'limga*

(«Abdulla Qodiriy xotirasiga»).

Rauf Parfi Cho'lpon she'riyatidan ta'sirlangan, uning ohorli ifodalarini nozik his qilgan. Cho'lpon lirikasidagi turkiy xalqlar birligi, hurligi bobidagi mushohadalar Rauf Parfi dunyoqara-shiga monand. Har ikki shoir she'riy yo'naliш va oqimlar, ijod falsafasidagi yangilanishga moyilligi bilan ruhiy muvozanatni saqlashga e'tibor bergen. Xususan, san'at va madaniyat vakillari, ular merosi bobidagi she'rлar orasida ham mushtaraklik ko'zga tashlanadi. Cho'lpon Pushkin, Shekspir ijodini kuzatib, san'at turlari haqidagi qarashlarini ilmiy va badiiy yo'sinda ifodalagani ma'lum. Rauf Parfi ham Bog'chasarov fontani, Hamlet yanglig' bitiklari, Mikelanjelo, Van Gog kabi kichik portreti bilan dunyo-qarashi, didini namoyon etgan:

*Axtardim muhitda xas kabi qalqib
Men o'z Yulduzimni, o'z Quyoshimni...
Yulduz sen. Quyosh sen. Sen, ona xalqim,
Sen uchun sindirdim sinmas sozimni*

(«Abdulhamid Sulaymon Cho'lpon»).

Mazkur parchada Cho'lponning «Soz» to'plami tayanch nuqta bo'lib, bu soz sohibi maslagi yagona orzusi, ideali ona xalq ekan ni obrazli ifodalanadi. Yulduz porlab, osmonga o'zgacha tarovat ulashadi, bundan inson huzurlanadi. Quyosh nurlari ila kurreyi zaminga yorug'lik, quvvat taraladi. Shoир talqinicha, yulduz hamda quyosh xalqning, qadrli, suyukli elning timsolidir. Ayni xalq erkini istagan ko'ngilni kishanlashga, irodasini sindirishga harakat qilinsa-da, u o'zligini, maslagini asrashiga, sozi ila asrlar osha sado yangrashiga ishonch bildiriladi.

Xalq hayotining taraqqiyot bosqichidagi muhim ijtimoiy masalalarni zamondoshimiz ruhiyati bilan uyg'unlikda kuza-tish, inson murakkab olamini obrazli ifodalash poema, ballada da ham ko'zga tashlanadi. Poema obyektiv ko'rinishi jihatidan

ikkiga bo'linadi. Birinchisi monolog tipidagi sof poema bo'lsa, keyingisi epik elementlar aralashgan lirik poemadir. Ular bugungi poemachilikda yetakchi o'rinni egallaydi. Balladada ham inson ruhiyatini namoyon etishda intellektuallik, falsafiylik kabi belgilarni ortib bormoqda.

Ijodkor borliqning fusunkor manzarasi, kishilar pokiza qalbini tashbeh-u sifatlash vositasida poetik ifodalar ekan, uning bezovta qalbi, donish nigohi ayonlashadi. Ularda ilgari surilgan g'oya kitobxon ma'naviy salohiyatini yuksaltirib, qalb nidosini tinglashga chorlaydi. Asarlarda insonparvarlik, millatsevarlik ideallarini namoyon etgan qahramon tanlanib, betakror obraz yaratiladi. She'riyatda tuyg'u, kechinma dramatizmi, go'zallik va joziblik talqini turfa ohang bilan qorishiq holda ayon bo'lmoqda. Dunyoning azaliy hamda abadiy go'zalligini tuyish, insonni qadrlash, ulug'lash ijodkorni ilhomlantiradi. Lirik qahramon ko'z o'ngida suratlangan hayotning fayziyob betakror lahzasi, yuragiga ko'chib o'tgan totli nash'asi, tirklik sururi ko'ngil mulkiga aylanmoqda.

Istiqlol tufayli ma'naviy qadriyatlarga, madaniyatga, jumladan, so'z san'atiga nisbatan munosabat tubdan o'zgardi. Yangi davr nafaqat adabiyotimiz tarixiga, balki zamонавиy adabiy-badiiy jarayonga ham yangicha g'oyaviy-estetik mezon bilan yondashishni taqozo etadi. Hozirgi o'zbek she'riyatining ma'naviy miqyosi, badiiy, salohiyati kundan kunga o'sib boryapti. Shu ma'noda hozirgi o'zbek adabiyotida lirika alohida o'ringa ega. Unda zamondoshimiz qalbida kechayotgan his-tuyg'ularni aks ettirish barobarida jamiyatimizning har bir a'zosida mustaqillikka shukronalik, porloq kelajakka bo'lgan ishonchni mustah-kamlashga xizmat qilmoqda. Bu kun she'riyatining tabiatini va uning zamiridagi falsafiy g'oyani ochib berish, uning yetakchi g'oyaviy-badiiy tamoyillarini aniqlash, o'zbek she'riyatining istiqboldagi taraqqiyotini ham oldindan belgilashga imkon beradi.

Ma'lumki, ijtimoiy hayotda kechayotgan evrilishlar lirkada aks sado beradi. Birinchi navbatda, milliy istiqlol g'oyalari balqib turgan she'rlarga alohida e'tibor berish lozim. Abdulla Oripov, Erkin Vohidov, Oydin Hojiyeva, Halima Xudoyberdiyeva, Husniddin Sharipov, Usmon Azim, Muhammad Yusuf, Xurshid Davron, Azim Suyun, Iqbol Mirzo kabi shoirlarning she'rlarida kitobxonni yangi tarixiy voqelikni his qilishga, yangilanish va poklanishga chorlovchi g'oyalarni ko'ramiz. Bu g'oyalar avvalgidek hayqiriqlar tarzida baland pardalarda aytilgan, ammo yurakka yetib bormaydigan so'zlar bilan tarannum etilgan emas. Aksincha, yurak qa'ridan, ko'ngil torlaridan sizilgan, shuning uchun ular boshqa qalblarga ham yetib bordi va bormoqda. Shu tarzda xalqni – mustaqillik yo'liga chiqib olgan xalqni uyg'otuvchi, unda milliy g'urur va e'tiqod, istiqlol va istiqbolga ishonch tuyg'ularini ardoqlovchi she'rlar bugungi adabiy jarayondagi birinchi va yetakchi tamoyil hisoblanadi.

Sirojiddin Sayyid lirkasida vatan mavzusi yetakchi sanalib, uning huriqligi, tinchligi vasfi ko'ngilga huzur baxsh etadi:

*Bunda oy quyoshdan chehralar olgan,
O'gil ham qizlarning erkasi bordir.
Har aytgan so'zidan Vatan tug'ilgan
Egasi bor yurtning ertasi bordir.*

Shoir serquyosh yurtning tanti, polvon o'g'loni, lobar, orasta qizi xalqning vakili bo'lib, uning davomchisi, jonkuyar, inson-parvar avlodи ekanini eslatadi. U tinch yurtda osuda hayotning qadriga yetish, turli jaholat-u qabohatdan ma'rifat qalqoni ila himoyalanishni tavsiya etadi. Shoir har bir giyoh-u rayhon iforidan huzurlanib, go'shasining pok tuprog'i undirgan boshog'-u donlarni, rizq-u ro'zini avaylab eliga tortiq aylaydi, zamin ne'matlarini ardoqlashga chorlaydi.

Bugungi she'riyatda izlanish, yasharish, yangilanish jarayoni kechmoqda. Voqelik va inson tabiatining tinmay o'zgarib turiishi, yangi g'oyalarning tug'ilishi, makon va zamon xossalari ni idrok etish – bularning barchasi hayot qatlamlarini tadqiq qilishni teranlashtirish bilan barobar yangi shakllarni ham yuzaga chiqarmoqda; adabiyotimizda voqeа bo'lган har bir asar esa janr qirralarini boyitmoqda. Ya'ni xalq hayatining hozirgi tarixiy taraqqiyot bosqichidagi muhim ijtimoiy-siyosiy masalalarni zamondoshlarimiz ruhiyati bilan, ko'ngilda tug'ilib qolgan fikrlar bilan omixtalikda chuqur tahlil qilish kuchaydi; inson nima uchun dunyoga keladi, u qanday yashashi lozim kabi savollar lirikaning diqqat markazida turadi.

Hozirgi lirik asarlarda ham obrazli tafakkur tarzi, hayajonli kechinmalarni tiniq ifodalash, ruhiyatdagи evrilishni nozik izhor etish yetakchilik qilmoqda. Lirik qahramon monologi bezovta qalbdagi tug'yonli hissiyotlar, kechinmali o'ylarni tinglovchiga his qildiradi. Voqeа-hodisalar qarshisida turgan lirik qahramonning qalb nidolarini ifodalash bevosita obyektiv borliqdagi nar salarning obrazini yaratish bilan bir qatorda ularga some ko'ngil sadolarini tasvirlash usulidir.

Zamonaviy o'zbek she'rlarida ham lirik qahramon xarakterini yaratishda tasvirda ruhiyat bosh omilga aylandi. Ya'ni lirik qahramon ruhiyatini ijtimoiy muhit, voqelik masalalari bilan uyg'un holda tadqiq etish mayli kuchaydi. Buni quyidagi obyektiv va subyektiv omillar bilan izohlash mumkin. So'nggi yillarda inson shaxsiga bo'lган e'tiborning kuchayishi qahramon ruhiy iqlimlarini, qalbining to'rt faslini tadqiq etish bevosita uning sajiyasini ham keng qamrab olishni taqozo etdi. Keyingi paytda hayatimizdagi o'zgarishlar, mustaqillik sharofati bilan dunyoga chiqish inson ma'naviy dunyosini ham, ongini ham, fikrlashini ham tubdan o'zgartirib yubordi. Bu mushohadakorlik, teran

fikrlash jarayoni faqat ayrim odamlar shaxsidagina ro'y berib qolmay, butun xalq uchun xarakterlidir.

Kishi qalbini barcha murakkabligi bilan poetik ifodalash ijodkordan unga chuqur mushohada bilan yondashishni talab etadi. Natijada falsafiy o'ylar bilan to'yintirilgan asarlar paydo bo'lmoqda. Janr tabiatida, lirik qahramon ruhiyatini namoyon qilishda intellektuallik, falsafiylik, fikriy tolerantlik singari belgilar teranlashib bormoqda.

Abdulla Oripov «Haj daftari» va «Hikmat sadolari» turkumi bilan zamonaviy o'zbek she'riyatiga diniy-ma'rifiy g'oyalarni birinchi bo'lib olib kirdi. Shoir Rabg'uziyning «Qisasi Rabg'u-ziy» asari va Ismoil Buxoriyning «Hadis»larini o'rganish, Qur'oni karim mohiyatini anglash yosh avlodni imon va e'tiqod ruhida tarbiyalab, axloqini isloh etishi mumkinligini zukkolik bilan payqadi. Bu turkum she'rlarda imon halovati, ruh sakinati, kishi kamoloti masalalarini islom ahkomlari zimnida yoritishga muvaffaq bo'ldi.

Ijod maydonida sokin ko'ngil rozlarini muhibblarga taqdim etayotgan Eshqobil Shukur, Usmon Azim, Vafo Fayzulloh, Aziz Said, Sirojiddin Rauf, Salim Ashur kabi ijodkorlarning axloqiy, falsafiy qarashlari e'tiborga molik. Sirtdan qaraganda ba'zi she'r tashbehlariga yuklangan fikr, tuyg'ular ko'ngil ko'zida aks etgan mutlaqo noreal, tushdag'i kabi tartibsizlikday ko'rindi. Lekin chuqurroq mushohada qilinsa, uning mohiyati anglashiladi. Chunki odamiylik sharafini ulug'lash inson ruhiyati, munavvar hayot, boqiy dunyo hamda foniylik maxzaniga rioyatdir. Shunday ekan, tasvirning g'ayritabiyy bo'lishi hayron qolarli hol emas. Biroq gap tasvir va tashbehlarning realligida emas, uning zamirida yotgan fikr hamda uning mohiyati muhim.

Sirojiddin Raufning do'stiga bag'ishlovi umuminsoniyatga taalluqliligi bilan e'tiborni tortadi:

*Maydon ichra bir vafodor mard qani?
 Chin vafodor mardi maydon o'tgusi,
 Mingta do'sting bo'lsa ham kam, vodarig',
 Garchi bitta do'st, qadrdon o'tgusi.*

Hayot sinoatlarida kishiga tasalli, madad beradigan, uni bori-chaga qadrlaydigan, shodlig-u g'ussasiga yelkadosh bo'lgan shaxs haqiqiy do'st maqomini belgilab beradi. Tiriklik diyorida chin do'sti bor kishi xotirjamlik, halovat ichra farovon umr kechirsa, boqiylik olamida rohat-u farog'atga musharraflik mujdasi hadisi sharifda ayon bo'lgan.

Usmon Azimning lirkasida fasllar jozibi, iqlimi kishi tuyg'ulariga parallel yoxud kontrast suratlanadi:

*Tong chog'i tun bilan kunduz uchrashdi,
 Tunda armon bilan yulduz uchrashdi,
 Bahor bilan kuzak baxtxush uchrashdi,
 Toshlar uchrashdilar, biz uchrashmadik.*

Subhi sodiq tun pardasining kun haririga almashish onlari-ga shohid bo'ladi. Tun ayro ko'ngil nolasining guvohiga aylana-di. Bahoriy surur kuzgi tarovatga qadar baxt lazzatini tuyish-ga muyassar bo'ladi. Vaqt hukmi ila tog'-u toshlar uchrashadi, ammo oshiqlarga visol daqiqalari nasib etmaydi. Shoir kishi ko'ngil rozlarini obrazli ifodalashga noil bo'ladi.

Shodmonqul Salom lirkasidagi ohorli misralar, jozib ifodalar zimnidagi falsafiy tugallik kishi sezimlariga ta'sir etadi:

*Men yana tonglarga chiqaman peshvoz,
 Kafanim egnimda, erkim ko'nglimda,
 To bulbuli ta'bim fig'oni ortar,
 Bog'larni bulg'agan zog'lar qoshinda
 Meni Mahshar qadar bir qismat kutar,
 Kafanim egnimda, qo'lim boshimda.*

Haqiqat maslagiga sodiqlik, erkka tashnalik inson shaxsini, maqomini belgilab boradi. Bu bag'ishlov adabiyot, san'atga fidokorlikni namoyon etibgina qolmay, shoir tiynatidagi tavakkalchilik, jo'mardlikka ham ishora beradi. Boqiy dunyoga qijo boqmagan, o'llimga tik borgan ozod ko'ngil parvozga shay turadi, zog'lar fitnasidan hayiqmaydi. Undagi qat'iyat, o'zlik dunyoning turli nag'malariga zarba berishda tayanch sanaladi.

Zebo Mirzoning «Onam xotirasiga» she'ridagi ayrılıq onlari shunday sadolanadi:

*Fig'oni falakka chiqadi tandir,
Dasturxon boshida soviyi choynak.
Siz ekkan bulturgi tok novdalari
Bag'ri xun, ezilib tomadi chak-chak...*

Shoira o'zbek ayoli, onasi turmush tarzini u yashagan muhit, qadrdon narsalar doirasida qamrab olishga intiladi. Tandir non-dek aziz ne'mat pishadigan, ayol pazandaligini namoyon qiladigan vosita emas, u o'z egasidan ayrilganini his etib faryod chekayotgan hamroh. Oila barakasi ona mehri, beminnat mehnati, qalb qo'ridan yuzaga keladi. Choyning sovishi ham aynan ayrılıq nolasini, yosh tok novdalari sag'ir sasini tinglashga da'vat etadi. Har bir inson uchun ota-onadan judolik juda og'ir, shoira bu anduhni kitobxonga ham yuqtirib, darddoshiga aylantiradi.

Bugungi o'zbek she'riyatidagi yana bir tamoyil adabiyotning so'z san'atiligi, uning o'ziga xos xususiyatlarini ramziylik, bo'yqadorlik, jarangdorlik sifatlari bilan ziynatlashda kuzatiladi. Shoirning mahorati yaratgan poetik obrazlarida, ifoda madaniyatida namoyon bo'ladi. Yosh shoirlar ko'nglida kechayotgan jarayonning sirliligini, fikr, mushohada uyg'otgan to'lqinni yangi obrazlar tiliga ko'chira olganligini kuzatasiz.

She'rlarda so'z bo'yqadorligi, badiiy umumlashmaning falfasifiy, estetik mazmundorligi shoir sifatida shakllanayotganidan

darak beradi. Ikrom Iskandar, Behzod Fazliddin, Bektemir Pir-nafas, Xurshid Serobov, Jontemir, Muhiddin Abdusamad, Nas-rullo Ergash, Rustam Mirvohid, Suhrob Ziyo, Mehrinoz Abbosova, Go'zalbegim kabi shoirlarning she'rlarida tuyg'ularning tas-virini berish, kechinmalar uyg'otgan fikr, o'ylar suratini chizish yetakchilik qiladi. Yoshlarning vatan, millat haqidagi she'rlarida milliy g'urur ko'zga tashlanadi. Ular she'rxonni fikrlashga jalb qilishi, muayyan xulosa chiqarishiga imkoniyat yaratishi qalbni go'zallik tuyg'ulari bilan yo'g'irish holatlaridan biridir.

Muhiddin Abdusamadning «Kunlar falsafasi» she'rida

kecha
bugun
erta

vaqtifodasi muxtasar tasvirlanadi. Elas ko'ringan kecha, erta ertak bo'lish ehtimoli kishi umrining naqadar qisqaligi, omonatligiga ishora qiladi. Har bir inson qadrdon go'shadan ayro yashay olmaydi. Tinchlik hukmron yurtda taraqqiyot ham jadal-lashadi, muhimmi, xalq xotirjam, farovon kun kechiradi. Bugungi kunda bu ne'matga xiyonat qiladigan vatanfurushlar millatining nafratiga uchraydi. Muhiddin Abdusamad yoshlarni bunday halokatdan ogohlantiradi:

otasin, onasin, o'zini aldab,
yurtin dardlariga bo'lmasdan dalda
yurgan ul ko'zi ko'r, ko'ngli ko'rlardan,
yurtim, o'zing asra «Vatanxo'rlardan».

Bu satrlarda yolg'on, hiyla kishini eng e'zozli ota, ona, yurt-dan mahrum aylashi, basir-u nafs bandisining xorlikka mubtal-lo etilishi obrazli taqdim qilinadi. «Vatanxo'r» poetik topilmasi shoirning faryodi darajasini, millatning qahri ko'laminini sezdirishda muhim sanaladi.

Mazkur satrlar iqlimiga mazmunan yaqin misralar Nasrullo Ergashning «Xiyonat» she'rida ko'zga tashlanadi:

*Ay, ko'hna tarixlar kelmish xotirga,
Yurakni o'rtamish o'tlug' so'zingiz.
Vatan topilmaydi, Vatan sotilmas,
Ichdan sotmasangiz uni o'zingiz.*

Shoir asarlarida Abdulhamid Cho'lpon, Abdurauf Fitrat kabi adiblarning ezgu yozig'iga mushtaraklik ham ayonlashadi. «Kishan», «Xalq», «Ko'ngil», «Mirrix yulduziga» kabi she'rlar kompozitsiyasida ham erk, hurlik ne'matlari qadrlanib, istibdod nag'malari keskin qoralangan edi.

Nasrullo Ergash haqiqat, ma'rifatni targ'ib qilish, moziydag'i jo'mard, matonatli bobolar maslagi ila millat vijdoniga aylanganini anglatishga noil bo'ladi. Uning «Sarbador qo'shig'i» she'rida:

*Lekin men boshimni shu Vatan uchun
Tikmoq kerak bo'lsa tikkayman dorga, –*

Satrulari zimnida milliy o'zlik, yurtga sadoqat pafosi yetakchilik qiladi. Shoir tiynatidagi adllik, fidoyilik, hammaslaklik she'rlariga o'zgacha ko'lamdorlik baxsh etadi. U vatani uchun aziz jonidan voz kechishga tayyor millatning hur o'g'lonidir.

Suhrob Ziyoning «Atirgul» she'ridagi rangin manzara tasavvurdagi qarashlarni o'zgartirib yuboradi:

*Atirgul...
Hasratlar
bekordir.
Muhabbat
abadiy bahordir!*

Bu inja tasvir kishi tuyg'ulari, kechinmalarini nozik fahmlashga undaydi, gulga murojaat tiganmas dard ibtidosi yanglig' sadolanadi. Insonga muhabbat bahoriy surur, harorat ulashib, foniylidkan boqiylikka qadar hamroh bo'ladi.

Ba'zi she'r namunalari o'quvchini mubohasaga chorlaydi. Jontemirning «Poklanish» she'rida lirk qahramon botinidagi isyon og'riq iztirobiga hamohang tasvirlanadi. Potirlagan jon o'lim talvasasida «na chiqib ketolar, na qaytar ortga», Ayyub (a.s.) sabridan mosuvo vujud Ismoil (a.s.) kabi Ibrohim (a.s.) tomonidan qurbanlik sinoviga ro'baro' bo'lish ifodasida darddan azoblanayotgan tushkun kayfiyatdagi kimsa gavdalananadi. Sarlavhadagi poklanish maxzanini anglatishda aslida itoat, imon halovati, tavba xosiyati, sabr ajri xususidagi lavhalar kiritilsa, ma'nno asliyatiga sodiq qolinadi.


Milliy mustaqillikning ijtimoiy-siyosiy ko'rinishi milliy mafkura bilan xarakterlanadi. Milliy istiqlolning asosiy shartlaridan biri mafkuraviy mustaqillikdir. U o'zida millat taraqqiyotining g'oyaviy yo'nalishini aks ettiradi. Mafkura o'z mazmuni va mohiyatiga ko'ra ham yangilayotgan jamiyatning yo'nalishini, uning qiyofasini belgilab beradi. Milliy mafkura targ'ibi milliy an'analarga, qadriyatlar, madaniy merosga ehtirom orqali yuzaga chiqadi. Chunki mafkuraning milliylik xususiyatlari xalqning an'analari va qadriyatlaridan kelib chiqadi. Mafkura konsepsiysi yasi xalqning tarixiy rivojlanishidagi tajribalarini asos sifatida qabul qiladi. Bu o'rinda esa milliy an'alar va qadriyatlar millat mafkurasiga ham mohiyat, yo'nalish, mazmun va shakl beradi. Shu boisdan ham milliy mafkura taraqqiyotini milliy an'alar-siz tasavvur qilib bo'lmaydi.

She'riyatni chin ma'noda muqaddas bilish, qadrlash, uning azal sarhadlarini pok saqlashga intilish hamda erkinlik, insoniylilik uchun kurashish iste'dodni ilhomlantiraveradi. Uning shakli va mundarijasи jonli jarayonga boyib o'zgarib boradi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. She'riyatda milliy ruh ifodasi borasida mulohaza bildiring.
2. Sharq poeziyasiga xos xususiyatlarni ayting.
3. Poeziyada axloqiy-ma'naviy masalarining yoritilishi...
4. Hozirgi poeziyaning mavzu ko'lami xususida fikr yuriting.
5. Voqeaband she'r tuzilishi, yo'nalishi qanday?

KLASTER texnologiyasi



Jadval o'rtada dumaloq shaklda, undan 4 tomoniga dumaloq yo to'rtburchak chiziladi.

KLASTER texnologiyasi



Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Каримов Н. XX аср ўзбек адабиёти манзаралари. – Тошкент, 2012.
2. Каримов Б. Истиқлол адабиёти: назм ва наср. – Тошкент, 2021.
3. Озод Ватан саодати. – Тошкент: Адиб, 2013.
4. Раҳимжонов Н. Истиқлол ва бутунги адабиёт. – Тошкент, 2011.
5. Улуғов А. Қалб қандили. – Тошкент: Шарқ, 2016.
6. Ҳамдам У. Бадиий тафаккур тадрижи. – Тошкент, 2003.
7. XX аср ўзбек шеърияти. – Тошкент, 2007.

TESTLAR

- 1. She'nda bir xil unlilar takroriga asoslangan ifodaviylikni kuchaytiruvchi vosita berilgan javobni ko'rsating.**
 - A. Aruz
 - B. Assosans
 - C. Vodevil
 - D. Inversiya

- 2. «Nur kukunlari» to‘plamining muallifini belgilang.**
 - A. Farida Afro‘z
 - B. Oydinniso
 - C. Zebo Mirzayeva
 - D. Halima Ahmedova

- 3. A.Qutbiddinning 80 – 90-yillar adabiyotida an'anaviy dostonchilik namunalardan barcha jihatlari bilan farq qiladigan, ruhoniy yaxlitlik kuzatilgan asari qanday nomlanadi?**
 - A. «Oqpadar»
 - B. «Qora quyosh»
 - C. «Ibtido xatosi»
 - D. «Izohsiz lug‘at»

- 4. «Darsdan so‘ng» she'rining muallifini belgilang.**
 - A. Sirojiddin Rauf
 - B. Sirojiddin Sayyid
 - C. Matnazar Abdulhakim
 - D. Jontemir

- 5. Yosh shoirlar nomi berilgan qatorni aniqlang**
 - A. Rustam Musurmon, Salim Ashur
 - B. Nasrullo, Suhrob Ziyo, Xurshid Serobov
 - C. Azim Suyun, Usmon Azim
 - D. G‘ayrat Majid, Iqbol Mirzo


Mavzu:

HOZIRGI NASR XUSUSIYATI

Reja

1. Hozirgi nasrdagi o'zgarishlar
2. Hozirgi hikoyadagi yangilanishlar
3. Nasrda axloqiy masalalar tasviri

Tayanch so'zlar: *nasr, hikoya, qissa, roman, poetika, obraz, xarakter, ruhiyat, shaxs, millat*

Hozirgi adabiy jarayonda yaratilayotgan har bir asar mohiyatini teran uqish, falsafiy-estetik qatlamni kuzatish kitobxon tafakkurini boyitib boradi. Hikoyachilikdagi yangilanishlar, uslubiy betakrorlik matn bilan ishlash jarayonida yaqqol ko'zga tashlanadi. Shu o'rinda janr takomili ham e'tibordan chetda qolmaydi. Qissa, romanlar kompozitsiyasidagi o'zgarishlar ham bevosita tahlil-u talqinlarda aniq namoyon bo'ladi. Ma'naviy uyg'onish samarasи odamlarning o'zligini anglash, milliy g'urur, oriyat, avlod-ajdodlarimiz o'tmishidan faxrlanish, kelajak har kimning o'z qo'lida, mehnatida va ongli faoliyatida ekanligini his qilishda namoyon bo'lmoqda. Bugungi kunning vazifasi adabiyotni millatning ma'naviy va intellektual salohiyatini, odamlarning aqliy va ruhiy madaniyatini yuksaltirishga xizmat qildirishdir. Chunki olamni go'zallik bilan birga ma'naviyat va ezzgulik asraydi. Hozirgi nasr xususiyatini o'rganish badiiy matn zimnidagi ma'no nozikligini anglashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Badiiy asarda insoniy kechinmalar jarayoni iztiroblari, mehr-mohiyati, o'zining falsafiy talqinini topsa, asar qimmati oshaveradi. Haqqoniy, ta'sirli yoritilgan voqelik har qanday

jamiyat o'zgarishlarida ham mohiyatini saqlay oladi. Nosirlar yaratgan zamonaviy va tarixiy asarlarda inson qismatidagi ibratli lavhalar kitobxon qalbini zabb etadi, ma'naviy olamini boyitish orqali o'z hayot yo'lini to'g'ri belgilashga imkon tug'diradi. Bu narsa inson qadrining oshishiga ko'mak beradi va asos ham bo'ladi. Chunki xalqi ilm-u ma'rifatga intilgan farovon yurtdaadolat va inson manfaatlariga yo'naltirilgan qonun hukm suradi. Badiiy ijodda ham ma'naviy yetuklikka xizmat qiladigan asarlar yaralishi kitobxonni mamnun etadi.

Adabiyotshunos B.Karimov: «Badiiy asardan yozuvchi tabiatiga xos xususiyatlarni anglash, his etish ijodkor yashagan ijtimoiy va oilaviy muhitni, ma'naviy-ruhiy, e'tiqodiy dunyoqarashini anglash orqali yuzaga keladi», – deya e'tirof etadi.³

Nasriy asar kompozitsiyasida inson ruhiyatidagi bezovtalig-u halovat sahifalari ijodkorning ko'ngil javharini his etishga choralaydi. Aynan dardni tuyish, qahramoni holatiga kirish reallikni mustahkamlab boradi. Buni teran anglagan yozuvchilar samarali ijod qiladilar. Xayriddin Sultonov, Erkin A'zamov, Xurshid Do'stmuhammad, Shoyim Bo'tayev, Normurod Norqobilov, Abdugayum Yo'ldoshev kabi nosirlar inson ruhiyatidagi tovlanishlarni tiniq aks ettirishga intiladilar.

Erkin A'zamov hikoya, qissa, romanlariga xos xususiyat satirik pafos, piching ohangida zuhurlanib boradi. Uning asarlarida inson ma'naviyati masalasini hayot hodisalariga real yondashish orqali ochib berish tamoyili ko'zga tashlanadi. Adib yaratgan qahramon hayotda o'z o'rnini topish, maqsadga erishish uchun kurashish va intilish kerak degan maslakni shior etadi. «Yozuvchi» hikoyasida bozor iqtisodi sharoitidagi ijodkor turmush tarzi, uning kasbiga sadoqati masalasi qamrab olinadi.

³ Каримов Б. Руҳият алифбоси. – Тошкент: Гафур Ғулом, 2016. – 6.176.

Moddiyat va ma'naviyat mubohasasi kishilarning o'zga qiyofalarini ham ko'zgu yanglig' ko'rsatib boradi. Kamxarj, omadi yurishmagan qalamkashga boy, havasmand tijoratchidan asar yozib berish taklifi bildiriladi. Turmush tarzi, farzandlar kelajagi bobidagi falsafiy qarashlar qahramon dunyoqarashi bobidagi tasavvurga aniqlik kiritadi. Hikoyada o'z mayliga zid borib iztirob chekayotgan qalamkash qismati kitobxonni o'yga toldiradi. Boisi, adabiyot olamida pokiza tuyg'ular kurtaklana-di, ular halollik ne'matidan quvvatlanadi. Erkin A'zam asarida-gi kinoyaviylik sariq matbuotning urchishiga sabab bo'lgan sa-rob, soxta, ma'nан qashshoq kimsalar qilmishida bo'rtib ko'ri-nadi.

Murod Muhammad Do'stning «Dasht-u dalalarda» hikoya-sida to'pori polvon tiynatidagi g'urur, nomus, qahr-u mehr qalamga olinadi. Asarda qilmish – qidirmish naqli, taloq huk-mi zalvori ham o'ziga xos mavqega ega. Oilani asrash, ajrim fojeasidan qochish, qaltis damda ham aql yo'rig'iga rioya etish er va xotin munosabatidagi dilxiralikka barham beradi. Bepoyon dashtda ahil, totuv yashash uchun bir-birini avaylash, farzand-ga g'amxo'rlik qilish, janjalga imkon bermay kechirimli bo'lish-ning o'zi kifoya. Hikoyada insonning dala-dasht yanglig' toza, halol, to'g'ri muhitga monand baxtini, osudaligini qadrlashi anglashiladi.

Qo'chqor Norqobilning «Qishdag'i lola» hikoyasidagi ramziy ifoda uch xil makonda yashayotgan kishilarni bir maslak teg-rasiga birlashtiradi. Ular afg'on zaminidagi urushda o'z oda-miyligini asrashga noil bo'lgan o'zbek, rus, afg'on fuqarolaridir. Hikoyadagi voqealar xotiralar puchmog'idagi azob-u uqubat-lar, ayrilik'-u nadomat yanglig' urushning rutubatli nafasini his qildiradi. Askar Tohir va shifokor Irinaning jaholat maydonida-gi shijoati, muruvvati majruh qalblarga ko'mak berishga oshi-qishida ko'trinadi. Asardagi ma'no qatlami afg'on xonadonidagi

yarador er, go'dagini bag'riga bosgan ayolga nisbatan vijdonan oqibat ko'rsatilganda teranlashadi.

Yillar o'tib tinch-osuda zamonda Moskvadan Irinaning Toshkentga Tohirni yo'qlab kelishi asnosida qahramonlar farovon turmushiga oydinlik kiritiladi. Irina qoldirgan maktub, surat detal bo'lib, muallif fikrini aniqlashtirish, to'ldirishga xizmat qiladi. Londonda yashayotgan Shafiqa ismli afg'on ayol o'g'li bilan tushgan suratining tagiga askar-u shifokorga minnatdorligini izhor etgan edi. Qish, lola ikki ma'no, ya'ni askarlar ga beminnat yordam bergen Irina hamda urush zulmatidan, «qish» izg'irinidan forig' bo'lgan, bahorda «lola» singari ochilib, yana xushnudlik ila umrguzaronlik qilayotgan kishilar tamsili deyish mumkin. Hikoya har bir insonni tinch-osuda hayotning qadriga yetish, umuminsoniy fazilatlarga ega bo'lishga da'vat etadi.

Yozuvchi Shoyim Bo'tayev qalamiga mansub «Sho'rodan qolgan odamlar» qissasida Amaki, Toshmurod, Muallim kabi epizodik obrazlar badiiy tadqiqi vositasida insoniy munosabatlar chuqur yoritilgan. Amaki aka-uka jigar orasidagi nozik rishtaning uzilishiga o'z hissasini qo'shadi. Bemehr aka – Nazoratchidan yorug'lik, oqibat ko'rmagan uka jiyanı Toshmurodning qamalishiga, yosh yigitning umri zavol bo'lishiga sababchi bo'lsa-da, vijdoni qiyalmaydi, loqayd munosabatda bo'ladi. O'z o'rnila oilaviy muhitda ahillik, totuvlikning guvohi bo'limgan jiyan Toshmurod jinoyatga bilib-bilmay qo'l uradi. O'spirin yigit qamoqxonada jazosini olar ekan, hayot qadri, lazzatini his qilib, qilmishlaridan afsus chekadi. Ularning munosabatini chetdan kuzatgan, hayotning past-balandini uqqan muallim yigit taqdiringa achinadi. Uning boshiga tushgan ko'rgiliklarda otasi va amakisining aybi katta ekanini his qilib kuyunadi. Farzandga ustun bo'lib, unga to'g'ri saboq beruvchi ota esa mazkur holatga befarq bo'lib turaveradi.

Shoyim Bo'tayev qissada yangi talqindagi manqurt qiyofasini yaratishga muvaffaq bo'ladi. Nazoratchi qalbsiz, ruhsiz bo'lgani bois insonlarga mehr-muruvvat ko'rsatishdan mahrum etilgan. Mafkura quliga aylangan manqurt xotini, farzandi taqdiriga ham loqayd. Bunday inson qiyofasini teranroq yoritishda epi-zodik obratzlar funksiyasi ahamiyatli. Ular orqali muallifning g'oyaviy niyati amalga oshgan. Shu bois qissalardagi epizodik obrazlarni mukammalroq yaratishga ahamiyat berilishi lozim. Adib qissadagi aka-ukaga ism berishni loyiq ko'rmaydi. Insoniylikdan mahrum kimsaning jonsiz yaratiq, ko'ngil majruhligi dalillanadi.

Ijodkorlar, so'z sohirlari zamonaviy nasrga yangi tasvir, ifoda olib kirdilar, hayotni turli rakurslardan turib yorita boshladilar. Ular mavzularni to'ldirib, boyitib bordilar. Ijtimoiy hayotdagि dolzarb muammolarni ijodiy yondashuv asosida kitobxonga yetkazishga harakat qildilar. Qissachilikda adabiy an'anaga sodiq qolgan holda o'zlik, g'urur ramzi – kurash motivini rivojlantirish kuzatilmoqda. Tog'ay Murod Bo'ri obrazi, Normurod Norqobilov Ernazar timsoli orqali umuminsoniy idealni targ'ib etishga jazm etdilar. Ular qismatida ezgulikka boshlash, haromdan hazar qilish qadriyat darajasiga ko'tariladi. Normurod Norqobilovning «Qoyalar ham yig'laydi» qissasida ham or, nomus kabi oliy tuyg'ular oila ma'naviyati doirasida anglanadi. Muallif ikki do'st – Ernazar va G'aybulla timsolida tug'ilgan yurtga vafo, sadoqat tushunchasini anglatishga ahamiyat beradi. Otaning oiladagi tutumi farzandlar tarbiyasida ravshanlashadi.

Avlod dunyoqarashi orasidagi tafovut ikki bosqichda – halol hamda haromni tushunish bobida kuzatiladi. Polvon ota nafs, kibr, firibdan hazar qiladi, ayni damda, imon, or-nomusni qadr-laydi. Qissa tarkibidagi asosiylar ma'no nuqtasi adolat mezonini his ettirish, Ernazarning noqobil o'g'il O'sarni to'g'rilik, halollikka

boshlashi motivida teranlashadi. Bunda xarakterning yana bir qirrasi – mag'rur otaning farzand tarbiyasidagi burchdorligi asoslanadi. Tog', o'rmon, qoya hududi inson iztirobi guvohi, sokin kuzatuvchisi, kishini ibratga undovchi maskan. Adib ramziylikka ishora berib, polvonning ruhiyatidagi og'rinqi qoya yig'isiga mengzaydi. Tabiat kishi tuyg'ulariga parallel berilib, siyratdagi bezovtalik, po'rtanani tuyishga imkon yaratadi. Padarga osiy surriyotning xarsang tosh vositasida jazolanishi haromga isyon shaklida qabul qilinadi. Qissada noyob ne'mat – milliy o'zlik, nomusni asrash jarayoni tasvirlanadi.

Adib Shomirza Turdimovning «Mezon» qissasida hassos ko'ngil, ruh va qalb erkinligi moziyga nigoh tarzida badiiy gav-dalantiriladi. Har lavha, tasvirda tarkib-u tizimdag'i mukammallik anglashiladi. Asar o'n sakkiz kichik bobdan iborat. Ularga Farididdin Attor, Jaloliddin Rumiy, Bahouddin Naqshband, Ali-sher Navoiy hikmatlari hamda xalq qo'shiq, matallaridan epigraf tanlanadi. Sarlavha va epigraf sintezi masala mohiyatini yaqqol ifodalaydi. Birinchi bobga shayx Attorning «Dahr aro to'ymoq va o'lmoqdir base, Sirrini anglab yetolmas bir kase» bayti epi-graf qilib olingan. Dunyonи tiriklik gashti deya bilgan odam ne maqsadda yaralganini uqmay vafot etadi. Bu toifa kishilar ilohiy ma'rifatdan bebahra nokaslardir. Keyingi bobga «Tingla naykim, ne hikoyat aylagay, Ayroqliqlardan shikoyat aylagay» (Hazrati Rumiy) o'giti epigraf qilib olinadi. Mahzun kuy sadosi darveshlar maslagini tinglashga chorlaydi. Shu nuqtadan muallif ilohiy saodatga noil shaxslar tiynatini yoritib boradi. Qissaning bunday tashkillanishi diniy va dunyoviy qarashlarni bir nuqtada jamlash, falsafiy hikmatni idrok etishga turtki beradi.

«Mezon» qissasi poetikasida suv, olov mohiyati o'zgacha yoritiladi. Suvning majoziy talqinida mikrodan makroga qadar asar poetikasiga singdirib boriladi. Qissada palladagi tosh, barg, suv muqoyasasi e'tiborni tortadi. Yengil va og'ir jism kontrast holat-

ni bo'rttiradi. Tarozining ikki pallasi metaforik tasvirni qabariq tarzda ifodalaydi. Ko'rinishi, vazifasi yuzasidan bog'liq bo'lma-gan detallar bir lavhaga jamlanar ekan, muvozanat tushunchasi borasidagi estetik qarashlar yangilanayotgani kuzatiladi. Asardagi voqeа, jarayonlarning metafora, mubolag'alar asnosida ifodalanishi mohiyatni ziyrak nigoh-la idrok etishni talab qiladi.

O'xshatish, metaforalar matn badiiyatini oshirgan: bir pallaga tosh, barg, ikkinchi pallaga suv quyiladi. Suv oqib ketadi, yengil, tosh, barg pallasi og'ir. Kontrast tasvir o'lchov tushunchasiga diqqatni jamlaydi. Yarmi oq, yarmi qizil olma pallasi ikki otliqqa nasib etadi. Ular ko'zasi ham ramziy: biri oq belbog'li, ikkinchisi qizil durrachali. Ikkita yarim oxirida yana butun holatga qaytadi, ya'ni birlashadi. Adib aql va ruhning butunlik hosil qilishini shunday asoslaydi.

«Mezon» qissasi tuzilishi va tarkibiga ko'ra pishiq, puxta. Bosh qahramon tadriji aniq yoritilgan. Uning ma'naviy-axloqiy qarashlari asoslangan, xarakter mantig'iga rioya etilgan. Darvesh, otliqlar timsolida ilohiy ishq asrорidan voqif orif siymosi namoyon bo'ladi. Ota, ona, xizmatkor va boshqalar dunyo tashvishi bandilari tarzida taqdim qilinadi. Allomalar hikmati serqatlaligi bilan ajralib turadi. Asardagi «Chun ruh ila ruh topdi pay-vand» (Alisher Navoiy) hikmati qahramonning asl ishq ma'nisini anglab, unga yetishganiga ishora qiladi. Bahouddin Naqshbandning «... Ne matohmanki, hech xaridorim yo'q» hikmati Majnuning o'z-o'zini taftish etishi, qalbiga bo'y sunishi, nafs lashkarini yengishi jarayonini yoritishga xizmat qiladi. Shomirza Turdimov ahli dard ishqini islom falsafasi silsilasida teran anglatishga muyassar bo'ladi.

Bahodir Qobulning «Oy yo'li» qissasi sarlavhasidagi oy yorug'lik, nurafshonlikka, qolaversa, umrga ham ishora qiladi. Xalqda oyning o'n beshi yorug', o'n beshi qorong'i degan mash-hur maqol bor. Yo'l xronotopi ham tiriklik sinoati, turli makon

borasidagi tasavvurni to'ldiradi. Inson yer (yo'l) va samo (oy) o'rtasida yashaydi. Qissadagi joy nomlari etimologiyasidan tarix, arxeologiya, falsafa kabi fanlar sintezi ortib boradi. Xalq afsona, mif, ertaklaridagi dev, parilar timsoli o'zgacha pafos hosil qiladi. San'at, madaniyat taraqqiyoti-yu tanazzuli muayyan solnoma asosida anglab boriladi. Makedonskiy yurishi, Chingizxon bosqini, Amir Temur jasoratida xalq matonati-yu qanoati muqoyasa etiladi.

Qissadagi ibora va hikmatlar elni birdamlik, ahillikka chorlab, ularni millat manfaati xizmatiga yo'naltiradi. Xotirasi singan, so'ngan odam hayotdagi hodisalarga loqayd nigoh bilan boqadi, tiriklik mazmuni yo'qolgani bois hech narsaga qiziqishi qolmaydi. Insonni erkin fikrlovchi, mustaqil shaxs maqomida ko'rishni istagan muallif o'zlikni asrashni uqtiradi. Adib insonga hamroh go'zal so'z «La ilaha illalloh»ligini e'tirof etadi. Ilohiy hadisda kalimayi tawhid kalimasining savobi buyukligi, kishining so'nggi lutfi «La ilaha illalloh» bo'lsa, oxirat saodatiga erishishi aytildi.

Qissa janrida bosh qahramon tadriji masalasi ijodkor e'tiborida bo'lib, u yashagan jamiyat, muhitdagi asosiy tamoyil, yo'nalish, muddaoga urg'u berilib, xarakteridagi tub burilishlar kesimida tasvirlanadi. Qissada mazmunning teranligi, hayotiy materialning salmog'i, syujetning sertarmoqligi, xarakter mantig'i, obrazlarning voqeядаги ishtiroki janr xususiyatini belgilab boradi.

Qissalar poetikasidagi o'zgarishlar ham ularni sinchiklab kuzatish asnosida yuzaga chiqadi. Asardagi bosh qahramonning tadriji ko'rsatilishi maqsadga muvofiq. Qahramonning yorqin hamda to'laqonli ko'rinishi uning jamiyatdagi faoliyati asnosida ko'zga tashlanadi. Uning sa'y-harakati, maslagi doimo boshqa obrazlar uyg'unligida oydinlashib boradi. Qissadagi xarakter tibiati san'atkorning adabiy-estetik pozitsiyasi, idealiga muvofiq

baholanadi. Muallif badiiy g'oyasini yetkazishda qahramonning ma'naviy, axloqiy qadriyatni targ'ib etishi ham muhim mezon sanaladi.

Hayotdagi barcha murakkablik asosiy tamoyilga uyg'un tas-virlanib, obrazning turli holatlarga aniq munosabati aks etishi zarur. Qissalar shakllanishi jarayonida vatan, odob-axloq, oila, muhabbat mavzulari yetakchilik qilgan. Vatan abadiy mavzulardan biri bo'lib, insoniyat bu tuyg'uni tiriklikning har faslida ideal darajada ifodalashga intiladi. Bu mavzu umumadabiyotning ham bosh mezoniga aylanib, asrlar davomida uni yoritish usuli takomillashib borgan. Oil a kishilik jamiyati bilan bir vaqtda shakllangan, undagi ichki nizom-u tartibot ham mavzu ko'lamini kengaytirib boradi.

Nasriy asar kompozitsiyasida insoniy kechinmalar, ko'ngil iztiroblari, qismat sinovi tarixiy voqealar silsilasida berib borildi. Xayriddin Sultonovning «Saodat sohili» qissasi ana shunday fazilatga egaligi bilan kitobxon qalbini zabit etadi va ma'naviy olamini boyitish orqali o'z hayot yo'lini to'g'ri belgilashga imkon tug'diradi.

Xayriddin Sultonov asarlarida shoh, shoir, ota martabasi Bobur shaxsida mujassamlashadi. Yozuvchining «Saodat sohili» qissasida vatan tuyg'usi xarakter bosh idealiga aylanib, kompozitsion qatlamni rivojlantiradi. Hofiz Ko'ykiy hamda Bobur dialogi asosiy negiz sanalib, unga ma'no nuqtalari birlashadi. Olamdagi moddiyatdan ma'naviy halovatni ustun bilgan donishmand ruhiyatidagi bezovtalikni faqat maslakdosh orifgina uqishga qodir. Asar strukturasidagi «Saodat sohili – vatanda olampanoh...» jumlasida badiiy niyat oydinlashadi.

Muallif asar poetikasini tashkillashtirishda «Moli vofir, eli kofir, yo'l yovuq...» misrasini asos qilib belgilaydi. Qahramon siyratidagi dard shu iboralar tizimida teranlashib boradi. «Boburnoma» asaridagi shoirning Navoiy ijodi borasidagi lutfi

poetik mazmunni to'ldiradi. Darvesh Baxshiturk suluki ila Bobur armonlaridagi uyg'unlik kompozitsion qatlamni ravshanlashtiradi. Bu obraz halovat-u haqiqat bobida shohdan hurroq bo'lib, millat-u elatni ogohlikka undovchi, kun-u oylar intihosi borligini eslatuvchi zohid yanglig' tasavvur uyg'otadi. Muhimi, darvesh-u shoh musofir turklar bo'lib, qalban hamda ruhan bir-birini quvvatlaydi. Kitobxon voqealar silsilasida bu obrazlar fitratidagi armon-u iztirob yurt sog'inchiga payvandligini tushunadi. Xayriddin Sultonov Bobur shaxsi, ijodi, sarkarda, shohlik salohiyati borasidagi izlanishlarini mustahkamlab, «Boburiynoma» asarini yaratadi. Unda moziy, bugun, kelajak vaqt vaqtsiga Mirzo Bobur bosh maslagining hikmatini singdirishga intiladi. Turli millat-u elatni Vatan tuyg'usi birlashtirishi, ezgu maqsadga safbar aylashi, xayrli ishlarga vasila qilishi oydinlashadi.

Kurshid Do'stmuhammadning «Donishmand Sizif» romanida tiriklik olami manzaralari makonlar almashinuvi, ziddiyat-u murosalar silsilasida ayonlashib boradi. Romanda Sizif g'arb adabiyotidagi shu nom bilan mashhur qahramondan ancha farqlanadi. Adib bu kishi tafakkur va taxayyul olamini o'zga yo'sinda ifodalashga intiladi. Romanda xarsangtosh obraz daramasiga ko'tarilib, do'st, sirdoshga aylanib boradi. Inson qavmidan ozorlangan ko'ngil toshga bog'lanib boradi: «Sen kim bilan qolasan bu biyobonda, qadrdon? Kim bilan yashaysan, kim beti, kaftlari, ko'ksini bag'ringga bosadi? Men uchun sendan bo'lak hech vaqo qolmadni». Odamzodning borliqdagi jamodot-u naboot bilan bir butunligini anglagan kishi shamol-u bulutlar harakatidan vaqt ni belgilash, umr solnomasini idrok etishga noil bo'ladi. Qat'iy nizom riyatidagi tabiat hodisalaridagi anqlik, sobitlik makroolamning mini zarrasi – insonga saboq beradi.

Borliqdagi fasllar almashinuvi, shamol-u bulutning vayronkor yo bunyodkor amali, tog'-u tosh sakinati Sizifning shuur qatlamiga ta'sir qiladi. Yumaloq, dumaloq xarsangdagi qat'iyat

inson harakatiga parallel beriladi. Ikkisi tanholikda bir-biriga ko'nikib, moslashib boradi. Quruqlikdagi yolg'iz odam va den-gizdag'i tanho qayiqchi qismatida mushtaraklik kuzatiladi. Syu-jetning bu liniyasi olam qalbini tinglagan, o'z maslagi yo'lida barqaror ozod inson masrurligiga ishora beradi. Yolg'iz yo'lovchi va tanho qayiqchi sinoati tafakkurda Ernest Xeminguey yarat-gan dengizdag'i chol qismatini jonlantirib boradi. Sizif ham quruqlikda chol singari maqsadiga erishish uchun maslagidan voz kechmaydi.

Roman kompozitsiyasida zo'rning toshi qirga qarab yuma-lashidan ruhlangan Sizif bardoshi, quvvati, intilishini nabotot-u jamodot olamiga namoyon qilishdan huzurlanadi. Voqealar sil-silasida inson va tosh sabr-u toqati muqoyasasi asosiy ma'no qat-lamini ochiqlaydi: «Abadulabad xarsangtoshni tepalik sari du-malatish qismatiga mubtalo etilgan Sizif boshiga tushgan jamiki mashaqqat, jamiki uqubatga dosh berdi, xarsangtosh esa dosh bermadi! Bir parcha etdan paydo bo'lgan inson chidadi, sijjilmi, temirmi, metin xarsangtosh chidamadi». Xarsangtoshning yemi-riishi odamning foni yunyo sinovidagi sabrini teran uqtiradi. Inson nohaqlig-u tubanlikdan aziyat chekib taslim bo'lmaydi, turli toifadagi mansabдорлар qoshida egilmaydi, maddohlik qil-maydi.

Asar xotimasida Sizif marrani zabit etganining guvohi bo'la-siz. Roman strukturasidagi «Men osiy banda, xasta tovushda shivirladi: Kechirgaysiz... uzrlarim... tavbalarim... iltijolarim...» degan poetik ifoda xarakter falsafasini asoslaydi. Xurshid Do'st-muhammad Sizif obrazini yaratishda itoat va isyon masalasini o'rgangani, dunyo adabiyotidagi bu obraz talqinini kuzatgani ayon. U badiiy tafakkuri mahsuli bo'lgan bu qahramonni sharq islom ta'llimoti bilan to'yintirishni lozim topdi. Adib Sizifning ko'nglidagi erkka tashnalik umid bilan payvandlanganini kitob-xonga yetkaza oldi. Osiy bandaligini his qilgan Sizif o'zini taftish

qilish, tozarish onlariga musharraf bo'ldi, tavba huzurini tuyish istagi ortdi. Asarda tiriklik, yaralishning sababiyatini idrok etish yo'li bosqichma-bosqich ifodalab boriladi.

Risolat Haydarova tarix solnomasiga nigoh solib, sultanatlar tanazzuli, ularning parchalanish sababiyatini aniqlashga ahamiyat beradi. «Javzo» romanida temuriylar va shayboniyalar ning madaniyati, ma'rifati, boshqaruv jarayoni kabi motivlar voqealar maromini belgilab boradi. Adiba sultanat asrorini nihon saqlash, birdamlikni mustahkamlash, islom arkoni riyatini ta'minlash masalalaridagi sustkashlikni ichdan yoritadi. Saroydagi fitnachilar fisq-u fasodi bois nasllarning parokandalikka yuz burishi hodisalar halqasini taranglashtiradi.

Malikalar tiynatidagi makr, boylik xuruji, kundoshlik ofati sag'ir xatodan kabir gunohga yo'l ochgan. Qorako'zbegim o'z nafsi yo'lida xiyonatga qo'l urib, Shayboniyxondan kutilgan lutf rad etilganda jinoyati ko'lamini his etadi. Unga malikalik maqomini bergen sultanatni sotib, obro', martabaning davomini Shayboniyxon dargohida ko'rishni orzu qilgan Qorako'zbegim xayoli ko'lankasiga g'arq bo'ladi. Boisi, o'z oilasi, yurti sha'ni, tinchi qadriga yetmagan go'zal suratl, ammo fosiq siyratli ayolni Shayboniyxon ham rad etadi. Ijtimoiy munosabat insonning o'zligini yo'qotishiga, halokatga duchor bo'lishiga olib keladi. Asarda turli toifa vakillari hayotiga bir qur nazar tashlab, odatiylik rutbasiga sodiqlarning hidoyat sururini his etasiz.

Risolat Haydarova dunyoda global muammoga aylangan koronavirus bois yuzaga kelgan vaziyat xususida «Karantin» asarini yaratdi. Unda bugungi hayotimizning nafasi ufurib turadi. Mas'uliyatlari damda ahdiga vafoli shifokorlarning shijoati umuminsoniy fazilatlar qatoridan munosib joy oladi. Qissada karantining ilk bosqichidagi tahlikali vaziyat, virusning jamiyat tartibotiga ta'siri turli sohadagi cheklovlar tegrasida uyshtirib boriladi. Bahoriy sururning qisqaligi, sarosimadagi kishilarning

vahimasi, ta'lrim va boshqa sohalardagi tezkor ta'tillar pandemiya muhitini his ettiradi.

Asarda shifokorning sharaflı hamda mashaqqatlı mehnati ota va o'g'il faoliyati misolida yoritib beriladi. An'anaviy va masofaviy ishga ko'nikayotgan kishilar dunyoqarashidagi turli o'y-xa-yollar oila, mahalla, jamiyat fonida aks ettiriladi. Dunyoning turli manzillarida virusli kasallikning avj olishiga sabab insonning noshukurligi, itoatsizligi, haq va botilni ajrata olmasligidir. Asar matnidagi azon lavhasida Allohdan balo hamda ofatlardan panoh tilashga chorlov anglashiladi. Yaratgan o'z fazl-u rahmati ila bandalariga ofiyatni nasib aylashi eslatiladi.

Adabiyot doim poklik, adolat, haqiqat, e'tiqod ko'zgusi sanal-gan. Ijodkor har qanday razolat, qabohat, razillik hamda axloq-sizlik tanazzul ekanini ta'kidlab, o'zining estetik idealiga sodiq bo'lishi, kitobxonni ezgulik ruhida tarbiyalashi darkor. Haqiqiy san'atkor xalqining dard-u armonlarini tuyib, quvonch-u tash-vishini his etishi, so'z qudrati ila haqiqat yo'liga boshlashi shart.

Nosirlar intellektual, mushohadakor qahramonlarni yaratishga e'tibor qaratmoqdalar. Yoshlar ma'nан yetuk shaxslar bilan bir jamiyatda yashayotgan noqis kimsalarni muqoyosa etib, ularning harakatini baholashni kitobxonga havola etmoqdalar. G'afur Shermuhammad, Nurilla Chori, Sanjar Tursun, Xoliyor Safarov, Salim Abdurahmon kabi ijodkorlar o'z avlodining ma'naviy, axloqiy olamini, psixologiyasini yoritishga muvaffaq bo'layotirlar. Abduvohid Umirov, Alisher Otaboyev kabi mu-tarjimlarning jahon adabiyoti nodir namunalarini tarjima qilib kitobxonga taqdim etishi – quvonarli hol. Yoshlardagi qiziqish, intilish, ishonch ularga ilhom baxsh etib, yangi asarlar yaratishi-ga asos bo'ladi. O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi yoshlarni ma'naviy, moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlaydi. Ustoz ijodkorlar boshchiligidagi ustoz-shogird tizimi yo'lga qo'yilgan, adabiy to'garaklar tashkil qilingan.

Nurilla Chorining «Qizg'aldoq» hikoyasida ona obrazining o'ziga xos ifodasi aks ettiriladi. Beva Turdixolning qizi nomusi, o'g'li g'ururi bo'ldi. To'lgan oy yanglig' To'lg'onoy surat-u siyratda suluv qiz bo'lgani voqealar rivojini tezlatadi. Qishloqdagi yigitlarga ro'yxushlik bermagan ona qizini Eshpul dallopling o'g'liga berishga rizolik bildiradi. Asar kompozitsiyasida «Bo'larmanning bolasi yettisida boy bo'lar, bo'lmaydiganning bolasi yetmishidayam yosh bo'lar» degan xalq naqli vositasida o'g'li Safarga ishora qilinadi. Aka onasi tanlovidan voqif bo'lib, Eshpul dallolni, Mashi masxarani so'kishi lavhasi noxush voqeadan ogoh etadi.

Asar syujetida «Oy va yulduzlarni vajohatli bulut qamal qilgan kecha zimiston bo'ldi» o'xshatishi kelinchakning baxti badnom bo'lganini anglatadi. Nokas-u imonsiz masxaraning bokira qizni baxtsiz qilishi Qizg'aldoq ertagi bilan qoliplanadi. Folklorning maqol-u ertak elementi hikoya matniga singdirib yuboriladi. Turdixolning mulla, folbin, qushnochdan madad kutishida bid'at amal qoralanadi. Qizg'aldoqning g'oyib bo'lishi, dunyo fitnasidan xalos bo'lishi onani qayg'uga botiradi: «Keksa dunyodan ham qari kampir ayozdan ko'klamni, ko'klamdan qizg'aldoqni, qizg'aldoqdan qizini ilhaqlik bilan kutadi». Hikoyada qizg'aldoq ramziy ma'no kasb etib, erta so'lgan gul qizlar qismatiga chizgi tortadi.

Muyassar Tilovovaning «Nomus» hikoyasida esa ijtimoiy masala bolalar orasidagi ziddiyatlar fonida yoritib beriladi. Bunyodning kibr-u qahri tengdoshlari yuragiga g'ulg'ula soladi. Shodmon – onasi, farrosh Mehri opaga yordam beradigan, oriyatli bola. «Ro'zg'or qiyinchiligi erta boshiga tushgani uchunmi, bolakay tez ulg'aydi. Uning oldiga qo'ygan maqsadlari ko'p, ammo eng katta burchi onasi oldidagisi deb biladi». Bunyodning Laziz, Botir kabi bolalarni tahqirlashi, zulm qilishi yovuzlikning ezgulikni mahv etayotganidan boxabar etadi. Nomard yigitning

ojiz farrosh ayolga zug'um o'tkazishi lavhasi voqealar rivojini taranglashtiradi. Ikki qutb oriyat uchun kurashga chog'lanadi, Shodmon zaif bo'lsa ham, onasining hurmati uchun zo'ravon Bunyodga qarshi chiqadi. Aslida, bu shaytoniy hirsni mag'lub qilish, bola ruhidagi erk, ishonchni namoyon etishning badiiy ifodasi edi. Bola irodasi bilan do'stlariga ham jaholatni yengish, mahv etish mumkinligini isbotlaydi. Kishi tiynatidagi nomus insonning o'zligi, tirikligi, erkinligini namoyon etishiga ishonch, madad berishi asoslanadi. Umrning bahorini beg'ubor, ma'sum tuyg'ular bilan ziynatlash uchun inson ezgulikka oshno bo'lishi, zalolatdan xoli bo'lishi darkor.

Sanjar Tursunning «Tog'lar orasida» qissasi kompozitsiyasi yashirin sirlarni bosqichma-bosqich ayon etish usulida tashkil-langan. Sakkiz yosh bolaning o'ttiz yoshida afsonaga aylangan kalavaning uchini topishi retrospektiv syujet vositasida ochiqlanadi. Muallif tog'liklar tiynatidagi mardlik, to'porilik, adllikni Alpi, Yo'lchi mengan, Karomat obrazlari harakatida asoslashga intiladi. Asarda odam va bo'ri kontrasti iroda, sabot, muruvvat tuyg'ulari borasidagi qarashlarni yangilab boradi. Qissa tarkibida hikoya ichida hikoya qo'llanishi qahramonlar qismatidagi mushtarak holatlarni markazga birlashtirishga yo'naltiriladi. Ba'zan chalkash vaziyat yuzaga kelsa ham, mohiyatga ta'sir etmaydi. Do'lvor, qo'pol, dangal Alpi odamlar orasiga begonaligini his etib, Olim bilan g'orda hayot kechirishi bugungi kun uchun g'ayrioddiy tuyulishi mumkin, lekin kitobxon dunyoda bunday kishilar borligini televideniyedagi xabarlarda kuzatgan bo'lishi tabiiy.

Qissadagi Alpi ham tog' jamodot-u hayvonlar makonida kun kechirib, odamlarni turli halokatlardan qutqarishga oshiqadi. Asarda Alpining sakkiz yosh bolani bo'rilar to'dasidan qutqarishi kulminatsiyani yuzaga chiqaradi. Dovyurak Yo'lchi merganning o'limga tik borishi, hatto tog' qo'ynida vafot etishida borliqning

bir bo'lagi ekaniga ishora qilinadi. Sanjar Tursun yolg'iz bo'ri va Alpi ruhiyatidagi yaqinlikni vafo, qat'iyat, sokinlik rishtalari bilan payvandlaydi: «Ular bizning mudrab yotgan tuyg'ularimizni uyg'otuvchi hayqiriq, muzlagan yuragimizni qizdiradigan najot mayog'idir». Asar tabiat va inson munosabatidagi muvozanatni asrash muhimligini eslatadi.

Adiblarning badiiy sohadagi izlanishlari, mumtoz an'analar va folkordan unumli foydalanishlari, dunyo adabiyotidan o'rganishlari o'z samarasini bermoqda. Dunyo adabiyotshunosligining ilmiy-nazariy talablariga javob beradigan nasr namunalari o'zbek adabiyotining yaqin tarixidagi mulkiga aylandi. Bu asarlar poetikasida turli yosh, kasb, dunyoqarashga mansub xarakterlar yaratildi. Ular orasida bolalar-u kattalar, ishchi-yu xizmatchilar, tentag-u darveshlar, ismsiz qahramon-u g'ayritabiyy go'daklar ham muayyan funksiyani bajarishga yo'naltirildi. Muhimi, asarda insonning mohiyatini teran anglatish, tiynatidagi fazilat-u illatlarni har tomonlama kashf etish tamoyili chuqurlashdi. Xususan, istiqlol davrida qahramon ongosti hislarini isyon-u kufr kontrastida aniq badiiy talqin etishga e'tibor ortdi, tashqi faoliyatdan botindagi dard-u izardiobni his ettirishga rag'bat kuchaydi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Mustaqillik davri hikoyachiligining xususiyatlari...
2. Hikoyachilikda axloqiy masalalar ifodasi...
3. Qissachilikda ijtimoiy vogelikning badiiy ifodasi haqidagi qarashlaringiz...
4. Hozirgi romanlarning mavzu ko'lami borasida fikr bildiring.
5. Hikoyada detalning ahamiyati qanday?

«Asar nomini top» texnologiyasi

«1264-hijriya, dalv oyining 17-nchisi, qishki kunlarning biri, quyosh botqan, tevarakdan shom azoni eshitiladir».	(O'tkan kunlar)
Or zor ozor bozor Dunyo boshi gulzor, odoshi mozor Gulzor-u mozorning orasi bozor	(BOZOR romanı)

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. XX asr ўзбек ҳикояси антологияси. – Тошкент: Ўзбекистон, 2012.
2. Озод Ватан саодати. – Тошкент: Адаб, 2013.
3. Каримов Б. Истиқдол адабиёти. – Тошкент, 2021.
4. Ёқубов И. Мустақиллик даври ўзбек романлари поэтикаси. – Тошкент, 2021.
5. Расулов А. Бадиийлик – бозавол янгилик. – Тошкент, 2007.
6. Қуронов Д. Талқин имкониятлари. – Тошкент, 2014.
7. Jamoliddin Nur. Adabiyotdan ochiq darslar. – Toshkent, 2021.

TESTLAR

1. Turg'unlik yillarining mashaqqatlari yoritilgan asarni belgilang.
 - A. «Munojot»
 - B. «Otamdan qolgan dalalar»
 - C. «Sarbadorlar»
 - E. «Ko'hna dunyo»

2. Erkin A'zamning asarlarini belgilang.

- A. «Otoyining tug'ilgan yili», «Shovqin»
- B. «Javob», «Dunyoning ishlari»
- C. «Dinozavr», «Tilsim saltanati»
- E. «Tushda kechgan umrlar»

3. Ernazar polvon qaysi asar qahramoni?

- A. «Kecha va kunduz»
- B. «Sarob»
- C. «Qoyalar ham yig'laydi»
- D. «Bozor»

4. «Mezon» qissasining muallifi kim?

- A. Shomirza Turdimov
- B. Isajon Sulton
- C. Ulug'bek Hamdam
- D. Nodir Normatov

5. «Tog'lar orasida» qissasining muallifini belgilang.

- A. Nurilla Chori
- B. Sanjar Tursun
- C. Anvar Suyun
- D. Xoliyor Safarov

 **Mavzu:**

HOZIRGI HIKOYACHILIK XUSUSIYATI

Reja

1. Asarlar kompozitsiyasidagi o'zgarishlar
2. Hikoyada ramziylikning o'rni
3. Hikoyada epigrafning vazifasi

Tayanch so'zlar: hikoya, voqeа, tasvir, ramz, syujet, kompozitsiya, badiiyat

Badiiy ijod jarayonida nasriy asarlar poetikasida salmoqli o'zgarishlar ro'y bergan. Hayotiy material, aniq va qiziqarli faktlar inson taqdirini xolis talqin qilish imkonini kengaytiradi. Hikoya, novella kichik janr bo'lsa ham, muallif mahoratini ishga solib, voqeani ta'sirli ifodalashi, qisqa, ammo zalvorli tasvir yarata olishi darkor. Abdulla Qahhor, G'afur G'ulom, Said Ahmad, Odil Yaqubov, Shukur Xolmirzayev kabi ijodkorlar janr takomiliga munosib hissa qo'shganlar. Hozir yaratilayotgan hikoyalari kompozitsiyasi, strukturasi o'ziga xos. Xurshid Do'stmuhammad, Xayriddin Sultonov, Murod Muhammad Do'st, Erkin A'zam, Nazar Eshonqul, Isajon Sulton, Abduqayum Yo'ldoshev, Sobir O'nar, Nurilloh Muhammad Raufxon kabi adiblarning hikoyalari maishiy-axloqiy, diniy-ilohiy, estetik qarashlar uyg'unligi namoyon bo'ladi. Hikoyalarda sharqona tarbiya negizida ijtimoiy turmush muhitini ko'rsatish, ba'zan voqeа tasvirida ramziylik, ishoraviylik usulini qo'llash kuzatiladi. Asarlar mohiyatiga e'tibor berish janr imkoniyatlarini anglashga asos bo'ladi.

Boy tarixga ega hikoyachilik shu davr mobaynida katta shaklanish, yuksalish yo'lini bosib o'tdi. O'z qiyofasi, mahorat mak-

tabini yaratdi, muhimi, o'zbek hikoyachiligi jahon hikoyachiligining ajralmas hamda salmoqli sahifasini tashkil etadigan daraga ko'tarildi. Garchi hikoya nisbatan kichik va ixcham hisoblansa ham, muallif badiiy tafakkuriga doir kuzatishlar butun bir milliy adabiyot haqida, hatto muayyan milliy badiiy tafakkur ko'lami, miqyosi xususida umumlashma xulosalar chiqarish imkonini beradi.

Nasriy asarlarda ijtimoiy hodisani aks ettirish, inson fe'l-atvorini boricha tasvirlash, atrof-olam nafosatini tarannum etishga e'tibor ortmoqda. Hikoya voqealari zamiriga singdirilgan g'oya ning salmog'i, falsafiyligi kitobxon nigohidan chetda qolmaydi. Badiiy komponentlarning mukammal tartiboti asar poetikasini boyitadi. Hikoya sarlavhasi («Maymun yetaklagan odam» yoxud «Puankare») dayoq kishini o'nga toldiradigan vaziyat yuza ga keladi. Asar ma'no qatlamini uqish sarlavhadan boshlanadi. Muallif sarlavha orqali asarda yoritiladigan mavzu, ifodalana digan o'y-hislarni, qarashlarini o'quvchiga yetkazishga harakat qiladi, ayni shu fursatdan ular orasidagi mushtaraklik boshlandi. Ijodkor sarlavha mas'uliyati, salmog'ini his etgani bois asari ga monandini tafakkur qatlamida saralab boradi.

Said Ahmad istiqlol davrida puxta, mag'zi to'q hikoyalari yaratar ekan, hayotda shohidi bo'lgan voqealarni qalb priz masida sayqalladi. Xususan, «Oftoboyim» hikoyasi kompozitsiyasida hodisa, kechinmaning yurtga, vatanga bo'lgan sadoqat mehvariga jamlanganiga guvoh bo'lasiz. O'tgan asr o'rtalarida nohaq qamalgan adib har bir millatga xos axloqiy, estetik ah komklarni badiiy polotnoda muhrlaydi. Hikoya mutolaasi asnosa yapon millatining vatanga bo'lgan muhabbatni, xiyonatga nafrati, mehnatga chidami, muhtojga ko'magi kabi xislatlarini turli rakurslarda kuzatish mumkin. Qo'rkoq kamikadzening yurtga qaytishga orlanib o'z joniga qasd qilishi motivi kulminatsion nuqtani faollashtiradi. Go'zallikka oshno geyshalar tutumi-

ning axloqiy kanonni o'zgartirishi, umri xotimasida yolg'izlikka mubtalo qahramon ayol (ona) holati kitobxonni o'yga toldiradi. Mazkur hikoya taqdir charxpalagi, burch, ishonch, vafo tuyg'u-lari tegrasidagi oddiy insoniy vaziyatlarni ta'sirli yoritgani bilan o'zbek va yapon kitobxonini rom aylagan.

Said Ahmadning «Sarob», Odil Yoqubovning «Muzqaymoq» hikoyalarda sobiq tuzumning ziyoli kishilarga ko'rsatgan sitamlari ifodasidagi mushtaraklik yaqqol seziladi. Badiiy adabi-yotda otalar va bolalar mavzusining yangi sahifasini soddalik, ishonuvchanlik, xiyonat, taassuf tadriji to'ldirib boradi. Mazkur hikoyalardagi bolalar qilmishi orasidagi oqibat ikki xil bo'lib, «Muzqaymoq» asarida uning yuki yengilligi ayonlashadi. Biroq «Sarob» hikoyasida mafkura ayg'oqchilari bois Kimsan (ismda ramz mavjud)ning otasiga, millatiga xiyonati oliv tuyg'ularga soya tashlabgina qolmay, farzandlik burchi borasidagi axloq qarashlarni parchalaydi. Hikoyadagi kulminatsiya mahkum Kimsanning o'limi oldidan ko'ksidagi dohiy suratini o'chirishni vasiyat qilishida bo'rtib ko'rindi. Ayon bo'ladiki, kishi o'zligi, g'ururining zabit etilishi uni odamiylik rutbasidan uloqtirib, umri xotimasida xorlikka mubtalo aylaydi.

Nazar Eshonqulning «Qultoy» hikoyasi epigrafida Alpomish dostonidan kichik parcha keltiriladi. Bu to'rtlikda duo, qiblagoh, ota so'zlari asardagi ko'plab motivlarni anglash asnosida oydinlashib boradi. Hikoyadagi voqealar retrospektiv syujet asosiga qurilgan. Ma'lumki, yolg'on yomon illat bo'lib, kishining qismatini chigallashtirib boradi. Xusan, oilada ayolning eriga yolg'on so'zlashi katta musibatlarga yo'l ochadi. Rajab va Rahbar oilasida qiz farzandlar tug'ilishi nizolarni avj oldiradi. Cho'pon er fe'lidagi g'azab,sovuuqqonlik ayol halovatini so'ndiradi.

Jamiyatda turli toifa kishilar bo'lib, ayrim manfurlar nogiron insonning ojizligidan foydalanishadi. Rahbarning maymoq, aqli zaif singlisining homiladorligi otasi, jigarlariga isnod edi. Bu

aybni yashirish maqsadida ota boshchiligidagi tug'ilajak go'dakni erli opaga berishga ahd qilishadi. Vaqti kelganda Rahbarning qizlik uyiga ketib, u yerdan o'g'il chaqaloqni olib kelishi, «Bir qarindoshimiz tug'gan kuni o'lib qolibdi, qizing hali sutdan chiqmagan deb menga berishdi. Bu endi bizning bolamiz, otasi» degan aldrovi voqealar oqimini rivojlantirib boradi. Bir haftadan so'ng ota yetovida maymoq Arzixolning opasi xonadoniga kichik tuguni bilan tashlab ketiliishi taqdir o'yinini davom ettirishga turki beradi. Asrandi o'g'il Uljon cho'ponni ota, Rahbarni ona maqomida ko'rib voyaga yetar ekan, ularning xatti-harakati, odati, tutumini o'zlashtirib boradi.

Hikoyada Arzixolning ro'zg'or ishiga uquvsizligi oqibatida darg'azab pochchasidan qamchi yeishi, kaltaklanishi, opaning qarg'ishini eshitishi, bolalar xizmatchisiga aylanishi tabiiy holdek tuyuladi. Rahbar opasining o'limi oldidan singilning o'zi o'limga tayyorligini aytgan onlarda ayollar siyrati ayonlashadi. Xotinining o'limidan so'ng cho'pon va o'g'lining Arzixolga zug'umi yanada zo'rayadi. Yillar o'tib cho'pon vafot etadi, oilaga Uljon bosh bo'ladi.

Badfe'l yigit turmush qurgach, ayoli bilan janjali ko'payib, kelinning uyiga ketishi yana muammoni chigallashtiradi. Hikoyaning Arzixol Uljonnini qaynilari zulmidan asrashi motivida hid sezgisi bilan bog'liq nozik vaziyat kuzatiladi. Maymoqning Uljonnini kaltak zarbidan himoyalash maqsadida ustiga yiqilganda achimsiq hid bilan qandaydir tanish hid keladi, biroq bu keyin unut bo'ladi. Bu janjalda Arzixol Uljonning miltiq olib otishiiga to'sqinlik qilib uni qotillikdan asraydi, afsuski, bu yaxshilik evaziga «Enag'ar maymoq. Ularning o'rniغا seni o'ldiraman» degan tahdid bilan qo'lini sindiradi.

Arzixol eski omborxonada yashab, Uljon, uning xotini, bolarining xizmatida bukchayib, holsizlanib boradi. Arzixolni badnom qilgan Salom chavandoz baytal tepkisidan vafot etgani

haqidagi xabarda gunoh ishning jazosiz qolmasligiga urg'u beriladi. Keksa Arzixolning xastalik onlarida zax omborda sovuq zabtiga chidab och, yupun kun ko'rishi motivida hazin kuy sadolanadi. Qishning sovuq kunida kampir omonatini topshiradi.

Uljon: «Bu maymoqning o'lgan kuni ham o'ziga o'xshagan tashvish bo'ldi-ya», – deb noiloj el oldida ta'ziya o'tkazib, «xola»-ga ko'zyosh to'kishida og'rinish kuzatiladi. Asardagi kulminatsiya boboning Uljonga qarata «Onam deb yig'lang, bolam. Onam deng» degan murojaatida avjiga chiqadi. Asardagi bosh semiotik markaz «Arzixol sizning tug'gan onangiz bo'ladi, bolam. Salom chavandoz badnom qilib ketgach, sizni Rohatga berdik. Aslida, sizni Arzixolning o'zi emizib katta qildi, bolam...» jumlalarida bo'y ko'rsatadi. Vijdon azobi unga bir umr halovat bermaydi, tayoq detali ham o'tmishning shohidi bo'lib kabir gunoh jazosini eslatib turadi.

Asar epigrafida ota, duo so'zlarining voqelikka bog'liqligi borasida mushohada yuritish mumkin. O'z oilasi nomusini o'ylagan ota Rahbarning yolg'on so'zlashiga sababchi bo'lsa, zinokor Salom chavandozning tubanligi nogiron qizni badnom, zinodan bunyod bolani baxtsiz qildi. Rajab chavandoz otalikni qamchi va gavron shiddatida anglagani bois asrandi Uljonga bu qahr meros bo'ldi. Bu kishilarning duo qilishi ham gumon, boisi, ularda imon sustligi ayon. Hikoyada ona bo'lib ro'shnolik ko'rmagan, bolasini duo qila olmagan Arzixol (ismda ramz mavjud) qismati – kam uchraydigan holat. Bu maymoq ayolni hamma inkor qildi, mehnatidan foydalanishdi, o'zi xo'rlandi, Uljon o'g'li ham uni umr bo'yi azoblashdan charchamadi. Hikoyada ota-onaning duosidan mosuvo avlod zulm, qabohat izmida parokandalikka yuz burgani ma'lum bo'ladi.

Xurshid Do'stmuhammadning «Yolg'izim – siz» hikoyasida ijodkor inson umri manzaralariga nigoh tashlanadi. Asar jahon adabiyotida o'z ovozi, uslubiga ega Fyodor Dostoyevskiyning ta-

fakkur sarhadlariga sayr qilish, uning chigal qismatidagi shoyon kunlariga shohid bo'lishga imkon beradi. Umuminsoniy g'oyalarni targ'ib qilgan yozuvchining kundalik tashvishi, ilhom onlaridagi taxayyul hosilasi voqealarni uyushtirib boradi. Aynan badiiy so'z sehri, qudrati yosh Annani yozuvchining noyob salohiyati, teran zakovatiga rom aylaydi. Tiriklik mazmunini so'z san'atida kashf qilgan Dostoyevskiy fitratidagi hurlik, to'g'rilik, tavakkalchilik tahlikali onlarda ham unga quvvat, kuch bergani ayonlashib boradi. Xurshid Do'stmuhammad hikoyasida Fyodor Dostoyevskiy fenomenini yaratib, bu zakiy iste'dod jilosining nuriдан kitobxonni bahramand ayladi.

Badiiy asar boshlanishida nosir tomonidan ba'zi hollarda epigraf keltirilishidan muddao bor. Epigraf vositasida asar g'oyasi, muallif badiiy niyatini anglashga harakat qilinadi. Isajon Sultonning «Qismat» hikoyasidagi epigrafni uqqan kitobxon yechimini tushunib oladi. «Otaga cho'p otsang, kun o'tib bir kun Farzanding senga tosh otmog'i mumkin» hikmati zimnida har bir yaxshi yo yomon xulqning ajr-u jazosiga ishora berilgani oydinlashadi. Asar poetikasida tasvirlanayotgan voqeaneing mantiqan asoslangani kishilar munosabatidagi nihon vaziyatga aniqlik kiritishga xizmat qiladi.

Detal ham maxsus funksiya bajarishi bir qancha hikoyalar, jumladan, «Shamolni tutib bo'lmaydi» asari misolida tushuntiriladi. Hikoyalarda tabiat hodisalari inson qismatidagi ma'lum lavhaga ishora qilishi, ba'zan ulardagagi vafo, sadoqat ibrat tarzida berilishi asarlar orqali asoslanadi. Adib tabiat hodisalari manzaralariga ramziy ma'no yuklaydi, asrorini uqishda ma'no nozikligini ilg'ashga chorlaydi. Tabiat tasviri qahramon ruhiyatini yoritadigan qo'shimcha vosita bo'lmay, ijodkor maqsadini anglatishga xizmat qiladi. Tabiat hodisalari inson hamda borliq hikmatini uqishga da'vat etadi. Asar hajmi masalasiga e'tibor qaratilib, me'yoriy o'zgarishlar eslatiladi.

«Yog'och kavush» hikoyasida voqeа xитоy millatining kichik bo'g'ini – sholikor kambag'al dehqon istagi negizida rivojlanib boradi. Kishilik jamiyatida boylar, zodagonlar turmush tarzi, tutumi qashshoqlardan farqlanishi sodda dehqon qilmishi bilan idrok etiladi. Ota qiziga yog'ochdan kavush yasashida detal vazifasi kuchayib boradi. Qizini kelajakda baxtli ko'rishni orzu qilgan mehnatkash dehqon kavushni ulg'aysa ham kiyishi kerakligini ta'kidlaydi. Qiz jismida kavush bois paydo bo'lgan tinimsiz og'riq uni otaga qarshi chiqib bo'yin tovlashiga izn bermaydi. Qashshoqlikdan qutulish maqsadida xo'jayin – semiz boyga qizini erga berish niyati kitobxonni o'ya toldiradi. Boyning su-luv qizni nazariga ilmagani otaning umidini puchga chiqaradi. Qizining mashaqqatli mehnatsiz farovon hayotda yashashini orzu qilgan ota qilmishidan vijdoni qiynalib, yiroqqa ketib qolishi motivida hazin kuy taralib turadi.

Detal tasvirlanayotgan hodisani aniqlashtirib, jismdagи og'riq va ko'ngildagi orzu kontrastini yuzaga chiqaradi. Kichik qobiq kavush, bolalikdagi erkni mahv etdi, uning samarsi puch ekani kech anglandi, lekin qiz buning uchun otasidan xafa bo'lindi. Detal vogelikni to'laqonli tasvirlash, qahramon kechinmalarini yorqin his qildirishda muayyan vazifani bajariishi anglashiladi.

Keyingi yillarda o'zbek hikoyachiligidа o'ziga xos uyg'o-nish, yangilanish jarayoni kechmoqda. Ma'lumki, badiiy ijoddа muayyan yo'naliшning vujudga kelishi tasodifan ro'y bermaydi, balki har qanday tamoyilning vujudga kelish tarixi, ko'lami, miqyosi va istiqboli bo'ladi. Badiiy adabiyotdagi tamoyillarning vujudga kelishi badiiy tafakkurdagi o'zgarishlar jarayonidan boshlanadi. Albatta, yangicha tafakkurning samarasi yangicha qarashdagi ijoddir.

Zamonaviy hikoyalarda o'zgacha bir tamoyil ko'zga tashlanadi. Bu, avvalo, hikoyadagi lirizmnинг kuchliligidir. Hikoyalar

tuyg'ularga, hissiyotga boyki, asar yakuniga yetgach, kishi o'sha sehrli olamdan ajralib qolganiga nadomat qiladi, hikoyani yana bir o'qishga kirishadi, ikkinchi o'qish davomida bu go'zal olamning zamiridagi mohiyatni anglab, so'z bilan anglatib bo'lmaydigan bir tuyg'udan fikr ummoniga g'arq bo'ladi. Bir tomondan, «Bog'i Eram», «Oydinbulloq» hikoyalarida sokin ohang hamda rangin manzara farqlanib tursa, ikkinchi tomondan, badiiy ijodning komponentlariga amal qilinganligi o'z samarasini bergani oydinlashadi.

Shoyim Bo'tayev hikoyalarida kutilmagan yechim, tasvirlangan narsa, voqeа, detalning maqsadga xizmat qilishi, qahramon xatti-harakatidagi tabiiylik e'tiborni tortadi. Bu xususiyat «Hisomiddin al-Yog'iy» hikoyasiga taalluqlidir. Asosiy gap hikoya voqealari zamiriga singdirilgan g'oyaning salmog'ida, falsafiyigida. Agar u zaif bo'lsa, badiiy komponentlar har qancha mahorat bilan qo'llanmasin, hikoya kishi taxayyul olamiga ta'sir qilishi qiyin.

Adabiy jarayonda ayol adibalarning ham hikoyalari e'tiborni tortadi. Ma'suma Ahmedova, Jamila Ergasheva, Shahodat Isaxonova, Zulfiya Qurolboy qizi, Risolat Haydarova, Nodira Ibrohimova, Muyassar Tilovova kabi ijodkorlar maishiy turmush tarzi, ma'naviy-axloqiy ahkomlarni sodda, lo'nda ifodalashga sazovor bo'lmoqdalar.

Yozuvchi ijodining o'ziga xosligi, ayni paytda, ijodiy jarayonning o'ziga xosligini belgilaydi. Ijodiy jarayon har bir yozuvchida o'ziga xos tarzda kechadi. Xususan, Zulfiya Qurolboy qizining hikoyalarida ona, yor, qiz timsoliga chizgilar berilib, bozor iqtisodi muhitidagi murakkabliklar silsilasida ta'sirli yoritishga jazm qilinadi. Boylik, to'kin hayot, dabdabaga kontrast tarzda muammolar girdobidagi kishilar qismatini turli rakursda taqdim etishga harakat qilinadi. «Bo'yvuchcha» hikoyasida hashamatli turmush poydevori harom pullardan bunyod bo'lgani bois

u yerdagи kishilar asta halokatga ro'baro' bo'ladi. Ota-onaning ma'naviy qashshoqligi farzandlar baxtiga raxna soladi. Ona nomusi toptalgan qizining o'limi, narkotik moddaga ruju qo'ygan o'g'lining faryodi, boy erining xiyonatini ko'tara olmay ruhiy xastalikka chalinadi. Hikoyada ikki tabaqqa turmush tarzi muqoyasa qilinadi. Boy beka va xizmatkor ayol o'rtasidagi dialog vositasi da hoy-havas va qanoat, halol va harom borasidagi mulohazalar taranglashadi. Adiba oila tanazzuli misolida nafs qutqusidagi kimsalarni rutubatlι yo'ldan ogoh etishga jazm etadi.

Yosh adiba Nodira Ibrohimova «Men, dadam va alsgeymer» hikoyasida tibbiyotdagi og'ir dard – miya faoliyatining so'ni shi oqibatini yoritishga muvaffaq bo'ladi. U parishonxotir ota kasalini qarilikning boshlanishi deya qabul qilgan qizning xotiralarini tegrasida qurib boriladi. Farzand otasini tushunishga, unga ko'maklashishga, tasalli berishga harakat qiladi. Syujet chizig'idagi bu motiv kishini sergaklantiradi. «Dadam oxirgi vaqtlar o'zi bilan o'zi so'zlashishi, ko'zlariga sharpalar ko'rinishi va tajovuzkor bo'lib qolganini sezgan edim... ammo u hech qachon onamni unutmasligiga ishongan edim. Onamning bo'yinda barmoq izlari qolgan edi...» Kitobxon asar davomini kutadi. Qahramon onasidan shu taxlit ayrilar ekan, mungli kuy taraladi. Shifoxonadagi ota va qiz dialogida hazinlik, tushkunlik pafosi ortadi. Asarda qiz chorrahadagi kishi yanglig' kalavaning uchini axtaradi. Qahramon iztirob iskanjasidan yo'l axtaradi. Xasta ota, bevaqt vafot etgan ona, yoshlik sinovi qalbga og'riq berib, bedorlikka chorlaydi. Hikoyada voqeа sababi ko'rsatilib, natija kitobxon hukmiga havola etiladi. Qahramon monologи esa siyratni, undagi kontrast-u murakkablikni, chigallikni ta'sirli ifodalashga xizmat qiladi.

Xoliyor Safarovning «Oy botmagan kechalar» hikoyasida dolzarb muammo qalamga olinadi. Rossiyaga qora mehnat evaziga pul topish ilinjida ketgan qishloqlik yigit fojiasi ko'rsa-

tiladi. Salim kabi uddaburonlar o‘z hamqishlog‘ini musofirlikda qora mehnatga safarbar qilib kun ko‘rishi jamiyatimizdagи illatga aylanib bormoqda. Sodda, ishonuvchan yigitlar bu gir-dobga tushib, mashaqqatga duchor bo‘ladi. Hikoyada «Ona vujudini yemirib chiqqan faryod kuzgi oqshom shabadasida qirdan soyga endi va adirlar yonbag‘rini nolakor siypab ko‘kka o‘rladi» ifodasi Gulshan opa qalb iztirobini ochib beradi. Asarda g‘amgin ota va onaning umidvorligi, so‘zsiz va sassiz termilishi vaziyat qaltisligini asoslaydi. Nihoyat Baxtiyorning yurtiga omon qaytishi kechani munavvar aylab, oilaga halovatni qaytaradi.

Salim Abdurahmonning «Tog‘ odami» hikoyasida lafz, va’daga vafo tushunchalari vogelik asosini belgilaydi. Tog‘dagi cho‘ponlar turmushi, qish izg‘irini, jondor xavfi ota va o‘g‘il munosabati ni rivojlantirib boradi. Muallif Qodir cho‘ponni: «Yuzi quyoshda qoraygan, yelkalari keng, gavdasi beso‘naqay bo‘lsa-da, epchil, peshonasini ro‘mol bilan chandib, ustidan qishin-yozin telpak kiyib yuradigan», – deya tasvirlaydi. Tog‘da qor yog‘ishi, chorvaning sovuqda qolishi, bo‘rining chayla atrofida uvlashi cho‘ponni sergaklantiradi. Tun qorong‘isida jondor insonga hiyla ishlatadi, natijada Sardor otasi Qodirni otib qo‘yadi, tub burilish o‘g‘ilni vijdon azobiga mubtalo etadi. «Tog‘ odami mard keladi. Bir gapni aytdimi, qaytish yo‘q. So‘zidan qaytgan o‘zligidan qaytgan bilan teng» aqidasiga rioya etadigan oriyatli tog‘liklar bunday sinoatni ham yengishga harakat qiladilar. Muallif kishilarning lafzga, so‘zga omonatdorligini ko‘rsatishga intiladi.

Ijodkor umuminsoniy muammo yoxud insoniy kechinmani badiiy ifodalar ekan, tanlangan mavzu mohiyatini ma’no ko‘lam-dorligi va unga muvofiq shaklda yoritishni maqsad qiladi. Nosirlar ham asar g‘oyasini yoritishda tasvirlanayotgan voqeа-hodisa harakatga e’tiborni qaratishda, hissiy samaradorlikni oshirishda so‘z imkoniyatidan unumli foydalanishga intiladi.

Mustahkamlash uchun savollar:

1. Hikoya janrida qanday o'zgarishlar kuzatildi?
2. Said Ahmad hikoyalariга xos xususiyat nimada?
3. Qaysi zamonaviy hikoyalarda yoshlar obrazı uchraydi?
4. Abduqayum Yo'ldoshning hikoyalari borasida fikr bildiring.
5. Adibalar hikoyalarda voqelik tasviri xususida mulohaza yuriting.

«JUMBOQ» TEXNOLOGIYASI

Epigraf yoziladi, javob ikkita, bitta ha, bitta yo'q

****Osmon yiroq, yer qattiq («Bemor» ha, «O'zbeklar» yo'q)**

****Sizlardan qaysi biringiz o'z dinidan qaytsa va shu kofirligi-cha o'lsa, bas, ana o'shalarning (qilgan savobli) amallari xabata (bekor) bo'lur, ular do'zax ahlidurlar va u yerda mangu qolurlar (Qur'oni karim, «Baqara» surasi, 217-oyat)**

Jannatga kiradigan o'n nafar hayvondan biri bu – As'hobi kahfning vafodor itidir (Hadisi sharif)

(«Qorako'z Majnun» ha, «Yog'och kavush» yo'q)

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. XX asr ўзбек ҳикоялари. Антология. – Тошкент: Шарқ, 2012.
2. Аҳмад С. Киприкда қолган тонг. – Тошкент, 2005.
3. Султон И. Боғи Эрам. – Тошкент, 2015.
4. Салим А. Хаёлимда асраганим. – Тошкент, 2019.
5. Каримов Б. Истиқлол адабиёти: назм ва наср. – Тошкент, 2021.
6. Дўстмуҳаммад Х. Беозор қушнинг қарғиши. – Тошкент, 2006.

TESTLAR

1. Nazar Eshonqul hikoyalarini toping.

- A. «G'ulom gardish», «Quyun»
- B. «Chaqmoq izidan», «Tobut»
- C. «Oqpadar», «Qora quyosh»
- D. «Maymun yetaklagan odam», «Xaroba shahar suvrati»

2. «Oftoboyim» hikoyasida qaysi millat vakilining foje qis-mati tasvirlanadi?

- A. Yapon
- B. Xitoy
- C. Turk
- D. Koreys

3. «Puankare» hikoyasida qanday muammo ko'rsatilgan?

- A. Dehqon mehnati
- B. Ziyoli inson fojeasi
- C. Ishlab chiqarish jarayoni
- D. Musofirlilik sinoati

4. Qaysi adibalarni bilasiz?

- A. Zulfiya, Oydinniso
- B. Oydin Hojiyeva, Jamila Ergasheva
- C. Risolat Haydarova, Zulfiya Qurolboy qizi
- D. Guljamol Asqarova, Mehrinoz Abbosova

5. «Yog'och kavush» hikoyasining muallifi kim?

- A. I.Sulton
- B. U.Hamdam
- C. S.O'nar
- D. Sh.Bo'tayev

Mavzu:**QISSA JANRI XUSUSIYATI*****Reja***

1. Adabiy jarayonda qissaning o'rni
2. Biografik qissa tabiatи
3. Qissada kinoyaviy munosabat ifodasi

Tayanch so'zlar: *qissa, tasnif, obraz, tadrij, siyrat, mohiyat, detektiv, satira, piching*

Adabiy jarayon qimmati yangi, yetuk asarlar yaratilgani bilan belgilanadi. Hozirgi adabiy jarayon ayni vaqtagi adabiyot sohasida kechayotgan holatlar mohiyatini anglashdan iborat. Inson qismatini badiiy talqin etishda poetik ifoda turfaligi muallif konsepsiyasini aniq yoritadi. Hayot hamda xayol qorishiqligidagi voqeiliklar sirlilik, g'ayritabiyliz sathini kengaytiradi. Ba'zan makon-u zamoni mavhum sarhadlar miqyosi majoziy usulda uyushtiriladi. Bunda tabiatdagi ranglar mutanosibligi, ohanglar jarangi, o'simliklar ifori manzarani tiniqlashtiradi. Asar badiiyatini ta'minlashda ma'no serjilo, serqatlamliligi poetik yaxlitlikni yuzaga keltiradi.

Haqiqatan poetika badiiy asar ifoda tizimini istifoda etib, obraz teranligi, shakl hamda mazmun uyg'unligi, so'z siqiq, lo'ndaligini aniqlaydi. Kompozitsion unsurlar muallif badiiy niyatini ro'yingga chiqarishda muhim sanaladi. Obrazlar mohiyatini anglatishda ramziylik, ifodaviylik ko'lami ortib boradi. «O'tmishdan ertaklar», «Bolalik», «Shum bola» qissalarini ruhida vaqt tushunchasi ma'lum mezonda talqin etiladi. Asosan bolalik xotiralari orqali makon, zamonga diskurs uyushtiriladi. Farg'ona vodiysi toponimlari, iqlimi, ijtimoiy muhitni Abdulla Qahhor xotira puchmog'ida jonlanadi. Adib tafakkur prizmasida sayqallangan hayotiy lavhalar turli qis-

matlar kesimida badiiylashadi. Har bir mustaqil hikoya tizimida kishilar tiynatidagi fazilat-u illatlar oydinlashib boradi. Ota, ona, farzand uchligi bir muhitdagi turfa yosh, kasb, nasabdagi qahramonlar ma'naviy qiyofasini kuzatuvchi maqomida beriladi.

Yozuvchi kompozitsiyani tashkil etishda kulminatsion nuqtalarni nohaq vafot etgan Babar, Savrinisolar obrazida birlashdiradi. G'afur G'ulom, Oybek asarlari dagi voqealar asosan Toshkent xronotopida tashkillanadi. Bozor, masjid, choyxona, bog', daryo kabi makonlar peyzajida ranglar tiniqlashib, qahramon ruhiyatidagi o'zgarishlarga monandlashadi. Asardagi yumoristik motivlar ba'zan kinoyaviy ohang bilan sintezlashib ketadi. Bolalar qalbidagi pokiza tuyg'ularga kattalarning hissiz holati qarshi qo'yildi.

G'afur G'ulom, Oybek, Abdulla Qahhor qissalaridagi biografik komponentlar ular yashagan muhitga xos tamoyillarni yorqinlashtiradi. Bolalik davri qolipida xotiralar qatidagi haqiqat manzillari muhrlanib boradi. Adiblar psixologiyasidagi murakkab vaziyatlar asar qahramoni tiynatidagi po'rtanalar silsilasida ravshanlashadi. Har bir detal, predmet nomi tarixiy sharoit, hayotiy voqealaridagi sahifalarni markazga jamlaydi.

«Qadrim», «Erk», «Muqaddas», «Bahor qaytmaydi» asarlari matniga dramatizm unsurlarining singdirilishi ifoda yo'sinini kengaytiradi. Yoshlar taqdiridagi burilish onlari dialog-u monologlar mehvarida reallashadi. Badiiy obraz fitratidagi hurlik, ozodlik tuyg'ularini anglash jarayoni kolliziyalar kesimida yuzaga chiqadi. Insonning shariflik maqomiga erishishdagi sinov onlari syujet voqealarini taranglashtiradi.

Xayriddin Sulton («Saodat sohili»), Erkin A'zam («Otoyining tug'ilgan yili»), Isajon Sulton («Munojot»), Shomirza Turdimov («Mezon») qissalarida Hofiz, Rumiy, Navoiy, Bobur, Mashrab she'rlari diniy-ma'rifiy qatlamni boyitadi. Ulug'bek Hamdam «Yolg'izlik» qissasida shoirlik qobiliyatini ham yorqin namoyon etadi. Xurshid Do'stmuhammadning «Men – sensiz, sen – mensiz» qissasi poetikasida mozaika usulidagi she'rlar jamlanmasi li-

rik pafosni quyuqlashtiradi. Maktub (noma)lar zamiridagi Men va Sen tilsimining asosi Cho'lpon va Pushkin izhori ishqidan oziqlanadi. Bu obrazlar tiynatidagi oshiqlikni kitobxonga anglatish maqsadida Huvaydo, Erkin Vohidov, Usmon Azim, Muhammad Yusuf, Farida Afro'z, Abduvali Qutbiddin, Zebo Mirzo kabi ijodkorlar she'ri hamda Aleksandr Fet (rus), Baxtiyor Vahobzoda (ozar) bayti uyg'unlashtiriladi.

Muallif muhabbat, ishq qissasini sinkretik yo'nalishda tashkillashtirib, tuyg'u, kechinmani obrazli ifodalashga, so'zning metonimik, metaforik sifatini anglatishga, badiiy samaradorlikni oshirishga muvaffaq bo'ladi. Ijodkorlar mavzuga yondashish, janr xususiyatini boyitish, inson botinini ta'sirli aks ettirishda bunday poetik usuldan o'rinali foydalanadilar. Muhimi, qissa-lar strukturasida she'rlar turli mazmun qirralarini ochib, badiiy obraz ruhiyatini teran yoritib, yaxlit matnning uzviy qismiga aylanib, asarning estetik qimmatini boyitishga xizmat qiladi.

Adiblar jamiyatdagi qusur-u nohaqliklarni sharhlashda turli soha, kasbga doir lavhalarni matn negiziga singdiradilar. Bu usul qahramon tafakkuridagi o'zgarishlarga monand parallel taqdim etiladi. Matn tarkibida ba'zi lirik parchalar ruhiyat tebranishini ta'sirli bayon aylaydi. Epik polotnoda lirizm, dramatizmga doir tasvirlar sintezi badiiy tizimni mukammallashtiradi.

«Galatepaga qaytish» qissasida muallif aql va qalb muvofiqligi borasida falsafiy qarashlarni ilgari suradi. Murod Muhammad Do'st ilm-u fan fidoyisining faol turmush tarzini retrospektiv syujet tegrasida yoritadi. Kishi yuksak marraga erishish asnosida ma'naviy qiyofasini yo'qotishi voqeani tezlatadi. Tug'ilgan makon, ota yurtga mehr rishtasining uzilishi qadriyatlar unutilishiga sabab bo'ladi. Asarda ma'lum axloqiy qonunlarning insonlar taqdirida akslanishi turli rakursda namoyon bo'ladi. Avlodlar tarbiyasida padar, ustoz o'giti, muhitning olim kelajagiga ta'siri azal hamda abad tushunchalari doirasida qoliplanadi.

«Alvido, bolalik», «Sho'rodan qolgan odamlar» qissalarida bashariyat etik, estetik tafakkuriga zid holatlar qamrab olinadi. Ma'lumki, bolalik pallasi bahorga mengzalib, yashash zavqi, hayrat ko'lami nish uradi. Ota-onan mehridan mahrumlik pok qalbni parchalaydi. Tohir Malik sag'ir bolalar ko'nglidagi musaf-folik, ko'klamni ayozga ro'baro' etgan hissiz padar-u validaning umumlashma obrazini taqdim etadi. Halollik hamda harom tushunchasi norasida go'daklar azob-uqubatida shakllantiriladi. Muruvvat, oqibatdan benasib bolalar qahr, g'azab og'ushida voyaga yetishadi.

Muallif ezgulikni yovuzlik zabit etishi jarayonini ichki nizo, isyonlar qurshovida tasvirlaydi. Muhabbatni niqob aylagan nafs qurbanlari o'z farzandlari nafrati, intiqomidan xoli bo'lolmaydi. Asar pafosi obrazlar tazarrusi, vijdon iztirobida bo'rtib ko'rindi. Shoyim Bo'tayev asarida Nazoratchi o'g'lining Toshmurodga aylanishida bosh aybdor sanaladi. Otalik burchi, farzandlik vazifasi borasidagi me'yorning buzilishi tanazzulga yetaklaydi. Qissadagi retrospektiv syujet voqealarni bosqichma-bosqich yoritib boradi. So'qir qalb umr hikmatini anglamagani bois qo'ni-qo'shni, qarindosh-urug'chilik ahkomlarini uzib, kishilar nafratiga noil bo'ladi. Qissalar poetikasida insoniyat badiiy tafakkuridagi an'analarning o'zgarish jarayoni ijtimoiy, madaniy qatlamda vujudga kelayotgani ayonlashadi.

Ijod jarayonida real hamda noreal zamон о'lchovlari voqelikni timsollar tilida uqishga chorlaydi. Erkin A'zam «Shoirning to'yi» asarida san'atkor qalamkash, ziyoli, mansabdorlar doirasidagi chirkin muhitni tasvirlashga intiladi. Piching, kinoya usulida yetakchi leytmotiv bo'rtib ko'rindi. Shoir ko'ngli umumbashariy qadriyatni o'zida jo aylaydi, hayrat olami ila keng sarhadni zabit etadi. Haq yo'lda sobit qalamkash fojiasi sobiq tuzum fonida mu-jassamlanadi. Muallif metaforik obrazlar orqali badiiy niyatini amalgalashadi.

Har bir ism muayyan funksiyani bajarib, serqatlam xususiyati voqealar rivojida ma'lum bo'ladi. Inson zohiran to'g'ri ko'riniishi, biroq botindagi egrilik chin hamda soxta maslak sohiblari muqoyasasida ro'yobga chiqadi. Mafkuraxonim, Ma'shuqaxonim, Jiyanbeka toifasidagi mahdudlar ismida piching ohangi yaqqol seziladi. Bu obrazlar ijodkor haqidagi yolg'on fitnalari ila ommani chalg'itishga intiladi. Otashqalb ismida muallif ideali bo'y ko'rsatadi. Asar markazida ikki qutb vakillarining murosasiz bellashuvi yetakchilik qiladi. Asliyat va sun'iylikning inson xilqatidagi tal'ati mushohadaga chorlaydi.

Oqsoqol, Ajoyib domlalar manfaati yo'lida har qanday tubanlikdan chekinmaydi. Haq va botil muqoyasasida zaharxanda kinoya ustunligi, ironik badiiy modus yuqoriligi kuzatiladi. Koshona xronotopi ham qafas misoli namoyon bo'lib, u yerdag'i takabbur, riyokor kimsalar maskan hashamatiday taassurot qoldiradi. Yuqoriga intilgan makkorlar bu yolda turli razolatlardan bosh tortishmaydi. Salobatli tuzumning biqiq havosidan to'yingan basir qalblar ojizligini his etmaydi. Garchi shoir nohaqlik qurbanbi bo'lsa ham, pok ko'ngli ila oliy maqomga erishib, xalq yuragida abadiy yashaydi. Adib millatning fidoyilarini obrazini talqin etishda shoir qismatini mifologik tasvir mehvarida taqdim etadi. Ruhlar olamidagi erkinlik tiriklik dunyosidagi tutqunlikdan buyuk sanalib, ikki qatlam sinoati qismat tegrasida uyuşhtiriladi. Bunday yondashuv zamon, makon ko'laminichecklamasdan, kishining foniylig hamda boqiylik holatiga majoz usulida nigoh tashlashga zamin yaratadi.

Janr takomilida mavzular ko'lami ortgani, obrazlar tizimi o'zgargani ma'lum bo'ladi. Jamiyatdagি muammolar qahramonlar dunyoqarashiga ta'sir etib, ularning falsafiy, estetik qarashlarini yangilayotgani ayonlashadi. Globallashuv asnosida inson taxayyul olamidagi tebranishlar badiiyat namunalarida akslanib, metaforik mohiyat kasb etadi. Poetik ifoda yo'sinida ramz, timsollar salmog'i voqeani ta'sirli ifodalashga yo'naltiri-

ladi. Ranglar muayyan narsa, hodisaga ishora berib, serqatlam ma'noni yuzaga keltiradi. Qahramonlarga ism tanlash ular siyaratidagi nuqson yoxud fazilat tabiatidan kelib chiqadi. Qissalar poetikasidagi o'zgarishlar yangi talqinlarga imkon yaratadi.

Mustahkamlash uchun savollar:

1. O'tkir Hoshimov qissalarida oila ma'naviyati masalasi...
2. Isajon Sulton qissalarida diniy motivlarning salmog'i borasida fikr bildiring.
3. Biografik qissalarda bola dunyoqarashi talqini...
4. Zamonaviy qissalarda ramzning ahamiyati qanday?
5. Erkin A'zam qissalarida jamiyat tasviri...

KONSEPTUAL JADVAL

Ayol obrazzi tavfsifi	Oymomo	Nazoratchining ayoli	Mafkuraxonim
Sag'ir bir qiz bo'ldi, bir qiz bo'ldi-ye! Sarvqad bo'ldi. Suluv yuzlarini oppoq desak, bizning haqimiz ketadi. Qorachadan kelgan desak, qizning haqi ketadi. Bug'doyrang bo'ldi. Barchin yuzli bo'ldi, saraton yulduzli bo'ldi.	Nazoratchining xotini qirq besh-ellik yoshlardagi ayol, sochlari oppoq oqarib ketgan, yuzini qalin ajinlar qoplab tashlagan, qo'llari kosovdek, ko'rinishidan yetmish-saksonlarni qoralagan kampirga mengzagulik edi.	Qirq besh yoshlar chamasidagi bu xotin so'zga nihoyatda chechan, birpasda dunyoni ag'dar-to'ntar qilgudek faol tashkilotchi, ojni qora, qorani oq deb isbotlamoqqa, ayniqsa, mohir edi.	

Jonzot obrazzi tavsifi	Tarlon (ot)	Oqmanglay (qoplon)	Oqbo'yin (it)
	<p>Tarlon tag'in qozig'ini aylanib aylanib chopdi. Dirk-dirk o'ynadi. O'ynab-o'ynab pishqirdi. Tarlon dumlari yoyildi, yollarri hurpaydi. Yollarri bir chap bo'ynida, bir o'ng bo'ynida o'ynadi.</p>	<p>U bir paytlar bu cho'ng tog'larning sultonii, chog'roqqina qoplonlar to'dasining yetakchisi edi. Biroq xiyolgina kuchdan qola boshlashi bilan hamjinslari uni tark etishdi. Oqmanglayning ko'zi ilingan ekan, ichki bir turkidan yengil seskanib uyg'onib ketdi va mudroq nigohlari ila o'limni ko'rdi.</p>	<p>Oqbo'yin sakramoqqa endi chog'langan ham ediki, oldinroq harakat qilgan Olapar uni turtib o'tib, Yoldorga o'qdek tashlandi. Oqbo'yin sal narida sarosimada turib qolgan bo'rillardan biriga hamla qildi. Bu o'sha suyagi buzuq ulkan bo'ri edi. Raqibi harchand chap berishga harakat qilmasin, bo'g'zini Oqbo'yinning o'tkir tishlaridan asrab qolomadi. It zumda uning bo'g'zini yorib tashladi.</p>

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- Аъзам Э. Кечикаётган одам. – Тошкент: Шарқ, 2002.
- Адабий тур ва жанрлар. – Тошкент: Фан, 1991.
- Бўтаев Ш. Ҳаёт. – Тошкент: Шарқ, 2000.
- Дўст М.М. Галатепа қиссалари. – Тошкент: Ёш гвардия, 1985.
- Норқобилов Н. Тоғдаги ёлғиз одам. – Тошкент: Ўзбекистон, 2011.
- Мурод Т. От кишинаган оқшом. – Тошкент: Шарқ, 1994.
- Раҳимжонов Н. Истиқлол ва бугунги адабиёт. – Тошкент, 2011.

TESTLAR

1. Mafkuraxonim qaysi asar qahramoni?

- A. «Muyulishdagi uy»
- B. «Mezon»
- C. «Tengdoshlar»
- D. «Shoirning to'yi»

2. «Alvido, bolalik» asari qahramonini belgilang.

- A. Samariddin
- B. Qamariddin
- C. Asliddin
- D. Zavqiddin

3. «Bolalik» asaridagi voqealar asosan qaysi hududda ro'y beradi?

- A. Farg'ona
- B. Samarqand
- C. Toshkent
- D. Buxoro

4. Bo'ri polvon qaysi asar qahramoni?

- A. «Oyqor»
- B. «Yulduzlar mangu yonadi»
- C. «Tog' odami»
- D. «Muqaddas»

5. «Qoyalar ham yig'laydi» asari muallifi kim?

- A. To'lqin Hayit
- B. Shoyim Bo'tayev
- C. Normurod Norqobilov
- D. Tog'ay Murod

Mavzu:

O'ZBEK QISSALARIDA POETIK IZLANISHLAR

Reja

1. Qissa kompozitsiyasidagi o'zgarishlar
2. Badiiy matn strukturasi
3. Asarlarda tasviriyl ifodalar

Tayanch so'zlar: qissa, g'oya, struktura, estetika, matn, semiotika, sarlavha, san'at

Hozirgi adabiy jarayon hayotni realistik tasvirlash yo'lidagi xususiyat, tamoyillarni kuzatadi. Adabiy jarayonni ilmiylik asosida baholash matn badiiyatini teran o'zlashtirishni talab etadi. Madaniy, tarixiy qadriyatlar asar mehvaridagi tayanch nuqtalar sanalib, umuminsoniy fazilatlarni birlashtirib turadi. Har bir ijodkor, avvalo, milliy tili, an'anasi namoyon etishga oshiqadi. U millatning ma'naviy va intellektual salohiyatini, kishilarning ruhiy madaniyatini boyitishga, adabiyot bo'stoniga kitobxonni chorlashga muvaffaq bo'ladi.

Adabiy jarayonda tasavvur va tafakkur tarzining yangilanishi qissalar poetikasida ham ko'zga tashlanadi. Qissa ifoda usulida semiotika imkoniyati, badiiy tasvir vositalari poetik mazmunni to'ldirib boradi. Haqiqiy badiiy asar mukammal tarkibga ega bo'lib, ma'no nuqtalari serqatlamligi sirli mazmun miyosini kengaytiradi. Struktural tahvilning maqsadi adabiy matnning semiotikasi, ma'nolar yo'nalishi, ko'pqatamliligin anglashdir.

Semiotika jumladagi so'z mazmuni, shakli, ohangi borasidagi tasavvurlarni yaxlit tizimga keltiradi. Struktura badiiy matndagi

qismlararo aloqa, moslashuvni namoyon etadi. U matndagi bar-cha elementlarni o'rganib, ma'no yo'nalishi, ko'pqatlamliligini ta'minlashga, botiniy quvvatni mustahkamlashga imkon yaratadi. Struktura badiiy matnning estetik manbai sanalib, semiotik markazning aniq-tiniqligi uning teranligiga ishoradir.

Tarkibdagi ilk semiotik markaz sarlavha bo'lib, unda muallif g'oyasi, konsepsiysi jo bo'ladi. Sarlavha – ilk taassurot, muallif hamda kitobxonning ruhiy muloqoti debochasi. San'atkorlar borlig'i, iste'dodi, ijodiy niyatini baholash shu lahzadan boshlanadi.

Xurshid Do'stmuhammad «Yolg'iz» qissasi sarlavhasi asrорini anglash onlarida yakka, fard so'zлari xotirimizda jonlanadi. Yolg'izlik holati o'z aqida, maslagi istagidagi shaxs yoki narsani shuurimizda paydo qiladi. Yo'l hamda yo'lsizlik aro izlanayotgan, haq yo'botilga qarshi kurashayotgan, o'y-xayollari bilan bandlik darajasi yakkalikka daxldor siymo. Muallif ifoda yo'sinida, badiiy tafakkurida toblangan voqeliklar matnni o'zlash-tirish jarayonida reallashib boradi. Qissada makon va zamon kengligidagi yolg'iz shaxsning iztirob-u fig'oni hayotiy hamda xayoliy kechinmalari silsilasida zuhurlanib turadi. Adib Julqun-boy e'tiqodi, sof vijdoni bilan bog'liq lavhalarni falsafiy, majoziy mazmun bilan uyg'unlashtirishga sazovor bo'ladi. Asarda Abdulla hamda Rostgo'y amaki obrazini parallel tasvirlab, ularning mushtarakligidan yozuvchi fenomenini talqin etadi.

Strukturadagi muhim ma'no nuqtasi Rostgo'y ertagi zamiridagi achchiq haqiqatda jamlanadi. Abdulla tiynatidagi zakiylik, donishlik qaltis vaziyatda ham insoniylik sharafini zabun etmaslikda yaqqol ko'rindi. Mahbuslik, tutqunlik dilbar shaxs erkiga soya tashlamaydi, undagi metin iroda, matonat ijtimoiy muhit girdobidan omon saqlaydi. Adib ruhiy halovat, chin haqiqatga intilgan insonning hodisaga ongli yondashuvini to'g'ri belgilaydi. Abdulla niqoblangan do'st-u soxta birodardan no-

haqlik ko'radi, ammo o'zi hech kimga ziyon yetkazmaydi. Uning fitratidagi to'g'riso'zlik, fidoyilik kulfat keltirsa-da, maslagiga sodiq qoladi.

«Tushungan odam tushunganligi tufayli tushunmaganlar orasida tushunksizdir, yolg'izdir... Fikrda, fikrchanlikda yolg'iz edi Abdulla. O'sha yolg'izlik, mana, endi butkul o'zgacha to'nda uning boshiga yopilgandi». Ilmiy manbalarda germenevtika termini tushuntiraman ma'nosini anglatadi. Iqtidor, iste'dod, zakovat birligidan mohiyat shaffoflashadi. Odamlar ichra fardlikka mubtalo shaxsning pok e'tiqodi, sof ko'ngli, yuksak salohiyati mezoni tushunmaganlarga noayon, mavhum tuyulaveradi. Boisi, muvozanatni asrash, el, millat hurligi uchun donishmandlik maqomiga yetishish dushvor. Haqparast boshiga zulmat to'ni tashlansa-da, bir qatim nur qahramon tiynatiga umid baxsh etadi. Jumladagi yolg'iz so'zi takrori ta'kid, tasdiqqa ishora berib, ahdiga sodiq obraz konsepsiyasini badiiy asoslashga zamin yaratadi.

Nosir haqiqat manzaralarini ba'zan taxayyul manziliga ko'chirib, ruhiy evrilishni simvolik holatda pardalab boradi. Qissada ijodkor Abdullaning qahramoni Yusufbek hoji bilan xayoliy mu-loqoti ikki ko'ngilni bir sulukka birlashtiradi. Shaxs ruhiy yaqinligi, dunyoqarashdagi yaxlitlik asar ichra asar yaralganda yaqqol kuzatiladi. Botindagi bezovtalik, ruhiyatdagi tebranishlar ma'no ko'lamini teranlashtiradi. Bu adolat manzili ijodkor idealining, estetik pozitsiyasining asosini belgilaydi. Xurshid Do'stmuhammad badiiy obrazning ruhiy-ma'naviy dunyosini milliy, madaniy sardalar qamrovida yoritib boradi. Muallif erkin shaxs konsepsiyasini yolg'izlik motiviga qoliplab ko'rsatishga intiladi.

Yozuvchi Ernest Xeminguey «Chol va dengiz» asarida ishonch, iroda, jasorat kabi azaliy hamda abadiy istilohlar psixologik omillar negizida sharhlab boriladi. Sarlavhada makro – dengiz, cheksiz hudud bilan mikro – chol, ojiz insonning parallel taqdim

etilishi ma'no qatlamini nurlantirib boradi. Dengizdag'i sokinlig-u jo'shqinlik, po'ttanalar, mayjlangan to'lqinlar ulug'verligi bois odamzodni hayratlantirgan. Qat'iy tartibotga some'makondagi nabotot-u jonzotlar ma'lum muddat tiriklik sururini his etadi. Kundalik hayot simfoniyasini his etishga qodir odam mudom mushkulotdan qo'rqlaydi. U dengizda sayr qilib kenglik, shaffoflikdan taskin topadi.

Kishining qudratli dengiz qo'ynida o'zini erkin tutishi matonatidan dalolat beradi. Keksa chol umri davomida dengiz bilan tillashadi, dardlashadi. Ular nafaqat moddiyat ehtiyojidan, balki ruhan mushtarak bo'lib birlashgan edi. Dengiz xronotopi qahramonning so'nggi manzil yo'lidagi sirdoshi maqomida qabul qilinadi. Ba'zan inson atrofidagi kishilardan ko'ra borliqqa qalbini ochishni ma'qul ko'radi. Tabiatdagi sinoat, haroratni bedor qalb tuyib, uni saqlash, avaylashga intiladi. Tanho kishining sabr-u irodasi dengizdag'i yirtqich baliq bilan to'qnashuvida sinaladi. Inson o'zining kuch-qudrati, diqqatini jamlashi, ishonchini yo'qotmaslikka erishishi muzaffarlik garovi ekanini angraydi. Kishi bir ishga astoydil kirishsa, katta marralarni zabit etishga qodirligini kashf qiladi. Hayot zarbalariga dadil qarshilik ko'rsatishda odam chekinmasligi, mehnat zahmatidan hajiqmasligi targ'ib qilinadi. Dengiz simvolik mohiyat kasb etib, qahramon siyratiga ishonch, mardlik tuyg'ularini jo qiladi. Asarda turfa ranglar, mungli ohanglar inson hamda dengiz obrazini tiniq ifodalashga yo'naltiriladi.

Nazar Eshonqulning «Urush odamlari» qissasida zulm, jaholatning insoniyat tanazzuliga ta'siri dalillanadi. Urush ofati asrlar davomida inson naslini tiriklik huzuridan mosuvu aylamoqda. Urushda hech kim g'olib bo'lmaydi, millat-u elat halokatga yuz tutadi. U kishi qalbidagi ezgu fazilatni yovuz illatga o'zgartirishga erishadi. Obod maskanlar xarobalarga aylanib, yer yuzida vayronalar ko'payadi. Inson bu fojealardan to'g'ri xulosa

chiqarishga hanuz ojiz. Asarda semiotik ma'nolar fojea, zulmat-ga yo'g'rilgan lavhada bo'rtib ko'rindi. Normat va Anziratning ayanchli holati oila, jamiyatni ham sergaklikka undaydi. Jaholat bois ikki yorti bir butunlikka erishmadi. Farzand sog'lig'i ayol nomusidan muhimligi uni umrbod tavqi la'natga mahkum ay-ladi. Er-xotinning alohida tanholik jazosiga noil bo'lishi motivi qalb iztirobi, tavallosini aks ettiradi. Muallif yakkadan umumga qadar urushdan xastalangan, ozorlangan odamzodni o'zlikdan mahrum bo'lmaslikka targ'ib etadi.

Asardagi bosh semiotik markaz sanalgan mazkur fikrlar ahli odamni tafakkur yuritishga chorlaydi. Nafs qutqusi kishi ko'ngli-ga g'ulg'ula urug'ini ekadi. Ezgulikdan bebahra aqli noqislar insoniyatni qon dengizida g'arq qiladi. Baxt mohiyatiga umum-bashariy chizgi berilib, undan mosuvolik marhumlik diyoriga yo'l ochishi ta'kidlanadi. Or, nomus kabi noyob tuyg'ular zavol topishi, sag'ir bolalarning mungli nigohi, qotillik tamg'asi ma'no nuqtalarini jamlab boradi. Hayot haqiqatini umumbashariy muammolar qamrovida taqdim etgan muallif ruhiyatdag'i bezovtalikni majoziy bo'yoqda akslantiradi. Olamning sokin kuyini yovuzlik simfoniyasiga g'arq etgan urush qahramonni, insoniyatni so'qir yo'lda o'z dard-u armoni qobig'ida yakka qoldirdi.

To'g'ri, osuda hayot umididagi kishi yana tabiatdan mujda kutadi. Tabiatdag'i uyg'onish jarayoni bahordan umidlantirsa, sukunatdag'i qish holatidan sergaklantiradi. Odamzod boshiga kelayotgan ofatlar qish yanglig' qalbni muzlatsa, bahor sabosi vujudga malham bo'lishi ramzlarning badiiy ko'lamin orttiradi. Asarlar sarlavhasi kitobxonda adiblar falsafiy, estetik qarashi, ijodiy prinsipi borasida tasavvur paydo qiladi. San'atkori izlanishlar jarayonida sarlavhadan tortib so'nggi jumlagacha pishitib borishga ahamiyat beradi. Inson ruhiy, ijtimoiy may-larini inobatga olib kishi vujudidagi nihon olamni kashf etishga intiladi.

Yolg'izlik motivi badiiy ijodning barcha turida uchrashi mumkin. Yuqoridagi qissalarda tanholik lahzalari Cho'lponning fardlik musibatiga hamohangligi ila mazmun salmog'ini oshiradi. Shoir tanholik holatini ko'klamdan zavqlanib, shodlanmagan men siyosida bayon etadi. Bahor – kishi umrining ibtidosi, afsus, bu damda baxtdan mosuvo vujudni ko'zyoshlari yuvib yu-panch beradi. Orzulari sarobga aylangan dardmand yana tanholikka mubtalo bo'ladi. Ozorlangan ko'ngil armoni doim sevinch onlari ro'yobida ilhaq yashaydi. Yolg'izlikka mahkum inson iztiroblariga malham axtaradi. Umri turli ziddiyatlarga to'la shoir, aslida, o'z botiniga nigoh tashlab, barcha mashaqqatlarga tanholikda bardosh berayotganini fosh aylaydi. Haqiqatan u doim o'z maslagi, vijdoni amriga monand hayot kechirib, adabiyotga sadoqat, mehr bilan xizmat qildi.

Adabiyotshunos Abdug'afur Rasulov talqinicha, «Adabiy matnning serqatlamligi deganda ideal va borliq aro ziddiyat, ayni vaqtda, mutanosiblik nazarda tutiladi. Badiiylik tabiat mavhum istaklarni emas, mayjud hayotning ichidan keltirib chiqarilgan ideal tasvirni taqozo etadi».⁴

Qissalar semiotik-struktur tizimi badiiy obrazlarni zamон-у makon bilan butunlikda tasvirlashga qaratiladi. Adiblar qahramon xarakterining asosiy xossalarni ko'rsatishda semiotik nuqtalarni asar ruhiga singdirib borishadi. Kalom mag'zini anglagan kitobxon badiiy asar mutolaasidan estetik zavq olaveradi. Hozirgi globallashuv jarayoni kishilardan tezkorlik, ziyraklikni talab etadi. Axborot texnologiyalari taraqqiyotga kuchli ta'sir ko'rsatmoqda. Muayyan muddatda qabul qilinadigan xabar oz soniyada dunyoning boshqa hududiga uzatilmoqda. Faol, uddaburon odamlar iqtisod, siyosat, madaniyat sohasida yangi g'oyalarni tatbiq etishmoqda.

⁴Расулов А. Танқид, талқин, баҳолаш. – Тошкент: Фан, 2006. – 5.100.

Intellektual shaxslar ham ilm-u fan takomiliga munosib hissa qo'shishmoqda. Ko'rindiki, axborot asri insoniyatni tafakkur qudratidan unumli foydalanishga chorlamoqda. Dunyo ham-jamiyatida farovon turmush tarzini mustahkamlash borasida xalqaro munosabatlar doim qo'llab-quvvatlangan. Kishilarning ma'naviyati, madaniyati masalasi barcha xalqlarda dolzarb ahamiyat kasb etgan. Boisi, taraqqiyot ma'rifatsiz ro'yobga chiqmaydi. Insoniyatni saodatga yetaklagan Muhammad alayhissa-lomga ham IQRO (o'qi) ilohiy mujdasi kelgan. Ilmning ibtidosi mutolaadan boshlanadi. Asrlar davomida odamzod borliq mohiyatini kitob vositasida anglab kelgan.

Turli sohaga oid nazariy bilimlar kitoblarda jamlanib, ilm-u urfonni keng istifoda etgan. Kishi ruhiyatiga, tafakkuriga ma'naviy ozuqa sanalmish badiiy adabiyot barcha kasb sohiblarni san'at bo'stonida jamlaydi. Fitrat adabiyotni san'atning asosiy turi hisoblaydi. Haqiqatan so'z san'ati kitobxonni ohangdorligi, bo'yoq dorligi, ta'sirchanligi ila rom aplaydi. Abdulla Qodiriy e'tiroficha, so'z qo'llashda andisha lozim. Ya'ni so'zni behuda isrof etishdan hamda etika, estetikaga zid holatlarni tasvirlashdan ehtiyot bo'lish darkor. Ijod ahli o'z milliy qadriyatlarini asari mehvariga singdirib boradi. Zero, millatning boy tarixi, san'at-u madaniyati uning dunyo tamaddunidagi maqomini oshirib boradi. Milliy o'zlik, g'urur kabi noyob fazilatlarni bolalikdan ruhiyatga singdirishda hikmat katta. Zamonaviy qissalarda ham an'ana-udumlarning talqin etilishi kitobxonning ma'naviy-ruhiy olamini boyitadi.

Tog'ay Murodning «Yulduzlar mangu yonadi» qissasida xalq e'tiqodi, g'ururi badiiy ifodalanadi. Mazkur asarda Bo'ri polvon xalq kelajagidan qayg'urib bir haqiqatni aytadi: «Xalq nimasi bilan xalq? O'zining urf-odatlari bilan xalq! Ota-bobosidan qolgan milliy an'analari bilan xalq! Ko'p urf-odatlarimizni birovlar... birovlar o'ziniki qilib oldi! Biz qo'limizni burnimizga tiqib

goldik. Shunday keta bersak, hademay o'zimizni-da boy berib qo'yamiz!» O'zlikni boy bermaslik, uni asrash borasidagi yoniq mulohazalar yoshlarga saboq bo'ladi. Yozuvchi or-nomus, g'urur yanglig' fazilatlarni asrash har bir shaxsning muqaddas burchi ekanligini betakror lavhalarda asoslab boradi. Inson o'zini o'rab turgan umuminsoniy muhit ta'siridan ayro yashamas ekan, oliv mavjudotga munosib hayotni yaratishi maqsadga muvofiq.

Adiblar ijod jarayonida kitobxonning ziyrak nigohini doim yodda tutmog'i darkor. Negaki san'atkor ham, kitobxon ham asarning markazi, mohiyatini bir xil ko'rsin. Muallif anglatmoqchi bo'lgan narsani o'quvchi kashf etib, tushunib borsa, maqsadga erishiladi. Badiiy ijod jarayonida qissa poetikasida salmoqli o'zgarishlar ro'y bergan, u takomillashib, rang-barang tus olgan. Janrning gibridlashuvi hamda uslubiy rang-baranglikning ortib borishi asar poetikasini boyitmoqda.

Ijodkor ilmiy texnikaning kishi taqdiriga ta'siri borasida asar yaratish ekan, romantik, simvolik talqin yo'sinida motivlarni birlashtirib boradi. Hojiakbar Shayxovning «Ajdodlar xotirasi» qissasida qahramon sarguzashti metaforik obraz va tasvirlar uyg'unligida tashkillanadi. O'tmish hamda kelajak assotsiatsiya-si voqeani taranglashtiradi. Qissada xronotop o'zgarib, ibtidoiy inson yashagan makon, g'ordan zamonaviy inshootlarga ko'chib turadi. Kamol genetik xotira quvvati ila moziyga sayr etib, avval maymun, so'ng ovchi qiyofasiga kiradi.

Inson hayvoniy vujudda unga xos harakatlarni bajarar ekan, evrilish motivi poetik hukmga ishora qiladi. Keyingi sirli manzara Kamolning bepoyon tog' hududidagi qabilal udumiga isyonida kuzatiladi. Muqaddas qoya tegrasidagi ezzulik va yovuzlik kurashi inson vujudida po'rtana hosil qiladi. Ibtidoiy odamning ruhlardan madad kutishi, qurbanlik keltirish marosimi mifologiya qorishiqligida aks ettiriladi. Ilmiy kashfiyotlarni badiiy xarak-

terda talqin etish, g'ayrishuuriy, noodatiy holatlarni ko'rsatish, voqeа-hodisalarni bo'rttirib tasvirlash fantastik qissalarga xos tamoyil sanaladi. Bunday asar xronotopi kurreyi zaminni o'z tegrasiga biriktiradi. Ulardagi mo'jizaviy holatlar, ruhoniy-hissiy munosabatlar matn badiiyatini mustahkamlaydi.

Inson botiniy hamda zohiriylar quvvati ila o'zga olam vakillari bilan muloqotga kirishar ekan, jonli hayot effekti yuzaga keladi. Qahramon tafakkur harakatining badiiy tasviri mavjud holatga sirlilik, bo'yodkorlik baxsh etadi. Kamolning sezgi idroki oniy lahzadagi o'zgarishlarni tezda ilg'ab oladi. Ovchi timsolidagi yigit muhabbat bois qizni yovuzlardan xalos etib, tinch manzilni ixtiyor aylaydi. Kamol odamzodning olis uyg'onish davriga tashrif buyurib, makon-u zamondagi tafovutni muqoyosa qiladi. Afsona yo'sinidagi epizodlar obrazlilikni yuzaga keltirib, o'ziga xos ko'lAMDORLIK, ifodaviylikni uyg'unlashtiradi. Odam miyasi ning serqatlamligi, quvvayi hofiza qudrati borasidagi ilmiy mulohazalar badiiy mantiq ustuvorligini ta'minlagan. Shaxsning g'ayriqutb bilan muloqoti kommunikatsiya jarayonini jonlantirgan. E'tiqodiy qarashlar negizida kishilarning ilohiy mujdaga intilishi teran yoritilgan. Asrlar davomida inson o'zini kashf etishga oshiqayotgani, turli vaziyatdan aql-u zakovati ila haq yo'lga taipinayotgani ma'lum bo'ladi. Metaforik tafakkur inson taxayyulini yangi olamga chorlashi fantastikaga e'tibor ortayotgani belgisidir.

Isajon Sultonning «Onaizorim» qissasida oila ma'naviyati yaxlit polotnoda tasvirlanadi. Bolalikdan odob-axloq ahkomlarini singdirish, nabotot-u hayvonotga oqibatni uqtirish asar leytmotivini belgilaydi. Xususan, oiladagi, ota-onas o'rtasidagi mehr-sadoqat, burch kabi fazilatlar hayotiy lavhalarda taqdim etiladi. Qissada asrlar mobaynida o'zbek oilasida rioxalari qilib kelinayotgan muhtasham an'analar bosqichma-bosqich aks ettiladi. Milliy, madaniy an'analar negiziga qurilgan motivlar

syujetni jonlantirib, voqealarni ta'sirli yoritadi. Asarda oqila, farosatli ona ma'suma qiziga kelinlik burch-vazifalarini eslatar ekan, bu aqidalar mustahkam oila poydevoriga asos bo'lishini idrok etasiz. Ibratomuz lavhalar yosh qizlarning turmushga, oilaga mas'uliyat-la boqishiga turtki bo'ladi. Qissada jonlantirish, sifatlash kabi badiiy vositalar insonning tabiat bilan mu-loqotini faollashtiradi. Musicha, qaldirg'och, qarqunoq, zag'cha, qizilishton, kalxat yanglig' qushlar oilasi, polaponini voyaga yet-kazish mashaqqati tiniq ifodalanadi. Qushlar turmush tarzi qah-ramon hayotiga parallel chizilar ekan, falsafiy, majoziy mazmun muvofiqlashadi. Olma, behi daraxtlari ifodasi vaqt mezoniga oy-dinlik kiritadi. Ularning novdalikdan keksalikkacha davri inson umri sahifasiga monand qamrab olinadi.

Olam mohiyatini anglash qahramonning murakkab ruhiy ke-chinmalari negizida kechadi. Inson ibtidodan intihoga qadar foni y dunyo degan makonda sinovdan o'tadi. Xalq donishmandli-gining turli lavhalarda aks etishi azaliy qadriyatlar barhayotligini dalillaydi. Inson xotirasida beg'ubor bolalik, yoshlik damla-rining tiniq manzarasi serqatlamlilikni istifoda etadi. Ota makon-ga mehr u yerdagi o'simlig-u hayvonotni e'zozlash, yaratuvchan-lik ishtiyoqini so'ndirmaslikda ko'rindi. Asarning badiiy-estetik qimmati tinglovchi kuzatuvchining ishtirokchiga aylanishiga turtki beradi. San'atkor qahramonini tadrijiylik asosida badiiy gavdalantirar ekan, hur, ozod shaxs konsepsiyasini singdirishga intiladi. Sinchkov o'quvchi muallif falsafiy mulohazasini, psi-xologik talqinini uqib oladi. Qissalardagi turli poetik obrazlar, metaforik tasvirlar badiiy ifoda sintezini mustahkamlaydi. Kitobxon ruhiy-estetik olamini boyituvchi milliy tasviriy vositalar ezgu maqsadga yo'naltiriladi. Xalq ijodini, ma'naviy xazinasini sabot bilan o'zlashtirish yangicha tafakkur shakllanishiga zamin yaratadi.

Mustahkamlash uchun savollar:

1. Zamonaviy qissalarga folklorning ta'siri qanday bo'lgan?
2. Hozirgi o'zbek qissalarida ona talqini...
3. Tog'ay Murod qissalarida portret ifodasi...
4. Shoyim Bo'tayev qissasida inson va jamiyat tasviri...
5. Semiotik tahlilning asar badiiyatini baholashdagi ahamiyati...

«SO'Z-U SO'Z» TEXNOLOGIYASI

ERKIN A'ZAM IJODI

Zid so'zlar //
Rahmat qanday
oson so'z, rahmat
qanday qiyin so'z

Shevaga xos so'z
// yakkash, ovloq,
chuchmalzabon,
jabha, bo'sag'a

Iboralar //
Sut bilan kirgan
jon bilan chiqar;
Six ham kuymaydi,
kabob ham

Takror so'zlar //
Yig'lasa ovutiladi, yig'lasa
yupatiladi; shaytanat xuddi
shaytanat

Maqollar // Osmon yiroq,
yer qattiq; Men ham edim
seningdek, sen ham bo'lasan
meningdek

Yangi fikr // Tiriklar beomon, tiriklar beshafqat, o'liklarga qiyin,
o'liklar o'zini himoya qilolmaydi, ular nochor, qabrлaridan turib
yoqangga chang sololmaydi, hechqursa shuni inobatga olib insof
qilsak bo'lmasmi; Bu qadar royish, bu qadar risolaband inson
ekansan, nega seni xalq dushmani deb qamadilar, rutubatli
o'liklarga surgun qildilar?

SHOYIM BO'TAYEV IJODI

Zid so'zlar //
Uka ketdi, aka
qoldi; Na bugunni
o'ylashdi, na ertani
qayg'urishdi

Shevaga xos so'z //
nevlay, molikona,
lekigin, g'ashava,
qotirma

Iboralar //
Sichqonlar hassaga
suyanib yurishar;
Quruq qo'l bilan
borib bo'ladimi;
Peshonang sho'r
ekan

Maqollar // Yegani oldida,
yemagani ortida edi; Qazisan,
qartasan, asli naslingga
tortasan; Er bo'lguncha qaro
yer bo'l

Takror so'zlar //
Tikila-tikila o'tirdi; duv-duv
yosh to'kdi; to'kila-to'kila
uyulgan tuproq

Yangi fikr // Bu choq falsafa yuritishga ehtiyojmand biror
xiradmand bo'lsa, aytardiki, hech kim hech qachon hech kimdan
domangir bo'lomaydi; vujudni qoplagan chang-to'zonlar-u
zanglar bir tomizg'i bilan yuvilib ketadi; Yaratgan insонning
xatti-harakatlari, yegan-ichgani, jismi uchun javob bermaydi,
qachon zarurati tug'ilsa, yana o'ziniki qilib oladi, yana o'ziga
qaytaradi, buning uchun bir tomizg'i kifoyadir... u xoh bir tomchi
shabnam shaklida bo'lsin, xoh bir tomchi ko'zyosh... qachon
lozim bo'lsa, qachon lozim ko'rsa... shunda tomizadi: mayib-
majruh, dalva-dalva, aftoda dil malhami bo'ladi o'sha tomizg'i,
buni qachon lozim ko'radi, biz bilmaymiz, bila olmaymiz, da'vo
qilishga ham haqqimiz yo'q, bu yolg'iz O'zigagina ayondir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Аброров А. Ўзбек повести. – Тошкент: Фан, 1979.
2. Адабий тур ва жанрлар. – Тошкент: Фан, 1991.
3. Аъзам Э. Кечикаётган одам. – Тошкент: Шарқ, 2002.
4. Бўтаев Ш. Ҳаёт. – Тошкент: Шарқ, 2000.
5. Каримов Н. ва б. XX аср ўзбек адабиёти тарихидан. – Тошкент: Ўқитувчи, 1999.
6. Улугов А. Қиссачилигимиз қирралари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1991.
7. Холдоров Д. Ижод моҳияти услуб хосияти. – Тошкент, 2017.

TESTLAR

- 1. Tog‘ay Murod qissalarida qaysi milliy an’ana ifodalangan?**
 - A. Ko‘pkari
 - B. Sambo
 - C. Boks
 - D. Tennis
- 2. «Yolg‘iz» qissasida qaysi ijodkor timsoli yoritilgan?**
 - A. Abdulla Avloniy
 - B. Abdulla Qodiriy
 - C. Abdulla Qahhor
 - D. Abdurauf Fitrat
- 3. Nazoratchi qaysi asar qahramoni?**
 - «Sho‘rodan qolgan odamlar»
 - «Otoyining tug‘ilgan yili»
 - «Javob»
 - «Tog‘lar orasida»

4. Nasrda sa'jni faol qo'llagan ijodkorni belgilang.

- A. Tog'ay Murod
- B. Luqmon Bo'rixon
- C. Erkin A'zam
- D. Sobir O'nar

5. Ra'no qaysi qissa qahramoni?

- A. «Adadsiz azob»
- B. «Shoirning to'yi»
- C. «Onaizorim»
- D. «Munojot»

Mavzu:**HOZIRGI O'ZBEK ROMANCHILIGI*****Reja***

1. Roman janri takomili
2. O'zbek romanchiligidagi inson va tabiat tasviri
3. Tarixiy romanda shaxs falsafasi

Tayanch so'zlar: roman, falsafa, zamon, xarakter, tarix, poe-tika, shaxs, tarkib

Roman – davr ko'zgusi, zamon va vaqt dinamikasi uni janr sifatida mukammallashtirib boradi. Nosirlarning samarali izlanishlari natijasida zamonaviy, tarixiy romanlar soni ortdi. Har bir roman individual bo'lishi bilan birga asarga tanlangan mavzu, qahramon, davr tasviri qalamkash badiiy-estetik tafakkuri darajasini ifodalaydi. Romanda qahramon ongida kechayotgan jarayon ifodasi, ruhiy holatning psixologik tahlili kitobxonni befarq qoldirmaydi.

Nosirlar roman yaratish jarayonida inson zohiri hamda botinini aks ettirib, unga kitobxon nigohi bilan baho berib, tafakkur hosilasini namoyon etadi. Romanlar tuzilmasi o'ziga xos bo'lib, aqliy, hissiy va ramziy qatlamlarni o'zida mujassamlashtiradi. Birinchi o'zbek romani – «O'tkan kunlar»dan boshlab millat taqdiri, ma'rifat saodati borasidagi mulohazalar qadrlanib borgan. Moziy manzarasini tabiiy, xolis jonlantirishda bugun ham nosirlar hujjat-u dalilni, turli solnoma va memuarlarni sinchiklab o'rganish, materialni tafakkurda qayta ishlash, saralash-dan ozuga oladi. Muhammad Alining «Ulug' saltanat», Asad Dil-murodning «Pahlavon Muhammad», Sa'dulla Siyoyevning «Yas-saviyning so'nggi safari», Erkin Samandarning «Sulton Jalolid-

din», Nurali Qobulning «Sultonning so'nggi kuni yoxud Amir Sohibqiron va To'xtamishxon» asarlarida tarixiy voqelik zalvori, ijodkor falsafasi, poetik ifoda usuli estetik ahamiyat kasb etadi.

Adiblar tarixiy romanning poetik qatlamini to'yintirish borasida izlanishlar olib boradilar. Ijod onlarida tarixiy haqiqatni ro'y-rost tasvirlash; mashhur shoh, shoir, olim, avliyolar ning badiiy obrazini yoritishda solnoma, memuarlardagi aniq ma'lumotlardan foydalanish; tarixdagi muhim ma'naviy, axloqiy muammolarni yoritish talab etiladi. Ma'lumki, insoniyat o'tmishida ziddiyatli, chigal vaziyatlar ko'p bo'lgan, bunday vaziyatda fojeiylik omilini inson qismatidagi ojizlik holatiga monand teran anglatish; moziydagи tub burilish onlarini xronotop sathiga uyg'unlashtirishga e'tibor qaratiladi. Yozuvchi o'tmishdagi turmushni qaytadan badiiy suratlantirishda aniq obyektiv mazmunni asrash, tarixiy hamda arxaik so'zdan o'rini foydalanish; madaniy an'analarining xalq, millat tafakkuriga ta'sirini ko'rsatishga erishmog'i darkor. Bu kompozitsion sath, voqeа kontekstida tarixiy faktlarni saralab, tajriba asosida to'g'ri, xolis xulosa chiqarishga imkon yaratadi.

Tog'ay Murodning «Otamdan qolgan dalalar» romanida uch avlod qismati ma'no qatlamini to'ldirib boradi. Jamoliddin dinning jamoli timsoli bo'lib, tuprog'-u suvning pokligida barakan his etadi, ularga oqposhsho askarlari ziyoni yetib, ifloslanshi, harom bo'lischenidan ozorlanadi. Aqrab kurashchi bosmachi tamg'asi ostida o'z yurtini himoya qilishda jonini fido aylaydi: «O'zbak qayerda tavallud topadi, ana o'sha yerda umr kechiradi. O'zbak o'z el-yurtida o'ladi. O'zbak o'z o'lan to'shagida o'la-di». Adib o'g'il Aqrab timsolida unga xos individual xususiyat dan umumlashmani, ya'ni avloddagi g'urur, erkni saqlay olgan kishilarning dunyoqarashini tiniq ifodalaydi.

Uchinchi nabira Dehqonqulni tuzum sindirdi, muddaosinga erishdi, uning vujudida mutelik nish urdi. Dehqonqulning

mehnatlari evaziga tuhmat balosiga uchrab tutqun bo'lishi, ya'ni paxta siyosati qurbaniga aylanishi kulminatsion sathni namoyon etadi. Qamoqxonadagi xo'rlik, zulm qahramondagi o'zlikni mahv etadi. Qahramon o'z muteligi, qulligini anglay boshlaydi, biroq bu jarayon nihoyasiga yetmaydi. Ikki avlod va-killari – Jamoliddin va Aqrabdag'i imon, iroda, g'ururni tuzum bashariy mahkumlikka mubtalo eta olmadi. Ammo Dehqonqulni majruhlab, mahkum qilishga muvaffaq bo'ldi. Romandagi asosiy yondashuv insoniy o'zlikni anglatish, davr jarohatini yoritish, jamiyat umumiylarini his qildirishga yo'naltirilgan. Tog'ay Murod xarakter mohiyatini ruhiyati, tafakkur tarzi, faoliyati, alohida xususiyati orqali badiiy tadqiq etishga erishgan.

O'tkir Hoshimov afg'on urushi global muammoga aylanib, dunyo xalqlarini bezovta qilganiga shohid bo'ldi. Insoniyatni larzaga keltirgan jaholat o'zbek o'g'loni baxtiga ham raxna soldi. Yoshlar kelajagi porloq bo'lishi, millat ravnaq topishi uchun, avvalo, yurtda tinchlik, osudalik hukmron bo'lishi kerak. Zero, tinch, farovon yurtda har sohada yuksalish, taraqqiyot bo'ladi. Urush davri haqiqati aks ettirilgan asarlarda mash'um urushning g'ayriinsoniy mohiyatini ochishga, murakkab hayotiy ziddiyatlarni tahvil etishga e'tibor berildi. Afg'on urushining salbiy asoratlari, qabohat va razolatning dunyo bo'ylab keng quloch yoyganini jang qatnashchilaridan tinglagan adib oromini yo'qotdi. «Tushda kechgan umrlar» romanida mohiyat e'tibori bilan urush iztirobi, azobli og'riqlarini, umr bahorining mazlum qishga aylanishini ifodaladi.

Navqiron yigit Rustamning beg'ubor, ma'sum pallasi, hayot zavqi nash'asidan masrur bo'lib, olamga mehr-muhabbatga to'la nigoh bilan boqqan holatiga zid tarzda ko'pgina azob-uqubatlarni boshdan kechirishi tadrijiy yoritib beriladi. Inson jismini, ruhini kemirayotgan azoblardan xalos bo'lishni istasa-da, qo'llidan hech narsa kelmaydi, nochor ahvolda qolaveradi. Yigit

o'zini taftish etib, yovuzlikdan nafratlanadi, ruhi, botinida sassiz azoblanadi. Obraz tasvirida ichki kolliziylar tashqi nohaqliklarga zid qo'yiladi. Sharoit, vaziyat oqil kishidagi fazilatni yemirib, illatni singdirib boradi.

Insoniylikni boy berish, yurt va millat taqdiri, hayot-mamot masalasi har bir jumla qatidagi cheksiz dard, fig'on ahli basharni – mudroq qalblarni ogohlilikka da'vat etadi. Qahramon tush va hush orasida ongini kemirayotgan zulmat puchmoqlari, urush xotiralarini yengishga intiladi. Biroq uning irodasi, kuch-quvvati yemirilib, vido yo'liga peshvoz chiqadi. Afg'on urushi oila, jamiyat, millatni yakson qiladi. Har bir halqa ich-ichidan uzeladi, vayronkor kuchlar maqsadiga erishadi. Eng yomoni, u insoniyatning barcha qatlamiga o'lim sharobini ulashadi.

O'tkir Hoshimovning mazkur romanida masalaning boshqa jihatni ham qamrab olinadi. Xususan, davr fojialari, paxta siyosati qutqusi Rustamning otasi, yaqinlarini nohaq jazoga hukm etadi. Adib jamiyatdagi bu illatlarni tasvirlashda zulmat olamidagi sas-u fig'onne, ayriliq manzarasini real taqdim etishga erishadi. Qora qoniga belanib o'lib yotgan ayol, uvlayotgan it fig'oni, oriyati yo'lida qurbon bo'lgan yosh-u qarilar motivida rutubatlari maskan, marhumlar makoni bo'y ko'rsatadi. Roman urushga qarshi faryoddir; inson bolasi bir-birini vahshiyarcha o'ldirish uchun tug'ilmagan degan fikr kompozitsion sathni qamrab oladi.

Nafs qutqusi kishi ko'nningligi g'ulg'ula urug'ini ekadi. Ezgulikdan bebahra aqli noqislar insoniyatni qon dengizida g'arq qiladi. Baxt mohiyatiga umumbashariy chizgi berilib, undan mosuvolik mahkumlik, qabohatga yo'l ochishi ta'kidlanadi. Or, nomus kabi noyob tuyg'ular zavol topishi, sag'ir bolalarning mungli nigohi, qotillik tamg'asi ma'no nuqtalarini jamlab boradi. Hayot haqiqatini umuminsoniy muammolar qamrovida taqdim etgan muallif ruhiyatdagi og'riqni timsollashtiradi. Olamning sokin kuyini yo-

vuzlik simfoniyasiga g'arq etgan urush qahramonni, insoniyatni xavfli yo'lida o'z dard-u armoni qobig'ida yakka qoldiradi.

Zamonaviy roman poetikasida inson va tabiat uyg'unligi nozik talqin etiladi. Tiriklikning onasi – tabiatni asrash insonning burchidir. Unga nisbatan qilingan jinoyat odamzodni halokatga boshlashi aniq. Ijodkorlar insonning borliq hodisoti mag'zini anglab, tabiatni tushunishiga, avaylashiga ishora qilib, u bilan yaxlit ekanini asoslab beradilar. Normurod Norqobilovning «Qoraquyun», Ulug'bek Hamdamning «Na'matak», Abduqayum Yo'doshning «Daryo» asarlarida qahramon ruhiyatiga parallel yo zid tarzda borliq hodisoti jilolanib turadi. Makon tasvirida tog'-u adirlar, dasht-u daryolar ma'lum qat'iy nizomga bo'yusungan, insonning bu tartibotga zulmi, loqaydligi o'ziga ko'p ziyon yetkazishi voqealar zanjirini mustahkamlaydi.

Hozirgi kunda insoniyat olamning yaxlitligi ta'limotini idrok etmoqda. Badiiy adabiyot odamzod, hayvonot, nabotot dunyosini uyg'unlikda talqin etadi. Ular uzviyligi olam mohiyatini teran anglash, dunyo mehvarini his etish saodatini nasib aplaydi. Insoniyat xilqat asrorini uqishga ishtiyoqmand. Borliqdagi to'rt unsur: suv, havo, tuproq, o't kabi ne'matlar tiriklik mazmunini ifodalaydi. Ular o'rtasidagi biologik aloqalarga putur yetsa, kur-rayi zamin muvozanati buziladi. Tabiatning asil holati o'zgarsa, odamzodning jismoni hamda ruhiy quvvati sustlashadi. Shu bois ahli donishlar tafakkur qudrati ila mikroolamdan makroolamgacha zehn solganlar. Xalq e'tiqodi bilan bog'liq an'analarini kelajak avlodga yetkazishga e'tiborli bo'lganlar.

Badiiy nasrda inson tuyg'ularining tabiat hodisalariga parallel yo kontrast keltirilishi vositasida borliqdagi yaratiqlar aro qat'iy muvozanatni idrok aylash imkonи yuzaga kelayotgani ma'lum bo'ladi. Adiblar ayni shu muvozanatni me'yorlashtirish, oqilona hamda odilona yo'l tutish maqsadida ongli insonga tabiat bilan hamnafas, bir butunligini yodda saqlashni

singdirib borayotgani ayonlashadi. Ijodkorlar jonzot obrazini har tomonlama tasvirlashga e'tibor berib, tuyg'u kechinmasi, qondoshlik vafosini insonga ibrat qilib ko'rsatayotgani oydinlashadi.

Nabi Jaloliddinning «Tegirmon» romanida sobiq tuzumning qatag'on siyosati Abdulhamid Cho'lpon qismati misolida ayonlashib boradi. Davr va shaxs, qahramon va zamondosh muno-sabatidagi kontrast adolatsizlik, xiyonatkorlik, maddohlik fonda qabarib ko'rindi. Andijondagi Dukchi Eshon voqeasi, Turkiston muxtoriyati borasidagi tarixiy voqealar retrospektiv usulda yoritib boriladi. Cho'lponning adabiy davra, oila muhitidagi voqeliklar e'tiqodida sobit ziyo sarboni qiyofasiga chizgi tortadi. Uning yuksak intellekti, tafakkur va taxayyul olami jadidchilik g'oyalari targ'ibidagi erksevar shaxslar bilan muloqotida oydinlashib boradi. Tegirmon so'zi zimnida zo'ravon istibdod tuzumning mexanizmi nazarda tutiladi. Mafkuraviy zug'um Cho'lpon va uning maslakdoshlarini mahv etishga ojizlik qiladi, ular qalbidagi erk, ozod fikrni so'ndira olmaydi. Asardagi ba'zi chalkash mulohazalar, xususan, Behbudiy shaxsi bilan bog'liq ma'lumot kitobxonda e'tiroz uyg'otadi. Shunday bo'lsa ham, adib sobiq tuzum davridagi hayot haqiqatini imkon darajasida yoritishga harakat qilgan.

Roman janri rivojiga munosib hissa qo'shayotgan nosir Isajon Sulton «Boqiy darbadar» asari bilan kitobxonni mubohasa-ga chorladi. Asar tuzilmasi uch zamon: moziy, bugun, keljakni qamrab oladi. Romanda tarix, falsafa, estetika, tibbiyot sohalari aro mushtaraklik voqealar zanjirini payvandlab boradi. Makon tasviridagi turfalık, ya'ni Misr, Gobi sahrosi, Haybar shahri, Amerika qit'asi, Atlantika ummoni yanglig' xronotop insoniyatni turli sinoatlardan olib o'tadi. Romanda Qur'oni karimdag'i ilohiy axborotdan badiiy niyatni maromiga yetkazishda foydalnilgan. Xususan, Iso alayhissalom Muborak kishining dunyoga

kelib, qavmlarga ilohiy mujda yetkazgani bois basir notavonlar zulmiga uchragani syujet qatlamini teranlashtiradi. Hazratning bashorati, etikdo'zning darbadarlik qismati foniylik hamda bo-qiyilik xususidagi tasavvurni aniqlashtiradi.

Asar matnidagi «Sening qiladigan ishing hech narsa, hech narsa, faqat hech narsa deyildi unga» qavli yolg'iz etikdo'zga emas, nazarimda, imondan mosuvo minglab «basir» kimsalarga taalluqli. Bu hukm intihoga qadar davom etishi lo'lilar karvon-boshisining besamar sargardonligi lavhasida ham bo'rtib ko'rinadi. Darbadarning Muso va Xizr alayhissalomlarni uchratish ilinjida dengiz sohilida kezinishi, Hiro g'oridagi vahiy ne'mati, Kahf g'oridagi yigitlarning uch yuz yillik holati ilohiy Kitobdag'i nihon ma'no kalitini topishga ishora beradi. Adib roman matni tarkibiga avliyo hikoyasidagi voqelikni singdirishida ofiyat, rizq, ajr borasidagi tasavvur kengayadi. Butunni qismlarda nozik anglatish maqsadida bir so'z yoxud iboralar (parchinlanish // Iso alayhissalom; mo'g'ul qilichi // Najmiddin Kubro // dor yo-g'ochi // Boborahim Mashrab) turli davrda yashagan aziz siy-molar sulukini yoritishga xizmat qiladi.

Inson takomili markazida sohasining eng bilimdon genetiklari nihoyat vatan, din, millat tuyg'ularidan mahrum g'ayritabiyy mavjudot – sun'iy odam yaratishga muvaffaq bo'ladilar. Zamonaviy manqurt yanglig' bu odam maxsus harbiy hukm ijrochisi bo'lishi maqsad qilinadi. Asar kompozitsiyasidagi tub burilish zakovat sohibi bo'lmish olimlarni lol qoldiradi. Roman poetikasida sun'iy «barhayot» odamning elektron xat shaklidagi murojaati asos, negizni muxtasar ifodalaydi: «Men bu murojaatimni olamdag'i barcha tafakkur qiluvchi jonzotlarga yo'llamoqdam'an. Avvalo, ushbu tevarakning, samolarning, tabiatning va oxir-oqibat fikrllovchi inson naslining o'z-o'zidan paydo bo'lib qolishi ehtimoldan g'oyatda uzoq narsadir. Bu olamni, albatta, kimdir yaratgandir. Shu bois bu makonni, avvalo, Uni izlab

singdirib borayotgani ayonlashadi. Ijodkorlar jonzot obrazini har tomonlama tasvirlashga e'tibor berib, tuyg'u kechinmasi, qondoshlik vafosini insonga ibrat qilib ko'rsatayotgani oydinlashadi.

Nabi Jaloliddinning «Tegirmon» romanida sobiq tuzumning qatag'on siyosati Abdulhamid Cho'lpon qismati misolida ayonlashib boradi. Davr va shaxs, qahramon va zamondosh munosabatidagi kontrast adolatsizlik, xiyonatkorlik, maddohlik fonda qabarib ko'rindi. Andijondagi Dukchi Eshon voqeasi, Turkiston muxtoriyati borasidagi tarixiy voqealar retrospektiv usulda yoritib boriladi. Cho'lponning adabiy davra, oila muhitidagi voqeliklar e'tiqodida sobit ziyo sarboni qiyofasiga chizgi tortadi. Uning yuksak intellekti, tafakkur va taxayyul olami jadidchilik g'oyalari targ'ibidagi erksevar shaxslar bilan muloqotida oydinlashib boradi. Tegirmon so'zi zimnida zo'ravon istibdod tuzumning mexanizmi nazarda tutiladi. Mafkuraviy zug'um Cho'lpon va uning maslakdoshlarini mahv etishga ojizlik qiladi, ular qalbidagi erk, ozod fikrni so'ndira olmaydi. Asardagi ba'zi chalkash mulohazalar, xususan, Behbudiy shaxsi bilan bog'liq ma'lumot kitobxonda e'tiroz uyg'otadi. Shunday bo'lsa ham, adib sobiq tuzum davridagi hayot haqiqatini imkon darajasida yoritishga harakat qilgan.

Roman janri rivojiga munosib hissa qo'shayotgan nosir Isajon Sulton «Boqiy darbadar» asari bilan kitobxonni mubohasa ga chorladi. Asar tuzilmasi uch zamon: moziy, bugun, kelajakni qamrab oladi. Romanda tarix, falsafa, estetika, tibbiyat sohalari aro mushtaraklik voqealar zanjirini payvandlab boradi. Makon tasviridagi turfalik, ya'ni Misr, Gobi sahrosi, Haybar shahri, Amerika qit'asi, Atlantika ummoni yanglig' xronotop insoniyatni turli sinoatlardan olib o'tadi. Romanda Qur'oni karimdag'i ilohiy axborotdan badiiy niyatni maromiga yetkazishda foydalaniyan. Xususan, Iso alayhissalom Muborak kishining dunyoga

kelib, qavmlarga ilohiy mujda yetkazgani bois basir notavonlar zulmiga uchragani syujet qatlamini teranlashtiradi. Hazratning bashorati, etikdo'zning darbadarlik qismati foniylik hamda boqiylik xususidagi tasavvurni aniqlashtiradi.

Asar matnidagi «Sening qiladigan ishing hech narsa, hech narsa, faqat hech narsa deyildi unga» qavli yolg'iz etikdo'zga emas, nazarimda, imondan mosuvo minglab «basir» kimsalarga taalluqli. Bu hukm intihoga qadar davom etishi lo'lilar karvonboshisining besamar sargardonligi lavhasida ham bo'rtib ko'rindi. Darbadarning Muso va Xizr alayhissalomlarni uchratish ilinjida dengiz sohilida kezinishi, Hiro g'oridagi vahiy ne'mati, Kahf g'oridagi yigitlarning uch yuz yillik holati ilohiy Kitobdag'i nihon ma'no kalitini topishga ishora beradi. Adib roman matni tarkibiga avliyo hikoyasidagi voqelikni singdirishida ofiyat, rizq, ajr borasidagi tasavvur kengayadi. Butunni qismlarda nozik anglatish maqsadida bir so'z yoxud iboralar (parchinlanish // Iso alayhissalom; mo'g'ul qilichi // Najmiddin Kubro // dor yo'g'ochi // Boborahim Mashrab) turli davrda yashagan aziz siymlolar sulukini yoritishga xizmat qiladi.

Inson takomili markazida sohasining eng bilimdon genetiklari nihoyat vatan, din, millat tuyg'ularidan mahrum g'ayritabiyy mavjudot – sun'iy odam yaratishga muvaffaq bo'ladilar. Zamонавиъ manqurt yanglig' bu odam maxsus harbiy hukm ijrochisi bo'lishi maqsad qilinadi. Asar kompozitsiyasidagi tub burilish zakovat sohibi bo'lmish olimlarni lol qoldiradi. Roman poetikasida sun'iy «barhayot» odamning elektron xat shaklidagi murojaati asos, negizni muxtar ifodalaydi: «Men bu murojaatimni olamdag'i barcha tafakkur qiluvchi jonzotlarga yo'llamoqdamon. Avvalo, ushbu tevarakning, samolarning, tabiatning va oxir-oqibat fikrlovchi inson naslining o'z-o'zidan paydo bo'lib qolishi ehtimoldan g'oyatda uzoq narsadir. Bu olamni, albatta, kimdir yaratgandir. Shu bois bu makonni, avvalo, Uni izlab

topish va butun olam yaratilishining sabablarini O'zidan so'rash uchun tark etmoqdaman».

Asarda fanning muhim va murakkab tarmog'i – genetika asorlari mag'zini anglashga urg'u berilar ekan, uning zimnidagi nozik masala tegrasida sun'iy inson yaralishi asorati, halokati bo'y ko'rsatadi. Inson takomili markazidagi dunyo genetik olimlari tafakkur va taxayyul olami, ilmiy salohiyati baland bo'lsa ham, oliy nizomni idrok etmagani bois kashfiyoti sarobga aylanadi. Yaratish faqat Allohga xosligini unutgan ahli ziyoliga muqarrar jazo ro'baro' qilinadi. Romanda Gobi sahrosidagi zulumot Qur'ondagi Abraxxa va fillarning nobud bo'lislis voqeasini xotirga keltiradi. Mukammal harbiy texnikalar og'ir bo'lsa ham, yengil qum zarralari bo'ron hosil qilib ularni o'z girdobiga tortib ketadi. Atlantika ummonidan uchayotgan «Boing» samolyotini ham dahshatli bo'ron parchalashida muqarrar hukmning xotimasi idrok etiladi. Insonning isyoni, kibri uni dunyo va oxirat azob-u uqubatiga mubtalo etishi, faqat imoni butun bandagina halovatga erishishi kitobxonga saboq bo'ladi.

Isajon Sultonning «Ozod» romanida ko'l, tog', qizilishton, sa'va, kakku, po'kka, qarg'a, boyqush kabi qushlar – tirik sayyora mo'jizasi majoziy qatlamni quvvatlantirib turadi. Dunyo tilsimini sag'ir-u kabir silsilasida anglatish niyatida atrof-olamdag'i mavjudotlar harakati, yashash tarzi sahifalari varaqlab boriladi. Isajon Sulton sharq, islom musulmon falsafasi zimnidagi oliy haqiqatni uqtirish ilinjida mumtoz an'analarni qorishiq tarzda qo'llab boradi. Tasavvuf falsafasiga ishora tarzida yetti vodiya sayr lavhasi ilohiy ishq maxzanini anglatishga ishora beradi. «Ozod» romanida qahramon ruhiy-ma'naviy dunyosi ilohiy ishq-dan to'yingani ayonlashadi.

Romanlardagi timsol-u ramzlar tirik sayyoradagi zarradan azim ummongacha o'ziga xos vazifa bajaradi. Isajon Sulton romanlarida shamol donishmand, yo'lboshchi, ziyrak roviy, ilohiy

inoyat tarzida taqdim etiladi. U voqeа-hodisa, timsol, ramzlarni sharhlab, ma'no uzvlarini birlashtirib boradi. Adabiyotshunos Abdug'afur Rasulov aytganidek, «Ozod shamolni ustoz deyish darajasiga boradi. Shamol – yozuvchi imkoniyatidagi tunganmas poetik imkoniyat, yaratilajak timsollar moyasi. Yozuvchi nafaqat shamol, bo'ron, to'fonni o'rni-o'rni bilan hasharot-u hayvonotni, parranda-yu parqu bulutni, kapalaklar, ninachilarни tasvirlaydi. Ularning har biri ma'no qati, ramzi sifatida aks eta boshlaydi».

«Boqiy darbadar» romanida qaynoq samum shamoli sahro-dagi kishilarga halokat keltiradi. Atlantika ummoni ustiga shamol falokat bulutini haydab keladi. Borliqdagi tartibotni izdan chiqarish niyatidagi so'qir kimsalar hayoti sarobga o'xshaydi, ular quyosh-u oy, shamol-u bulutlarning vayronkor girdobidan qutula olmaydilar. Tafakkur sohiblari esa har bir ishning oqibati-ni o'ylab, hidoyat manzilini ixtiyor etadilar.

Isajon Sultonning «Alisher Navoiy» romanida so'z shukuhi, salmog'i, jarangi poetik ifodani to'liq namoyon etadi. Mazkur romanda so'z zargari Navoiyning umr solnomasi turli rakurslarda yoritilar ekan, ma'no qatlamlarini uqishda «Xazoyin ul-maoni» asaridagi tartibotga rioya etiladi. Adib bolalik pallasidagi Alisherni ayni Attorning ijodidan masrur bo'lib, olamni o'zga rangda ko'rish, ustoz Kulohiy ilm-u urfonidagi asl hikmatni anglashi lavhasiga birlashtiradi. Beg'ubor damlar amirzodalar bilan birgalikda diniy hamda dunyoviy ilmlarni o'zlashtirishda davom etadi. Yosh Alisher Farididdin Attor ma'naviy olamiga sayr aylab, tanholikda asarini qunt bilan uqishga intiladi. Isajon Sulton Navoiy asarlari ruhini his etib, uning falsafasini romanida bosqichma-bosqich anglatishni maqsad aylaydi. Navoiy olam-u odam mavjudligi sababiyatini asta o'rganar ekan, ahli ma'ni ta'limoti-ga ehtiromi ortadi.

Romandagi «Asr izardobi. Shom qayg'usi» fasli Alisher Navoiyning mehr quyoshi – Abdurahmon Jomiyidan ayrilish onlari

iztirobini tuydiradi. Shoир o'limi tiriklar vujudini pora aylab, ahli ilmni chuqur qayg'uga soladi. Alisher Navoiyning ustozi – saksan yoshli nuroniy Abdulloh Kulohiyga bo'lgan yuksak ehtiromi ahamiyatga molik. Xokisorlik ila ustozga «Xamsa»ni hadya etgan tolib nuroniyning sevinch ko'zyoshlaridan mutaassir bo'la di. Kamtar, halol mudarrisga shoир tomonidan yangi hovlining tortiq qilinishi ham ustozning sharafli mehnati mukofoti edi.

«Navoiyning qalbi nihoyasiz shukrona ila to'ldi. Umr palla larini xotimalash va yagona Parvardigorga gunohlarni savobga aylantirishini so'rab iltijo qilish vaqt kelgan, u esa «Munojot» bo'lib qog'ozga muhrlanishi kerak edi...» bitigida shoирning ilohiy saodatga yetishish onlaridagi ko'ngil izhori hayot sahifalarini ziynatlayotgan edi. Umr xotimasida oshiqning Yaratganga iltijosi sadolanar ekan, hidoyatga oshno ruhning foniylit diyoriga nurli safari yog'dulanadi.

Asar poetikasida mozaika usulida «Xazoyin ul-maoniy», «Xamsa», «Lison ut-tayr», «Mahbub ul-qulub» asarlari zimnidagi ma'no qatlamlari tiniqlashadi. Ular Alisher Navoiyning diniy va dunyoviy ilmlar ummonidagi javohirlarni kitobxonga taqdim aylaydi. Roman kompozitsiyasidagi badiiy voqealik bahor faslida boshlanib, qish faslida nihoyasiga yetadi. Bunda shoiri davron asaridagi kishi umri manzaralariga nigoh tashlanib, har birining fazli, hikmati uqib boriladi.

Isajon Sulton romani poetikasida Qur'onidagi sura, ular tar-kibidagi qissalarning salmog'i bo'lakcha. Ular olam-u odam yaralishidagi maxzan asroridan voqif aylaydi. Xususan, shoирning Husayn Mirzoning o'g'illariga yozgan nasihat maktublari da tayanch markaz Qur'on hukmi asosida to'g'ri hidoyat yo'liga boshlash edi. Otalar va bolalar orasidagi murosa rishtalar Nuh (a.s.) va o'g'illari, Ozar va o'g'li Ibrohim (a.s.), Yoqub va Ibrohim (a.s.), Ibrohim (a.s.) va Ismoil (a.s.) munosabatidagi muazzam ahkomlar misolida tiklanadi. Farzandlar itoat bois halovat topi-

shi, aks holda, isyoni halokatiga g'arq bo'lishi eslatiladi. Saltanatdagi farahbaxshlik, ofiyat podshoh hamda shahzodalarining o'zaro hurmat-uadolatiga bog'liqligini uqqan mutafakkir ularning ko'nglini faqat Qur'oni karim munavvar aylashiga umid qilgan.

Romandagi tarixiy haqiqat asrorini yoritishda Hud (a.s.) qissasidagi uch bulutning vayronkorlik yoxud bunyodkorlik xossalasi borasidagi lavhalar nizolarga barham berishga chorlaydi. Iso (a.s.)ning o'lik vujudni tiriltirib, uning amallari hisobidan osiy qavmni voqif aylashida oxirat makonidagi sakinat yo shaytanatdan ogoh etgani ayonlashadi. Solih (a.s.) davrida tosh ichidan chiqqan tuyu rizqi, Sulaymon (a.s.)ning qudratidan hayiqmagan chumoli o'giti, Muso (a.s.)ning Fir'avn bilan mubohasasidagi ajdarho safari zamiridagi ilohiy mo'jizalar bani basharni yaralish hikmatini uqishga da'vat etadi.

Isajon Sulton asarda tush motivi vositasida Alisher Navoiy tarjimayi holidagi voqeanning o'z dostoni strukturasida badiiy idrok etilishiga ishora beradi. Samarqandalik davrida Alisher tushida ikki kaptarning polaponini uyg'a qaytara olmay, qayg'uga botib ortga qaytayotganida ikki burgut iskanjasida nobud bo'lganidan mahzun holga tushadi. «Layli va «Majnun» dostonida Majnun tush ko'rib, hayotining quyoshi, jonining qiblasi bo'lmish padar-u validasidan ayrilganini anglab yetadi. Ular qabrini ziyorat aylagan motamzada yigit hajr dog'ida tazarru qilib, oh chekadi. Muallif hazrat Navoiy olamini chuqr his qilgan, uning tafakkur kengliklaridagi irfon yog'dusidan bahramand bo'lganini e'tirof etish darkor. Romanda adibning mutafakkir fitratidagi ilohiy dardni o'z qalbidan o'tkazib, yuksak ehtirom, badiiy did ila uning saodatli umri sahifalarini yoritishga sazovor bo'lgan.

Ulug'bek Hamdamning asarlarida oila ma'naviyati masalasi turli muhit kishilar qismatida yoritib kelinadi. «Muvozanat» romanida uch do'stning oilani boshqarish tutumi, farzandga mu-

nosabati ko'rsatib berilgan. Ular o'z dunyoqarashi, hayot falsafasi asosida bolasiga axloq nizomini singdirishga harakat qiladi. Bolalarni jamiyatdagi turli jarayonlarga ruhiy, ma'naviy jihatdan tayyorlash, sinovli onlarda muvozanati, o'zligini yo'qotib qo'ymaslikka toblastash maqsad qilinadi. Muhimi, bozor iqtisodi sharoitida moddiyatdan ko'ra ma'naviyatning yuksakligi, ijtimoiy muhitda katta-yu kichikning farovon turmush kechirish garovi ekani asta anglatib boriladi.

«Sabo va «Samandar» romanida otaning aqli farzand tarbiyalash yo'sini texnika asri yutuqlariga tayangan holda amalga oshiriladi, Sherdil (ismda ramz mayjud)ning bolalikdan faqat robotga oshiqligi aqlilik balosiga mubtalo etadi, bu girdob esa uni qobig'iga o'raydi. Keksa ota-onasiga Sherdilning sovuqqon munosabati tragik pafosni yuzaga keltiradi. Ya'ni o'z farzandlik burchini unutgan basir o'g'il padar-u validasining vafotidagi loqaydligi ila zamonaviy manqurt qiyofasini namoyon etadi. Sherdil va Saboning oila rishtasi boylik halqasi bilan payvandalangan, aql kishisi yurak izmidagi ayoli tuyg'ularini his etishdan mahrum, tabiiyki, farzandlar shu muhit hosilasi sifatida kamol topadilar. To'kis hayotga havasmandlar koshona asrorini anglamaganlari bois ularni baxtli oila sanaydilar. Muallif bu romanida ham tiriklik diyori muvozanatida qalb va aql uyg'unligi muhimligini muayyan ishoralar vositasida kitobxon shuuriga yetkazishga muvaffaq bo'ladi.

Ulug'bek Hamdamning «Ota» romani bugungi ijtimoiy turmushdagi mayda illatlarning kishilar ongiga singishi, yosh-larning taqdir zarbalariga bardoshi motivlarini tashkillashtirib boradi. Onaning nevara ko'rish ilinjida folbin-u azayimxonlarga borishi hanuz kishilar orasida bid'at urchiyotganidan voqif aylaydi. Po'lat hayot mashaqqatida toblanib, o'z oilasini asrab qolishga, xotini Yog'du bilan ahillikda umrguzaronlik qilishga ahd qiladi.

Oilada yillar davomida orziqib kutilgan go'dak – Sevinchning dunyoga kelishi tarang vaziyatni ancha yumshatadi. O't o'chiruvchi kasbi bois ko'plab insonlarni ofatdan qutqarishga hissa qo'shgan ota o'z dilbandiga madad berolmaydi. Mal'un qo'shni sabab yong'inda ziyon ko'rgan xasta Sevinch hayotining g'amgin, ezgin sahifalari asta varaqlanadi. Uning tengdoshlari, qo'ni-qo'shni, qarindoshlari tazyiqidan ko'rgan tahqir-u azobi otasi Po'lat va Yog'duni halovatidan ayiradi. Qilmish – qidirmish naqliga ko'ra, yomonlik, zulm, hasad illati qo'shni erkakning oilasini parokanda qiladi. Dilbandiga sovchi kelmasligi, baxti kechikishi yana ota-onani tushkunlikka soladi. Oilada er-xotin orasidagi ishonch, otaning farzandi bilan samimiy, do'stona munosabati noxush holatga imkon bermaydi.

Asarda kulminatsion nuqta Sevinchning homiladorligidan voqif bo'lgan Po'latning o'z qizi qotiliga aylanishida kuzatiladi. O'zbek millatiga xos nomus, oriyat masalasi otaning g'azab-nok holatini yuzaga chiqaradi. Kalava uchini kech anglagan Po'lat qamoqxonada pushaymonlikdan iztirob chekadi. Hayoti-ga Yog'duning haroratsiz, tussiz nuri armon, Sevinchning sirli xatosi azob keltiradi. Romandagi syujet chizig'ida Sevinchning otasidan yashirin bir yigit bilan nikoh o'qitgani, undan farzand kutgani ma'lum qilinadi. Ota, ona, qiz halqasiga oshkoraliq, ishonch, vafo bo'limgani sababidan putur yetadi, shu asnoda bir oila zavol topadi. Bu asarda ijtimoiy dardga aylanayotgan muammo – ota gunohi, ona yo'rig'i, qiz xatosi zimnida g'azab, qahrni jilovlash, ahillik, birdamlik, o'zaro ishonch bilan turmush sinoviga zarba berishga chorlanadi.

Iqbol Mirzoning «Bonu» romani kompozitsiyasi sms xabarlar vositasida tashkil etilib, hayotiy lavhalar kitobxonni turli muhitdagi ijtimoiy muammolarga ro'baro' qiladi. Nasriy matn tarkibidagi lirik chekinish Huvaydo g'azallari silsilasida odamiylik rutbasiga sodiqlik, ezgulikni targ'ib etadi. Latofatli, oqila

Bonuning bolalikdan bobosidan islom o'gitini olishi unga taqdir o'yinini yengishda katta yordam beradi. Talaba Bonuning dardga chalinishi, husnida zuhurlangan dog'lar dramatik vaziyatni yuzaga keltiradi. U dastlab o'z tengdoshlari, so'ng oila a'zolarning tahqiriga uchraydi. Akasining do'sti tuhmat ila Bonuning sha'nini toptashi, otaning bu isnodga chidolmay vafot etishi dramatizmni kuchaytiradi. Olmos (ismda kinoya bor) muhabbati ham asta ko'lankaga aylanib borar ekan, qiz tanholik, uzlatga chekinishni afzal ko'radi.

Romanda dardga yo'liqqan turli yoshdagagi xastalar makoni kitobxonni o'ylantiradi. Bu manzilda barcha bir xil, kamsitish, tahqirlash, ijirg'anish yo'q, Bonu o'zga muhitda kasallar bilan erkin yashay boshlaydi. Xastalarni aldagani firibgarlar ning dorisi bois biyobonda oh-u vochlari ko'kka o'rlaydi, mazlumlar hiylakorlarni duoyibad qiladi.

Muallif Rossiyadagi o'zbek fuqarolarining qora mehnati xususidagi lavhalarda ikki toifani muqoyosa etadi, biri halol ishi ortidan pul jamg'arib oilasiga yuborsa, ikkinchisi ichkilik, fahsh ichida tubanlashib boradi. Bonuning rus diyoridagi sinovlari turli manzilga o'zgarib borishi asnosida kishilar niqobi ochiqlanadi. Dilyaning rus kampiriga enagaligi fonida yashirinchha fahsh niyatini amalga oshirishi, Bonuning bu ayolning iflos yo'rig'iga yurmagani bois qahratonda qashshoqlar bilan kun kechirishi lavhasida mashaqqatli halol non harom lazzatdan ustunligi ayonlashadi. Bonu fitratida or-nomussiz Dilyaga nafrat so'nmaydi, bu toifa ayol o'z millati xususida boshqalarda yomon taassurot qoldirishi kishini iztirobga soladi.

Asarda lo'li xonadonidagi ichki tartibot xizmatkor Bonuga qiziq tuyuladi. Vatan-u din tanlamaydigan lo'lilar tabiatidagi adolat hissi Bonuning bolalarni itning hujumidan qutqarib, o'zining jabrdiyda bo'lishida qalqib ko'rindi. Lo'li kampir Bonuni davolatib, o'z oilasi a'zosi qatorida ehtirom ko'rsatadi. Bun-

da ulardagi oqibat, tantilik fazilati ibrat tarzida qabul qilinadi. Bonu hayot sahifasida yana Olmosning paydo bo'lishi, og'ir xastaligini ro'kach qilib sodda Bonudan pul undirishida yolg'onchi, andishasiz kishi gavdalanadi. Iqbol Mirzo qahramoni suratida kasallik alomati bo'lsa ham, tiynatida odamiylikka vafo-sini saqlab qoladi. Boylik va qashshoqlik, tantilik va tubanlik, to'g'rilik va firiblik kishini boqiyilik imtihonida saralab borishi voqealar zanjirini mustahkamlaydi. Asar xotimasida Bonuning bu fitnakor, vijdonsiz kishilar muhitidan o'zga manzilni ixtiyor etishi ma'lum qilinadi.

Abduqayum Yo'ldoshevning «Daryo» romanida ijtimoiy munosabatlar Sirdaryobo'yи aholisi turmush sharoiti tegrasida uyuşhtirib boriladi. Syujet chizig'ida daryodagi shaffoflik, tiniqlik ayrim toifalar qalbini poklay olmasligi, manfaatparastlar ro'shnolik ko'rmasligi asoslab beriladi. Brakonyerlar ustomonligiga qo'riqchi-muhofazachilar mas'uliyati qarshi qo'yiladi. Inspektor Tohir daryoni asrash, ifloslanishdan saqlash, baliqlarni avaylash yo'lida fidokorona mehnat qilsa, Berdiqul, Samad, Qahhor kabilar nafsi izmida qing'irliklar qilishdan toyishmaydi. Asardagi voqealar Sirdaryo va Toshkent hududida rivojlanib boradi. Shahardagi shovqin-suron, izdihom ichidagi turli lavhalar tirkchilik tushunchasiga oydinlik kiritib boradi. Haydovchi Akbarali, G'iyos yuk mashinasida tunda Dilbar, Tamarani uchratishi, mehmonxonada bazm qilishi motivida maishiy buzuqlikning urchiyotgani aks ettiriladi. Fahsh, ichkilik, o'g'rilikdan huzurlangan so'qir erkag-u ayollar jamiyatda jinoyat ko'payishiga sabab bo'layotgani anglashiladi.

Adib poraxo'rlik, korrupsiyaning turli sohalarda uchrashini hayotiy voqealar silsilasida yoritib beradi. Asar markazida poklik daryo, suv misolida zuhurlanishi, imon-u oriyatsiz kishilar bu shaffoflikni mahv eta olmasligi idrok etiladi. Romanda davr va inson kontrasti bugungi kundagi turli illatlarning avj olayotgani

fonida taranglashib boradi. Tabiiy unsur bo'lmish Yer, Suv bani odamning ibtidosidan intihosiga shohid bo'lib, ularning farog'ati yoxud halokatini sokin kuzataveradi.

Zamonaviy romanlar poetikasida sinkretizm (janrlararo ichki aloqadorlik) masalasi ko'zga aniq tashlanadi. Asardagi lirik chekinish, keskin dramatik vaziyat qahramon ruhiyatidagi o'zgarishlarni obrazli aks ettirishga xizmat qiladi. «Boqiy darbadar» asarida Alisher Navoiy, Mashrab, «Bonu» romanida Huvaydo g'azallaridan namunalar keltirilishi lirik pafosni oshiradi. Ba'zan asarlarda folklor elementlari ham uchraydi. Tog'ay Murod romanida xalq maqollari o'rinli qo'llaniladi, Xurshid Do'stmuhammad romanida tosh va inson munosabati ertak, mif yo'sinini eslatadi. Nazar Eshonqul asarlarida doston motiviga monand yo kontrast lavha kiritilishi adib badiiy tafakkuri mahsuli sanaladi. U «Alpomish», «Go'ro'g'li» dostonlarini sinchiklab o'rgangan, romanida Go'ro'g'lining yangi talqinini berishga muvaffaq bo'lgan.

Hozirgi kunda nosirlarimiz yaxshi va samarali izlanish olib borib hayot manzaralarini ta'sirli ifodalashga, inson fitratini yorqinroq taqdim etishga muvaffaq bo'lmoqdalar. Hozirgi nasrda uslubiy izlanishlar ko'plab pishiq asarlar yaratilishiga sabab bo'layotir.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Roman janriga xos xususiyatlar...
2. O'zbek romanchiligiga munosib hissa qo'shgan adiblar...
3. Realistik romanda davr va qahramon tasviri...
4. Tarixiy roman – hayot haqiqati ifodasi...
5. «Boqiy darbadar» romanida makon tasviri...
6. «Bonu» romanida ijtimoiy muammolar talqini...

«ZEHN» TEXNOLOGIYASI

«Alisher Navoiy» romanidagi bayt kimga bag‘ishlangan edi?

*Haq yo'linda kim sanga bir harf o'qutmisht ranj ila,
Aylamak bo'lmas ado oning haqin yuz ganj ila*

(Abdulloh Kulohiy).

«OTA» romanidagi she'riy parcha mutarjimi kim?

*Meni kutgil va men qaytarmen
O'limlarni qoldirib dog'da.
Ishi o'ngdan kepti desinlar
Kutmaganlar meni u chog'da*

(Hamid Olimjon).

Foydalaniman adabiyotlar ro'yuxati:

1. Ёкубов И. Мустақиллик даври ўзбек романлари поэтикаси. – Тошкент, 2020.
2. Султон И. Алишер Навоий. – Тошкент, 2021.
3. Раҳимжонов Н. Истиқлол ва бутунги адабиёт. – Тошкент, 2012.
3. Мирзо И. Бону. – Тошкент: Шарқ, 2019.
4. Муродов F. Тарихий роман поэтикаси. – Тошкент, 2019.
5. Расулов А. Бадиийлик – безавол янгилик. – Тошкент, 2007.
6. Ҳамдам У. Ота. – Тошкент: Шарқ, 2021.

TESTLAR

- 1. «Olamni bulduruqqa bostirish»ni xayol qilib yurgan savodsiz Hotam Sho'ro qaysi asar qahramoni?**
 - A. «Otamdan qolgan dalalar»
 - B. «Lolazor»
 - C. «Iste'fo»
 - D. «Orom kursi»

- 2. Tog'ay Murod «Men o'zbek xalqiga haykal qo'yaman!» degan so'zlarini qaysi asarida aytgan?**
 - A. «Ot kishnagan oqshom»
 - B. «Oydinda yurgan odamlar»
 - C. «Otamdan qolgan dalalar»
 - D. «Momo yer qo'shig'i»

- 3. Hozirgi o'zbek romanlarini aniqlang.**
 - A. «Avlodlar dovoni», «Ona lochin vidosi»
 - B. «Tushda kechgan umrlar», «Jimjitlik»
 - C. «Ozod», «Shovqin»
 - D. «Mezon», «Ko'hna dunyo»

- 4. «Alisher Navoiy» romanining muallifini belgilang.**
 - A. Ulug'bek Hamdam
 - B. Shoyim Bo'tayev
 - C. Isajon Sulton
 - D. Erkin A'zam

- 5. «Ota» asarining muallifini belgilang.**
 - A. Ulug'bek Hamdam
 - B. Shoyim Bo'tayev
 - C. Isajon Sulton
 - D. Erkin A'zam

Mavzu:**HOZIRGI DRAMATURGIYA*****Reja***

1. Dramaturgiyadagi yangilanish jarayoni
2. Sahna madaniyatি
3. Tarixiy va zamonaviy dramalar

Tayanch so'zlar: drama, tomosha, harakat, sahna, replika, monolog, dialog

Istiqlol yillarida san'at va madaniyat sohasiga jiddiy e'tibor qaratildi. Respublikadagi teatrlar faoliyati isloh qilinib, zamonaviy talablar asosida jihozlash, repertuarlarni boyitish, tomoshabin madaniy saviyasini oshirishga ahamiyat berildi. Teatr festivallarini tashkil etish, o'zaro hamkorlikni yo'lga qo'yish, gastrollarni ko'paytirish borasida xayrli ishlar amalga oshirildi. Dramaturgiya nazariyotchilari bilan ijodkorlarning birgalikda- gi hamkorligi yetuk asarlar yaralishiga sabab bo'ladi. Berdiali Imomov, Muhsin Qodirov, Hafiz Abdusamatov, Sobir Mirvaliyev, Toir Islomov, Shuhrat Rizayev, Dilfuza Rahmatullayeva, Dilafruz Qodirova, Manzura Otajonova kabi ijodkorlarning tadqiqotla- rida drama nazariyasi, san'at va mahorat, jadid dramasi, sahna madaniyati kabi masalalar qamrab olinadi.

Mustaqillik sharofati bilan dramaturgiyada o'zbek millati sha'ni, o'zligini namoyon etuvchi asarlar yaratib, tomoshabin tasavvur olamini yanada boyitishga e'tibor ortdi. Uning ma'naviy ehtiyojini qondirishda tarixiy haqiqatga hurmat, milliy an'anaga ehtirom masalasi muhim sanaladi. Dramalarda hayot haqiqati manzaralarini turli ijtimoiy munosabatlар silsilasida yoritish, qahramon harakatlari, ruhiy kechinmalarini obrazli ifoda-

lash muallifdan donishlikni taqozo etadi. Premyera vaqtidagi odil hamda xolis baho, maslahat asarning mukammalligi, tomoshabinlar soni ko'payishiga asos bo'ladi. Jahonning nodir dramatik asarlari sahnalashtirilishi yoshlarni ham ulardan boxabar etishga turtki beradi. Bu jarayonni o'rganish dramaturgiya haqidagi tasavvurni boyitib, bilimni mustahkamlaydi.

Ma'naviy sog'lom muhitni yaratishda dramaturgiyaning o'rni katta. Inson sahnada hayotini ko'zgu misolida ko'rib, xato-kamchiliklarini tushunib boradi. Teatr sahnasida «Otello», «Qiro Lir», «Hamlet», «Daraxtlar tik turib jon beradi» kabi jahonning sara asarlari namoyish etilishi kishini tafakkurga chorlab, mohiyatni to'liq anglashga sabab bo'ladi. Sharof Boshbekov, Abdugahhor Ibrohimov, Usmon Azim, Erkin Xushvaqtov, Sanjarali Imomov, Qo'chqor Norqobil kabi o'zbek dramaturglari yaratgan asarlariga munosabat bildirilib, ma'naviy, axloqiy qarashlar ifodasi, talqinga urg'u beriladi. Tarixiy siymolar haqida dramalar yaratish ularning siyoshi, faoliyati borasida to'liq tasavvur paydo bo'lishiga zamin yaratadi. Amir Temur, Alisher Navoiy, Mirzo Bobur kabi tarixiy shaxslar haqidagi asarlar tomoshabinni o'sha davr madaniy muhiti bilan atroflicha tanishtirib, buyuklar hayot maslagidan voqif etadi.

Odil Yoqubovning «Avlodlarga vasiyatim» tarixiy dramasi-da Amir Temur hayotining so'nggi yillari aks ettiriladi. Muallif tush motivi vositasida turk sarkardalari o'rtasidagi jangga ishora berib, moziyga nigoh tashlashga undaydi. Asarda ikki hukmdor dunyoqarashidagi kontrast asos qilib olinadi. Sohibqiron tiynatidagi bag'rikenglik, kechirimlilik fazilati Boyaziddagi qaysarlik, tajanglik illatiga qarshi qo'yildi. Turkiy xalqlar birdamligi, istiqboli yo'lida fisq-u fujursiz to'g'ri siyosat olib borish mushkuloti dramatizmni kuchaytiradi.

Amir Temurning davlat boshqaruvida ahillik, adllikka qat'iy rioya etish, jaholat, munofiqlikka keskin zarba berish borasidagi

mushohadasi vasiyat salmog'ini orttiradi: «Biz qirq yil birga ot surdik. Alloh bergen tuz-nasibani birga baham ko'rib, Mashriq-dan Mag'ribga cho'zilgan hududsiz davlat qurdik. Ammo yod-laringda bo'lgay. Davlat har qancha qudratli bo'lmasun, uning tomiriga bolta uradigan uch xatar bor: birlamchi o'zaro no-ahillik, ikkilamchi jaholat, uchinchisi tarafkashlik. Shul uch xatardan ehtiyyot bo'lsangizlar, faqir tiklagan bu davlat tog'day abadulabad turadur». Amir Temurning harbiy siyosati, strategik uquvi falsafiy-psixologik qarashlarini markazga birlashtiradi. Tafakkur kuchi ila qudratli davlatni boshqargan shaxs fitratidagi jo'mardlik, bosiqlik, mulohazakorlik islom ahkomiga rioyati natijasi ekani anglashiladi.

Maqsud Shayxzodaning «Mirzo Ulug'bek» hamda «Jaloliddin Manguberdi» tragediyalari bugungi kunda ham tomoshabinning e'tiboriga sazovor bo'lib kelmoqda. Bunda o'zbek millatining fozil siyoshi – Ulug'bekning ilm toliblariga ziyo nurini taratishi madaniy taraqqiyot yutuqlariga hamohang yoritib boriladi. Dramaturg odil shoh ruhiyatidagi bezovtalik onlarini ham monologlar vositasida tiniq tasvirlaydi. Saroy muhiti, tarixiy shaxslar sulukiga hasadgo'y taxtparastlar fitnasi qarshi qo'yiladi. Turli konfliktlar insonlarning asl qiyofasini teran anglatish, mutafakkirni qurshagan olim-u zolimlar muddaosini sezdirishga yo'naltiriladi. Dialoglar qahramon ruhiyatidagi kechinmalar oqimidan tomoshabinni voqif etadi. Asar inson xarakterini butun murakkabligi bilan tasvirlagani, kitob muhiblarini ma'rifat manzillariga ilm-u urfon og'ushida yetaklashi ila namuna bo'laveradi.

«Jaloliddin Manguberdi» tragediyasida mo'g'ul istilosiga qarshi mardona kurashgan alp Jaloliddin jasorati tarixiy faktlar asosida taqdim qilinadi. Xorazmshoh sultanatidagi ichki parokandalik Chingizxonqa qo'l keladi, otalar va o'g'llar kichik ziddiyati katta tanazzulga yo'l ochadi. Chingizxon g'anim o'g'lon Jaloliddinning dovyurakligi, qat'iyatiga tan berib: «Agar

shunday o'g'lim bo'lganida, o'zimni dunyodagi eng baxtiyor otalardan hisoblardim», – deydi. Dramada voqelik keskin vaziyat-u tub burilishlar fonida rivojlanib boradi. Tarixiy jarayonni tabiiy, jonli ko'rsatishda nizolar sabab-u oqibati, kishilar munofiqligi holati tahlil qilib boriladi. Jaloliddinning maslagi «Yo'q, yo'q, bu gal o'xshamaydi otaga o'g'il, Mulk ahli mo'g'ulga sira bo'lmas qul» e'tirofida bo'rtib ko'rindi. Asarning g'oyaviy qimmati vatanni asrash, uning tinchligi, farovonligi yo'lida jonni fido aylash, jo'mardlik, tantilik ruhida kamol topayotgan avlodga mard, jasur sarkardalar tutumini targ'ib etish bilan belgilanadi.

Hayitmat Rasulning «Piri koinot» nomli dramasida alloma Farg'oniy intellekti, falsafiy ahkomi borasidagi sahnalar jonlaniadi. «Bayt ul-hikma»dagi fazil-u olimlar mubohasasi asnosida ilmiy muhit xususida tasavvur paydo bo'ladi. Oqil-u kamtar Farg'oniyning xalifa Al- Ma'munga Nil daryosi sathini belgilovchi uskunani taqdim qilishida o'sha davr ilmiy, madaniy holati borasida yaxlit tushuncha paydo bo'ladi. Ahmad Farg'o-niyning g'anim-u fitnachilar ig'vosidan ozorlanishi, muhabbatি bois jazoga noil bo'lishi sahnalarida dramatizm kuchayadi. Allomaning Yer shari ko'rinishi ixtirosi borasidagi «Yer yuzida yashaydigan barcha xalqlarning makoni – bitta kurreyi zamin. Shundan bir-biriga dushman bo'lib emas, do'st bo'lib yashamoq kerak» degan muxtasar xulosasi e'tiborga molik. Dramaturg asari umuminsoniy mohiyat kasb etib, barcha xalq-u millatlarni bidadlik, hamjihatlikka da'vat etadi.

Zamon bilan hamnafas bo'lishda, xalqimizning ma'naviy talablarini qondirishda dramaturgiya zimmasiga uning so'z va sahna san'atlari bilan aloqador xosiyatiga muvofiq alohidha g'oyaviy-estetik vazifalar yuklangan. Ma'lumki, adabiyot va san'atning gullab-yashnashi jamiatning ma'naviy barkamolligi, muhit sog'lomligiga bog'liq. Ma'naviy sog'lom muhitni yaratishda adabiyot va san'atning roli beqiyosdir. Ijodkor hayot haqiqada

tini qanchalik to'g'ri anglay olsa, muammolar mohiyatini to'g'ri ochib bersa, uning asarlari xalqqa shunchalik ma'naviy naf kel-tiradi. Bu borada dramaturgiya alohida ahamiyat kasb etadi. O'zbek dramaturgiyasida O'lmas Umarbekov, Sharof Boshbekov, Mamarasul Boboyev, Abduqahhor Ibrohimovning asarlari alohi-da o'rin tutadi. Ularning dramalarida sobiq tuzumdag'i o'zbek voqeligining muayyan tomonlari dramatik yo'sinda badiiy talqin qilinadi.

O'lmas Umarbekovning «Qiyomat qarz» dramasida Sulaymon ota fitratidagi imon ne'mati monolog-u dialoglar vositasi-da oydinlashib boradi. Uning ruhiy olami, axloqiy qarashlari zimnida halollik halovati bo'y ko'rsatadi. Muallif kundalik hayotimizdag'i ibratli voqelikni badiiy gavdalantiradi. Qahramon – pok, mehnatsevar, birovning haqidan qo'rqaqidan, to'g'riso'z nuroniyl chol. To'rt yuzta qo'yni – «qiyomat qarz»ni o'z egasiga topshirish mas'uliyati Sulaymon ota tiynatidagi omonatdorlik hissini tuydiradi. Hozirgi vaqtidaadolat tarozisiga rioxat etmay-digan, kishilar haqiga xiyonat qilishdan qo'rqlaydi. Drama har bir kishini tiriklik dunyosida halollik mezoniga amal qilish, odamiylik maqomiga munosib bo'lishga chorlaydi.

Ma'lumki, dramada qahramonning o'ziga xosligini belgilashda remarka asosiy omil hisoblanadi. Bu borada Sharof Boshbekov asarlari yaqqol misol bo'la oladi. Uning «Temir xotin» nomli tragik komediyanining bosh qahramoni – Qo'chqorning xarakter sifatida shakllanishida remarkanining o'rni muhim. Sodda dehqon Qo'chqorning turmush tarzi asar boshidagi remarkada beriladi: «Qishloqdag'i oddiy kamtarona hovli. To'g'rida bir necha ustunli peshayvon, o'ngda pastgina peshayvon ko'cha eshik, oldiroqda yog'och karavot. Sahnadagi har bir jihoz, har bir buyumda nimadir yetishmaydi. Eshik-deraza romlari yarmi bo'yagan, qolganining rangi o'chib ketgan, yog'och karavotning bitta oyog'i

yo'q. O'rniga g'isht terib qo'yilgan, ko'rpa-yostiqlarga yamoq tushgan, piyolalarning labi uchgan yoki chegalangan, choynakning jo'mragiga tunuka kiygizilgan va hokazo».

Keltirilgan remarkadan bosh qahramonning nochor ahvoli anglashiladi, rohatsiz mehnatga ishora qilinadi. Qo'chqorning qilmishlarida ironik kayfiyat kuzatiladi, u zabun, abgor hayotiga ko'nikkan. Olimtoy yaratgan temir ayol Alomatning «qalbingizning unutilib ketgan, o'zingiz ham bilmaydigan allaqaysi burchaklarida miltillagan ushoqqina norozilikdan qo'rqsiz» degan haqiqati uni sergaklantiradi. Bu gapni jonsiz temir shunchaki aytmaydi. Erkak achchiq gaplar ta'sirida yig'laydi, o'z fojeasi ni anglay boshlaydi. «Ko'zlarida yosh o'ynab» remarkasida bosh qahramonning ichki iztirobi, dard-u sitami yuzaga chiqadi, erkak kishining ayol oldidagi g'ururi toptalishi ko'rsatib boriladi. «Baralla yig'lagancha oyoq ostidagi yashiklarni zarb bilan tepib, yosh bolaga o'xshab engashib yig'laydi. Alomatning yelkasidagi qizil mikrosxemani oldi-da, qo'shni hovli tomon otib yubordi» degan parchada dramatizm kuchaytiriladi.

Dramada Qo'chqorning fojiasi behuda umr manzarasi, ayoli, farzandlariga munosabati motivida oydinlashadi. Temir Alomatning o'zbek ayoli kundalik yumushlariga chiday olmay nobud bo'lishi kulminatsiyani yuzaga chiqaradi. Ayolning ona, beka, xizmatchilik faoliyatida sabr-u qanoat, sabot-u chidam hamroh bo'lishi barchaga ayon. Asarda muallif ijtimoiy dardni qishloqning oddiy, do'Ivor kishilar qismati negizida tasvirlaydi.

Abduqahhor Ibrohimovning «Bir o'likka bir tirik», «Tusmol», «Puch», «Arra» kabi komediyalari jamiyatdag'i illatlar fosh qilinishi bilan e'tiborni tortadi. Pul, boylik ilinjidagi kishilarning tubanligi, makr-u hiylalar domidagi sodda kishilar nadomati asarlardagi kontrastni tezlashtiradi. Kishining maddohligi, rahbar loqaydligi tanqid qilinib, ijtimoiy munosabatlardagi manfaatlar to'qnashuvi kolliziyalarni yuzaga keltiradi. Nafs bandilari shay-

ton izmida yurib, imon yo'lidan ayro tushadilar. Bu halokatni anglashga ojiz so'qirlar boqiy dunyo matohiga parvona bo'lib, sarob xayollarga g'arq bo'ladilar. Dramaturg komik vaziyatlar zimnida tragik holatga ishora berishga erishadi.

Dramatik turga mansub asarlarda ham holat-u vaziyatni to'g'ri baholash, jamiyatdagi muammoning yechimini ko'rsatish muhim. Badiiy ijodda hissiy bilish yetakchilik qiladi. Obrazlilik badiiy ijodning yetakchi xususiyatidir. Ifoda usulida esa badiiy til imkoniyatlari, turli badiiy tasvir vositalari, poetik ko'chimlar obrazlilikni ta'minlovchi asosiy unsurlar sanaladi. Ziyo Najmiyning «Zanjirband sher» nomli asarida ijodkor Abdulhamid Cho'lpon va adabiy qahramon Hamlet tafakkur puchmoqlaridagi bezovtalik yoritib beriladi. Ikkisi ham mamlakat taqdiriga befarq bo'limgan, yuragida o'ti bor kishilar bo'lgani ma'lum. Cho'lponning millat ma'rifati yo'lidagi shijoati, o'ziga bo'lgan ishonchi fitnachi, qo'rkoq kimsalarga qarshi ochiq kurashida bo'rtib ko'rinadi. Asarda sharq va g'arb axloq aqoididagi tafovut kuzatiladi. Hamlet jamiyatdagi turli nohaqliklardan chekinib, o'limni ixtiyor etadi. Cho'lpon esa sharq ta'limotiga ko'ra umidini so'ndirmaydi, taslim bo'lmaydi, boshini vatani uchun dorga qo'yishdan hayiqmaydi. Bu qahramon siyratidagi kolliziya, o'zini taftish qilish, haq va nohaqliknii muqoyosa etish, yurt manfaatini baridan ustun bilganida ayonlashadi.

Usmon Azimning «Bozor» asarida murakkab palladagi insonning davr bilan munosabati sahnalari reallashib boradi. Qosimov va Erkin Ravshan dialogida sobiq tuzumdag'i paxta siyosati asoratidan mubohasa uyushtiriladi. Yubiley munosabati bilan kitob chiqarish, hujjatli film olish masalalari ham ma'lum qilinadi. Muallif san'at sohasidagi nozik masalalarga e'tibor qaratadi, mansabdor, takabbur kishilar ma'naviy qashshoqligi ularning kino olamiga begonaligini asoslaydi. Iste'dodli kishilar moddiyatga ruju qo'ymasdan bu sohaga fidoyilarcha

xizmat qiladilar. O'limas rejissyorning iqtidori, Erkining qalami xolislik, samimiylilikka xizmat qilgani bois bozorda sotilmagan, nishon-u mukofotga burkanmagan. Erkining «O'zbeklar qul emas, or-u nomusi uchun kurashadigan xalq ekanligini butun jahon ko'rib qo'yishini istaganmiz» degan izhori uning o'zligini namoyon etadi.

Bozor sharoitiga moslashgan uddaburonlarning boylik tarozisida kishi qilmishini baholashi tanqid qilinadi, bu motivlar dramatizmni taranglashtiradi. O'g'ri, maddohlar o'tish davring sarqiti sifatida tomoshabin nafratiga sazovor bo'ladilar. Qosimovlar davrasiga begona Erkin asar nihoyasida o'limni afzal biladi, jirkanch muhitdagi o'yinlardan toliqqan kishi mutlaq ozod bo'lishni ixtiyor qiladi.

Usmon Azimning «Bir qadam yo'l» dramasida falsafiylik, mantiqiylik kishini o'ya toldiradi. Aslida, dunyoga kelish va ketish onlari qisqa fursat bo'lib, foniy dunyo imtihonidan munosib o'tish dushvor. Ota-onas farzandini go'dakligidan parvarish qilar ekan, bor mehr-u muhabbatini unga ulashadi. Uch o'g'il: Jo'ra, Shokir, Qosim bir oilada voyaga yetsa ham, hayotga munosabatlari turlichcha. Jo'ra tiynatidagi to'g'rilik, adllik, fidoyilik raislik faoliyatida, hamqishloqlar e'tirofida ayonlashib boradi. Ko'pning haqqi, xalqning mulkiga xiyonat qilmaslikka intilgan raisning ayoli Saodat ro'zg'or ishlaridan ortmaydigan mehnatkash xotin timsolida namoyon bo'ladi.

Shokir esa harom tijoratning orqasidan shahar boyiga aylangan, qishloqdagi mansabdorlar bilan giyohvandlik savdosiga bosh bo'lgan takabbur o'g'il. Ayoli Beg'am – bu shaytanatdan ko'ra qishloq bog'-u adirida o'zini erkin his etadigan inson. Jo'ra va Shokir dialogida boylik iztirobi, nafs xuruji, farzandlik burchi borasidagi qarashlar muqoyosa etiladi. Afg'on urushi qatnashchisi Qosim esa urush oqibatida nogiron bo'lib, bo'ydoq yashashga mahkum. Undagi alamzadalik, nashavandlik, asli-

da, urushdag'i jaholat asoratidir. Mard, dovyurak insonni urush sindirib, yakson etadi, oilaviy baxtdan mahrum aylaydi, bu yigit afg'on urushi qatnashchilarining umumlashma obrazi sifatida gavdalanadi.

Dramadagi dialoglar Eshmamatov, Boltaboyev kabi mansabdorlarning manfur qiyofasiga chizgi tortadi. Narkotik savdosi boshida turgan hokim-u prokuror Shokir rahnamoligida avlodlar kelajagini badnom qilayotgani kulminatsiyani kuchaytiradi. Qing'ir ishning qiyig'i chiqib, Shokir Moskvaga o'g'lini qutqargani otlanadi. Bu vaqtدا Samarqand ilinjidagi chol omonatini topshiradi. Qosim Bozorboyevni otgani bois cholning ma'rakasi-da qatnasha olmaydi.

Dramada otaning keksayib, dilbandlari ogibati muruvvatidan ilinj kutishi asnosida oila asrori ayonlashib boradi. Usmon Azim ko'plab hayot hodisalarini sinchiklab kuzatib, xalq orasidagi turli toifa insonlar ruhiyatini voqealar silsilasida yoritib boradi. Davr talotumida o'zini boy bermagan, vijdoniga xilof ish qilmagan kishi keksalikda farzandlar tutumini kuzatib, goh tushunib, goh tushunmay kun kechiradi. Otaning «Men senga aytsam, odam bolasi buloq bo'lib dunyoga kelar ekan. Buloqman der ekan-u, qarasa, jilg'a emish. Buloqman der ekan-u, bir qarasa, daryo bo'libdi. Buloqman der ekan-u, bundoq qarasa... dengizga, umrning so'ngiga ham yetib kelibdi. Shunda ikki sohil orasidan chiqmasdan nimagadir orziqib, nimanidir kutib, faqat yugurganini sezib qolarkan» degan falsafiy mushohadasida qismat bitigiga urg'u beriladi. Dramadagi qahramonlar ham sohilga turli darajadagi a'moli bilan intilayotgan, ezgulig-u qabohat orasida sarson bo'layotgan kishilarni yodga soladi

Dramada bog' – uy, vatan timsoli, uning bag'rida halol ham, harom ham unaveradi. Qariyaning Samarqandga borish orzusini o'g'illar anglamaydi, doim band bo'lgan farzandlar ota ra'yiga qarash, ziyorat istagini ro'yobga chiqarishdan mosuvo bo'ladi.

Tiriklik diyorining intihosiga ketayotgan ota sokin holda dorulbaqoga rihlat qiladi.

Erkin A'zamning «Tanco qayiq» dramasida global muammoga aylangan Orol fojeasining badiiy talqini havola etiladi. Muallif qahramon ismida Orolda ramziyilik usulini qo'llaydi. Yillar davomida tiriklikning muhim unsuri – suv elga shifo, zarur ozuqa bo'lgan, loqaydlik, isrofgarchilik bois kishilar jazolangan. Tabiat va inson mushtarakligi folklor, mumtoz adabiyot namunalarida doim tasvirlab kelingan. Dramada ham dengizbo'yи aholisining qadim an'anasi, odatlari oqibatsiz avlod, takabbur kimsalarga muqoyosa etiladi. Orol bobo dengizni qadrdoni, sirdoshi yanglig' e'zozlaydi, undan voz kechish, bee'tibor bo'lish insoniylikka zid ekanini uqtirishdan charchamaydi. Orol bobo va dengiz qalban bir-birini anglagan, suyangan, zavol topayotgan odam va suvning uyg'unligi, yaxlitligi timsolida namoyon bo'ladi. Ikkisi ham yolg'izlikka mubtalo, dengizdagи qayiq zamindagi basir-ugung toifadan yuz burib, so'nggi safarni ixtiyor etadi.

Erkin A'zamning «Suv yoqalab» dramasida Bolta Mardon umr manzaralariga chizgi beriladi. Umrini sarhisob qilayotgan qahramon oqar suv singari moziyga razm solib, xato-nuqsonlarini taftish qiladi. Qishloq aholisi, ularning kundalik muammolari sobiq rais xotira puchmoqlarini bezovta qiladi. Har bir oiladagi vaziyat yaxshi bilgan hayoti davomida rahmat-u malomatdan benasib bo'lmadidi. Insonlar orasida qo'ni-qo'shni, qarindosh-urug'chilik munosabati izdan chiqqani, manfaatparastlik avj olayotgani qahramonni qayg'uga soladi. U hamqishloqlarini ahil, xotirjam kun ko'rish, imon-u insofdan ayro bo'lmaslikka da'vat etadi.

Qo'chqor Norqobilning «Quyoshni sen uyg'otasан» dramasida ijtimoiy muammo bir oila tegrasida uyuştirib boriladi. O'tish davri voqeligidagi ishsizlikni hal qilishning ikki yo'li ko'rsatiladi. Er Qodir oilasini tashlab katta daromad ilinjida Rossiyaga ishga

ketadi. Xotini Shabnam esa farzandlari bilan qishloq sharoitida mashaqqatlarga bardosh beradi. Undagi ishonch, bardamlik hamqishloq ayollarni ruhlantiradi. Dramaturg yurtida boriga shukr qilib, halol mehnati bilan jamiyatda o'z o'rnnini topayotgan ishbilarmon ayollar obrazini yaratishga muvaffaq bo'ladi.

Real turmush voqeligini ichdan yoritish, turli jins, yoshdagi insonlar fe'l-atvorini izchil kuzatish qissada zamondoshni o'ylan-tirgan muammoli vaziyatni yaratish ehtiyojini yuzaga keltiradi. Asardagi barcha personajlar bosh qahramon mantig'ini asoslash-ga xizmat qiladi. Dramatik turga mansub asarlarni zamonaviylik va tarixiylik aspektida kuzatish ijodkorning tanlangan voqelik, obrazni yoritishi, undagi yetakchi tamoyilni aniq ko'rsatishi asnosida yuzaga chiqadi. Zamonaviy mavzuga material ijtimoiy hayotdagi yangiliklarni saralash, tahlil etish asnosida jamlanib boradi. Dolzarb muammolar yechimini davr qahramoni faoliyati vositasida taqdim etishga e'tibor qaratiladi.

Dramaturgiyada tarix haqiqatidan saboq olish, milliy qadriyatlarni targ'ib qilish, inson va jamiyat munosabatlaridagi o'zgarishlarni tabiiy tasvirlashga doim ahamiyat berilgan. Usmon Azimning «Kunduzsiz kechalar», «Adibning umri» asarlarida tarix sahifalaridagi ma'naviyat posbonlari hayot maslagi varaqlanadi. Abdulla Qodiriy va Abdulhamid Cho'lpon hayoti va ijodiga oid nazmiy, nasriy asarlar yaratilgani ma'lum. Usmon Azim bu shaxslarning ma'naviy, estetik qarashlarini dramatik janr qolipiga solib taqdim etadi.

«Kunduzsiz kechalar» dramasida kishan kiymay, bo'yin egmay o'z oliv maslagi yo'lida dadil harakat qilgan shoir, adib, munaqqid Cho'lpon siyoshi badiiy gavdalantiriladi. Mustabid tuzum yo'rig'ini pisand qilmagan Cho'lpon adabiyot osmonida tong yulduzi bo'lib tun zulmatiga barham beradi. Dramada «Go'zal» she'ridan parcha keltirilishi mazmun qatlamini boyitgan. Aslida, go'zal timsolida shoir yulduz, oy, quyosh-u sha-

moldan so'roqlagan, qalbidagi inja tuyg'u – ozod yurt zuhurlangan edi. «Milliylik o'zlikdir» shiorini alqagan Cho'lpon Hofiz, Ko'zoynakli, Tengdoshlar davrasida san'at asrорidan nafis gurung tashkil qiladi.

Dramada Olim Sharafiddinovning «O'zbek shoirlari. Cho'lpon» maqolasi bilan bog'liq motiv shoir qismatidagi ko'lankaga ishora berib, siyosiy ayblovlar ko'payishidan ogoh etadi. Sezgir, Ko'zoynakli vaziyat qaltisligini payqab, xayrlashib ketadilar. Oybek va Cho'lpon dialogida yolg'on so'zdan yongan so'z, xiyonatdan sadoqat a'lo ekanı ayon bo'ladi. Cho'lpon ruhiy poklanuvning birdan bir vositasi san'at, xususan, badiiy adabiyot ekanini teran anglagan. Yangilikka oshno Cho'lponni badiiy adabiyotimizdagı o'sish-o'zgarishlar qoniqtirmadi. U hamisha o'zga xalqlar adabiyoti, san'atidagi o'zgarishlarga havas bilan qaradi, ularning eng yorqinlarini tarjima qilishga intildi. U adabiyot yashasagina, millat ravnaq topishi mumkinligini uqtirishga intildi.

Dramada kishi g'ururini toptash, adabiy shaxsiyatini badnom etish holatida ham majnun bo'lib elni sevgan, boshini u uchun dorga qo'ygan Cho'lpon hayotining kechasiga nigoh tashlanadi. «Kunduzsiz kechalar» dramasidagi monolog-u dialoglar kishi ruhiyatidagi tebranishlarni, ko'nglidagi armonlar sadosini kitob muhibiga yetkazib turadi. Yurt ozodligi urchun jonini fido qilgan, mangu tutqunlikka bo'yin egmagan shaxs xotirasi avlodlarga doim ibrat bo'ladi.

«Adibning umri» dramasida bog'dagi muloqot Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, Oybeklarning ma'naviy dunyosi, haqiqat yo'lida-
gi ahkomi borasida taassurot uyg'otadi. Dramaturg asarda lirik elementni kiritib, tarang vaziyatni yumshatishga harakat qiladi. Qodiriyning «Na'matak» she'ri xususidagi nozik kuzatishi ijod ahli taxayyul olamini teran idrok etish imkonini beradi. Cho'lpon va Qodiriy muloqotida «Haydalish» kuyi xususida fikr bildirilar ekan, adabiy qahramon Otabekning qaynotasi – Mirzakarim

qutidor tomonidan nohaq tahqirlanishi motivi kengayib, o'z uyidan badarg'a qilinish gumoni bo'lgan suhbatdoshlarga taal-luqli ekani anglashiladi. Mixail Sheverdin, Sotti Husayn Abdul-la Qodiriya, Olim Sharafiddinov Cho'lponga «millatchi, xalq dushmani» tamg'asini bosishga uringan holatda ham erksevar ijodkorlar irodasi bukilmaydi. Bu asarda ham bog' vatan timsoli bo'lib gavdalanadi, qatag'on shamoli Abdulla Qodiri, Abdulha-mid Cho'lponlarni zabtiga oladi.

Dramadagi bog' vogelik tadrijini ko'rsatibgina qolmay, ramziy ma'noni teranlashtiradi. Oybekning Otaqo'zi manfur bilan dia-logi Qodiri, Cho'lpon, Usmon Nosirning tutqunligidan voqif aylab, o'sha davr qahraton zabtini, xazonga aylangan maysalar mungini his qildiradi. Oybekning tahlikali kunlardagi matonati, dushmanlar tazyiqiga saboti lavhasida qatag'on siyosati mohiya-ti ochiladi. Zarifa va Oybekning qaltis damdag'i ishonchi, sabri, qanoati dialog-u monologlar sirasida yuzaga chiqib, ziyolilar ma'naviy qiyofasiga ishora beradi.

Turli tahdidlar Oybek irodasini sindira olmaydi. Dramada «Navoiy» asari bilan bog'liq noxush vaziyatlar sahnasi zimnida hayot haqiqatining yana bir jihatni ko'rsatiladi. Munaqqid Ozod Sharafiddinov Oybekni xotirlab yozgan maqolasida bir mu-nofiq tadqiqotchining avval adib ijodini qoralab qilgan ishlari-dan or qilmay endi dissertatsiya yozishni ixtiyor qilgani voqeasi keltiriladi. Munaqqid bu ishga qarshi bo'lganida tadqiqotchi Oybekning uyiga borib roziligini oladi. Bunday oljanoblik Ozod Sharafiddinovning Oybekka bo'lgan ehtiromini yanada oshiradi, biroq yosh «olim»ga g'azabi so'nmaydi. Munaqqid bu kimsa nomzod bo'lib ham mehnati rohatini ko'ra olmaganini, vijdonsizligini unutmagan jamoatchilik tan olmaganini eslatib o'tadi.

Dramadagi Botir (Botir Fayziyev) obrazi kiritilishi hayot haqiqatini badiiy haqiqatga o'tkazgan. Botirning «Oybek aka-

Kechiring! Sizga qilgan tuhmatim o'zimga urdi. Itdan battar xor bo'ldim. Hamma menden yuz o'girgan...» degan nadomati qilmish – qidirmish naqlini yodga soladi. Mazkur drama yaqin o'tmishdagi millatparvar kishilar fojiasini yorqin ifodalagani bilan tomoshabin e'tirofiga sazovor bo'lmoqda.

Erkin Xushvaqtovning «Chimildiq» komediyasida milliy udumlarimizning sahna talqinini ko'rsatishga harakat qilinadi. Turmush bo'sag'asidagi kelin-kuyov uchun chimildiq – pok tuyg'ularni parvarishlaydigan, pardalaydigan kichik go'sha. Azaldan mo'tabar momolar, onaxonlar o'giti bilan yoshlar uni qadrlab, nikohning salmog'i, ko'lamini his qilishgan. Komediyada bu muqaddas udumning mohiyatini anglamaslik kelin va kuyovning bachkana dialoglari zimnida yuzaga chiqib, tomoshabin e'tiroziga sabab bo'ladi. «Qalliq o'yin», «Andishali kelinchak» komediylarida ham syujet bo'shligi, o'zbekona tarbiyamizga zid motivlar hayot mantig'iga asoslanmagani bois e'tiroz uyg'otadi.

Millatimiz orasida oiladagi shaxsiy intim munosabatlarning sahnada ochiq ko'rsatilishini zamон talabi bilan bog'lash no-to'g'ri. Boisi, tomoshabinning yoshi, dunyoqarashi, mentaliteti doim inobatga olinishi kerak. O'zbekona tarbiya doirasidan chiqish salbiy oqibatlarni keltirib chiqaradi. Ibratxona bo'lgan teatr sahnasida ma'naviyatga zid lavhalar ko'rsatilishi e'tirozga sabab bo'lishi bilan birga tomoshabinning bu san'at turiga ixlosi, qiziqishini so'ndiradi. Bunday badiiy-estetik saviyasi past dramatik asarlardan, sharqona tarbiya, islom falsafasiga zid sahnalardan saqlanib, ezgu fazilatlar targ'ibiga ahamiyat berish lozim. Yillar davomida xalqimiz «Kelinlar qo'zg'oloni» komediyasini tomosha qilishdan charchamaydi. Chunki unda oila ma'naviyati masalasi tasvirida etika qoidasiga rioxaya etilgan, erkak, ayol, qaynona, kelin obrazlari mantiqan asoslangan, tabiiy, jonli manzaralar o'zbekona turmush madaniyatini xolis yoritishga xizmat qilgan.

Hozirgi maishiy turmushni yoritishga qaratilgan sahna asarlarida otaga, onaga hurmat, farzand tarbiyasi, hunar o'rganish masalasi ko'tarilib, yechimi beriladi. Ayrim hollarda bo'sh ssenariylar asosida sahnalashtirilgan dramalar qo'yilishi tomoshabin e'tiroziga sabab bo'ladi. Komediya yoki tragediya janriga mansub asarlarning ham me'yoriy talabga javob bermasligi ularning saviyasini tushirib yuboradi. Asar premyerasi vaqtida soha mutaxassislari taklif, maslahatiga rioya etish uning tomoshabin e'tirofiga noil bo'lishining garovidir.

Yaratilayotgan har bir dramatik asar hayotni ko'zguda aks ettirganday bo'ladi. Hozirgi globallashuv jarayonini real tasvirlashda dramatik asarlarning o'rni beqiyos. Ijtimoiy-siyosiy hayotdagi o'zgarishlar, yangilanishlar mazkur sohada tezda ko'zga tashlanadi. Bugun teatr va tomoshabin o'rtasidagi ma'naviy ko'priksi mustahkamlash uchun barchanening harakati, birligi lozim. Kundalik turmushdagi illatlar internet, televideniye orqali tanqid qilinadi. Teatrda sahna madaniyati kishilarni tarbiyalashi, ta'sir etishi uchun g'oyaviy, badiiy jihatdan yetuk dramalar yaratish darkor. Milliy mentalitetni sharaflaydigan, o'zbekning o'zligini, qadrini to'liq namoyon etadigan asarlar sahnalashtirilsa maqsadga muvofiq bo'lardi.

Har qanday sohaning tamoyillarini aniq belgilash mazkur yo'nalishdagi yutuqlarni xolis baholash, kamchiliklarni tuzatish imkonini beradi. Dramaturgiya sohasida milliy istiqlol g'oyalariiga hamohang asarlarni yaratish, o'zbekona an'analarini keng targ'ib etish, sharqona axloq namunalarini qalbiga singdirgan avlodni ko'rsatishga harakat qilinmoqda. Ijodkor xalqimiz tarixi, madaniy, diniy merosimizni haqqoniy aks ettirsa, so'z, timsollar aro mushtaraklikni ko'rsata olsa, kishi hayotidagi komiklik yo fojelikni his qildira olsa ayni muddao bo'ladi. Dramaturg tafakkuridagi o'zgarishlar tomoshabin dunyoqarashida evrilish sodir etishi, uning falsafiy, estetik qarashlarini boyitishi darkor.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Hozirgi dramaturgiyadagi yangiliklar borasida fikr yuriting.
2. Teatrlar faoliyatini yaxshilash borasida amalga oshirilgan ishlar...
3. O'zbek dramaturgiyasi rivojiga hissa qo'shgan ijodkorlar...
4. Usmon Azim dramalarida axloqiy masalalarning yoritiliishi...
5. Erkin A'zam dramalarida kinoyaning o'rni...

TEXNOLOGIYA

Konseptual jadval Dramatik asardagi obraz qiyoslanadi

«Bir qadam yo'l»	
Ota mehnatkash, oilani muqaddas biladi, hamqishloqlarini bog' yaratish, ahil yashashga da'vat etadi	Uchta o'g'ilda dunyoqarash uch xil, biri rais sifatida ota o'gitiga rioya etadi. Ikkinchisi nafsi izmida narkotik modda savdosiga ruju qo'yadi. Uchinchisi afg'on yurtidagi zulmat ta'sirida nogiron bo'lib, hayotga nafrat bilan qaraydi.
«Mirzo Ulug'bek» tragediyasi	
Mirzo Ulug'bek – mutafakkir va olim, u ilm-u ma'rifat homiysi, yurt farovonligi, obodligi yo'lida xayrli ishlarni ro'yobga chiqargan. Adolat va haqiqat ila saltanatni qirq yil boshqargan podshoh falakiyot ilmini yangi bosqichga olib chiqqan.	Abdulatif taxt ilinjida, marta-ba umidida fisq-u fujurga imkon yaratgan noqobil o'g'il sanaladi. U nafs xurujiga asir bo'lib, pardarkush degan tavqi la'nati ila moziy sahifasida nom qoldiradi.

«Jaloliddin Manguberdi» tragediyasi	
Sulton Xorazmshoh ota podshoh sifatida mo'g'ul sardori Chingizxoniga qarshi kurashdan ko'ra chekinish, taslim bo'lishni o'yaydi. Unda jasorat, qat'iyat yetishmaydi.	Jaloliddin mard, irodali, oriyatli valiahd bo'lib, mo'g'ullarga qarshi jangni to'g'ri deb hisoblaydi. Dovyurak, shijoatli shahzoda yurt himoyasi yo'lida jonini fido etadi.

Foydalaniman adabiyotlar ro'yxati:

1. Абдусаматов Ҳ. Драма назарияси. – Тошкент: Фан, 1995.
2. Каримов Н. ва б. XX asr ўзбек адабиёти тарихидан. – Тошкент: Ўқитувчи, 1999.
3. Ризаев Ш. Жадид драмаси. – Тошкент: Фан, 1999.
4. Раҳимжонов Н. Истиқлол ва бугунги адабиёт. – Тошкент, 2012.
5. Озод Ватан саодати. – Тошкент, 2013.

TESTLAR

1. Qaysi mumtoz asarning sahnaviy talqini tomoshabinlariga taqdim etilgan?
 - A. «Hamlet»
 - B. «Neksiya»
 - C. «Qalliq o'yin»
 - D. «Qirmizi olma»
2. Dramatik turga mansub janrlarni belgilang.
 - A. Komediya, tragediya, roman
 - B. Hikoya, tragediya, esse
 - C. Drama, komediya, tragediya
 - D. Roman, drama, novella

3. «Adibning umri» dramasida qaysi ijodkor qismati yoritiladi?

- A. Odil Yoqubov
- B. Oybek
- C. G'ayratiy
- D. Elbek

4. «Bir qadam yo'l» dramasida ota qayerga borishni niyat qiladi?

- A. Qashqadaryo
- B. Xorazm
- C. Termiz
- D. Samarqand

5. «Tanho qayiq» asarining muallifi kim?

- A. Usmon Azim
- B. Erkin A'zam
- C. Sharof Boshbekov
- D. Sanjarali Imomov

Mavzu:

IJODKOR USLUBI MASALASI

Reja

1. Ijodkor bilan kitobxon muloqoti
2. So'zni his etish mas'uliyati
3. Muallif estetik qarashi

Tayanch so'zlar: mahorat, uslub, xotira, ijod, mohiyat, ruhiyat, matn, badiiyat

Badiiy asar yozib bo'lingach, kitobxon hukmiga havola etiladi. Matnni o'qish, uqish jarayonida kitobxon qabul qiluvchi, o'zlashtiruvchiga aylanadi. Badiiy matnni mutolaa qilish, ma'nolar maxzanini idrok aylash kitob muhibidan ma'lum tayyorgarlikni taqozo etadi. U aql-u zakovati, hissiyot olami bilan asar dunyosi asrorini kashf qiladi. Kitobxon voqealar silsilasini kuza-tadi, adabiy qahramon qiyofasi, portretini tasavvur qiladi, ruhiyat iqlimini his etib boradi.

Kitobxon qalbi va shuuri ila badiiy asar olamida yashaydi, kishilar baxt-u saodati yoxud foje holatini tuyishga chog'lana-di. Yozuvchi bilan muloqotga kirishgan kitobxon uning dardini nozik his qiladi, bu holat asarni o'qish, o'zlashtirish asnosida so-dir bo'lar ekan, tinglovchining badiiyat namunalarini uqish saviyasini oshiradi.

San'atkorning teran fikr, inja tuyg'u, oliy maslagi kitobxon to-monidan qayta his qilinmas ekan, anglash, idrok etish maromiga yetmagan sanaladi. Matn tirik, jonli, so'zlar serjilva bo'lmasa, ular kitobxонни rom etmaydi, yangi ma'no qatlamlarini ifodala-maydi. Inson go'zallik, nafosat shaydosi ekan, uni targ'ib etgan

badiiyat namunasidan ruhiy ozuqa oladi. Kitobxon asarni o'qib zavqlanadi, voqeа, hodisa rivojini qunt bilan kuzatadi, qahramon bilan taqdir so'qmoqlarida sinovdan o'tadi. Badiiy yetuk asargina asrlar osha yashab, kitobxon auditoriyasini kengaytirib boradi.

Kitob muhibi ko'ngliga manzur bo'lgan badiiy asar, uning muallifidan o'zga ijodkor ham ta'sirlanib, unga ixlosini bildirishi mumkin.

Muhammad Yusufning shahid millatdoshlari qismati bora-sidagi nidosi shunday yangraydi:

*Qodiriyning qabri qizg'aldoqlarga
To'lgay kunlar hali kelmog'i bordir.*

* * *

*She'ring qo'y, yur, Qo'qon ketaylik, Usmon,
Sen do'stim deganlar hammasi dushman.*

* * *

*Otabek Kumushin ko'zlarin yopib,
O'zi ham ortidan qilgach safarlar,
Qodiriy boboning qo'llarin o'pib
Chohga itargan ham laganbardorlar.*

Shoira Zulfiya Mo'minovaning yoniq satrlari zimnida ham fidoyi shaxslarga samimiyl ehtirom sezilib turadi:

*Qodiriy-u Usmon o'tgan ko'chalarin
Sochim bilan supurishni sharaf bildim.*

Kitobxon notanish muallif asariga asta, xavotir bilan yonda-shadi, kutilgan natija chiqmasa, kitob javonda sarg'ayib tura-

veradi. Aksi bo'lganda, o'sha muallifning boshqa kitoblarini topib o'qishga oshiqadi. Badiiylikdan yiroq, sayoz asarlarning nashr etilishi oxir-oqibat muallifiga ziyon keltiradi. So'zning asl ma'nosini his etadigan, tafakkuri boy kitobxon bunday asarga vaqt sarflamaydi. Bunday asarlar sarob misoli yo'qolib ketadi.

Adabiy jarayonda yaratilayotgan badiiyat namunalari doim munaqqidlar tomonidan kuzatib boriladi, ularga munosabat bildiriladi. Adabiyotshunoslar asar poetikasidagi o'zgarishlar borasida ilmiy mulohazalarini tadqiqotlarida asoslab beradilar. Ozod Sharafiddinovning «Ijodni anglash baxti», Umarali Normatovning «Ijod sehri», Abdug'afur Rasulovning «Badiiylik – bezavol yangilik», No'monjon Rahimjonovning «Istiqlol va bugungi adabiyot», Qozoqboy Yo'ldoshevning «So'z yolqini», Abdulla Ulug'ovning «Qalb qandili», Bahodir Karimovning «Ruhiyat alif-bosi», Dilmurod Xoldorovning «Hozirgi o'zbek qissalarida badiiy uslub muammosi», Islom Yoqubovning «Mustaqillik davri o'zbek romanlari poetikasi», Olim To'lابoyevning «Milliy shuur shu'lasisi», Ruxsora To'lابoyevaning «Xudoyberdi To'xtaboyev romanlarida badiiy psixologizm» kabi monografiyalarida badiiy-estetik tafakkur mahsullarining adabiy hayotimizdag'i o'rni xolis yoritib beriladi.

No'monjon Rahimjonov ijodkor tafakkur olamidagi o'zgarishlar, milliy istiqlol g'oyalari talqini borasidagi qarashlarini tahlil lar bilan asoslaydi. Abdulla Ulug'ov san'atkor uslubi masalasini muayyan shoirlar asarlari misolida kuzatib boradi. Bahodir Karimov modern asar tabiatni, shoir-u nosirlar uslubidagi o'ziga xos liklarni baholaydi. Dilmurod Xoldorov Nazar Eshonqul, Shoyim Bo'tayev nasri xususiyatlarini izchil o'rganadi. Islom Yoqubov istiqlol davrida faol ijod qilayotgan romannavislar uslubini kuza tadi. Olim To'lابoyev Rauf Parfi ijodining yangi qirralarini faktik materiallar vositasida yoritib beradi.

Adabiyotshunos Abdug'afur Rasulov: «Uslub – o'zlik. Uslub – qaysidir ma'noda taqdir. Uslub – ijodkorning botiniy, ruhiy suratasi⁵, – deya baholaydi.

Har bir ijodkorning so'z qo'llash mahorati matn tahlilida real-lashib boradi. Shavkat Rahmonning:

Faqat ishq...

faqat ishq...

Boshqasi sarob,

Boshqasi shamolning oniy suroni, –

satrlaridagi falsafiy teranlik kitobxonni yaralishdagi muddaoni anglashga undaydi. Oshiq banda uchun ilohiy ishq – oliv maslak, boqiylik va foniylit asrori. Takror so'zlar ta'kid ohangini kuchaytirib, ma'noviy ko'lamni qabartib ko'rsatadi. Uning ruhi ishqqa oshiqadi, sarob, oniy narsalarga qiyo boqmaydi, vasvasaga berilmaydi. Imon halovati ahli siddiqni Alloh huzurida aziz-u mukarram aylaydi.

Abdulla Oripovning «Birinchi muhabbatim» she'ridagi misralar yuqoridagi bitikka hamohangligi bilan e'tiborga molik:

*Dildagi ohim mening, birinchi muhabbatim,
Yolg'iz Allohim mening, birinchi muhabbatim.*

Shoir bir hisga asir bo'lib, umr sahifalarini asta varaqlaydi, har pallasida muhabbatga suyanib, tayanib sinovlarni yengib o'tadi. Ishqi ilohiy imon sohibi ruhini sakinat saltanatiga parvoz ettiradi.

Halima Ahmedova kishining vijdoni oldidagi taftishini mux-tasar ifodalaydi:

⁵Расулов А. Услуб – истеъдод портрети. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2013. – 6.17.

*Men o'zimga o'zim eng katta raqib,
Sen meni o'zimdan asragin, Xudo.*

Inson xato, adashishlardan xoli emas. U bilib-bilmay sag'ir-u kabir gunohga qo'l urib qo'yishi mumkin. U botinan o'z fazilat-u illatini sezib turadi. Yaratganning bandasiga amallari uchun ajr yo jazo belgilashini anglagan kishi nafs, iblis nayrangidan ayro bo'lishni ixtiyor etadi.

Ikrom Otamurod kanguldagi inja tuyg'ularni obrazli ifodalaydi:

*Vatan
bobolardan qolgan e'tiqod,
ruhim mundarijasin ko'hna suvrati.
Ruhim ranglariga rang berib bot-bot,
Ruhim mundarijasin bezab turadi.*

Shoir musavvir yanglig' Vatani tarovati, salobatini turfa ranglar uyg'unligida badiiy polotnoda chizishga jazm etadi. Ruh so'zi tayanch mohiyat, ishq makon topgan ozod manzil ekani ta'kid xossasini tiniqlashtiradi. Vatanni sevmoq imondandir degan aqidaga siddiq salaflar suluki ruhiyatga malham bo'lib, kangulni shoyon etadi. Ikrom Otamurod lirikasida aynan ruh erkinligi ma'nolar maxzanini inkishof etishga turtki beradi:

*Yolg'izlik,
sen ruhim yo'qotgan savob,
Ruhim topgan gunoh sen,
Yolg'izlik.*

Ikrom Otamurod yo'qotgan-topgan, gunoh-savob kontrastida tazod san'atidan o'rinali foydalanadi. Yolg'izlik, tanholik kishiga

botin sasini tinglash, tafakkur qilish imkonini beradi. Poklanish, tozarishga ilhaq ruh ibtidodagi gunohga tazarru etib, savob xayriga mushtoq bo'ladi. Yolg'izlikda Yaratganga iltijo aylab, tavoze, xokisor holatda tavba manziliga yo'l oladi.

Badiiy asarga material to'plash jarayoni, ijod laboratoriyasi xususidagi e'tiroflarni o'rganish foydadan xoli bo'lmaydi. Habibulla Qodiriyning «Otam haqida» kitobida ikki qariyaning suhbatи Abdulla Qodiriyning taxayyul olamida yetilgan romanini qog'ozga tushirishga turki bergani xotirlanadi: «Mehmonning ana shu soddagina tarixi menga chuvalgan ipning uchini topib berganday, yozmoqchi bo'lgan «O'tkan kunlar» romanining shaklini chizib berganday bo'ldi». O'zbek oyimning harakatlari, nutqidagi xoslik yozuvchining onasi Josiyat bibidan o'zlashgani ma'lum bo'ladi.

Adibning «Yozganing agar o'zingni yig'latmasa, kuldirmasa, o'zgani ham yig'latmas, kuldirmas» izhori ayni haqiqatdir. Kummushning vafotida yozuvchining yig'lagani asar voqealari ijodkor ixtiyoridan chiqishi, vaziyat xolis, erkin baholanishiga turki bergani ayonlashadi. Yusubek hoji tiynatidagi sokinlik, adllik, mu-lohazakorlik Qodiriy fitratidan to'yingani bilan diqqatni tortadi.

Ijodkor tarjimayi holiga doir hayotiy hodisalar kitobxonni u yaratgan asarlardagi makon tasviri, qahramon siyratini tiniq tasavvur etishga sabab bo'ladi. Abdulla Qodiri, Oybek, Said Ahmad, O'tkir Hoshimov, Tohir Malik, Xurshid Do'stmuhammad kabi ijodkorlar Toshkent shahri, mahalla, bozor-u dahalarni makon sifatida tanlaydilar, uning iqlimini his qildiradilar. Murod Muhammad Do'st asarlarida Galatepa makonidagi kishilar tur-mush tarzi, an'anasi qalamga olinadi. «Galatepa qissalari», «Galatepaga qaytish» nomlarida ham qadrdon hududning jozibasi, tarovati, nasimi his ettiriladi.

Shukur Xolmirzayev, Usmon Azim, Erkin A'zam asarlarida Surxonning so'lim go'shasi – Boysun sabosi qahramonlar fe'lida-

gi tantilik, mardlik, tabiatga oshuftalikni sezdiradi. Nazar Eshon-qul Qashqadaryoning Tersota hududi manzaralari, ijtimoiy tur-mushini yoritib beradi. Normurod Norqobilov ham Qashqadar-yo vohasidagi tog'-u qoyalar shukuhi, viqorini, jonzot-u nabotot ajoyibotini tiniq tasvirlaydi. Erkin Vohidov, Muhammad Yusuf, Iqbol Mirzo, Ulug'bek Hamdam, Isajon Sulton ijodida Farg'ona, Andijon vohasining jozib iqlimi kitobxonga huzur baxsh etadi. Ijodkor uslubining shakllanishida mahalliy koloritning o'rni bo'lakcha. U an'ana va udumlarni, kishilar so'zlash tarzini, zav-qini, kayfiyatini, sheva shukuhini yetkazishga tuyassar bo'ladi. Asarda xronotopni aniq berish, uning tarixiy, madaniy qatlamini yoritish kitobxonning eliga, xalqiga bo'lgan hurmatini oshirib boradi.

Ijod jarayoni borasidagi Tog'ay Murod holati e'tiborni tortadi: «Yuzlarim jiqla ho'l bo'ldi. Men «Kuygay»ni dimog'imda xir-goyi qildim. Nihoyat ko'ngil buyurdi. Ko'ngil soz chaldi. Ko'ngil qo'shiq aytdi. Nihoyat asar bitdi. Asarni «Oydinda yurgan odamlar» deb atadim». Oq qog'ozga mungli musiqa suratini chizgan musavvirning ilhom onlari o'ziga xos sinov ekanligining shohidi bo'lasiz.

O'tkir Hoshimovning ijod borasidagi mushohadasida talab-chanlik, tirishqoqlik, mas'uliyat hissi bo'y ko'rsatadi: «Yozuvchi hayotiy materialni o'z qalbining dardiga, o'z vijdonining da'vatiga aylantira olishi, mana shu voqe'a-hodisalarning hammasini yurak-yurakdan chuqur his etishi kerak. Avvalo, o'zim katta haqiqat deb bilgan narsani, yagona haqiqat deb bilgan narsani, o'zim nihoyatda chuqur his etgan, qalbimning dardiga aylangan narsani yozishni xohlayman».

Badiiy asar – inson ruhiyatiga ta'sir etuvchi san'at hosilasi. So'z ohangi, ma'nolar asrori turfa holat, vaziyatni teran ifoda-lashga yo'naltiriladi. Qahramon surati-yu siyratini yoritish, un-dagi evrilishni yetkazish ijodkordan nozik did, yuksak salohi-

yatni talab etadi. Hozirgi globallashuv jarayonida inson qismati murakkablashib bormoqda. Axborot-kommunikatsiya vositalari ta'siridagi kishilar dunyoqarashi kun sayin o'zgarib bormoqda. Badiiy ijodda ham majoziy obrazlar, fanlar integratsiyasi, san'atlararo uyg'unlik, mifologik lavhalar, makro- va mikroolam borasidagi hosilalar ortmoqda. Odamzodning nabotot hamda hayvonot dunyosi bilan yaxlitligiga doir diniy, dunyoviy ta'limalar asosida badiiyat namunalari yaratilmoqda. Munaqqid adabiy jarayondagi yangi tasvir, ohorli mulohazalarni sinchiklab tahlil etish orqali matn badiiyatini tadqiq qilmoqda.

Moddiy va ma'naviy qadriyatlarni e'zozlash, unga munosib voris bo'lish sharaflidir. Badiiy-estetik madaniyatning merosxo'rлari ijodiy izlanishi, erkin mulohaza yuritishi diqqatga molik. Ular izlanishida inson shaxsiga, jamiyatga, ijtimoiy voqelikka nisbatan yangicha nuqtayi nazar ko'zga tashlanadi. Mana shu qarashlar dunyoni yangicha ko'rish hamda tushuntirishga yo'naltirilgani bilan e'tiborga molikdir. Yoshlar faoliyatini o'rganish tengdoshlarga rag'bat, ilhom berishi, yangi asarlar yozilishiga sababchi bo'lishi bilan ahamiyatlidir.

Badiiy so'zning estetik ta'sir kuchi shundaki, u ifoda go'zalligi bilan cheklanib qolmaydi. Aksincha, mohiyatan hayotdagi go'zallikning o'zi bo'lib qoladi. San'atkor ko'zlagan muayyan maqsadga erishishda badiiy so'z go'zallik timsoliga aylanishidir. So'zning badiyiligi san'at asarlarida aks ettirilgan ma'naviy qadriyatlarni baholovchi, falsafiy-estetik ahamiyatini belgilovchi go'zallik mezonlaridir. Badiiy asar targ'ibot-tashviqot vositasi emas, u san'at namunasi, go'zallik hodisasi sanaladi.

Xotira adabiyotning yetakchi shakli sifatida tarix va taqdirlar, shaxs va jamiyat, ijod tabiatи hamda so'z san'ati borasidagi mushohadakorlikning yetakchi ko'rinishi bo'lib qolaveradi. Xotiralar xalqimizning ma'naviy hayoti sahifalari, ona yurt iqboli, millat istiqboli bilan bog'liq yorug'lik hisoblanadi. U tarixiy ha-

qiqatga, milliy mafkura asoslarini mustahkamlashga daxldorligi bilan e'tiborga molik. O'z davrining ruhini tushuna bilish madaniyati, ma'naviy qadriyatni anglata olish san'ati ijodkorning bosh yo'lidir.

Ijodkorlar tomonidan xotira yozilishi ular yashagan adabiy muhit manzarasini yaqqol namoyon etadi. Said Ahmadning «Yo'qtonganlarim va topganlarim» xotirasida Abdulla Qahhor, G'afur G'ulom, Maqsud Shayxzodalar ijod onlarining shohidi bo'lasiz. Ularning asar yozish jarayoni, materialni saralashi, voqeani jonli tasvirlash yo'lidagi mashaqqati san'atkorning so'zga mas'uliyatini aks ettiradi. Tog'ay Murod haqidagi xotirada Tarlon, Gulsari otlar ifodasidagi mushtaraklik, asar musiqiligin ta'minlovchi omillar xususidagi mushohadalar ko'zga tashlanadi.

Oydin Hojiyevaning «To'rt tanho» asarida Zulfiya Isroilova, Saida Zunnunova, Kibriyo Qahhorovalarning oilaviy baxti, sinnovli onlardagi bardoshi, adabiyotga ehtiromi hayotiy voqealar silsilasida ravshanlashadi. Ijodkorning zamondoshlari xotirasida e'zozlanishi kitobxонни noyob ma'lumotdan voqif etish bilan birga uslubiga xos jihatni kashf qilishiga zamin yaratadi. Xussusan, Xudoyberdi To'xtaboyevning «Besh bolali yigitcha» asari yozilishiga adibning bolalik do'sti vafoti sabab bo'ladi. Bu asarda adib yetimlik davrini Farg'ona, Toshkent hududida yoritib borganı, hatto bog'dan so'ramay behi o'g'irlagani asarga qovunni ijozatsiz olish gunohligini anglatish tarzida kiritilganining guvohi bo'lasiz. Tohir Malikning ko'plab asarlari syujetida jinoyat olami fosh etilishi adibning koloniya, qamoqxonalarga tashrif buyurib, turli qismat egalarining fojiasini o'rganishi asnosida qog'ozga tushganini anglaysiz.

Abdug'afur Rasulovning «Ardoqli adib» risolasi O'tkir Hoshimovning suhbatlar, sayohatlar, kuzatishlar asosida material to'plagani, qahramonlari prototipini qanday topganiga yo'na-

lish beradi. Xususan, Umar zakunchi Qashqadaryodagi adib, munaqqidlar gurungida qatnashgan sobiq amaldorning «Davlat keldimi, tutib qol, amal tegdimi, surib qol, yo ostingdagi oting yiqilsin, yo uzangi uzilsin» degan fikri bilan o'zi ham asar qahramoniga aylangani ayon bo'ladi. O'tkir Hoshimovning tanish professor janozasidan so'ng munaqqid do'stiga «Abdug'afur aka, romandagi Qurbonoy xola mana shu... Shukurxon aka edilar» degan e'tirofi ijod asrоридан voqif etadi.

San'atkor uslubini baholash asarlari badiiyatini kuzatish, so'zlar ohangi, rangi, jarangini his qilishni taqozo etadi. Ijodkor dramatik asar kompozitsiyasida voqeа manzili, vaqtı tasvirlarini tiniq, tabiiy tasvirlashga e'tibor beradi. Uning qahramon ruhiyatini yoritishda salmoqli, teran mulohazalarni to'g'ri tanlashi asar badiiy quvvatini mustahkamlab boradi.

«Bonu» romanida boboning nabirasiga «Boylik tillo-zarda emas, qanoatda, qizim, ko'zi och odam hech qachon to'ymaydi, ko'zi to'q odamning ko'ngli to'q bo'ladi» degan nasihatи zimnidagi falsafiy teranlik ahamiyatga molik.

«Bozor» romanida tabiat hodisalari xayol suvratiga chizgi tortadi: «Tiriklik ko'yidagi odamlar... oyoq ostiga boqmagan banda ko'kka ham ko'z tashlashga fursat topmaydi, vaholanki, oyoq ostidagi xazon shitiriga bosh uzra yomg'ir shiviri qo'shilishidan xayol dunyoga keladi, qo'sh xayol qayig'i vazmin va osuda oqim uzra sokin va adoqsiz anhor o'zani bo'ylab suza ketadi....»

«Donishmand Sizif» romanidagi quyidagi lavhada ham boqiylik va foniylirk hukmi tiniq ifodalangan: «Pag'a-pag'a bulutlar o'tib bormoqdalarни, demak, hamma narsa, hamma narsaga qo'shilib vaqt ham o'tmoqda, dengiz o'tmoqda, tog' o'tmoqda, ularga qo'shilib Sizif, uning izidan esa vaqt-soati yetib manavi xarsangtosh ham o'tadi, jonli-jonsiz nimarsa borki, o'tish qismatidan bedaxl qolmadi, qololmaydi».

Ernest Xemingueyning ohorli fikri badiiy asar olamini tadqiq etishga to‘g‘ri yo‘nalish beradi: «Haqiqiy asar aysbergga o‘xshaydi. Aysbergning sakkizdan bir qismigina suv ustida ko‘rinib turadi. Lekin dengizchilar uning tagida yana yetti qism borligini biliшadi». Ziyorak kitobxon asar tagma’nosini uqish, o‘zlashtirish asnosida asl javharni kashf etadi.

Har yili O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi, O‘zbek tili va adabiyoti universiteti, O‘zbekiston Milliy universitetida ijodkorlar, munaqqidlar tavalludi, yubileyi munosabati bilan o‘tkaziladigan ilmiy-amaliy anjumanlar, she’riyat, nasr, drama, tanqid kengashlarida mumtoz, zamonaviy yo‘nalishdagi izlanishlar, tadqiqotlar samarasi yoritiladi. Adabiyotshunoslik, adabiy tanqid sohasidagi dolzarb muammolar yechimini hal etish maqsadida mutaxassislar birgalikda, hamkorlikda faoliyat olib boradilar.

Kurshid Do‘stmuhammad, Nazar Eshonqul, Ulug‘bek Hamdam kabi ijodkorlar adabiy jarayonda an‘anaviy va noan‘anaviy usulda asarlar e‘lon qilib, yozuvchi sifatida ko‘plab yangi obraz, tasvirlarni yaratishga muvaffaq bo‘lganlar. Ularning «Ijod fasafasi», «Mendan mengacha», «Ijod – ko‘ngil munavvarligi», «Yangilanish ehtiyoji» asarlarida dunyo adabiy jarayonidagi yangilanishlar borasida mulohazalar bildiriladi. Sohani harakatga keltirayotgan nazariy qarash, inson mohiyatini anglashdagi tushunchalar milliy, hududiy to‘siqni tan olmaydi. Adabiy jarayon va tanqid munosabati insonning mohiyati, qarashlari, ruhiyati qanday aks etayotganligini ijtimoiy muhitni hisobga olgan holda aks ettirmog‘i kerak. Ular adabiy-estetik tafakkurning jahon madaniyatida tutgan o‘rni, ijtimoiy-falsafiy qadriga oid mulohazalarini taqdim etib, adabiy aloqa hamda ta’sir masalalari ijodkorning tafakkuridagi evrilishga, badiiy asar poetikasiga bog‘liqligini e’tirof etadilar.

Bu ijodkorlar millatning shakllanishi, milliy ongning uyg'o-nishi, murakkab ijtimoiy sharoitda ham o'zlikni e'zozlash, hozirgi globallashuv jarayonida e'tiqodi, xalqiga sadoqatni asrash masalasiga ham alohida ahamiyat qaratadilar. So'z san'atkorining shaxsiyati, asarlarining yaratilish tarixi, badiiyati, badiiy ijod psixologiyasi yangi yo'naliш sifatida rivojlanib borayotgani borasida tizimli mulohazalar keltiriladi. Adiblarning adabiy, estetik, ma'riifiy, axloqiy qarashlari davr, jamiyat hamda ijtimoiy voqelik bilan yaxlit jarayon sifatida tahlil etilayotgani ham ko'rsatib boriladi.

Adabiyotshunosning ijod sirlari, so'z salmog'i, badiiy idrok va ifoda san'ati, tasvir usuli hamda imkoniyatiga doir tadqiqotlari adabiy jarayon hamda adabiy tanqid sohasini yuksaltirishda muhim o'rн tutadi. Ijodkor hayot hodisalarini teran kuzatib, falsafiy, estetik qarashlarini asari zamiriga singdirib boradi. Uslub so'z qo'llash mahorati, o'quvchi tafakkuriga ta'sir etib, ma'naviyatini yuksaltirishga hissa qo'shishdir. Har bir asarda muallif uslubi kuzatiladi. Matnni sinchiklab o'qish asnosida qalamkash badiiy niyati oydinlashadi.

Falsafiy teranlik, mantiqan asoslanganlik hayotiy tajriba hosilasidir. Uslub – yangi so'z, yangi matal qo'llash, ijodkor badiiy salohiyati ko'zgusi demak. Adiblar obraz yaratishda har bir detalga ahamiyat berib, obrazning to'laqonli va haqqoniy tasvirlanishiga erishadilar. Hayotiy kuzatish, tajriba, voqelikni tasavvurda puxta pishitib olish, unga estetik qarashlarini singdirish adibga obraz chizgilarini izchil yoritishda madad bo'ladi. Ayni shu his qilish, dardni tuyish real hayotni badiiy talqin qilish imkonini beradi. Yozuvchi kishilarda tashqi ko'rinishni emas, balki tiynatdagi poklikni, ma'naviy qiyofa go'zalligini ustun qo'yadi. Bu uning estetik qarashi, didi, yaratgan qahramonlarida ham ayni shu individual xususiyatlarga urg'u beriladi.

Tog'ay Murodning «Oydinda yurgan odamlar» qissasida Oymomoning alla aytishi ruhiyatdagи tebranishni ifodalaydi:

«Allada Sherobod dashtlariday anqillab yotmisht ko'ngil nolasi bo'ldi.

Ko'ngil dardi bo'ldi, armoni bo'ldi.

Ko'ngil fojiasi bo'ldi».

Xoliyor Safarovning «Qo'g'irchoq» hikoyasida befarzand ayol suratiga shunday chizgi tortiladi:

«Ayol sel bo'lib alla aytganda uning ham qalbi qandaydir taskin topgandek, vujudini, yuragining chok-choklarini illatdek ezib yuborgan dardni bir zum bo'lsa-da unutgandek bo'lardi».

Ikki adib ham bir holat, vaziyatni obrazli ifodalashga sazovor bo'lgan. Tog'ay Murod ko'ngilni tayanch markaziga aylantirib, bu doirani nola, dard, armon so'zлari bilan quvvatlantiradi, fojea tasvirni avj pardaga ko'taradi. Xoliyor Safarov qalb mungini yurak, dard sasiga uyg'un ifodalaydi.

Dramatik asarlar kompozitsiyasida ham inson ruhiyati iqlimiha nigoh tashlanadi. Usmon Azimning «Adibning umri» dramasidagi bu parcha kishi tuyg'ularini real aks ettiradi:

«O'sha sahna. Oybek hassaga suyanib dunyoga boqib turibdi. U har bir bargga, daraxtlarga, maysalarga, gullarga ilk bor ko'ra-yotganday mo'ltilab qaraydi. So'ng sekin yurib novdalardan to'qilgan kresloga o'tiradi. Uning yuragi she'rga aylanyapti.

Oybekning ovozi:

*Xastamen... Fikrga, tuyg'uga to'lib,
Oy menga hamqadam, sokin yuramen.
Sog'aysam bir kuni, yozaman to'yib,
Hislarga qalbimni qo'shib yozamen.*

Qalb dramatizmini his ettirishda Oybek siyratidagi bezovtalik xasta so'zi orqali ayonlashadi. Bu so'z dard, alam, armon tuyg'ularini qamrab oladi.

Nurilla Chorining «Qizg’aldoq» hikoyasida jonlantirish san’ati kuzatiladi: «Alamdan o’kirganini eshitgan keksa tog’larning op-poq sochlari to’kilib ketdi». Inson qalbidagi iztirobning ko’lami tog’-u toshni larzaga solishi yaxshi topilma sanaladi.

Nurilla Chorining «Bo’ron tingen kecha» hikoyasida o’xshatish san’ati qo’llanadi: «Etagini yig’magan kuzdan qahrlangan qish qilichini qibladan turib yalang’ochlagan». Nosir manzarani yorqin aks ettirishda iboradan ham foydalanadi.

Sanjar Tursunning «Tog’lar orasida» qissasida jonlantirish san’ati tabiat nafosatini nozik his ettiradi: «Ahyon-ahyon yog’ib qoladigan yomg’ir changib ketgan zaminni tozalab, sen xafa bo’lma, men qo’rqib ketgan yerning yuziga suv sepdim, endi bemalol baxtli bo’lsang bo’laveradi degandek yog’averardi. Tabiatda kundan kun yangi nigoh, toza tuyg’ular tug’ildi».

Bugun iste’dodli yoshlar so’zning salmog’ini his etishi muhim hisoblanadi. Ular adabiyot, san’at olamida betakror, o’ziga xos dadil hamda teran fikrlash salohiyatiga ega shijoatli avlod shakllanayotganidan dalolat beradi. Yoshlarning she’riyat, nasr namunalari milliy mustaqilligimizning badiiy solnomasini boyitib boradi. Bu iste’dodlar ona yurt tuyg’usini, insonga mehr-u muhabbatini asarlari vositasida anglatishiga umidingiz ortadi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Badiiy asar kim tomonidan baholanadi?
2. Ijodkor laboratoriysi borasida fikr yuriting.
3. Muallifning obraz yaratish jarayoni xususidagi muloha-zangiz...
4. San’atkorning so’zga mas’uliyati borasida kimlarning fikrini bilasiz?
5. Kitobxon va muallif munosabati qanday bo’lishi kerak?

TEXNOLOGIYA «T»

Tog'ay Murod Surxondaryoda tug'ilgan. «Yulduzlar mangu yonadi», «Ot kishnagan oqshom», «Oydinda yurgan odamlar», «Otamdan qolgan dalalar», «Bu dunyoda o'lib bo'imaydi» asarlari kitobxonlar hukmiga havola qilingan.

*Atirgullar atriyyot anqitdi,
 Surxon saratoni saratonni saratoni bo'ldi.
 Ayolimiz ayollar ashulasini boshladi,
 Tabiatni to'lg'oq tutdi.*

Ikrom Otamurod Qashqadaryo viloyatida tug'ilgan. «Yobondagi yolg'iz daraxt», «Ishora», «Jadval», «Uzoqlashayotgan og'riq» kabi dostonlari kitobxon hukmiga havola etilgan.

*... Qachondir
 qachonning
 qachoni
 qachon...
 Lahzada lahzaning lahzasi
 lahza...
 Lahza – o'yin,
 lahza – yo'riq,
 lahza – haq,
 lahza – nohaq,
 lahza – rost,
 lahza – yolg'on,
 lahza – bor,
 lahza – yo'q...*

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Азим У. Сўнгўзлар. – Тошкент: Шарқ, 2021.
2. Аъзам Э. Эрталабки хаёллар. – Тошкент: Шарқ, 2018.

3. Отамурод И. Сукут садоси. – Тошкент: Адабиёт, 2021.
4. Расулов А. Услуб – истеъдод портрети. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2013.
5. Эшонкул Н. Мендан менгача. – Тошкент: Академнашр, 2014.
6. Эшонкул Н. Ижод фалсафаси. – Тошкент: Академнашр, 2018.
7. Мурод Т. Таъланган асарлар. З жилд. – Тошкент: Шарқ, 2019.
8. Ҳамдам У. Янгиланиш эҳтиёжи. – Тошкент: Фан, 2007.

TESTLAR

- 1. Abdulla Qodiriy haqidagi xotira asarni aniqlang.**

A. «Xiyobon»	B. «Otam haqida»
D. «Tegirmон»	E. «Mangu latofat»
- 2. «Ardoqli adib» risolasida qaysi ijodkor faoliyati yoritilgan?**

A. Said Ahmad	B. Shukur Xolmirzayev
D. O'tkir Hoshimov	E. Shoyim Bo'tayev
- 3. «So'ngso'zlar» asarining muallifini aniqlang.**

A. Erkin A'zam	B. Qo'chqor Norqobil
D. Xurshid Davron	E. Usmon Azim
- 4. «So'z yolqini» asarining muallifini belgilang.**

A. No'monjon Rahimjonov	B. Qozoqboy Yo'ldoshev
D. Baxtiyor Nazarov	E. Naim Karimov
- 5. «Ijod falsafasi» asarining muallifini aniqlang.**

A. Xurshid Do'stmuhammad	B. Murod Muhammad Do'st
D. Normurod Norqobilov	E. Nazar Eshonqul

XULOSA

Ma'naviy uyg'onish samarasi odamlarning o'zligini anglashi, milliy g'urur, oriyat, avlod-ajdodlarimiz o'tmishidan faxrlanish, kelajak har kimning o'z qo'lida, mehnatida va ongli faoliyatida ekanligini his qilishda namoyon bo'lmoqda. Bugungi kunning vazifasi adabiyotni millatning ma'naviy va intellektual salohiyatini, odamlarning aqliy va ruhiy madaniyatlarini yuksaltirishga xizmat qildirishdir. Chunki olamni shu paytgacha aytib kelganimizdek go'zallik emas, ma'naviyat va ezgulik asraydi.

Adabiy jarayonda ijodkor shaxsiyati va iste'dod tabiatni, so'z san'atining mohiyati bashariy qadriyat maqomida o'rganiladi. Ijodkor shaxsiga, badiiy adabiyotga estetik tuyg'u nuqtayi nazaridan yondashish kuzatiladi. Badiiy-estetik tafakkur masalarini go'zallik, ezgulik singari qadriyatlar, shakl va mazmun birligi, adabiy janrlar xilma-xilligi hamda uslubiy yo'nalish, badiiy til, ifoda vositalari nuqtayi nazaridan o'zlashtirish, xulosalar chiqarish adabiy jarayonning tabiiy ehtiyojiga aylandi.

Badiiy adabiyot ijtimoiy, falsafiy, ma'rifiy, axloqiy mohiyati bilan go'zallik hodisasiga mansubligi ayon bo'ladi. Lirik, epik, dramatik asarlarning hozirgi davr bilan bog'liq qirralarini, xususan, milliy istiqlol g'oyalariga daxldor jihatini uqtirish fanning maqsadi hisoblanadi. Hozirgi adabiy jarayonni adabiy tanqid bilan bog'lab tushuntirish, o'zbek adabiyotidagi yangilanishlarni jahon adabiyotida kechayotgan o'zgarishlarga qiyoslash, badiiy ijod falsafasini, psixologiyasini mashhur siymolarning ijod laboratoriysi misolida tushuntirish, badiiy asarni anglab, tahlil qilib o'rgatish kabi masalalar muhim sanaladi.

Adabiy jarayonda mumtoz adabiyotlarga e'tiborning ortishi o'z axloqiy tayanchi, qadriyatini e'zozlayotganidan voqif etadi.

Zamonaviy asarlar poetikasida islom falsafasi, sharq madaniyatiga xos ifodalarning singdirilishiga e'tibor ortmoqda. Inson ruhiyatidagi evrilishlarni ramziylik, ishoraviylik usulida tasvirlashga erishilmoqda. Realistik asarlar bilan modernistik asarlarning yaratilishi dunyo adabiyotidagi yangiliklarning o'zbek adabiyotida o'ziga xos yo'sinda davom etayotganidan darak beradi. Asar kompozitsiyasida makon va zamon tasvirida sag'irdan kabir olam ajoyibotini qamrab olish, ularni majoziy ifodalash, tilsimlar maxzanini anglatishda obrazlilikka ahamiyat beriladi. Zamonaviy asarlar poetikasida folklor, mumtoz asarlarga xos ertak, rivoyat, hikmatlarni keltirish orqali falsafiy, estetik qatlanni mustahkamlashga erishiladi.

Badiiy asar inson ruhiyatiga ta'sir etuvchi san'at hosilasidir. So'z ohangi, ma'nolar asrori turfa holat, vaziyatlarni teran ifodalashga yo'naltiriladi. Qahramon surati-yu siyratini yoritish, undagi evrilishlarni yetkazish ijodkordan nozik did, yuksak salohiyatni talab etadi. Hozirgi globallashuv jarayonida inson qismati murakkablashib bormoqda. Axborot-kommunikatsiya ta'siridagi kishilar dunyoqarashi kun sayin o'zgarmoqda. Badiiy nasrda ham majoziy obrazlar, fanlar integratsiyasi, san'atlararo uyg'unlik, mifologik lavhalar, makro- va mikroolam borasidagi hosilalar ortmoqda. Odamzodning nabotot hamda hayvonot dunyosi bilan yaxlitligiga doir diniy, dunyoviy ta'lilotlar asosida badiiyat namunalari yaratilmoqda.

Badiiy asar kishi ma'naviyatini boyitib, uning milliy hamda umuminsoniy qadriyatlar borasidagi tasavvurlarini to'ldirib beradi. Har bir davrning ijtimoiy, madaniy sathdagi yangiliklari adabiyotda tajassumini topadi. Hozirgi adabiy jarayon badiiyat namunalari poetikasidagi o'zgarishlarni baholab, obyektiv va subyektiv omillarni sharhlab boradi. Ijodkor mazmunning salmog'i, umumlashmaning kengligiga e'tibor qaratib, so'z qudratini tuydirishga intiladi. Badiiy voqelikni jonli yaratish hayotni

teran o'rganish, olam haqiqatini his etishdan boshlanadi. Adabiy jarayon qimmati yangi asarlar yaratilgani bilan belgilanadi. Badiiy asarning falsafiy- estetik mohiyati, tarixiy, madaniy qatlam-dagi o'rni o'zlashtirish asnosida muhim ahamiyat kasb etadi. Ijod namunasini qabul qilish, ruh, ongga singdirish qismning mazmunini butun tarkibida tasavvur qilishni taqozo etadi. Badiiy matn mazmuni kitobxon tafakkurida kengayib, sirli sarhad-larga yo'l ochadi.

JORIY NAZORAT SAVOLLARI

1. «Onaizorim» qissasidagi qahramonlarni aniqlang.
2. «Muqaddas», «Billur qandillar» qissalarining muallifi kim?
3. Essenavis munaqqidlardan kimlarni bilasiz?
5. «Otam haqida», «Qatlnoma» asarlari qaysi yozuvchi xotirasi-ga bag'ishlangan?
6. Abdulla Qahhorning «O'tmishdan ertaklar» asarida qahramon dunyoqarashi...
7. Qaysi tarixiy asarlarni bilasiz?
8. Fantast yozuvchilarni aniqlang.
9. Qo'chqor Norqobil qalamiga mansub asarlarni ayting.
10. «Falak», «Charxpalak», «Shaytanat» asarlarining muallifi kim?
11. Mashhur tarixiy shaxslar hayoti yoritilgan qissalar...
12. Yangicha talqindagi manqurt qiyofasi yoritilgan qissani ayting.
13. «Saodat sohili» qissasida Boburning hamsuhbati bo'lgan toshkentlik olim kim edi?
14. «Dunyoning ishlari» asaridagi asosiy obrazni belgilang.
15. Tabiat va inson uyg'unligi talqin qilingan asarlar...
16. Istiqlol davrida faol ijod qilayotgan romannavislardan kimlarni bilasiz?
17. «Mehrobdan chayon» romani kimning qalamiga mansub?
18. «Mehrobdan chayon» romanida «xabba» so'zini kim ishlatadi?
19. «Kecha va kunduz» romani qaysi fasl tasviridan boshlanadi?
20. Yormat qaysi roman personajii?
21. Cho'qqi soqol qaysi asar qahramoni?
22. «Kecha va kunduz» romani qaysi fasl tasviri bilan tugallanadi?
23. «Munojot» asarining muallifi kim?
24. Qoplon va Oymomo qaysi asar qahramonlari?
25. Qaysi asarda hayvon vafosi tasvirlangan?

26. «Ijodni anglash baxti» asarining muallifi kim?
27. «Istiqlol va bugungi adabiyot» monografiyasining muallifi kim?
28. Adabiyot va san'at masalalarini yoritadigan jurnallar haqida gapiring.
29. «Jajman» asarida qaysi illat qoralangan?
30. Milliy an'ana talqin qilingan asarlar borasida mulohaza yuriting.

ORALIQ NAZORAT SAVOLLARI

1. Adabiyotshunoslikning tarkibiy qismlari nimalar?
2. Hozirgi adabiy jarayon fani nimani o'rganadi?
3. San'at turlarining farqlanish tamoyillari qanday?
4. Romanlarda zamон ruhi qanday tasvirlanadi?
5. Hozirgi poeziyada milliy an'analar talqini...
6. Hozirgi nasrda essening о'rni...
7. Adabiy jarayonda badiiy asarga yondashuv masalasi...
8. Badiiy adabiyot va hayot.
9. Badiiy asarning umrboqiylik asoslari nimada?
10. Badiiy obraz haqida tushuncha...
11. Obraz, xarakter, tip: asoslari, umumiylilik va o'ziga xosliklar...
12. Epizodik obrazlar vazifasi...
13. Badiiy adabiyotda umuminsoniylik, milliylik va individuallik masalasi...
14. Badiiy asarda estetik ideal muammosi...
15. Adabiyotda mazmun va shakl birligi...
16. Ijtimoiy g'oya va badiiy g'oya о'rtasida umumiy va farqli jihatlar...
17. Badiiy asarda fabula, syujet va kompozitsiya...
18. Syujet tiplari borasida ma'lumot bering.

19. Syujet unsurlari...
20. Voqeaband she'riy asar...
21. Badiiy asarda konflikt muammosi...
22. Konflikt turlari...
23. Badiiy asarda peyzaj...
24. Badiiy asarda portret...
25. Badiiy asarda makon va zamon (xronotop tushunchasi)...
26. Kompozitsiya vositalari...
27. Epigraf va bag'ishlov...
28. Badiiy asar tili: avtor va personaj tili...
29. Badiiy asar tili, xalq tili va adabiy til o'rtaсидagi mushtarakliklar...
30. Badiiy tasvir vositalari: sodda va murakkab majozlar...
31. She'r tuzilishida vaznning ahamiyati...
32. Adabiy jarayonda tarixiylik: an'ana, badiiy tavsif va novatorlik masalasi...
33. Adabiy turlar: vujudga kelishi, tarixiy omillari...
34. Lirika va uning janrlari...
35. Eposning o'ziga xosligi...
36. Dramatik tur: tarixiy evolyutsiya jarayoni...
37. Metod va dunyoqarash: falsafiy-estetik asoslari...
38. Romanizm, realizm va modernizm metodlari...
39. Adabiy oqim tushunchasi, uning metoddan farqi...
40. Zamonaviy asarlarda milliylik masalasi...

YAKUNIY NAZORAT SAVOLLARI

1. Badiiy obraz va xarakter o'rtaсидagi farq nimada?
2. Badiiy obraz va estetik kategoriyalar...
3. Ijodkor shaxsiyati va ijodiy individuallik masalasi...
4. Badiiy adabiyotda milliy g'oya va milliylik...
5. Badiiy asar pafosi nima?

6. Pafos va estetik ideal...
7. Estetik ideal va ijodkor o'rtasidagi munosabat...
8. Mazmun va shakl muammosining adabiy-tarixiy jarayonda-gi talqinlari qanday?
9. Lirik, epik va dramatik konflikt...
10. Badiiy tasvir vositalarining lingvopoetik talqini deganda nimani tushunasiz?
11. Adabiy jarayonda ijod va ijodkor muammosi...
12. Lirik tur va sharq adabiy tafakkuri tarixi...
13. Badiiy san'atlar masalasi...
14. Epik tur va epos munosabati...
15. Dramatik tur va uning sharq adabiyotidagi manbalari...
16. Realizmning turli xalqlar adabiyotlaridagi talqinlari...
17. Bugungi o'zbek modern adabiyotining tarixiy asoslari va mo-hiyati...
18. Adabiy tanqid va adabiy jarayon fanlarining ijtimoiy-tarixiy asoslari...
19. Estetik tafakkur deganda nimani tushunasiz?
20. Ijodiy jarayon va ijod psixologiyasi...
21. Ijodkor va uning dunyoqarashi masalasi...
22. Badiiy adabiyotda milliylik va umuminsoniylik...
23. Obraz va obrazlilik tushunchalari qanday farqlanadi?
24. She'riyatda peyzaj tasviri...
25. Mazmun va shakl uyg'unligi masalasi...
26. Badiiy asar mavzusi va ijodkor dunyoqarashi...
27. Tragediya va tragikomediya...
28. Lirik asarda konflikt va syujet masalasi...
29. Badiiy asar tilida arxaizm, neologizm, dialektizm, varvarizm, vulgarizm, jargonizmlar...
30. Sharq adabiyotida islom falsafasi...
31. Jahon adabiyotida mavjud zamonaviy oqimlar...
32. Ijodiy metod va adabiyotshunoslik metodlari masalasi...

32. Adabiy jarayon va adabiy tanqid...
33. Abdulla Qodiriyning estetik qarashlari...
34. Xurshid Do'stmuhammadning estetik qarashlari...
35. Usmon Azimning adabiy-falsafiy qarashlari...
36. Nazar Eshonqulning adabiy-falsafiy qarashlari...
37. Abdulla Oripovning adabiy-falsafiy qarashlari...
38. Badiiy adabiyotda vatan mavzusi...
39. Xotira asarlarda ijodkor qiyoqasi...
40. Adabiy jarayon masalasining matbuotda yoritilishi...

GLOSSARIY

Hozirgi adabiy jarayon – o'zbek adabiyotida yaratilayotgan nasriy, nazmiy va dramatik asarlarning o'ziga xos xususiyatlari ilmiy-amaliy jihatdan o'rganiladi.

Adabiyot – arabcha so'z bo'lib, «odob» (ko'plik shakli «adab») so'zidan olingan.

Adabiyotshunoslik – ikki qismdan iborat bo'lib, «adabiyot bilan shug'ullanish», «adabiyotni o'rganish» ma'nosini anglatadi. Bunda ayon bo'ladiki, adabiyotshunoslik adabiyot haqidagi fandir.

Filologiya – grekcha so'z bo'lib, philo – sevaman, logos – so'z, bilm demakdir.

Obraz – so'zning o'zagi «raz» (chiziq) bo'lib, undan «razit» (chizmoq, yo'nmoq, o'ymoq), undan «obrazit» (chizib, o'yib, yo'nib shakl yasamoq) paydo bo'lgan. Ana shu «obrazit» so'zidan «obraz» atamasi vujudga kelgan. Bu so'z «umuman olingan tasvir» ma'nosini bildiradi. Obraz ham umumlashgan, ham individuallashgan xususiyatni o'zida gavdalantirgan hodisadir.

Badiiylik – hodisalarni hayotiy, jonli manzaralarda, kishini ta'sirlantiradigan, unda tasavvur uyg'otadigan qilib tasvirlash. Badiiylik barcha san'at turlariga xos.

Badiiy to'qima – obrazning ichki-tashqi qiyofasi, maqsad-intilishlarini namoyon etuvchi voqealarni o'ylab topishdir.

Drama – asosiy xususiyati sahna ijrosiga mo'ljallanganligidir. Dramada biror hayotiy voqeа boshdan oyoq batafsil tasvirlanmaydi. Unda shaxs hayotining eng muhim nuqtalari aks ettiriladi.

Realistik obrazlar – xarakter-xususiyatlari, xatti-harakatlari hayotdagi kishilarga mos keladigan obrazlar.

Xarakter – o'z xatti-harakatlari, maqsad-intilishlari, o'y-kechinmalari, dunyoqarashi, fe'l-atvori bilan alohida ajralib turadigan to'laqonli obraz. Shuning uchun har qanday obraz badiiy xarakter bo'la olmaydi. Asardagi yetakchi qahramon har jihatdan faol bo'lib, o'zining barcha jihatlari bilan yorqin ko'rinish tur-sagina, badiiy xarakter bo'la oladi.

Personaj – badiiy asardagi barcha qahramonlar, jumladan, badiiy xarakter darajasiga ko'tarilmagan qahramonlar ham personaj hisoblanadi.

Shakl va mazmun – voqealarning tashqi ko'rinishini aks ettirish orqali ularning ichki mohiyatini gavdalantirish.

Mavzu – ijodkor tanlagan hayotiy voqealar, u yoritgan asosiy muammolarning umumlashmasi. Adabiy asar uchun asos qilib olingan fikr va maqsad uning mavzusidir.

G'oya – ijodkor maqsadini boshqarib, uning qarashlari, hodisa-ga yondashishlarini ma'lum bir izga solib turadigan ana shu hodisa.

Syujet – fransuzcha so'z bo'lib, «narsa, mazmun, mavzu» degan ma'noni bildiradi. Asar mazmunini tashkil etadigan qahramonlar o'rtasidagi aloqa, munosabatlar tizimi.

Portret – fransuzcha so'z bo'lib, «tasvir» degan ma'noni bildiradi. Badiiy asarda portret qahramon obrazini yaratishga asos bo'ladigan omillar orasida eng muhimidir. Chunki yozuvchi voqealarda ishtirok etayotgan, o'layotgan, qanaqadir maqsad-lari bo'lgan qahramon qiyofa, ko'rinishini albatta gavdalantiradi. Qahramon portreti uning suratini ko'rsatish uchungina emas, balki ruhiy dunyosidagi holat, o'zgarishlarni anglash, tushunish uchun ham zarur vosita bo'ladi.

Nasr – adabiy ijoddagi nutq tiplaridan biri sifatida o'z imkoniyat va vositalari shakli va tutgan o'rni jihatidan ajralib turadi. Badiiy nasrdagi yangilanishlar matnning izchil tahlili jarayonida ma'lum bo'ladi.

Poetika – janrlar va ularning shakllari bilan shug'ullanuvchi adabiyotshunoslikning ma'lum bir sohasiga nisbatan qo'llaniladi.

Detal – ijodkor e'tiborni qaratgan personajlar ko'rinishi, qiyofasi xususidagi mulohazalar ularning tashqi jihatlari haqidagina emas, ichki holatlari to'g'risida ham muayyan tasavvur olish imkonini beradi. Bu esa detallar asosida hosil bo'ladi. Detal qahramon portretini emas, uning fe'l-atvorini ko'rsatishda ham alohida ahamiyat kasb etadi. Detal qahramon xarakter-sajiyasini

yorqinlashtirgani singari, joy manzaralarini aniq gavdalantirishga ham asos bo'ladi.

Lirik chekinish – ijodkorning syujet voqealarini to'xtatib, ular tufayli o'zida paydo bo'lgan ichki kechinmalarni bayon etishi.

Peyzaj – fransuzcha so'z bo'lib, «mamlakat», «joy» degan ma'noni bildiradi. Peyzaj badiiy asarda aks ettirilgan tabiat manzaralari, voqeа-hodisalar kechgan joylar ko'rinishi tasviridir. U qahramonlar holati, kayfiyatini gavdalantirishning muayyan vositasi hisoblanadi.

Badiiy asar tili – adabiy til me'yorlariga tayanadigan, umum-xalq tiliga asoslangan, hamma uchun tushunarli ifodalarni qamrab olgan, ijodkorlar tomonidan jilolangan til. Badiiy asar tili ilmiy asarlar tilidan tasviriylik, emotsionallik, obrazlilik xususiyati bilan farqlanib turadi.

Dialog – yunoncha so'z bo'lib, «ikki kishi o'rtasidagi so'z-lashuv» degan ma'noni anglatadi.

Monolog – yunoncha (monos – bir va logos – so'z, nutq) so'z bo'lib, badiiy asarda ishtirok etuvchi personajlarning o'z-o'ziga yoki boshqalarga qaratilgan nutqi sanaladi.

Intonatsiya – lotincha so'z bo'lib, «qattiq talaffuz etish» degan ma'noni bildiradi. U so'zlovchining, asar muallifining hodisaga munosabatini anglatuvchi ifoda vositasi sanaladi. Badiiy asarda intonatsiyani turli tinish belgilari, misralarning joylashish tarzi bildirib turadi.

Parallelizm – ikki yoki undan ortiq narsa-hodisani yonmayon qo'yish orqali mazmunni yorqinlashtirish uslubi sanaladi. Unda narsa-hodisalar bir-biri bilan muqoyasa qilinadi yoki zidashtiriladi. Ushbu yo'l bilan fikr aniqlashtiriladi, uning ta'sirchanligi kuchaytiriladi.

Takror – parallelizmga yaqin tasvir usuli hisoblanadi. Matnda u aniq ko'rinish turadi. Chunki takror ayrim so'z-iboralar ning ma'lum bir tartib asosida qayta-qayta qo'llanishdir. Takror muayyan maqsadga muvofiq qo'llanadi. Takrorning anafora, epifora, misralar takrori singari ko'rinishlari bor.

TESTLAR

Adabiyotshunoslikning tarkibiy qismlarini belgilang.

- A. Adabiyot tarixi, adabiy tanqid, adabiyot nazariyasi
- B. Adabiyot nazariyasi, adabiy jarayon
- C. Mumtoz adabiyot, zamonaviy adabiyot
- D. Matnshunoslik, manbashunoslik

Badiiy adabiyotning turlarini aniqlang.

- | | |
|--------------------------|------------------------|
| A. Lirik, epik, dramatik | B. G'azal, qasida |
| D. Liro-epik, biografik | E. Tragediya, komediya |

Istiqlol davrida faol ijod qilayotgan shoirlarni aniqlang.

- A. B.Ro'zimuhammad, Faxriyor
- B. S.Zunnunova, Zulfiya
- C. Cho'lpon, Usmon Nosir
- E. Mirtemir, M.Shayxzoda

«Boqiy darbadar» asarining muallifi kim?

- | | |
|-------------|----------------|
| A. I.Sulton | B. Sh.Bo'tayev |
| D. U.Hamdam | E. E.A'zam |

Sh.Bo'tayev qalamiga mansub asarni aniqlang.

- A. «Muyulishdagi uy», «Shamol o'yini»
- B. «Qo'shchinor chiroqlari»
- C. «Javob», «Sarob»
- E. «Sinchalak»

Modern adabiyot namunalarini aniqlang.

- A. «Qora kun», «Kapalaklar o'yini»
- B. «Muqaddas», «Degrez o'g'li»
- C. «Ufq», «Chinor»
- E. «Sabo va Samandar», «Isyon va itoat»

Jahon adabiyotining qaysi mumtoz asarlari sahnnaviy taliqini tomoshabinlarga taqdim etildi?

- A. «Donishmand Natan» B. «Advokatlik osonmi?»
D. «Neksiya» E. «Qirmizi olma»

Turg'unlik yillarining mashaqqatlari yoritilgan asarni belgilang.

- A. «Otamdan qolgan dalalar» B. «Sarbadorlar»
D. «Ko'hna dunyo» E. «Munojot»

Erkin A'zamning asarlarini belgilang.

- A. «Otoyining tug'ilgan yili», «Shovqin»
B. «Dinozavr»
D. «Tilsim sultanati»
E. «Javob», «Dunyoning ishlari»

Shekspir asarlarini tarjima qilgan mutarjimni aniqlang.

- A. Jamol Kamol B. I.G'afurov
D. M.Mirzo E. S.Said

I.G'afurovning jahon adabiyotidan qilgan tarjimalarini belgilang.

- A. «Uliss», «Buzrukning kuzi» B. «Iliada»
D. «Odisseya» E. «Medeya»

Hozirgi o'zbek romanlarini aniqlang.

- A. «Ozod», «Shovqin»
B. «Tushda kechgan umrlar», «Jimjitlik»
D. «Avlodlar dovoni», «Ona lochin vidosi»
E. «Mezon», «Ko'hna dunyo»

Bolalar adabiyoti namoyandalarini aniqlang.

- A. A.Obidjon, T.Adashboyev
B. S.Ahmad, P.Qodirov
D. Sh.Turdimov, N.Karimov
E. I.Mirzo, M.Toir

«Yozning yolg‘iz yodgori» kimning asari?

- | | |
|---------------|-------------------------|
| A. X.Sultonov | B. Murod Muhammad Do'st |
| D. A.A'zam | E. E.A'zamov |

Abdulla Oripov ijodining o'ziga xos yangi qirrasini, yangi badiiy xususiyatini aks ettirgan ma'rifiy asarini ko'rsating.

- | | |
|--------------------|--------------------------|
| A. «Haj daftari» | B. «Ishonch ko'priklari» |
| D. «Yillar armoni» | E. «Yurtim shamoli» |

Sharof Boshbekovning «Temir xotin» asari xarakter xususiyatiga ko'ra qaysi janrga mansub?

- | | |
|------------------|--------------|
| A. Tragikomediya | B. Komediya |
| D. Drama | E. Tragediya |

Asarning nomi ham, bosh qahramon ismi ham ramziy ma'noda yozilgan qissa qaysi javobda ko'rsatilgan?

- | |
|-----------------------------|
| A. «Oromkursi» |
| B. «Maymun yetaklagan odam» |
| D. «Iste'fo» |
| E. «So'nggi o'q» |

«Qor qo'ynida lola» hikoyasining muallifi kim?

- | | |
|-------------|-----------|
| A. Cho'lpon | B. Fitrat |
| D. Elbek | E. Botu |

A.Oripovning asarini belgilang.

- | | |
|--------------------------|--------------------|
| A. «Birinchi muhabbatim» | B. «Oqpadar» |
| D. «Qora quyosh» | E. «Ibtido xatosi» |

«Olamni bulduruqqa bostirish»ni xayol qilib yurgan savodsiz Hotam Sho'ro qaysi asar qahramoni?

- | |
|-----------------------------|
| A. «Lolazor» |
| B. «Otamdan qolgan dalalar» |
| D. «Orom kursi» |
| E. «Iste'fo» |

Nazar Eshonqul hikoyalarini toping.

- A. «Maymun yetaklagan odam», «Xaroba shahar suvrat»
- B. «G'ulomgardish», «Quyun»
- D. «Chaqmoq izidan», «Tobut»
- E. «Oqpadar», «Qora quyosh»

80 – 90-yillar o'zbek dramaturgiyasi namunalari qaysi javobda qayd etilgan?

- A. A.Ibrohimov «Puch», T.To'la «Nodirabegim», Sh.Holmirzayev «Qora kamar»
- B. E.Vohidov «Ruhlar isyon», A.Oripov «Hakim va ajal»
- D. A.Oripov «Ranjkom», H.Muhammad «Xotinlar «gap»idan chiqqan hangoma»
- E. Hamid G'ulom «Bir million fojiasi», A.Qahhor «Tobutdan tovush»

Milliy va ma'naviy manqurtlik holati ifodalangan asar ...

- A. «Sho'rodan qolgan odamlar»
- B. «Suratdag'i ayol»
- D. «Qadimda bo'lgan ekan»
- E. «Oq bino oqshomlari»

«Otamdan xotira» asarining muallifi kim?

- | | |
|--------------|--------------|
| A. H.Qodiriy | B. M.Qodiriy |
| D. Cho'lpon | E. Elbek |

Badiiy asarda qahramonning o'ziga qaratilgan, ichida kechadigan, boshqalarga aytilmaydigan nutqi nima deyiladi?

- | | |
|------------------|-----------|
| A. Ichki monolog | B. Epilog |
| D. Pauza | E. Ta'dil |

Badiiy asarda muayyan mazmunni ifodalovchi, g'oyaviy-badiiy ahamiyatga ega narsa ...

- | | |
|--------------|--------------|
| A. Detal | B. Zarb |
| D. Inversiya | E. Leytmotiv |

«Avliyo» hikoyasining muallifi ...

- | | |
|-------------|-------------|
| A. I.Sulton | B. U.Hamdam |
| D. E.A'zam | E. O.Muxtor |

«Oltin devor» asari muallifi...

- | | |
|--------------|------------|
| A. E.Vohidov | B. Uyg'un |
| D. Shuhrat | E. E.A'zam |

Ra'noning otasi qo'llagan so'z...

- | | |
|----------|---------|
| A. Xabba | B. Pand |
| D. Radif | E. Sut |

Hozirgi kunda adabiy jamoatchilikda bahs-munozaraga sabab bo'lgan romanlarni aniqlang.

- A. «Ozod», «Shovqin»
- B. «Avlodlar dovoni», «Ona lochin vidosi»
- D. «Tushda kechgan umrlar», «Jimjitlik»
- E. «Mezon», «Ko'hna dunyo»

«Ozod» asarining muallifi...

- | | |
|----------------|-------------|
| A. I.Sulton | B. U.Hamdam |
| D. Sh.Bo'tayev | E. E.A'zam |

«Shovqin» asarining muallifi...

- | | |
|----------------|-------------|
| A. E.A'zam | B. U.Hamdam |
| D. Sh.Bo'tayev | E. I.Sulton |

«Paxta ishi» yoritilgan asarni belgilang.

- A. «Otamdan qolgan dalalar»
- B. «Sarbadorlar»
- D. «Munojot»
- E. «Ko'hna dunyo»

Nazar Eshonqulning modern asarini ko'rsating.

- | | |
|----------------------|---------------|
| A. «Tun panjaralari» | B. «Javob» |
| D. «Shovqin» | E. «Dinozavr» |

Hozirgi adabiy jarayon haqida muntazam ma'lumotlar beruvchi manbani ko'rsating.

- A. «O'zbekiston adabiyoti va san'ati» gazetasi
- B. «Xalq so'zi» gazetasi
- C. «Hordiq» gazetasi
- D. «Bir safda» jurnali

Asar qahramonlarining tashqi qiyofasi, ko'rinishi, kiyini-shi, libosi tasviri nima deb yuritiladi?

- | | |
|--------------------|-----------------|
| A. Portret | B. Kompozitsiya |
| D. Voqealar tuguni | E. Konflikt |

Qahramonlarning asar syujeti voqealari tamom bo'lgandan keyingi taqdiri haqida ma'lumot beruvchi qism nima deyiladi (Masalan, «O'tkan kunlar»dagi)?

- | | |
|-----------|--------------------|
| A. Xotima | B. Ekspozitsiya |
| D. Syujet | E. Voqealar tuguni |

Epik turga mansub janrlarni aniqlang.

- A. Hikoya, qissa, roman
- B. Qasida, musamman, chiston
- C. Masnaviy, g'azal, fard
- D. Drama, tragediya, komediya

«Obid ketmon» qissasining asosiy mazmuni...

- A. Qishloq xo'jaligini kollektivlashtirish
- B. Yakka xo'jalikni tashkil qilish
- C. Sanoat mavzusini yoritish
- E. Ilm-ma'rifat masalasi

«Otam haqida», «Qatlнома» asarlari qaysi yozuvchi xo-tirasiga bag'ishlangan?

- | | |
|--------------------|-------------------|
| A. Abdulla Qodiriy | B. Said Ahmad |
| D. G'afur G'ulom | E. Abdulla Qahhor |

Tarixiy asarlar berilgan javobni aniqlang.

- A. «Jayhun ustida bulutlar», «O'tror»
- B. «Hilola», «Sinchalak»
- D. «Qadrim», «Zavol»
- E. «Muhabbat», «Yangi yer»

Fantast yozuvchilarni aniqlang.

- A. Hojiakbar Shayxov, Tohir Malik
- B. Said Ahmad, O'tkir Hoshimov
- D. Abdulla Qahhor, Odil Yoqubov
- E. Samar Nurov, Poyon Ravshanov

Istiqlol davrida faol ijod qilayotgan romannavislardan kimlarni bilasiz?

- A. E.A'zamov, Sh.Bo'tayev, X.Do'stmuhammad
- B. T.Malik, P.Qodirov, Sh.Xolmirzayev
- D. S.Ahmad, A.Qahhor, M.Boboyev
- E. I.Rahim, N.Fozilov, A.Muxtor, A.Qahhor

Cho'qqi soqol qaysi asar qahramoni?

- | | |
|-------------------------------|----------------------|
| A. «Qora kitob» | B. «Tun panjaralari» |
| D. «Shamolni tutib bo'lmaydi» | E. «Urush odamlari» |

«Jajman» asarida qaysi illat qoralangan?

- | | |
|----------|------------|
| A. Nafs | B. G'iybat |
| D. Guman | E. Yolg'on |

«Mezon» asarida qaysi mumtoz dostonning yangi talqini beriladi?

- | | |
|-----------------------|-----------------------|
| A. «Layli va Majnun» | B. «Saddi Iskandariy» |
| D. «Farhod va Shirin» | E. «Sab'ayi sayyor» |

«Bonu» asarining muallifi kim?

- | | |
|------------|--------------|
| A. I.Mirzo | B. Cho'lpon |
| D. Elbek | E. G'ayratiy |

M.M.Do'st qaysi qishloq hayotidan qissalar bitgan?

- | | |
|-------------|------------|
| A. Galatepa | B. Uchtepa |
| D. To'ytepa | E. Beltepa |

«Qora kitob» asarida qaysi san'atlar sintezi kuzatiladi?

- | | |
|----------------------|--------------------------------|
| A. Musiqa, rassomlik | B. Haykaltaroshlik, naqqoshlik |
| D. Me'morlik, raqs | E. Raqs, musiqa |

Haybar shahri haqidagi ma'lumot qaysi asarda uchraydi?

- | | |
|---------------------|--------------|
| A. «Boqiy darbadar» | B. «Shovqin» |
| D. «Bozor» | E. «Lolazor» |

Kinoqissa yaratayotgan ijodkor...

- | | |
|---------------|-----------------|
| A. E.A'zam | B. N.Norqobilov |
| D. N.Eshonqul | E. Sh.Bo'tayev |

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Мирзиёев Ш. Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга курамиз. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017.
2. Каримов И. Адабиётга эътибор – маънавиятга, келажакка эътибор. – Тошкент: Ўзбекистон, 2009.
3. Норматов У. Ижод сеҳри. – Тошкент: Шарқ, 2007.
4. Норматов У. Танланган асарлар. – Тошкент: Шарқ, 2021.
5. Расулов А. Бадиийлик – безавол янгилик. – Тошкент: Шарқ, 2007.
5. Алимбеков А. Юлдузнинг беш қирраси. – Тошкент: Мухаррир, 2012.
6. Аъзам Э. Шовқин. – Тошкент: Ўзбекистон, 2011.
7. Жўракулов У. Ҳудудсиз жилва. – Тошкент: Фан, 2006.
8. Йўлдошев Қ. Ёниқ сўз. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2007.
9. Каримов Б. Руҳият алифбоси. – Тошкент: F.Fулом, 2016.
10. Расулов А. Бетакрор ўзлик. – Тошкент: Mumtoz so'z, 2009.
11. Расулов А. Услуб – истеъдод портрети. – Тошкент, 2013.
12. Раҳимжонов Н. Мустақиллик даври ўзбек шеърияти. – Тошкент: Фан, 2007.
13. Саримсоқов Б. Бадиийлик асослари ва мезонлари. – Тошкент, 2021.
14. Султон И. Озод. – Тошкент: Шарқ, 2012.
15. Улугов А. Қалб қандили. – Тошкент: Академнашр, 2013.
16. Дўстмуҳаммад Х. Ижод – кўнгил мунавварлиги. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2010.
17. Шарафиддинов О. Ижодни англаш баҳти. – Тошкент: Шарқ, 2004.
18. Ўзбек модерн шеърияти. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2003.

19. Куронов Д. Завқимдан бир шингил. – Тошкент, 2013.
20. Кўшжонов М. Ўзбекнинг ўзлиги. – Тошкент: Мерос, 1994.
21. Гафуров И. Ҳаё – халоскор. – Тошкент, 2006.
22. Ҳамдамов У. Янгиланиш эҳтиёжи. – Тошкент, 2002.
23. Ҳамдамов У. Бадиий тафаккур тадрижи. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2002.
24. Ҳаққулов И. Бадиий ижод иқлими. – Тошкент, 2010.
25. Rasulova U. Hozirgi adabiy jarayon: badiiy nashr poetikasida ritm. – Toshkent: Mumtoz so'z, 2014
26. Расулова У. XX аср ўзбек қиссачилиги (поэтический излагательный стиль в произведениях). – Тошкент, 2020.
27. Орипов А. Сайланма. Танланган асарлар. 1 – 4-жиллар. – Тошкент: Шарқ, 2000 – 2001.
28. Суюн А. Ўзлик. – Тошкент: Шарқ, 1999.
29. Рўзимуҳаммад Б. Кундуз сарҳадлари. – Тошкент: Мехнат, 1999.
30. Мирзо З. Нур куқунлари. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2004.
31. Куролбой З. Ёвузлик фариштаси. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2005.
32. Мирзо М. Сайланма. – Тошкент: Шарқ, 2004.
33. Муҳаммад Али. Абадий соғинчлар. – Тошкент: Адабиёт жамғармаси, 2005.
34. Норқобилов Н. Овул оралаган бўри. – Тошкент: Шарқ, 2005.
35. Норқобил Қ. Кулиб тур, азизим. Қиссалар. – Тошкент: Шарқ, 2004.
36. Матжон О. Халоскор рух. Бадиҳа қисса. – Тошкент: Ижод уйи, 2004.
37. Парфи Р. Сўнгги видо. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий кутубхонаси, 2006.

38. Сайид С. Қалдирғочларга бер айвонларингни. – Тошкент: Шарқ, 2005.
39. Тўраев Д. Давр ва ижод масъулияти. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2004.
40. Азим У. Жоду. Наср, драма. – Тошкент: Шарқ, 2003.
41. Азим У. Сўнгсўзлар. – Тошкент, 2001.
42. Ўзбек модерн шеърияти. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2003.
43. Фарида Афрӯз. Ушшоқ. – Тошкент: Шарқ, 2004.
44. Тўхтабоев X. Сариқ девни миниб. – Тошкент: Шарқ, 2000.
45. Худойбердиева X. Сайланма. – Тошкент: Шарқ, 2000.
46. Тўлабоев О. Миллий шуур шуъласи. – Тошкент, 2021.
47. Тўлабоева Р. Худойберди Тўхтабоев романларида бадиий психологизм. – Тошкент, 2019.
48. Холмирзаев Ш. Сайланма. 1-жилд. – Тошкент: Шарқ, 2003.
49. Холдоров Д. Ҳозирги ўзбек қиссаларида бадиий услугуб муаммоси. – Тошкент, 2020.
50. Раҳмон Ш. Сайланма. – Тошкент: Шарқ, 1997.
51. Jamoliddin Nur. Adabiyotdan ochiq darslar. T.2021
52. Шукур Э. Ҳамал айвони. – Тошкент: Шарқ, 2002.

МУНДАРИЖА

Kirish	4
Adabiyotga e'tibor – ma'naviyatga e'tibor	8
Modern adabiyot mohiyati	21
Hozirgi o'zbek she'riyati	40
Hozirgi nasr xususiyati	65
Hozirgi hikoyachilik xususiyati	83
Qissa janri xususiyati.....	95
O'zbek qissalarida poetik izlanishlar	103
Hozirgi o'zbek romanchiligi.....	117
Hozirgi dramaturgiya	135
Ijodkor uslubi masalasi	153
Xulosa	169
Joriy nazorat savollari	172
Oraliq nazorat savollari	173
Yakuniy nazorat savollari.....	174
Glossariy	177
Testlar	180
Foydalilanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	188

Ilmiy-ommabop nashr

Umida RASULLOVA

HOZIRGI ADABIY JARAYON

Muharrir: Abdulla SHAROPOV
Badiiy muharrir: Bahriiddin BOZOROV
Texnik muharrir: Dilshod NAZAROV
Sahifalovchi: Inomjon O'SAROV
Musahhih: Parvina G'AYBULLAYEVA
Muqova dizayneri: Asila UMAROVA



Terishga berildi: 02.02.2023-y.
Bosishgiga ruxsat etildi: 04.03.2023-y.
Ofset qog'ozni. Qog'oz bichimi: 60x84 $\frac{1}{16}$.
Ofset bosma. Hisob-nashriyot t.: 7,53. Shartli b.t.: 11,1.
Adadi: 100 nusxa.
Buyurtma № 19

«AKADEMNASHR» nashriyotida tayyorlandi va chop etildi.
Toshkent shahri So'galli ota ko'chasi 5-uy.

Tel.: (+99899) 433-16-77
e-mail: info@akademnashr.uz
web: www.akademnashr.uz

Umida Rasulova

HOZIRGI ADABIY JARAYON

ISBN 978-9943-8960-5-5



9 789943 896055